**Ergashev Shuhrat, Bobomatov To‘lqinjon**

# JAHON TARIXI

# 9-sinf

Birinchi nashr

Umumta’lim maktablarining 9-sinf o‘quvchilari uchun darslik

*O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan nashrga tavsiya etilgan*



Toshkent – 2024

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

**UO‘K:** 811.512.133(075.3)
**BBK** 81.2O‘zb-922
T-60

**Abduraimova D.A.**
**Jahon tarixi.** Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik./
Sh. Ergashev, T. Bobomatov – Toshkent: ..., 2024. – 180 b.

## Taqrizchilar:

T1 – Toshkent shahar

T2 – Toshkent shahar

# Shartli belgilar:


Siz bilib olasiz


Savol va topshiriqlar


Badiiy-tarixiy asar bilan ishlashga doir topshiriq


Yodda tuting


Mustaqil ish


İjodiy ish topshirig‘i


Atamalar mazmuni


Bu qiziq


Esga oling


Internet bilan ishlashga doir topshiriq


O‘zingizni sinang


Xarita bilan ishlashga bog‘liq topshiriq

Orginal maket va dizayn konsepsiyasi Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlandi.

**ISBN** 978-9943-9705-4-0

© Respublika ta’lim markazi, 2024

www.idum.uz saytidan yuklab olindi


# MUNDARIJA

Kirish.....

I BOB. YEVROPADA YANGI DAVRNING BOSHLANISHI.....7
1-mavzu. Buyuk geografik kashfiyotlar. Mustamlaka tizimining shakllanishi.....8
2-mavzu. G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida industrial jamiyat asoslarining yaratilishi.....12
3-mavzu. Gumanizm: G‘arbiy Yevropada Yangi davr madaniyati va fani.....16
4-mavzu. Yevropada Reformatsiya: Yangi davr qadriyatlarining shakllanishi.....20

II BOB. XVI–XVIII ASRLARDA YEVROPA VA AMERIKA MAMLAKATLARI.....25
5-mavzu. Angliyada qirol hokimiyatining kuchayishi. Absolyutizm.....26
6-mavzu. Buyuk Britaniya: imperiya quyoshining porlashi.....31
7-mavzu. “Davlat – bu men!”: Fransiyada mutlaq monarxiya.....36
8-mavzu. Fransiya burjua inqilobi.....40
9-mavzu. Germaniya imperiyasidagi siyosiy-iqtisodiy jarayonlar.....46
10-mavzu. Rossiya — Buyuk knyazlikdan imperiya sari.....51
11-mavzu. XVII–XVIII asrlarda Shimoliy Amerika: yangi davlatning vujudga kelishi.....57
12-mavzu. Lotin Amerikasi mustamlakachilik zulmi ostida.....63
13-mavzu. Ma’rifat asri: ilm-fan va madaniyat rivoji.....70

III BOB. XVI–XVIII ASRLARDA OSIYO VA AFRIKA MAMLAKATLARI.....77
14-mavzu. Osiyo va Afrika mamlakatlari: an’anaviy jamiyatlarda taraqqiyot muammolari.....78
15-mavzu. Xitoy: yuksalish va inqiroz orasida.....84
16-mavzu. Hindiston Boburiylar imperiyasi davrida.....88
17-mavzu. Yaponiya va Koreyada ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.....94
18-mavzu. Usmoniylar imperiyasi: yuksalish, inqiroz va islohot.....99
19-mavzu. Eron rivojlanish va qaramlik arafasida.....104
20-mavzu. Afrika: mustamlakachilikning boshlanishi.....108

IV BOB. 1800–1870-YILLARDA YEVROPA VA AMERIKA MAMLAKATLARI.....114
21-mavzu. Buyuk Britaniyaning yuksalishi.....115
22-mavzu. Fransiya inqilob va imperiyalar davrida.....120
23-mavzu. Germaniya va Italiyada mamlakatni birlashtirish uchun kurash.....126
24-mavzu. Rossiya: taraqqiyotning o‘zgacha yo‘li.....131
25-mavzu. 1800–1870-yillarda AQSH: fuqarolar urushi va keyingi taraqqiyot.....138

**V BOB. 1800–1870-YILLARDA OSIYO VA AFRIKA MAMLAKATLARI**.....144
26-mavzu. Yaponiya va Koreya: ma’rifatli boshqaruv va mustaqil taraqqiyot uchun kurash.....145
27-mavzu. Xitoy qo‘zg‘olon va urushlar davrida.....151
28-mavzu. Hindistonning Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylanishi.....157
29-mavzu. Usmoniylar imperiyasi inqiroz va islohotlar davrida.....162
30-mavzu. G‘arb mamlakatlarining Eron va Afg‘onistonni egallash uchun urinishlari.....168
31-mavzu. Afrika: qul savdosi va mustamlakachilikning kuchayishi.....174



## KIRISH

***Aziz o‘quvchi!*** Siz 8-sinfda O‘rta asrlar tarixini o‘rgandingiz. Bu davrda kishilar qishloq xo‘jaligiga tayangan iqtisodiyot va jamiyatda shakllangan an’analar asosida hayot kechirishni davom ettirdi. Shu sababli insoniyat tarixining bu davri “agrar sivilizatsiya” yoki “an’anaviy jamiyat” deb ataladi. Bu jamiyatda kishilar tabaqalarga bo‘linib yashaydi va qadimdan saqlanib kelayotgan an’anaviy urf-odatlar, diniy tasavvurlar bu sivilizatsiyaning xarakterli tomonlari hisoblanadi. Agrar sivilizatsiya insoniyat tarixida neolit davridan boshlanib, XVIII asrning 60-yillaridagi sanoat inqilobi va uning asosida yangi jamiyat shakllanguncha davom etdi.

Siz 9-sinfda insoniyat taraqqiyotining keyingi bosqichi — Yangi tarix voqealari bilan tanishishni boshlaysiz. Yangi tarix kishilarning tabiiy tengligi, shaxsning erkinligi va sha’ni kabi demokratik tushunchalarga asoslangan yangicha dunyoqarashning shakllanishi bilan O‘rta asrlardan farq qiladi. Yangi davrning eng xarakterli tomonlaridan biri, dunyoni yangicha tushunish asosida insonning tashabbuskorligi, tadbirkorligi uchun keng imkoniyatlar ochishda namoyon bo‘ldi.

XVI asrdan boshlangan bu o‘zgarishlar natijasida dastlab G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada shakllangan yangi jamiyatni “kapitalistik jamiyat” deb atay boshladilar. Bu jamiyatning nomi ***“kapital”*** so‘zidan olingan. Kapital — o‘z egasiga daromad keltiruvchi xususiy mulk (fabrika, zavod, kon, bank va boshqalar) va mablag‘, o‘zini o‘zi ko‘paytiruvchi sarmoya. Bu sarmoyaning asosida erkin tadbirkorlik faoliyati yotadi. Shu sababli kapitalistik jamiyatda xususiy mulk va yollanma mehnatdan foydalanuvchilarga keng imkoniyatlar yaratildi.

Natijada iqtisodiy hayot gurkirab o‘sdi, sanoat ishlab chiqarishi va savdo rivojlandi, kapitalistik munosabatlar vujudga keldi. Ishlab chiqarishning yangi shakllari paydo bo‘ldi, mehnat qurollari takomillashdi, sexlar o‘rnini manufakturalar egallay boshladi. Yevropaliklarning hayotida ko‘plab yangiliklar, ishchanlik, intiluvchanlik kabi yangi belgilar paydo bo‘ldi, ularning bir qismi Sharqdan kirib keldi.

Bundan tashqari, Yangi davr rivojlangan shahar madaniyati, antik davr tarixiga bo‘lgan katta qiziqish, uni ideallashtirish, badiiy san’atining tez hayotiylashuvi kabilar bilan ham xarakterlanadi. Aslida, ko‘pchilik hollarda fojiali oqibatlarga olib kelgan urushlar, qo‘zg‘olonlar va inqiloblar emas, kishilarning yaratuvchanlik faoliyati, doimiy izlanish va intilish ma’naviyat va madaniyatda, ijtimoiy hayotda va iqtisodiy o‘sishda katta ijobiy o‘zgarishlarga olib keldi. Shu o‘zgarishlar natijasida G‘arbiy Yevropaning ilg‘or mamlakatlarida kapitalistik jamiyat zamirida sanoatga asoslangan yangi sivilizatsiya shakllandi va u “industrial sivilizatsiya” deb ataldi.

Yevropada industrial sivilizatsiyaning jadal rivojlanishi Yangi tarixning asosiy mazmunini tashkil etadi. Aynan shu jadal rivojlanish tufayli Yevropa dunyoda yetakchi o‘rinni egalladi, keyin esa Yer yuzining katta qismini o‘ziga bo‘ysundirdi.

Yangi tarix XV asr oxiri — XVI asr boshlaridagi Buyuk geografik kashfiyotlardan boshlanadi hamda Birinchi jahon urushining yakuni — 1918-yilgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Yangi tarix, odatda, ikki bosqichga bo‘linadi. Uning birinchi bosqichi – Buyuk geografik kashfiyotlardan XVIII asrning oxiridagi Buyuk fransuz burjua inqilobigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Yangi tarixning ikkinchi bosqichi XIX asrning boshidan Birinchi jahon urushining yakuni — 1918-yilgacha davom etadi.

Yangi davrda yuz bergan burjua inqiloblari feodal tartiblarni buzib tashladi va ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi uchun keng yo‘l ochdi. Iqtisodning jadal rivojlanishi shu davrda amalga oshirilgan fan va texnika yutuqlariga asoslandi. Fan va texnika o‘rtasida uzviy aloqa shakllanib, bu aloqa natijasida XVIII asr oxiridan boshlab buyuk texnik ixtirolar amalga oshirildi. Bu ixtirolar ishlab chiqarishni rivojlantirishda juda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Yangi davrda o‘zgarishlar sur’ati rivojlanishning o‘tgan bosqichlariga nisbatan juda shiddatli kechib, fan va texnika sohasidagi kashfiyotlar ishlab chiqarishga jadallik bilan joriy qilinib bordi.

Shu tariqa, XVIII asr oxiri va XIX asrda fan va texnika sohalarida erishilgan juda ulkan yutuqlar sanoat inqilobiga olib keldi. O‘z navbatida, sanoat inqilobi agrar sivilizatsiyadan sanoat ishlab chiqarishi va industrial sivilizatsiyaga o‘tish uchun asos yaratdi. Bu davrda sanoatda yuz bergan jarayonlar natijasida mashinalar qo‘l mehnatini ishlab chiqarishdan siqib chiqardi, manufakturalar fabrikalarga o‘z o‘rnini bo‘shatib berdi.

Yangi davr Yevropa xalqlari tarixida ularning turmush tarzini, jamiyatning ma’naviy asoslarini bir necha bor o‘zgartirib yuborgan inqiloblar davri edi. Shuningdek, mustamlakachilik asoratiga tushgan Osiyo, Afrika va Amerika xalqlari tarixida Yangi davr mustaqillik va ozodlik uchun to‘xtovsiz kurashlar davri ham bo‘ldi. Bu — Yevropada millatlarning va mutlaq monarxiya ko‘rinishidagi milliy davlatlarning shakllanish davri edi. Yuz berayotgan har bir o‘zgarishda shakllanayotgan yangicha dunyoqarashning ta’siri sezilib turardi. Eng avvalo, butun O‘rta asrlarda hukmronlik qilib kelgan insonni aqliy, ma’naviy kamsitishga va jismoniy cheklashga asoslangan dunyoqarash o‘rniga yangi, gumanistik dunyoqarash shakllana boshladi. Bu dunyoqarash shakllanayotgan yangi, industrial sivilizatsiyaning ma’naviy asosi bo‘ldi.

Ammo Yangi davrda industrial sivilizatsiya shakllanishi uchun zarur bo‘lgan sharoit faqat Yevropa mamlakatlarida vujudga keldi. Osiyo, Afrika va Janubiy Amerikadagi ko‘pchilik mamlakatlar XIX asr boshlarida ham qoloq, agrar jamiyat darajasida qolayotgan edi.

***Yangi davrda yuz bergan juda katta o‘zgarishlar butun dunyo miqyosida ilg‘or ishlab chiqarish usullarining tarqalishiga, odamlar hayot tarzining keskin yaxshilanishiga, industrial sivilizatsiya qadriyatlarining qaror topishiga olib keldi. Yangi davr oxiriga kelib, dunyo xaritasi o‘zining asosiy jihatlari bilan zamonaviy ko‘rinishga ega bo‘ldi.***



# I BOB.
# YEVROPADA YANGI DAVRNING BOSHLANISHI





# 1-MAVZU. BUYUK GEOGRAFIK KASHFIYOTLAR. MUSTAMLAKA TIZIMINING SHAKLLANISHI

**Siz bilib olasiz:**
– geografik kashfiyotlarning boshlanishiga sabab bo‘lgan omillarni;
– yevropaliklar tomonidan amalga oshirilgan geografik kashfiyotlarni.

XV asrga kelib, dunyo sezilarli darajada o‘zgardi. Tadqiqotchilar e’tibori, an’anaviy ravishda, taraqqiyotda oldinga chiqib olgan G‘arb mamlakatlariga qaratildi, ammo, qayd etish lozimki, Yer yuzining hamma joyida — quruqlik va dengizda mislsiz o‘zgarishlar yuz berdi.

Eski dunyoning alohida chekka qismlari Hind okeani bilan bog‘langan edi. Yamanning bir necha asrdan beri ziravorlar savdosini nazorat qilib kelgan Adan shahri savdogarlarining ***karimiylar*** uyushmasi XV asrda inqirozga yuz tutdi.

**Esga oling:** O‘rta asrlarda insoniyat tomonidan kashf qilingan yangi yerlarni qanday bilasiz?

Mo‘g‘ullar imperiyasi tarqalib ketgandan so‘ng – quruqlik orqali savdo qiyinlashib qolgan davrda – dengiz savdosi juda katta foyda keltirar edi. Shu sababli karimiylar o‘rnini Hindistonning Gujorat shahridan bo‘lgan savdogarlar juda tezlik bilan egalladi. Ular Adan va Malakka orollari o‘rtasidagi hududda keng ko‘lamli savdo tarmog‘ini vujudga keltirdi. Adanda hind kemalariga fil suyagi, oltin va Afrikadagi Zanzibar hududi orqali keltirilgan afrikalik qullar, giyohvandlik moddalari, Levantning pushti rang suvi (mushkambar) va venetsiyaliklar olib kelgan mato yuklanardi. Keyin kemalar Hindistonning g‘arbidagi Kambey yoki Surat shaharlariga kelar, bu yerda yuklarning katta qismini qoldirib, Gujorat to‘quvchilari tomonidan tayyorlangan paxta matolarini yuklardi va Kalkutta yoki Seylon orqali Malakka orollariga suzib ketardi. U yerda tovarlarini malay yoki xitoy savdogarlariga o‘tkazib, ziravor hamda xitoy tovarlari — ipak mato va chinni yuklab ortga qaytardi.

**Xarita bilan ishlashga doir topshiriq:** **Levant** – O‘rtayer dengizi sharqiy hududlarining umumiy nomlanishi. Bu hududda qaysi mamlakatlar joylashganini aniqlang.

XV asr o‘rtalarida Yaponiyaning Okinava oroliga joylashib olgan xitoy savdogarlari o‘ziga xos tizim: Janub (Annam, Siam, Yava, Sumatra, Birma), Xitoy va Shimol (Yaponiya va Koreya)dan iborat “savdo uchburchagi”ni shakllantirdi. Savdo operatsiyalaridan keladigan foyda 1000 foizgacha yetardi. Bu Okinava uchun “oltin davr” bo‘ldi, bu yerda nafaqat qirg‘oq bo‘ylab suzadigan mahalliy kemalarni, balki xalqaro ekipajdan iborat xitoy, yapon va malaylarning “Jonka” kemalarini ham uchratish mumkin edi.

Portugaliyaliklar tomonidan 1419-yili Atlantika okeanidagi Madeyra orollari kashf etildi.

**Yevropaliklarning geografik kashfiyotlari.** Dunyoning barcha qismida katta o‘zgarishlar yuz berganiga qaramasdan, XV–XVII asrlarda yevropaliklar tomonidan



*1453-yilda Usmoniylar imperiyasi ziravorlar savdosining asosiy yo‘lini to‘sib qo‘ydi. Bu yevropaliklarni Hindistonga yangi dengiz yo‘llarini izlashga majbur qildi.*

yangi savdo yo‘llarining ochilishi tarixda ***Buyuk geografik kashfiyotlar*** nomini oldi. Zotan, aynan yevropaliklar tomonidan yangi savdo yo‘llarining ochilishi, kashf etilgan yerlarning o‘zlashtirilishi va u yerlardagi boyliklarning talanishi kapitalning dastlabki jamg‘arilishi jarayonini tezlashtirdi, mustamlaka tizimining shakllanishini boshlab berdi, jahon bozorining tarkib topishiga, Yevropada savdo kapitalining, bank ishi va kreditning rivojlanishiga olib keldi. Qit’alar o‘rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojlandi, jahon savdosi O‘rtayer dengizi (ayrim manbalarda O‘rta dengiz)dan Atlantika okea niga ko‘chdi.

**Yodda tuting:** Dengizchilarning kashfiyotlari, dengizlarning oqimlari, shamolning yo‘nalishi to‘g‘risidagi bilimlar — kartografiyani; kompas, usturlob kabi asboblar — kemalarni boshqarish san’atini rivojlantirdi va ochiq dengizdagi holatni aniqroq belgilash imkoniyatini berdi.

Yevropaliklar Osiyoga O‘rtayer dengizi orqali o‘tadigan savdo yo‘llari, quruqlikdan o‘tuvchi karvon yo‘llari, jumladan, Buyuk Ipak yo‘li 1453-yili Konstantinopolni zabt etgan turklar tomonidan yopib qo‘yildi. Natijada Yevropa Sharqdan keladigan tovarlardan ajralib qoldi. Matolar, qand, bo‘yoqlar, murch, zanjabil, gullar va ziravorlar Yevropa bozorlariga qariyb kelmay qo‘ydi. Bu hol yevropaliklarni boy Sharq mamlakatlariga yangi yo‘llarni izlashga majbur qildi.

Shunday sharoitda 1492-yil 3-avgust kuni uchta kemada **Kolumb** ekspeditsi-yasi yo‘lga chiqdi. Ekspeditsiya boshlanganidan 70 kun o‘tib, 1492-yil 12-oktyabr kuni karavellalar yetib borgan orolni Kolumb “San Salvador” — “Muqaddas Xaloskor” deb atadi. Keyin Gaiti va Kuba orollari kashf qilindi. Dengizchining bu Hindiston ekanligiga ishonchi komil edi va shuning uchun yangi ochilgan yerlarning aholisini “hindular” deb atay boshladi.

Kolumb 1493–1504-yillar oralig‘ida yana uchta ekspeditsiya uyushtirib, Kichik Antil orollari, Puerto Riko oroli, Yamayka, Trinidad va Markaziy Amerika hamda Janubiy Amerikaning shimoliy qirg‘oqlarini kashf etdi.

Hindistonga eltuvchi dengiz yo‘lini esa portugaliyaliklar kashf etishdi. Portugaliyalik **Vasko da Gama** ekspeditsiyasi Ezgu umid burnini aylanib o‘tib, Hind okeaniga chiqdi. 1498-yili arab dengizchisi Ahmad ibn Majid ko‘magida ular Hindistonning Kalikutta portiga yetib keldilar. Yevropada sotish uchun ko‘plab mollarni yuklagan ekspeditsiya 1499-yili Portugaliyaga qaytib keldi. Qariyb ikki yil davom etgan sayohat nihoyatda og‘ir kechdi. Yo‘lda ekipaj a’zolarining 2/3 qismi halok bo‘ldi. Lekin Vasko da Gama ekspeditsiyasining muvaffaqiyati Yevropaga katta ta’sir ko‘rsatdi. Yevropa savdogarlari Sharqqa qarab otlandilar. Portugaliyaliklar Hindiston bilan savdo qiluvchi arablarni bu yerdan siqib chiqarishdi. Lissabonga ziravorlar va shirinliklar olib kelgan savdogarlar 800 foizgacha foyda olardilar.



*Xristofor Kolumb ekspeditsiyasi*

**Yodda tuting:** Kolumb karavellalarining nomlari: “Santa-Mariya”, “Pinta” va “Ninya”.

**Yodda tuting:** Internet materiallaridan foydalanib Kolumb ekspeditsiyasi suzib o‘tgan yo‘l bilan tanishing.



*Xristofor Kolumb*

Hindiston bilan savdoni monopoliya qilib olgan portugaliyaliklar bu boy mamlakatga g‘arbiy yo‘lni izlashda davom etdilar. XV asr oxiri — XVI asr boshlarida florensiyalik dengizchi va astronom **Amerigo Vespuchchi** portugaliyaliklar ekspeditsiyasi tarkibida Braziliya qirg‘oqlarini tadqiq etdi va Kolumb ochgan yerlar Hindiston emas, balki yangi materik degan xulosaga keldi. Endilikda yangi materik **“Amerika”** deb atala boshlandi.

1519-yil 20-sentyabrda portugaliyalik dengizchi **Fernando Magellan** boshchiligidagi ekspeditsiya Ispaniya qirolining bayrog‘i ostida yo‘lga chiqib, Amerika qit’asi bilan Olovli Yer orasidagi bo‘g‘ozni aylanib o‘tib (keyinchalik u “Magellan bo‘g‘ozi” deb ataldi), notanish ulkan okeanga chiqdi. Magellan bu okeanda suzgan uch oy davomida ob-havo qulay kelib, biron marta ham bo‘ron turmadi va unga “Tinch” deb nom berdi. Ekipaj a’zolarining ko‘pchiligi suvsizlik, ochlik va kasallikdan vafot etdi. Magellan 1521-yil 6-mart kuni Mariana, so‘ng Filippin orollariga yetib keldi va shu yerda mahalliy aholi bilan bo‘lgan jangda halok bo‘ldi.


Ekspeditsiyaning qolgan a’zolari ziravorlar yuklab olingan kemalarida suzishni davom ettirib, 1522-yil 6-sentyabr kuni Ispaniyaga yetib keladi. Magellanning 253 dengizchisidan faqat 18 kishi omon qolgan edi. Ammo endi Yer dumaloq ekanligi amalda isbotlandi. Lekin yana uzoq vaqt Magellan sayohatini qaytarishga hech kim jur’at qilmadi va Tinch okeani orqali Osiyo qirg‘oqlariga ochilgan yo‘l amaliy ahamiyatga ega bo‘lmadi.

Ayni paytda Amerikani o‘zlashtirish davom etdi. 1500–1501-yillari ispan ekspeditsiyalari Janubiy Amerika qirg‘oqlari, Meksika ko‘rfazi, Karib dengizidagi mayda orollarni egallagan edilar.

1510-yildan boshlab Amerikaning ichki hududlarini o‘zlashtirishga kirishildi va dastlabki qo‘rg‘onlar qurilishi boshlandi. XVII asr o‘rtalarigacha davom etgan bu jarayon **“konkista”** (“bosib olish”) deb nomlanadi. 1519-yili Amerika qit’asida yevropaliklar qurgan **birinchi shahar – Panamaga** asos solindi.

Dastlab konkistadorlar oldingi davrlarda yig‘ilgan qimmatbaho metallarni qo‘lga kiritish bilan shug‘ullangan bo‘lsa, XVI asrning 30-yillaridan boshlab boy ruda konlarini muntazam ekspluatatsiya qilish boshlanadi. Peru, Boliviya va Chili hududida topilgan oltin va kumush konlari, Perudagi mis konlari XVI asr o‘rtalariga kelib, dunyoda qazib olinayotgan qimmatbaho metallning yarmini bera boshladi.

Mustamlaka sharoitida hindu qabilalarining yo‘qolib ketishi yuz berdi.






**Yodda tuting:** Yevropalik va hindularning nikohidan tug‘ilgan farzandlar – **“metis”**, XVII asr o‘rtalaridan boshlab yevropaliklar va qora tanlilarning nikohidan tug‘ilgan farzandlar – **“mulatlar”** deb ataladi.

**Tinch okeani havzasidagi geografik kashfiyotlar.** XVI asrning ikkinchi yarmi — XVII asr boshlarida ispan dengizchilari Tinch okeani havzasida Solomon orollari, Janubiy Polineziya va Melaneziyani kashf etishadi. 1605-yili **Luis Torres** janubda yangi qit'a — Avstraliyani kashf etdi.

Torres bilan deyarli bir paytda, 1606-yili gollandiyalik **Villem Yanszon** ekspeditsiyasi birinchi bo'lib Avstraliya qirg'oqlariga suzib keladi. 1642-yili **Abel Tasman** Avstraliyani janubdan aylanib o'tib, uning alohida qit'a ekanligini isbotlaydi va Yangi Zelandiyani kashf etadi.


***Shunday qilib, XV–XVII asrlardagi geografik kashfiyotlar dunyo taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Asosiy savdo yo'llari O'rtayer dengizidan Atlantika okeaniga ko'chdi va bu savdoning xarakterini tubdan o'zgartirdi. Yangi yerlarning ochilishi va mustamlakalarga aylantirilishining muhim natijalaridan biri "narx-navo inqilobi" bo'lib, u Yevropada dastlabki kapitalning jamg'arilishiga katta turtki bo'ldi, kapitalistik xo'jalikning shakllanishini tezlashtirdi va industrial sivilizatsiyaga asos yaratdi.***

**Atamalar mazmuni:**
***Karavella*** – Yevropada XV–XVII asrlarda keng tarqalgan yelkanli kema turi.
***Ekspeditsiya*** – maxsus belgilangan maqsad bilan uyushtiriladigan sayohat.
***Industrial sivilizatsiya*** – sanoat, fan va texnikaning taraqqiyotiga asoslangan jamiyat.

**Savol va topshiriqlar**

1. Yozuvsiz xarita, matn va internetdan foydalanib osiyolik savdogarlarning dengizdagi yo'nalishlari va savdo shaharlarini belgilang.
2. Mustamlaka boyliklarining talanishi — kapitalning dastlabki jamg'arilishi — mustamlaka tizimining shakllanishi — jahon bozorining tarkib topishi — Yevropada savdo kapitalining, bank ishi va kreditning rivojlanishi "zanjiri" asosida nutq tayyorlang va misollar orqali tushuncha bering.
3. Hindistonga g'arbdan yo'l ochish nima uchun zaruratga aylanib qoldi?
4. Amerikaning kashf etilishi yevropaliklar hayotida qanday o'zgarishlarga olib keldi?
5. Buyuk geografik kashfiyotlar Amerikaning tub aholisi taqdirida qanday rol o'ynadi?
6. Tinch okeani havzasida geografik kashfiyotlarni amalga oshirgan dengizchilarning yo'nalishlarini xaritadan o'rganing.

**Xarita bilan ishlashga doir topshiriq:**
Matnda keltirilgan xarita bilan tanishing va Buyuk geografik kashfiyotlarni amalga oshirgan davlatlarni o'zlashtirilgan yoki "yangi ochilgan" hududlar bilan muvofiqlashtiring.




**Badiiy-tarixiy asar bilan ishlashga doir topshiriq:**
*n.ziyouz.com* saytidan Jyul Vernning "O'n besh yoshli kapitan", "Yer markaziga sayohat" asarlarini yuklab oling va o'qing. Mustaqil ravishda "Dengiz sayohatining afzalliklari shundaki, ..." mazmunida esse yozing.

# 2-MAVZU. G‘ARBIY YEVROPA MAMLAKATLARIDA INDUSTRIAL JAMIYAT ASOSLARINING YARATILISHI

**Siz bilib olasiz:**
– yangicha iqtisodning shakllanishini;
– kapitalistik munosabatlarning paydo bo‘lishini;
– yangi jamiyat kishilari haqida;
– Yangi davrdagi Yevropa shaharlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayotini.


**Yodda tuting:**
**Narxlar inqilobi** – bu universal ekvivalent – pul bo‘lib xizmat qiladigan qimmatbaho metallar qiymatining pasayishi tufayli tovarlar narxining sezilarli darajada oshish jarayoni.

**Yangicha iqtisodning shakllanishi.** Buyuk geografik kashfiyotlardan so‘ng Amerikadan ko‘plab oltin, kumush va boshqa qimmatbaho metallar Yevropa bozorlariga keltirildi. Qirollar mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotga nisbatan ancha ko‘p oltin va kumush tangalar zarb qildi. Pul ko‘paygan sharoitda hunarmandlar va savdogarlar kasodga uchramaslik uchun o‘z tovarlarining narxini oshirishga majbur bo‘ldi. Shu tariqa yuz yillar davomida o‘zgarmasdan kelgan narx-navo shiddat bilan o‘sa boshladi. Bu jarayon **“narx-navo inqilobi”** deb ataldi. Yevropa mamlakatlarida odamlar yashash uchun pul topishning yangi yo‘llarini izlashga tushdi. Ko‘plab oilalar endi ilgarigidek natural xo‘jalik yurita olmasdan, mahsulotning bir qismini bozorda sotishga majbur bo‘ldi. Natijada Yevropada **tovar ishlab chiqaruvchi xo‘jaliklar**, ya’ni bozorda sotishga mo‘ljallangan mahsulot ishlab chiqaruvchi xo‘jaliklar soni ko‘payib bordi.

**Kapitalistik munosabatlarning paydo bo‘lishi.** Bozor munosabatlari jadal rivojlanayotgan Angliya, Gollandiya va Fransiya kabi mamlakatlarda savdogarlar ulgurji savdoga katta ehtiyoj seza boshladi. Ular endi vaqti-vaqti bilan o‘tkaziladigan yarmarkalarga mahsulot olib borish o‘rniga, yirik shaharlarda tashkil qilingan va “birja” deb atalgan maxsus joylarda o‘z mahsulotlarini e’lon qila boshladi. Shu yerda xaridorlar bilan oldi-sotdi shartnomasi tuzilib, mahsulot kelishilgan joyga jo‘natilar edi.

Birjalar bilan bir qatorda, zamonaviy banklarning paydo bo‘lishi ham Yangi davr sivilizatsiyasining buyuk yutug‘i bo‘ldi. O‘rta asrlarda banklar rolini pul maydalaydigan sarroflik do‘konlari bajarar edi. XV asrda zamonaviy ko‘rinishdagi **ilk bank — Genuyadagi Avliyo Georgiy** banki paydo bo‘ldi. Keyin G‘arbiy Yevropaning boshqa mamlakatlarida ham savdogarlarga xizmat ko‘rsatuvchi shunday banklar vujudga keldi. Birja va banklar Yevropada savdo va sanoatning rivojlanishida juda katta rol o‘ynadi.

Xavf-xatar katta bo‘lgan uzoq masofalar bilan savdo qilish uchun savdogarlar **aksionerlik kompaniyalariga** birlasha boshladi. Ular kompaniyaning umumiy



*Industrial jamiyat yaratilishi*


*Industrial jamiyat yaratilishi*

xarajatlari uchun mablag‘ qo‘shib, foydadan o‘z ulushini olish huquqini beruvchi qimmatbaho qog‘oz — **aksiyaga** ega bo‘lardi.

Bozorlarda mahsulotning ko‘payishi natijasida uni ishlab chiqaruvchi va sotuvchilar o‘rtasida **raqobat** paydo bo‘ldi. Raqobatda mag‘lub bo‘lib, kasodga uchramaslik uchun mahsulotni tez, sifatli va arzon ishlab chiqarish talab qilinardi. Shu sababli Yevropada mahsulot ishlab chiqarish texnika va texnologiyasi jadal rivojlandi, yangi ixtirolar ko‘paydi, mahsulot narxi arzonlashib, odamlarning yashash darajasi yaxshilanib bordi.

Dehqonlar O‘rta asrlardagi **uch dalali** ekishdan **ko‘p dalali** ekishga o‘tdi. Natijada qishloq xo‘jalik mahsulotlarining hosildorligi oshib, sotish uchun mahsulot ko‘paydi. Bug‘doyni yanchish, shaxtadan suv chiqarish uchun **suv charxpalagi** va **shamol tegirmonidan** keng foydalanish boshlandi. Tokarlik, to‘quvchilik uskunalari va boshqa eng oddiy dastgohlar yaratildi.

G‘arbiy Yevropada savdo va texnikaning rivojlanishi natijasida faqat yer yoki pul emas, balki boylik keltirishi mumkin bo‘lgan barcha mulk: uy, mehnat qurollari, mexanizmlar, ixtirolar ham qadrlanadigan bo‘ldi. Bu asosiy boyliklar umumiy nom bilan **“kapital”** deb ataldi. Hamma o‘z kapitalini ko‘paytirishga kirishdi. Masalan, shahardagi eng boy to‘quvchi yoki savdogar turli yo‘llar bilan hunarmand to‘quvchilarni kasodga uchratadi. Shundan so‘ng ularning iplarini, bo‘yoqlarini, to‘quv dastgohlarini arzonga sotib olib, o‘zini ishga taklif qiladi. Bitta katta bino ostida ko‘plab hunarmandlar yig‘ilib, ularning har biri bitta ish, masalan, kimdir matoni to‘qish, boshqasi uni bo‘yash kabi ishlar bilan shug‘ullanadi. Bu mehnat unumdorligini keskin oshirib, mahsulot sifatini yaxshilaydi. Bunday katta korxonalar **“manufaktura”** deb ataladi.

Manufakturada ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotning hammasi uning egasiga tegishli bo‘lardi. U mahsulotni bozorda sotib, foydaning bir qismini yollanma ishchilarga ish haqi tarzida berardi. Shu tariqa G‘arbiy Yevropada **kapitalistik munosabatlar** shakllana boshladi. Kapitalistik munosabatlarning shakllanishi bozor sharoitida mayda tovar ishlab chiqarish rivojlanishining qonuniy natijasi bo‘ldi. U asta-sekin O‘rta asrlarda shakllangan feodal munosabatlarni siqib chiqardi.


*G‘arbiy Yevropada tadbirkorlik*



**Yodda tuting:**
Kapitalizm rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ikkita eng muhim shart:
1) kapital to‘plash imkoniyatining paydo bo‘lishi;
2) erkin ishchi kuchining mavjudligi.

**Atamalar mazmuni:**
***Birja*** – bu qimmatli qog‘ozlar, tovarlar, xomashyo, qimmatbaho metallar va valutalar kabi turli aktivlarni sotish va sotib olish mumkin bo‘lgan savdo maydonchasi.
***Bank*** (*ital. “banco” – “kursi”*) – sarroflar almashish uchun tangalarni terib qo‘yadigan stol.
***Kapital*** (*lot. “capitalis” — “hukmron”*) – tom ma’noda, real qiymatga ega bo‘lgan va foyda keltiradigan hamma narsa.
***Manufaktura*** (*lot. “manus” – “qo‘l”, ”factura” – “tayyorlash”*) – mehnat taqsimoti va qo‘l hunari texnikasiga asoslangan korxona.
***Kapitalist*** – burjua jamiyatidagi hukmron sinf vakili, kapital egasi, yollanma mehnatdan ekspluatatsiya qiluvchi.
***Proletariat*** (*lot. “proletarius” – “kambag‘al”*) – faqat o‘z mehnatini sotish, yollanma mehnat evaziga tirikchilik qiladigan, hech qanday kapitalning foydasi hisobiga yashamaydigan ijtimoiy sinf.


**Yangi jamiyat kishilari.** Kapitalistik munosabatlar jadal rivojlangan G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida kishilarning yangi turi — **tadbirkor** paydo bo‘ldi. Tadbirkor kim edi? Tadbirkor o‘z shaxsiy muvaffaqiyatiga erishish uchun har qanday ishga, tadbirga tayyor bo‘lgan omilkor shaxs edi. Eski gildiyadan chiqib, aksionerlik kompaniyasiga a’zo bo‘lgan savdogar, o‘z sexini tark etib, manufakturaga kirgan hunarmand, qishloq jamoasi tarkibidan chiqqan va yerni feodaldan ijaraga olib, fermerga aylangan kechagi dehqon tadbirkor bo‘lishi mumkin edi. Bu tadbirkorlarning barchasi yollanma mehnatdan foydalanardi, bozorda raqobatchilik qilardi va kapital yig‘ardi. Shu tariqa jamiyatning yangi qatlami — **kapitalist (burjua)** paydo bo‘ldi.

Boyib ketgan kapitalistlar eski zodagonlardek kiyinib, o‘zlariga hashamatli uylar qura boshladi. Ular o‘zlari yashaydigan hududlarni toza va obod qildi, natijada O‘rta asrlardagi vabo, o‘lat kabi yuqumli kasalliklar chekinib, aholi tez ko‘paydi. Boyib ketgan yangi tadbirkorlar eski zodagonlar va ritsarlar bilan quda-andachilik qilib, o‘zlariga yuqori martaba va unvonlar sotib oldi. Bu qatlam **“yangi zodagonlar”** deb ataldi. Ular ruhan tadbirkorlikka yaqinligi bilan eski zodagonlardan farq qilardi. Ammo yangicha turmushda hamma ham o‘z o‘rnini topa olmadi. Nogironlar va yetimlarning ahvoli avvalgidan ham og‘irlashdi. Tez orada minglab ishsizlar ham ular safiga kelib qo‘shildi. Ularning bir qismi manufakturalar va fermerlar yerlariga ishga jalb qilindi. Shu tariqa yangi jamiyatda yollanib ishlaydigan va keyinchalik **“proletariat”** deb atalgan yangi bir qatlam — **ishchilar** paydo bo‘ldi.

Xo‘jalik yuritishning yangi shakli va yangicha hayot tarzi turli tabaqa vakillarini bir-biriga yaqinlashtirdi. Endi ular bir-biridan ilgarigidek huquq va majburiyatlari bilan emas, kapitalining bor yoki yo‘qligi, daromad darajasi bilan farq qilardi. Kishilar bir-biridan kapitalning mavjudligi va daromad darajasiga qarab farqlanadigan jamiyat — bu **“sinfiy jamiyat”** deb ataladi.

Yer mulkidan, uyi va mehnat qurollaridan mahrum bo‘lgan, o‘z xohishi bilan kapitalistga ishga yollanuvchi va mehnati uchun ish haqi oluvchi kishilar yollanma ishchilar proletariat sinfiga birlashdi. Shu tariqa G‘arbiy Yevropada jamiyatning tabaqaviy bo‘linishi tugatilib, yangi, sinfiy bo‘linish shakllandi va zamonaviy sivilizatsiyaning asosiy jihatlari qaror topib bordi.

**Yangi davrda Yevropa shaharlari.** Shaharlarning rivojlanishi har doim ularning geografik joylashuviga bog‘liq bo‘lgan. Yevropaliklar tomonidan Hindiston va Amerikaga dengiz yo‘llarining ochilishi muhim savdo yo‘llarining yo‘nalishini o‘zgartirib, bir qator shaharlarning jadal rivojlanishiga olib keldi. Dastlab Portugaliyaning Lissabon va Ispaniyaning Sevilya shaharlari jadal rivojlandi. Bu shaharlarga Hindistondan



*G‘arbiy Yevropada tadbirkorlik*

tovarlar, Amerikadan ko‘plab qimmatbaho metallar keltirilar edi. Yangi savdo yo‘llaridan chetda qolgan Italiya shaharlari, aksincha, o‘zlarining avvalgi ahamiyatini yo‘qotdi.

XVI asrning ikkinchi yarmidan Yevropaning savdo chorrahalari Shimoliy dengiz qirg‘oqlariga ko‘chdi. Bu yerda asosiy savdo markazi Gollandiyaning **Antverpen** shahri bo‘lib qoldi. Ammo Antverpen ham tezda o‘z mavqeyini yo‘qotdi. Angliyaning jadal iqtisodiy taraqqiyoti uning poytaxti **London** shahrini Yevropaning asosiy savdo markaziga aylantirdi. Temza daryosi bo‘yida joylashgan London juda tez rivojlandi, shaharda yangi portlar, ishchilar uchun ko‘p qavatli uylar, savdo rastalari va istirohat bog‘lari paydo bo‘ldi.

O‘rta asrlardayoq Yevropaning eng yirik shahriga aylangan **Parij** ham rivojlanishda davom etdi. U G‘arbiy Yevropadagi markazlashgan eng katta davlat — Fransiyaning poytaxtiga aylandi. Ammo XVI asrdagi diniy urushlar va vabo epidemiyasida o‘n minglab parijliklar vafot etdi, shaharning rivojlanishi sekinlashdi.

***Bu davrda fan, texnika va sanoatning rivojlanishi G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasini o‘zgartirib yubordi. Yangicha iqtisod va kapitalistik munosabatlar shakllandi. Yangi jamiyatning asosiy sinflari — kapitalist va proletariat paydo bo‘ldi. Asosiy qadriyati inson erkinligi va tengligi bo‘lgan yangi, industrial sivilizatsiyaning asoslari qaror topib bordi.***

**Ijodiy ish topshirig‘i:** g‘arbiy yevropaliklar nomidan XVII—XVIII asrlardagi o‘zgarishlar haqida hikoya tuzing: a) dehqon nomidan; b) yollanma ishchi nomidan; d) manufaktura egasi nomidan (bitta namoyandani tanlagan holda). Hikoyada bu o‘zgarishlarning sabablarini tushuntiring.

**Savol va topshiriqlar**

1. Daftaringizda “XVI–XVII asrlarda savdoning rivojlanishi” mavzusida reja tuzing (bu davrni oldingi davrdan farqlaydigan yangiliklarni yozishni unutmang).
2. Yirik savdo kompaniyalari, banklar va birjalarning paydo bo‘lishi savdoning rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
3. Manufaktura va hunarmand ustaxonasini qiyoslang. Ularning farqi nimada?
4. Nima uchun manufakturaning vujudga kelishi kapitalizmning paydo bo‘lishi hisoblanadi?

***Bu qiziq:***

*Birjada ko‘p miqdordagi tovar va pul bilan shartnomalar tuzilardi, tovarlar esa faqat namunalarda taqdim etilardi, pul o‘rniga esa qimmatli qog‘ozlar – tilxatlar berilishi mumkin edi. Masalan, baliqlar – ovlanmasdan, bug‘doy – hosil yig‘ilmasdan oldin sotilar edi. XVI asrda Amsterdam birjasida Gollandiyaga olib kelingan lola piyozlari (ildizlari) savdosida ham hali ochilmagan gullar sotila boshlanadi. Bitta lola piyoziga odamlar o‘z kvartirasi yoki restoranini berib yuborishardi. Oxir-oqibat tarixda “lola talvasasi” nomi bilan tanilgan bu hodisa Niderlandlar davlatining iqtisodini inqirozga uchratadi.*

*Oltin – bu barkamollik. Oltin xazinalar yaratadi va unga ega kishi xohlagan narsasini qila oladi va hatto inson qalbini jannatga olib kirishga qodir.*

*X. Kolumbning Ispaniya qiroli Fernando va qirolicha Izabellaga yozgan maktubidan*

# 3-MAVZU. GUMANIZM: G‘ARBIY YEVROPADA YANGI DAVR MADANIYATI VA FANI

**Siz bilib olasiz:**
– Uyg‘onish davri madaniyatining yuksak va so‘nggi bosqichlarini;
– gumanizmni;
– adabiyot va san’atni;
– haykaltaroshlikni;
– fanning rivojlanishini.

**Esga oling:**
Antik davr (*lot. “antiquitas” – “qadimgi”*) – bu atama qadimgi yunon-rim davri – Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rim sivilizatsiyalarini anglatadi.

**Uyg‘onish davri madaniyati.** Yangi davr boshlarida Yevropaning ko‘pgina mamlakatlari misli ko‘rilmagan madaniy yuksalishni boshdan kechirdi. Fan taraqqiyotidagi yutuqlar kishilarning olam haqidagi tasavvurlarini o‘zgartirib yubordi, madaniy aloqalarni kengaytirishga imkon beradigan yangi ufqlar ochildi. Fan va san’atda ulkan o‘zgarishlar yuz berdi. Olimlar, ijodkorlar ideal va namuna izlab Antik davr madaniyatiga murojaat qildilar.

Ilgari fan va adabiyot tili bo‘lgan lotin tili o‘rniga italyan, ispan, fransuz kabi xalqlarning tillari rivojlandi. XVI asrda yashagan fransuz shoiri bu jarayonni o‘z she’rida shunday ifoda etadi:

*Men o‘tmishni o‘rganib, o‘zligimga yo‘l topdim,*
*Nutqim bo‘ldi tartibli, so‘zlarim ko‘p ma’nolik.*
*Men she’riyatda tartib, musiqada zavq topdim,*
*Rimlik va yunon kabi fransuz bo‘ldi buyuk.*



***Tomas Mor***

**Gumanizm.** Uyg‘onish davrida insonga nisbatan buyuk burilish yuz berdi. Odamlar hayotning quvonchlarini qadrlashga o‘rgandi, tabiatga, jamiyatga, insonga yangicha qaraydigan bo‘ldilar”. O‘rab turgan olamga ilohiy emas, dunyoviy, insoniy qarash tarafdorlari **“gumanist”** (“*humanus*” — insoniy) deb ataldi. Gumanistlar inson haqidagi O‘rta asrchilik tasavvurlarini rad etdi, ular har bir shaxsning noyobligi va qadrini ko‘rsatishga urindilar. Bilim va erkin fikr o‘ziga yo‘l ochib bordi. O‘rta asrlardagi ta’qib va cheklashlardan so‘ng fan va san’at diniy taqiqdan chiqdi.

Gumanistlar dastlab cherkov tomonidan ta’qib qilindi, ularning asarlari yondirildi. Ammo XVI asrga kelib, ko‘plab ruhoniylar va hatto Rim papalari ham gumanizm g‘oyalari bilan qiziqib, gumanistlarga o‘z fikrlarini erkin bayon qilish imkonini berdi.

Gumanizm dastlab XIV–XV asrlarda Italiyada paydo bo‘ldi. Keyinroq boshqa mamlakatlarda ham italyan gumanistlarining izdoshlari va tarafdorlari paydo bo‘ldi.



***Uilyam Shekspir***

Angliyada ularning g‘oyalari dono siyosatchi va qirolning birinchi vaziri **Tomas Morga** (1478–1535) kuchli ta’sir ko‘rsatdi. U o‘z asarida ideal davlat namunasini yaratib, uni **“Utopiya” (“Mavjud bo‘lmagan yer”)** deb atadi. O‘shandan buyon adolatli jamiyat tasvirlangan asarlar va ularda ilgari surilgan g‘oyalarni “utopiya” deb atashadi. Utopiya mavjud bo‘lmagan, xayoliy jamiyat haqidagi orzular edi.

**Adabiyot va san’at.** Uyg‘onish davri adabiyoti va san’atida o‘z davrining buyuk kishilari ijod qildilar. Saxiy tabiat ularning har biriga ko‘p qirrali noyob qobiliyat in’om etgan edi. Bunday noyob qobiliyat egalaridan biri ingliz **Uilyam Shekspir** (1564–1616) bo‘lgan. U: “Inson — tabiatning ajoyib mo‘jizasi”, deb

hisoblardi. Shekspir teatrga muhabbat qo‘ydi. Ham aktyor, ham dramaturg sifatida ijod qildi. Shekspir insonlarni o‘rab turgan olamni teatr, odamlarni esa aktyorlar deb tasavvur qilardi. Shekspir kelgusi avlodlarga “Otello”, “Hamlet”, “Qirol Lir” hamda “Romeo va Julyetta” kabi mashhur asarlarini meros qoldirdi.

Bu davr adabiyotining yana bir yirik arbobi, ispan yozuvchisi **Migel de Servantesdir** (1547–1616). Uning mashhur “Don Kixot” asari qahramoni – jahongashta Don Kixot adolatsizlik olamidagi so‘nggi oliyjanob ritsar. U odamlar hayotini yaxshilash yo‘lida harakat qiladi.



*Migel de Servantes*




*“Don Kixot” asari qahramonlari*

**Tasviriy san’at.** Uyg‘onish davri madaniyatining yana bir buyuk namoyandasi italiyalik **Leonardo da Vinchidir** (1452–1519). U bir vaqtning o‘zida ham rassom, ham shoir, ham me’mor, ham haykaltarosh, ham musiqachi, ham ixtirochi olim edi. Leonardo rasm chizish san’atini “san’atlar malikasi” deb atagan.

Leonardo asarlarining qahramonlari xudolar va avliyolar emas, balki oddiy odamlar edi. “Chaqaloq ko‘targan Madonna” ana shunday asardir. Yorug‘lik va soyaning yumshoq oqimlarida ona o‘z go‘dagini bag‘riga bosib turibdi. Qo‘llarining avaylab quchoqlashi, yengilgina nimtabassum — onaning o‘z go‘dagiga cheksiz muhabbatini anglatib turibdi.


Leonardoning yana bir mashhur asari “Mona Liza” (“Jokonda”). Asarda Mona Liza tomoshabinga tik boqib turibdi, lablarida sezilar-sezilmas tabassum, “u shunchalar yoqimliki, suratni ko‘rib insoniylikdan ko‘ra ko‘proq ilohiy oziq olasan”, — deb yozgan edi o‘sha davr tarixchilaridan biri.



*Leonardo da Vinchi*

**Yodda tuting:**
Shekspirning asarlari 1599–1644-yillarda Londonda faoliyat yuritgan “Globus” nomli teatrda sahnalashtirilgan. Asr boshlarida yog‘ochdan yasalgan teatr binosi yonib ketadi va g‘ishtdan qayta quriladi. 1644-yili ingliz parlamentining qaroriga binoan, teatr binosi buzib tashlanadi.





*Rafael Santi*

Bu davrning buyuk rassomlaridan yana biri italiyalik **Rafael Santi** (1483–1520) edi. U atigi 37 yil umr ko‘rdi, xolos. Lekin shu qisqa davr ichida o‘z nomini abadiylikka muhrlagan asarlar yarata oldi. “Sikstin madonnasi” u yaratgan asarlar ichida eng mashhuridir. Unda oyoqyalang Bibi Maryam go‘yo bulutlarni bosmayotganday, ohista, ularning ustida uchib yurganday o‘z qismatiga peshvoz chiqmoqda. Hali go‘dak Isoning nigohlari kattalarnikidek jiddiy. U go‘yo kelajakdagi azob va o‘limni oldindan sezayotganday. Onaning qarashlarida ham qayg‘u va xavotir bor. U oldindan nima bo‘lishini biladi. Shunga qaramasdan, o‘g‘lining hayoti evaziga Haq yo‘llari ochiladigan odamlar tomon oldinga intiladi.

Yana bir mashhur rassom gollandiyalik **Rembrandt** yaratgan asarlar ichida eng mashhuri “Adashgan o‘g‘ilning qaytishi” rasmi edi. Injilda oilasini tashlab ketib, uzoq vaqt sang‘ib yurgan, barcha boyliklari tugagach, ortga qaytgan o‘g‘lini ota kechiradi va uyiga qabul qiladi. Rembrandt o‘z asarida ota va o‘g‘ilning uchrashuv paytini aks ettirgan. Adashgan o‘g‘il uy ostonasi oldida tiz cho‘kib turibdi. Yirtiq kiyim va sochsiz bosh o‘tgan umr kulfatlaridan dalolat beradi. Keksayib ko‘r bo‘lib qolgan otaning barmoqlari o‘g‘lining yelkasiga tegyapti. Qo‘l harakati bu dunyodan qariyb umidini uzgan odamning yorqin quvonchini va cheksiz muhabbatini aks ettiradi.




*Mikelanjelo*

**Haykaltaroshlik.** Bu davr haykaltaroshlari haykaltaroshlikni san’atlar ichida birinchisi, u insonni, uning go‘zalligini boshqa san’at turlaridan yaxshiroq sharaflaydi, deb hisoblaganlar. Ularning eng mashhuri italiyalik **Mikelanjelo Buonarroti** (1475–1564) edi. U o‘zining o‘lmas asarlari bilan tarixda abadiy iz qoldirdi.

U san’at haqidagi bir she’rida, jumladan, quyidagilarni bitgan:

*Tiriklikdan, borliqdan ko‘ra,*
*San’atning qismati buyukdir har dam,*
*Uni yenga olmas, o‘lim ham, vaqt ham.*



*“David” haykali*

San’atkor yaratgan “David” haykali uning nomini abadiyatga daxldor qildi. Injil rivoyatlariga ko‘ra, yosh cho‘pon yigit David dahshatli devsifat Goliaf bilan jangga tushishga jur’at qiladi va uni palaxmon toshi bilan urib o‘ldiradi. Haykaltarosh Mikelanjelo jang oldida turgan Davidni tasvirlagan. Uning yuzi g‘azabga to‘la. Bu haykal o‘zining balandligi va go‘zalligi bilan shu paytgacha yaratilgan barcha asarlarni ortda qoldirdi.

**Bu qiziq:**
*David haykalini Mikelanjelo 26 yoshida yaxlit marmar toshdan yasagan. Haykalning balandligi – 5,2 metr (2 qavatli uy bilan teng), og‘irligi – 5,7 tonna.*

**Fan.** Insonning atrof-olamga qiziqishi ortib bordi va bu yangi davrning xususiyatlaridan biri bo‘lib qoldi. Bu davrda olimlar fanda olamshumul kashfiyotlarni amalga oshirdi.

Buyuk polyak astronomi **Nikolay Kopernik** (1473–1543) 30 yil davomida osmon jismlarini kuzatib, Yer Quyosh atrofida va o‘z o‘qi atrofida aylanadi, degan xulosaga keldi. Bu fanda ulkan yangilik edi.


Italyan olimi **Jordano Bruno** (1548–1600) olam abadiy mavjud, u hech qachon yo‘q bo‘lmaydi, degan xulosani dadil ilgari surdi, olamning cheksizligi va abadiyligi haqidagi nazariyani yaratdi. Cherkov bu fikrni shakkoklik deb baholadi va olimni gulxanda yoqishga hukm qildi.

Italiyalik boshqa bir buyuk olim **Galileo Galiley** (1564–1642) Kopernikning ta'limotini davom ettirib, geliotsentrik nazariyaga asos soldi. Galileyning atrof-olamni anglashga qo'shgan hissasi ulkan. U yevropalik olimlar orasida birinchi bo'lib osmon jismlarini teleskop yordamida kuzatdi.


Yevropa fanining yuksalishida buyuk ingliz olimi **Isaak Nyuton** (1642–1727) xizmatlari ulkan bo'ldi. Nyuton mexanika va astronomiyaning nazariy asoslarini yaratdi, butun olam tortishish qonunini ishlab chiqdi, ko'zguli teleskopni kashf qildi.

Ingliz olimi **Jon Lokk** (1632–1704) falsafaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. J. Lokkning asosiy xizmati shundan iboratki, u insonning tabiiy huquqlari: yashash, erkinlik va mulk huquqlari haqidagi ta'limotni yaratdi. U, shuningdek, hokimiyatni bo'lish — ijro hokimiyatini qonun chiqaruvchi hokimiyatdan ajratish haqidagi ta'limotni ham ishlab chiqdi.

***XVI–XVIII asrlarda Yevropada Yangi davr madaniyati shakllandi. San'at va fan jadal rivojlandi. Angliya burjua inqilobi, Shimoliy Amerikada mustaqillik uchun kurash, fransuz inqilobi jarayonlarida paydo bo'lgan kishilarning ozodligi va tengligi haqidagi g'oyalar yana uzoq vaqt ko'plab xalqlar kurashining mazmuniga aylandi.***



*Jordano Bruno*



*Galileo Galiley*



*Isaak Nyuton*



*Nikolay Kopernik*

**Mustaqil ish:** G. Galileyning geliotsentrik nazariyasi nimadan iborat ekanligini biling va koinotning tuzilishi sxemasini daftaringizga chizing.

**Savol va topshiriqlar**

1. U. Shekspirning "Butun olam — teatr, odamlar esa aktyorlar" iborasini izohlang. Siz bu fikrga qo'shilasizmi?
2. Matnda nomlari keltirilgan rassomlar va haykaltaroshlarning asarlarini internetdan toping va taqdimot tayyorlang.
3. Jon Lokkning ta'limoti hozirgi kunda qaysi sohalarda qo'llaniladi?
4. Nima sababdan rassomlar, ko'pincha, Nyutonni olma bilan tasvirlashgan?
5. Nima uchun aynan astronomiya sohasidagi kashfiyotlar cherkov tomonidan ta'qib qilingan?

***Bu qiziq:***

Leonardo da Vinchi ko'plab ixtirolarning loyihalarini chizib qoldirgan va ba'zi oldindan mavjudlarini takomillashtirgan: 1. Tank. 2. Skafandr (g'avvoslarning germetik kiyimi). 3. Vertolyot. 4. Parashut. 5. Deltaplan. 6. Robot. 7. Avtomobil. 8. Pulemyot. 9. Velosiped. 10. Projektor. 11. Qaychi. 12. Domkrat. 13. Suvosti kemasi. 14. Yuk ko'taradigan kran. 15. Teleskop. 16. Arkali ko'prik. 17. Aeroplan. 18 Podshipnik.

Bularning deyarli barchasi Leonardo da Vinchidan bir necha asrlar keyin yaratildi.

**Internet bilan ishlashga doir topshiriq:** "Otello", "Hamlet", "Qirol Lir", "Romeo va Julyetta" hamda "Don Kixot" asarlarining qisqacha mazmuni bilan tanishing.

# 4-MAVZU. YEVROPADA REFORMATSIYA: YANGI DAVR QADRIYATLARINING SHAKLLANISHI

**Siz bilib olasiz:**
– Reformatsiya arafasida Yevropa jamiyati hayotini;
– Reformatsiyaning boshlanishiga sabab bo‘lgan omillarni;
– dehqonlar qo‘zg‘olonining kelib chiqishini;
– Kalvinizm va Reformatsiyaning Yevropaga yoyilishini;
– Reformatsiyaga qarshi kurash (kontrreformatsiya)ni.


**Reformatsiya arafasida Yevropa jamiyati.** O‘rta asrlarda din G‘arbiy Yevropa jamiyati hayotida kuchli ta’sirga ega edi. Ammo davr oxiriga kelib, odamlar orasida mavjud diniy tartiblardan norozilik kuchaydi. Endi cherkov tartiblari ko‘plab yevropaliklarni qanoatlantirmay qo‘ydi. Cherkov marosimlari lotin tilida o‘tkazilar, ammo bu til oddiy odamlar uchun tushunarsiz edi. Shuningdek, ular xristianlarning muqaddas kitobi — Injilni ham o‘qiy olmas va tushunmasdi. Kun kechirish og‘ir bo‘lib qolgan Yangi davr boshlarida dehqonlar va shaharlik kambag‘allar qiyinchilik bilan ishlab topgan va oilasini boqishga zo‘rg‘a yetadigan pullarining bir qismini cherkovga va ruhoniylarga berishni istamasdi. Ruhoniylarning qimmatbaho kiyimlari va taqinchoqlari, cherkovni bezashda qo‘llanilgan haykal va rasmlar pulning qadrini biladigan tejamkor tadbirkorlarning jahlini chiqarar edi. Ruhoniylar to‘plagan juda katta boyliklarning bir qismini indulgensiyalar sotishdan tushgan pullar tashkil qilardi. Puldor kishilar, hatto hali qilib ulgurmagan gunohlari uchun ham **indulgensiyalar** sotib olardi. Papa va kardinallar turli xil hiyla va nayranglar bilan Yevropa davlatlarining ichki ishlariga aralashar, bundan esa hukmdorlar ham norozi edi.

**Esga oling:** Indulgensiya qanday maxsus yorliq edi?

**Reformatsiyaning boshlanishi.** Jamiyatdagi umumiy norozilik sharoitida G‘arbiy Yevropada xristianlik cherkovini isloh qilish uchun harakat boshlanib, bu jarayon **“Reformatsiya”** (“*reforma*” — “islohot”) deb ataldi.

Yangi davr boshlarida tarqoq knyazliklardan iborat bo‘lgan Germaniyaning ichki ishlarida hal qiluvchi rolga katolik cherkovi da’vo qilardi. Germaniyada juda katta yerlar, hatto butun boshli shaharlar ham katolik cherkoviga qarashli edi. Indulgensiya sotuvchi ruhoniylar va cherkov soliqlarini yig‘uvchilar butun Germaniya bo‘ylab kezib yurardi.

**Esga oling:** O‘rta asrlarda katolik cherkovi o‘zining qudratiga qaysi omillari sababli erishgan edi?



Reformatsiya **1517-yili** Germaniyaning Vittenberg universiteti ilohiyot fani professori 33 yoshli **Martin Lyuterning** “95 tezislar” deb ataluvchi indulgensiyalarga qarshi da’vati bilan boshlandi. Aslida faqat ilmiy munozara uchun mo‘ljallangan ushbu tezislar lotinchadan nemis tiliga tarjima qilinib, butun Germaniyani hayajonga soldi. M. Lyuterning bu qilmishi Rim papasining jahlini chiqardi. U M. Lyuterni Vorms shahar sudiga chaqirdi. Papa M. Lyuterdan o‘z g‘oyalaridan voz kechishni talab qildi, lekin u papaga bo‘ysunishdan va indulgensiyalarning sotilishini ma’qullashdan bosh tortib, sudda yorqin nutq so‘zladi. M. Lyuterning suddagi nutqi xalqni to‘lqinlantirib yubordi. Uning tarafdorlari o‘z mazhabi va cherkovini tashkil qildilar. Ular **“lyuteranlar”** deb ataldi.

**Dehqonlar qo‘zg‘oloni.** Yevropada an’anaviy jamiyatning inqirozi va kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi zodagonlar va knyazlarda o‘z daromadini oshirish istagini kuchaytirdi. Ular jamoa yerlarini egallab olib, dehqonlarning ulushini qisqartirdi, natural va pul yig‘imlarini, dehqonlarning ishlab berish majburiyatlarini oshirdi. Amerikadan g‘alla va kumushning oqib kelishi natijasida yuz bergan narx-navo inqilobidan ham, avvalo, Yevropa dehqonlari aziyat chekdi. Dehqonlarning og‘ir ahvoli ularni qo‘zg‘olon ko‘tarishga majbur qildi.

Dehqonlar qo‘zg‘oloni **1524-yili** Germaniyaning janubida boshlandi. **“Xalq Reformatsiyasi”** deb atalgan bu qo‘zg‘olonga ruhoniy **Tomas Myunser** boshchilik qildi. Qo‘zg‘olon tez orada butun Germaniyani qamrab oldi va **“Buyuk dehqonlar” urushi** degan nom oldi. Unda o‘n minglab dehqonlar qatnashdi. Bir yildan ortiq davom etgan qo‘zg‘olon mag‘lubiyatga uchradi. Uning ko‘plab ishtirokchilari qattiq jazolandi, T. Myunser qatl qilindi.

Shundan so‘ng reyxstag (parlament)da ko‘pchilik bo‘lgan katoliklar Reformatsiyaning yutuqlarini bekor qilish tashabbusi bilan chiqdi. M. Lyuter tarafdorlari esa bunga norozilik bildirdi. Shu paytdan boshlab ular **“protestantlar”** deb atala boshlandi.

**Kalvinizm va Reformatsiyaning Yevropaga yoyilishi.** Reformatsiya butun Yevropa bo‘ylab tarqaldi. Protestantlikning yangi oqimlari paydo bo‘ldi. Ulardan biriga Jeneva shahrida fransuz **Jan Kalvin** asos soldi.



***1524–1526-yillardagi qo‘zg‘olon. Germaniya***

**Yodda tuting:**
**Yevropada Reformatsiya** – katolik cherkovini isloh qilish jarayoni.



***Martin Lyuter***



***Tomas Myunser***



***Jan Kalvin***



*Ignatiy Loyola*

“Duo o‘qi va ishla!” degan shior J. Kalvin ta’limotining asosi bo‘ldi. Bu shior boylik orttirishni asosiy maqsad qilgan yangi zodagonlar va burjuaziyaga ma’qul keldi. Ular J. Kalvinni qo‘llab-quvvatladi.

Reformatsiya Yevropada katolik cherkovining yakka hukmronligiga chek qo‘ydi. Reformatsiyaga qarshi kurashning kuchayishiga qaramasdan, bir qator Yevropa mamlakatlari Rim papasiga bo‘ysunmay qo‘ydi. Protestantlik mamlakatlarida qirollik hokimiyati kuchayib, katta mustaqillikka ega bo‘ldi. Ko‘pchilik mamlakatlarda milliy cherkovlar tashkil qilindi. Protestantlikning Injilni mustaqil o‘qish, xudo oldida shaxsiy javobgarlik hissi kabi o‘ziga xos jihatlari aholi orasida **individualizm** rivojlanishiga ko‘maklashdi. Injilni mustaqil o‘qish ehtiyoji, protestantlik mamlakatlarida savodxonlikning oshishi uchun muhim omil bo‘ldi.

Reformatsiya natijasida paydo bo‘lgan protestantlik butun Yevropaga yoyildi va xristianlikning yangi ta’limotlari hamda yangi cherkovlarning shakllanishiga olib keldi.

**Reformatsiyaga qarshi kurash (kontrreformatsiya).** Katolik cherkovi Uyg‘onish va Reformatsiyada o‘z aksini topgan diniy norozilik bilan kelisha olmas va buni xohlamas ham edi. Shu sababli Reformatsiyaga qarshi kurashish uchun Rim papasi 1540-yili **“Iso jamiyati”** yoki iyezuitlar (*Iyezus* — Iisus, Iso) ordenini ta’sis etdi. Iyezuitlar oldiga “adashgan olomonni cherkovga qaytarish” vazifasi qo‘yildi. “Iso jamiyati”ning asoschisi ispan zodagoni **Ignatiy Loyola** bo‘ldi.

Reformatsiya tufayli bir qator Yevropa mamlakatlarida o‘z hukmronligini yo‘qotgan Rim papasi jon-jahdi bilan o‘z mavqeyini tiklashga intildi. Siyosiy jihatdan tarqoq bo‘lgan Italiya papa boshliq katolik reaksiyaning barcha dahshatini o‘zida his qildi. Papa dindan qaytganlarni jazolashni **inkvizitsiya sudiga** topshirdi. Dindan qaytganlar sud hukmiga ko‘ra gulxanlarda yoqildi.

**Esga oling:**
Inkvizitsiya nima? “Dindan qaytganlar”ni kim deb atashar edi? Gulxanda yoqilish nima deb atalardi?

Katolik cherkovi ilg‘or ilmiy va falsafiy fikrga qarshi kurashdi. Yoqib yuborilishi lozim bo‘lgan, taqiqlangan kitoblar ro‘yxati e’lon qilindi. Katolik cherkovi tomonidan protestantlarga qarshi qo‘llanilgan barcha tadbirlar tarixda **“kontrreformatsiya”** nomini oldi. XVI asrdagi **kontrreformatsiya** jarayonida G‘arbiy Yevropa katolik va protestant qismlariga bo‘linib ketdi. Germaniya, Fransiya kabi davlatlar aholisi bir-biriga dushman ikki diniy mazhabga ajralib, bir-biriga qarshi urushlar olib bordi. Bu urushlarda o‘n minglab kishilar halok bo‘ldi.

Ammo Reformatsiyaga qarshi kurash to‘liq g‘alaba qozonishi mumkin emasdi. Zotan, bu davrda Yevropada fan va madaniyat yuksalib, kapitalistik munosabatlarning qaror topib borishi, odamlarning erkinlik va mustaqillik sari intilishi katolik cherkovi asoslarini vayron qildi. Reformatsiya katolik cherkovining inqirozi davri bo‘ldi.

**Niderland inqilobi.** Reformatsiya tufayli boshlangan xalq harakatlari Yevropadagi kichik bir davlat — Niderland mamlakatida katta muvaffaqiyatga erishdi. Bu yerda inqilob eski tartiblarning yangisi bilan almashinishiga, odamlar hayotidagi tub o‘zgarishlarga olib keldi.

XVI asr o‘rtalarida Niderland hududi Ispaniyaga qaram edi. Ispaniya monarxiyasi Niderlandda o‘zining qoloq boshqaruv tizimini o‘rnatdi. Aholiga juda yuqori soliqlar solinardi. Soliq yig‘uvchilar kambag‘allardan so‘nggi tiyinlarini ham tortib olardilar. Qishloqlarda ispan askarlari haddidan oshardi.

Niderlandda protestantlikning bir ko‘rinishi bo‘lgan kalvinizm ta’limoti allaqachon tarqala boshlagan edi. Bu bid’atni yo‘q qilish uchun ispan qiroli Filipp II yuqori diniy lavozimlarga ispanlarni tayinlay boshladi va Niderlandga ispan inkvizitsiyasini kiritishga tayyorlandi.

Cherkov sudlari mamlakat bo‘ylab kezib yurar va o‘zini katolik deb hisoblashni xohlamaganlar hamda katolik ibodatxonasiga bormay yurganlarni qo‘lga olishni buyurardi.

Qonli qonunlar ham, ommaviy qatl qilishlar ham Filipp II ning shafqatsiz siyosatidan niderland xalqining aksariyatida o‘sib borayotgan norozilikni to‘xtata olmasdi. Aksincha, Niderlandda xalq harakati kengaya bordi, unga shaharliklar, hunarmandlar, dehqonlar, savdogarlar va hatto zodagonlar ham jalb qilindi.

Ispaniya hukmronligiga qarshi tarqoq chiqishlar ommaviy xalq harakatiga aylanib ketdi. Bunga ispanlar zulmi va qimmatchilikdan tashqari, 1565–1566-yillardagi ocharchilik ham sabab bo‘ldi.

Qo‘zg‘olon natijasida 1572-yili shimoliy hududlar — Gollandiya va Zelandiya dengizchilari Bril shahrini egalladilar. Shahzoda **Villem van Oranye** shimoliy hududlar hukmdori deb e’lon qilindi. U eng yirik va eng obro‘li zamindor bo‘lib, Ispaniya hukmronligidan norozi niderland zodagonlariga boshchilik qilardi.



*Villem van Oranye*

***Bu qiziq:***
**Gyozlar** (gadoylar, tilanchilar, qashshoqlar) – XVI asrda Niderland inqilobi davrida Ispaniyaga qarshi mustaqillik uchun kurashgan niderland dvoryanlarini kamtarona kiyinganligi uchun ispan aristokratlari “gyozlar” – “gadoylar” deb atashgan. Keyinchalik niderland dvoryanlari o‘zlarini “gyoz” deb atay boshladilar. Ulardan ba’zilari norozilik belgisi sifatida tilanchining charm xaltasi va sadaqa yig‘iladigan yog‘och kosani namoyishkorona olib yurishardi.

Shimoliy viloyatlar **1579-yilda “Utrext uniyasi”** deb nomlangan hujjatni imzolab, ittifoq tuzdilar. Ular Filipp II ni taxtdan tushirilgan deb e’lon qildilar. Shu tariqa Shimoliy Niderlandda paydo bo‘lgan yangi davlat rasman “Birlashgan provinsiyalar” yoki ittifoqqa birlashgan yetti viloyatdan eng qudratlisi nomi bilan sodda qilib “Gollandiya Respublikasi” deb atala boshlandi. Respublika o‘z mustaqilligi uchun yana uzoq vaqt Ispaniya bilan jang qilishga majbur bo‘ldi. Faqat 1609-yildagina Ispaniya Gollandiyani tan olganligi haqidagi shartnomani imzoladi.



*Niderlandlar qo‘zg‘oloni*

**Yodda tuting:**
Niderland Respublikasi Yevropada 1609-yili tashkil topgan birinchi burjua davlati hisoblanadi.

***Bu qiziq:***
Iyezuitlar ordenining asosiy qoidasi: “Agar cherkov bizga oq ko‘rinadigan narsa qora deb aytsa, biz uni darhol qora deb tan olishimiz kerak”.

**Atamalar mazmuni:**
***Protestantizm*** yoki protestantlik (*lot. "Protestatio" – "tantanali bayonot, e'lon qilish"*, ayrim hollarda *"norozilik" ma'nolarini anglatadi*) – pravoslav va katolik cherkovlari bilan birga xristianlikning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan.
***Individualizm*** (*lot. "individium" – "bo'linmas"*) – insonning shaxsiy hayoti jamoaga bog'liq bo'lmagan, faqat uning o'ziga tegishli alohida bir hodisa deb qaraladigan, jamiyat manfaatlaridan inson huquqlarini mutlaq ustun qo'yadigan ta'limot. Individualizmning negizida har bir shaxsning yagona va beqiyos ekanligini tan olish, uning huquqlarini mutlaqlashtirish yotadi.

**Xarita bilan ishlashga doir topshiriq:** Internet yordamida qaysi mamlakatlarda hozirgi kunda lyuteranlik tarqalganini aniqlang.



*Gollandiyaning mustaqillikka erishishi*

Shunday qilib, mag'rur va erksevar xalq uzoq vaqt davom etgan qizg'in kurash natijasida Gollandiyaning mustaqilligiga erishdi. Mamlakatda hokimiyat tepasiga burjuaziya keldi, feodal tartiblar barham topib, yangi kapitalistik munosabatlar jadal rivojlanish yo'liga o'tdi.

***Reformatsiya tarixda chuqur iz qoldirdi, Yevropa jamiyatining ma'naviy, siyosiy va iqtisodiy xarakterini o'zgartirib yubordi. Reformatsiya natijasida milliy cherkovlar paydo bo'ldi, dunyoviy hokimiyat mustahkamlandi, millatlarning shakllanishi va milliy davlatlarning rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratildi. Reformatsiya industrial sivilizatsiyaning qaror topishini tezlashtirdi, shaxsning erkinligi va tashabbuskorligiga keng yo'l ochilib, demokratik qadriyatlar shakllandi.***

**Savol va topshiriqlar**

1. Gumanizm va Reformatsiya bir-biriga qay tarzda bog'liq?
2. Qo'shimcha manbalardan foydalanib, "Martin Lyuterning asosiy g'oyalari" mavzusida klaster chizing.
3. Quyidagi jarayonlarning asosiy sabablarini aniqlang: a) Reformatsiya; b) Germaniyadagi dehqonlar qo'zg'oloni; d) Kontrreformatsiya.
4. "Duo qil va ishla" shiori O'rta asrlarda Markaziy Osiyodagi qaysi tariqat tamoyillariga mosligini toping.
5. Niderland inqilobi nima bilan yakunlandi?

**Internet bilan ishlashga doir topshiriq:**
Internet vositasida G'arbiy Yevropada Reformatsiya bo'lib o'tgan davrdagi Germaniya ko'chalariga virtual ekskursiya uyushtiring. Taassurotlaringizni daftarga qayd eting.

# II BOB.
# XVI–XVIII ASRLARDA YEVROPA VA AMERIKA MAMLAKATLARI





# 5-MAVZU. ANGLIYADA QIROL HOKIMIYATINING KUCHAYISHI. ABSOLYUTIZM

**Siz bilib olasiz:**
– qirol hokimiyatining kuchayishini;
– Angliya burjua inqilobining kelib chiqish sabablarini;
– Burjua inqilobining ro‘y berishini;
– qirol bilan parlament o‘rtasida fuqarolar urushini;
– inqilobning yakunlanishi va Angliyaning konstitutsion monarxiyaga aylanishini.

**Esga oling:**
Angliyada “Buyuk ozodlik xartiyasi” deb nomlangan hujjat qachon qabul qilingan?

**Esga oling:**
Yelizaveta I davridan Angliya **“Dengizlar malikasi”** va **“Dunyo ustaxonasi”** deb atala boshlandi.

**Qirol hokimiyatining kuchayishi.** Savdo va sanoatning rivojlanishi Angliyada soliqlar tushumini keskin oshirdi. Endi davlatdan maosh oladigan amaldorlar va muntazam armiya qirolning har qanday buyrug‘ini bajarishga tayyor edi. Bu hol qirolni boy zodagonlar ta’siridan xalos qildi. Natijada qirolning cheklanmagan hokimiyati to‘g‘risidagi g‘oya shakllandi. Shu g‘oya asosida G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida shakllangan hokimiyat **“mutlaq monarxiya”** yoki **“absolyutizm”** deb ataldi.

Absolyutizm Angliyada XVI asrda shakllandi. Shu davrda qirol hokimiyati kuchayib, **Genrix VIII Tyudor** faqat cherkovnigina emas, balki toifalar vakillaridan iborat parlamentni ham o‘ziga bo‘ysundirdi, ayrim mustaqil shimoliy grafliklar va Uels ham qirol hokimiyatini tan oldi.

**1558-yili** hokimiyatga kelgan **Yelizaveta I ning** asosiy vazifalaridan biri mamlakat yaxlitligini mustahkamlash, kelishmovchilik va janjallarga chek qo‘yish bo‘ldi. Yelizaveta I o‘zining 45 yillik hukmronligi davrida Angliyaning jadal rivojlanishi, dunyoning yetakchi davlatiga aylanishida katta hissa qo‘shdi. Mamlakatda Reformatsiya o‘z nihoyasiga yetdi. Davlat qudratli bo‘ldi, xo‘jalikni rivojlantirishda va dengiz savdosida muvaffaqiyatlarga erishildi. Angliya asta-sekin kuchli dengiz davlati — “Dengizlar malikasi”ga aylandi.

1603-yili Yelizaveta I ning o‘limi bilan Tyudorlar sulolasi yakun topdi. Shundan so‘ng Angliya taxtiga Styuartlar sulolasidan bo‘lgan **Yakov I** o‘tirdi. Yakov I shotlandiyalik edi. Uning davrida absolyutizmning inqirozi kuchaydi, burjua inqilobi



*Genrix VIII Tyudor*



*Yelizaveta I*

uchun iqtisodiy, siyosiy va g‘oyaviy asoslar shakllandi. Bularning barchasi **1640-yili** boshlangan Angliya burjua inqilobiga muqaddima bo‘ldi.

**Angliya burjua inqilobi arafasida.** XVI asr Angliya uchun muvaffaqiyatli yakunlandi. Sanoat jadal rivojlana boshladi. Ispan floti — “Yengilmas armada”ning mag‘lubiyatidan keyin Angliya dengizda hukmron bo‘lib oldi. Dengiz savdosi rivojlanib, Moskva, Marokash, “Ost Indiya” va boshqa bir qator savdo kompaniyalari Erondan Shimoliy Amerikagacha, Shveysariyadan Hindiston va Seylongacha bo‘lgan katta hududda juda faol harakat qildilar. Styuartlar davridagi monopoliya tizimi natijasida tashqi savdoni, asosan, londonlik boylar egallab oldi va Londonda juda qudratli savdo oligarxiyasi vujudga keldi.

Ichki savdo ham rivojlandi. 1600-yili Londonda dastlabki birja faoliyat yurita boshladi. Mamlakat aholisining 4/5 qismi qishloqlarda yashaganligi sababli agrar sohadagi o‘zgarishlar Angliyada islohotlar rivojining o‘ziga xos tomonini tashkil qildi. Qishloq xo‘jaligiga ham kapitalistik munosabatlar shiddat bilan kirib bordi.

Faol tashqi siyosat yuritilib, bo‘lg‘usi Britaniya mustamlakachilik imperiyasining asoslari yaratila boshlandi. XVII asr boshlarida Amerikadagi birinchi mustamlaka — **Virjiniyaga** asos solindi.


San’at va fan sohasidagi muvaffaqiyatlar ham salmoqli edi. F. Bekon va U. Shekspir nomlari butun dunyoga mashhur bo‘ldi.

Angliyada boy va kuchli o‘rta tabaqa shakllangan edi. Bu tabaqaning aksariyat vakillari diniy e’tiqodlari va hayot tarziga ko‘ra **puritanlar** (Angliyada kalvinistlar shunday atalgan) edi.

Puritanlar cherkovni mo‘l-ko‘lchilik bilan o‘tadigan diniy ibodatlardan “tozalash”ga urindilar (“*Puritans*” — “tozalik”). Puritanlik keyinchalik inqilobiy harakatning mafkuraviy asosi bo‘ldi. Puritanlar orasida ko‘plab yangi zodagonlar, boy savdogarlar, ustalar, manufaktura egalari, o‘ziga to‘q dehqonlarning vakillari bor edi. Bu qatlam pulning qadri va qudratini yaxshi bilardi.

**Inqilobning sabablari.** Kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi va Reformatsiya natijasida ingliz jamiyatida bo‘linish yuz berdi. Yangi zodagonlar kapitalizm rivojlanishidan manfaatdor bo‘lsa, qirol va amaldorlar eski tartiblarning saqlanib qolishini istardi. Shunday sharoitda Styuartlarning yangi qirollik sulolasi ingliz parlamenti va puritanlik cherkoviga qarshi kurashga kirishib ketdi. Vujudga kelgan qarama-qarshiliklar inqilobning asosiy sababiga aylandi.

Qirol bilan parlament o‘rtasidagi nizo Karl I davrida yanada keskinlashdi. Qirol parlamentni tarqatib yubordi. Angliyada Karl I ning shaxsiy hukmronligi o‘rnatilib, bu



*Tyudorlar sulolasi*



**Yodda tuting:**
**Puritanlik** – axloq qoidalariga qat’iy amal qilish, ehtiyojlarning o‘ta cheklanishi, tejamkorlik, mehnatsevarlikka xos bo‘lgan hayot tarzi; masalan, o‘yinchoqlar foydasiz deb hisoblangan va bolalar yoshligidan boshlab kattalarga ishda yordam berishgan.

davrda savdogarlar, yangi dvoryanlar, hurfikr dindorlar davlat ishlaridan butunlay chetlatildi.

**Inqilobning boshlanishi.** 1640-yilning boshiga kelib, xazina bo‘shab qoldi. Mamlakatda ko‘plab ochlar qo‘zg‘olonlari, London ko‘chalarida esa tartibsizliklar bo‘lib o‘tdi. Shotlandiya Angliyaga qarshi harbiy harakatlarni boshlab yubordi.

Shunday sharoitda 1640-yili yangi parlament yig‘ildi. Bu parlament uzoq vaqt tarqatilmaganligi uchun **“Uzoq muddatli parlament”** nomi bilan tarixga kirdi. Bu inqilobning boshlanishi edi.

Uzoq muddatli parlament bir qancha muhim islohotlarni amalga oshirdi. Parlamentning absolyutizmga qarshi qaratilgan dastlabki qarorlaridan biri qirol ministrlarining sudga tortilishi bo‘ldi. Ko‘pgina yuksak lavozimli amaldorlar, yepiskoplar, sudyalar qamoqqa olindi. Aslida amalga oshirilgan bu o‘zgarishlar, o‘z mohiyatiga ko‘ra, Angliya davlat tuzumida yuz bergan inqilobiy to‘ntarish edi.

**Qirol bilan parlament o‘rtasida fuqarolar urushi.** Angliya parlament bilan qirol tarafdorlari bo‘lgan bir-biriga dushman ikki lagerga bo‘lindi. Parlamentni savdogarlar, tadbirkorlar, yangi dvoryanlar qo‘llab-quvvatladi. Eski tartiblardan manfaatdor bo‘lganlarning barchasi — yirik yer egalari bo‘lgan asilzodalar va ularga qaram dehqonlar, saroy amaldorlari ingliz cherkovi qirol bayrog‘i ostida birlashdilar.

**1643-yilning** oxiriga kelib, mamlakat hududining to‘rtdan uch qismi qirol hukmronligi ostida edi. Parlament esa xalqni jangga chorlashga qo‘rqardi. Biroq tez orada parlamentning yangi ittifoqchisi bo‘lgan Shotlandiya armiyasi Angliya hududiga kirib keldi. Shotlandlar bilan parlament tarafdorlarining birlashgan qo‘shini qirol qo‘shini ustidan g‘alaba qozondi. Bu g‘alabada **Oliver Kromvel** qo‘mondonligi ostidagi otliq askarlar asosiy rol o‘ynadi. Qirol va uning ortidan butun armiyasi qochib ketdi. Urush parlamentning to‘liq g‘alabasi bilan yakunlandi.

**Parlament islohoti.** Qirol armiyasining tor-mor qilinishi parlamentga muhim o‘zgarishlarni amalga oshirish imkonini berdi. Zodagon yer egalari taxt foydasiga to‘lanadigan feodal soliqlardan ozod etildi. Yer ularning xususiy mulkiga aylandi. Savdogarlar endi savdo yuritishga ruxsatnoma sotib olmaydigan bo‘ldi. Cherkov parlamentga bo‘ysundirildi, qirol, uning tarafdorlari va yepiskoplarning yerlari esa musodara qilindi.

Ammo parlament dehqonlarning feodal qaramligini bekor qilmadi. Parlament faoliyatidan dehqonlardan tashqari shaharliklar, aksariyat mayda mulkdorlar ham norozi edi. Ular bir qator keskin talablar bilan chiqdilar. Bu norozilikning ifodachisi **Jon Lilbern** bo‘ldi.

Mamlakatdagi ahvoldan xavotirlangan parlament **1649-yili** qirol Karl I ni qatl ettirdi. Qirolning qatl etilishi haqidagi xabar Yevropa monarxlarining saroylari bo‘ylab dahshat to‘lqini misol qalqib o‘tdi.

**O‘zingizni sinang:**
1558-yilda ...
1588-yilda ...
1603-yilda ...
1640-yilda ...

***Bu qiziq:***
Qirol tarafdorlari **“kavalerlar”** (**“otliqlar”**) deb atalgan, chunki uning armiyasida otliq qo‘shin asosiy kuchni tashkil qilgan. Parlament tarafdorlari **“dumaloq boshlar”** deb atalardi, chunki ular sochini doira shaklida olishgan.



***Oliver Kromvel***



***Oliver Kromvel***

**Inqilobning yakunlanishi. Angliyaning konstitutsion monarxiyaga aylanishi.** Parlamentning qarori bilan Angliyada qirollik hokimiyati va lordlar palatasi bekor qilindi. **1649-yili 19-may** kuni Angliya respublika deb e'lon qilindi. Ammo shaharlik qashshoqlar va dehqonlar hayotida qariyb hech narsa o'zgarmadi. Fuqarolar urushi mamlakatni vayronaga aylantirdi, bu ularga ochlik va musibat keltirdi.

Bu paytga kelib, O. Kromvel boshchiligidagi inqilobiy armiya Irlandiyani bo'ysundirish uchun bu yerga bostirib kirdi. Bosqin jarayonida Irlandiya aholisining katta qismi halok bo'ldi. O. Kromvelning inqilobiy armiyasi shu tarzda bosqinchi armiyaga aylandi. Bu armiya Irlandiyadan so'ng Shotlandiyaga ham bostirib kirdi. Shiddatli janglardan so'ng mag'lub bo'lgan Shotlandiyaning mustaqilligi tugatildi. Shundan so'ng eski parlament tarqatib yuborildi. Mamlakatda O. Kromvel **protektorati** (*"protektor" – "homiy", "himoyachi"*) o'rnatildi. Ijro hokimiyati to'liq protektor qo'liga o'tdi.

O. Kromvelning o'limidan so'ng yangi dvoryanlar va burjuaziya inqilob paytida o'rnatilgan tartibni himoya qiluvchi monarxiyani qayta tiklashga qaror qildi. 1660-yilda qatl qilingan qirolning o'g'li Karl II Styuart parlament qo'ygan shartlar asosida taxtni egalladi.




*Karl II*

**1688-yilgi "Shonli inqilob".** Biroq Karl II mutlaq hukmronlikka bo'lgan da'vosidan voz kechmadi. Uning vorisi Yakov II esa katolik dinini qayta tiklash uchun harakat boshladi. Shundan so'ng 1688-yili parlament Yakov II ni taxtdan mahrum qildi va Angliya taxtiga Gollandiya hukmdori Villem van Oranyeni taklif qildi. U parlament qo'ygan talablar asosida taxtga o'tirdi. Shu davrdan boshlab eng muhim masalalarni qirol emas, parlament hal qiladigan bo'ldi. Qirol hokimiyati parlament tomonidan cheklandi. Shu tariqa Angliyada **cheklangan** yoki **konstitutsion monarxiya** o'rnatildi. Bu Angliya tarixida **"Shonli inqilob"** nomini oldi.

**Angliya burjua inqilobining natijalari va tarixiy ahamiyati.** Angliya burjua inqilobi absolyutizmga nuqta qo'ydi. Inqilob feodal mulkchilikka zarba berdi, ammo tugallanmay qoldi, chunki dehqonlarni yerning to'liq egalariga aylantirmadi va ularni feodal qaramlikdan ozod qilmadi.

Shunday bo'lsa-da, inqilob Angliyada kapitalistik munosabatlarning keyingi rivojida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Bu inqilob natijasida qishloq xo'jaligida ham kapitalistik munosabatlar tez rivojlana boshladi, sanoat to'ntarishi boshlandi. Jamiyatda ham o'zgarish ro'y berdi — sanoat burjuaziyasi va ishchilar sinfi jamiyatning asosiy kuchiga aylanib bordi.




*1688-yilgi "Shonli inqilob"*

**Atamalar mazmuni:**
***Absolyut** (yoki mutlaq) monarxiya* – hokimiyat cheklovlarsiz, bus-butunligicha monarx qo'lida bo'lgan boshqaruv shakli.
***Konstitutsion monarxiya*** (yoki parlament monarxiyasi) – monarx hokimiyati, uning huquqlari konstitutsiya bilan cheklangan davlat tuzumi.

***Mamlakatda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati tarkib topa boshladi. Angliya burjua inqilobi va uning g‘oyalari boshqa Yevropa mamlakatlari rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Inqilob e’lon qilgan siyosiy tamoyillar va o‘rnatgan iqtisodiy tartib yangi industrial sivilizatsiyaga asos soldi.***



**Savol va topshiriqlar**

1. Angliya burjua inqilobi boshlanishining asosiy sabablari nimalardan iborat?
2. Angliya tarixida O. Kromvel qanday o‘rin tutadi?
3. “Shonli inqilob”ning asosiy natijalari nimadan iborat?

**Angliya burjua inqilobining asosiy voqealari:**

| | |
|---|---|
| 1640-yil | Karl I “Uzoq muddatli parlament”ni yig‘di. Inqilobning boshlanishi. |
| 1642–1648-yillar | Fuqarolar urushi davri. |
| 1649-yil | Parlament qirol Karl I ni qatl ettirdi. |
| 1649-yil 19-may | Angliya respublika deb e’lon qilindi. |
| 1653–1658-yillar | Oliver Kromvel protektorati. |
| 1660-yil | Qatl qilingan qirolning o‘g‘li Karl II Styuart parlament qo‘ygan shartlar asosida taxtni egalladi. |
| 1688-yil | “Shonli inqilob”. |

Jadvalda keltirilgan ma’lumotni tahlil qiling. Ingliz burjua inqilobi necha yil davom etdi? Inqilobni qanday uch davrga bo‘lsa bo‘ladi?



**Internet bilan ishlashga doir topshiriq:**
1588-yili ingliz floti ispanlarning qudratli floti – “Yengilmas armada”ni tor-mor qilib, dengizlarda to‘liq hukmronlikni o‘rnatadi. Internetdan bu jang haqida ma’lumot toping.

**Ijodiy ish topshirig‘i:**

Quyidagi reja asosida mavzu bo‘yicha hikoya tuzing va mavzuni yoritib bering.

1. XVII asrda Angliyada yangi kapitalistik munosabatlar tez rivojlandi, lekin ularning rivojlanishiga feodalizm qoldiqlari to‘sqinlik qildi.
2. Angliyadagi inqilobning asosiy sababi qirol hokimiyati mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini va inglizlarning diniy erkinliklarini cheklab qo‘yishi bo‘ldi.
3. Xalqning qo‘llab-quvvatlashi parlament qo‘shinining qirol qo‘shini ustidan g‘alaba qozonishini ta’minladi.
4. “Uzoq parlament”ning islohotlari “yangi zodagonlar” va burjuaziya manfaatlariga mos edi.
5. Kromvel protektorati Angliyada inqilob g‘alabasini mustahkamlashga imkon berdi.
6. “Shonli inqilob” Angliyada qirolning mutlaq hokimiyati kuchsizlanganligini isbotladi.
7. Angliyada parlament monarxiyasining o‘rnatilishi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga xizmat qildi. Angliya ko‘pgina Yevropa mamlakatlariga burjuaziya namunasi bo‘ldi.



# 6-MAVZU. BUYUK BRITANIYA: IMPERIYA QUYOSHINING PORLASHI

**Siz bilib olasiz:**
– mazkur davrda Angliyaning davlat boshqaruvini;
– Buyuk Britaniya mustamlakachilik imperiyasining tashkil topishini;
– sanoat to‘ntarishini;
– Luddchilik harakatini.

**Angliyaning davlat tuzumi.** 1688-yilgi “Sharafli inqilob”dan so‘ng hokimiyat to‘laligicha ikki palata — **Lordlar palatasi** va **Jamoa palatasidan** iborat ikki palatali parlament qo‘lida jamlandi.

Angliya qiroli vazirlarni tayinlash huquqini rasman o‘zida saqlab qoldi. Ammo XVIII asrda qirolning parlamentda ko‘pchilik o‘ringa ega bo‘lgan partiya vakillaridan vazirlarni tayinlashi odat tusiga kirdi. Bu paytda parlamentda o‘ringa ega bo‘lgan asosiy partiyalar ikkita — **tori** (konservatorlar) va **vigi** (liberallar) edi.


1707-yili parlament Angliya bilan Shotlandiya o‘rtasida ittifoqqa birlashishi haqidagi **kelishuv (uniya)**ni qonunlashtirdi. Endi mamlakat **“Buyuk Britaniya”** deb atala boshlandi. Shotlandiya parlamenti tugatilib, uning deputatlari Angliya parlamenti tarkibiga qo‘shildi.

1716-yili parlament vakolatining uch yillik muddati o‘rniga olti yillik muddat o‘rnatildi. Bu bilan mamlakatni idora qilishda professional boshqaruvchilar qatlamining shakllanishi uchun keng yo‘l ochildi.

Shu tariqa Ministrlar Kabineti paydo bo‘ldi va shakllandi. Dastlab qirol vazirlarni o‘z xonasiga suhbat uchun taklif qilar edi. So‘ng Maxfiy Kengashdan 5–7 kishidan iborat kollegiya ajralib chiqdi va qirol ularga amalda mamlakatni boshqarishni topshirdi. Keyinchalik bu kollegiya tarkibini asosiy vazirlar tashkil qildi va shu tariqa u qirol hukumatiga aylandi. Asta-sekin qirol parlamentda ko‘pchilik o‘ringa ega bo‘lgan partiya lideriga hukumatni shakllantirish huquqini berdi va shu partiya vakillaridan vazirlarni tayinlash odat tusiga kirib bordi.

Gannoverliklar sulolasidan bo‘lgan Georg I va Georg II mamlakatni boshqargan 45 yil ichida inglizlar qirol taxtda o‘tirishi, ammo mamlakatni boshqarmasligiga ko‘nikib qoldi. Ministrlarning o‘zlari qirolsiz majlis o‘tkazishi, muhim qarorlar qabul qilishi, qirol esa parlament qarorlarini bajarishi lozimligi odatiylik kasb etdi.

Asta-sekin Ministrlar Kabinetining parlament oldida hisobdorligi shakllandi. XVIII asrda qirol o‘zining bir qator vakolatlarini qo‘llamay qo‘ydi va bunga jamiyat ko‘nikib bordi. Chunonchi, parlament aktlariga “veto” qo‘yish, siyosiy jinoyatlar uchun afv etish huquqlaridan foydalanmadi, urush e’lon qilish va sulh tuzish huquqi



*Angliya–Shotlandiya ittifoqi*

**Yodda tuting:**
Torilar qirolning huquq va manfaatlari hamda mavjud tartiblarning buzilmasligini quvvatlardi; vigilar esa parlament huquqlarini faol himoya qilardi va mamlakat hayotida muhim iqtisodiy va siyosiy islohotlar o‘tkazilishining tarafdorlari edilar.

**Yodda tuting:**
Normannlar anglo-sakslarni 1066-yilda bosib olganidan beri Angliyani sakkizta qirollik sulolasi boshqargan: normannlar, plantagenetlar, lankasterlar, yorklar, tyudorlar, styuartlar, gannoverliklar va bugungi kunda – vindzorlar.

parlamentga o‘tdi. Angliyadagi bu boshqaruv tizimining mohiyati hozirgi kungacha o‘zgarmadi. Qirol Vazirlar Mahkamasi ishiga aralashmaydi, u esa rasman qirol nomidan ish yuritadi.

**Esga oling:** “Veto” iborasi qachon, qayerda paydo bo‘lgan va u nimani anglatadi?

**Tashqi siyosat. Buyuk Britaniya mustamlakachilik imperiyasining tashkil topishi.** Bu davrda Angliyaning tashqi siyosatidagi ikkita bosh yo‘nalishni ko‘rsatish mumkin: birinchidan, qit’adagi biron-bir davlatning kuchayib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik va ikkinchidan, yangi mustamlakalarni egallash. Angliyaning bu yo‘ldagi bosh raqibi Fransiya edi. Ikkala davlat o‘rtasidagi ispan taxti uchun bo‘lgan urush (1701–1714) Angliya uchun foydali bo‘lgan **Utrext sulhi** bilan yakunlandi. Angliya Gibraltar, Menorka oroliga, Fransiyaga qarashli bo‘lgan Gudzon ko‘rfazi qirg‘oqlaridagi keng yerlarga, ispan mustamlakalari bilan savdo qilish huquqiga hamda Amerika mustamlakalariga qullar yetkazib berish huquqiga ega bo‘ldi.



*Georg I*


Avvalroq Angliya Portugaliyaning iqtisodiy va siyosiy tobeligiga erishgan edi. Ispaniyadan Yamayka orolini hali protektorat paytidayoq tortib oldi, Ispaniya va Gollandiya bilan raqobat ham Angliya foydasiga hal bo‘ldi.

Butun XVIII asr davomida Angliya Fransiya bilan qizg‘in kurash olib bordi. O‘sha davr kishilari bu kurashni “Ikkinchi yuz yillik urush” deb atadilar. 40-yillarda savdo raqobati Amerikaga ko‘chib, Kanada uchun ochiq urushga aylandi. Inglizlar Fransiyaning Kanadadagi asosiy tayanch punktlarini egallab oldilar, 1763-yili esa fransuzlarni Kanadadan umuman siqib chiqardi.

Hindiston uchun kurash esa shiddatliroq bo‘lib, uzoqroq davom etdi. Angliyaning “Ost Indiya” kompaniyasi hali XVII asrdayoq Bombey (Mumbay)ni egallab, bir nechta mustahkamlangan portlarni barpo qildi. Fransuzlar ham bir nechta dengiz bazalari va mustahkamlangan punktlarni qurdi. Fransuzlar bilan inglizlar o‘rtasida ochiq urush XVIII asr o‘rtalarida boshlanib, inglizlar Hindistonning shimoli-sharqi — Bengaliyani tortib oldi. Keyinchalik esa Bengaliya, Bixar, Madras va boshqa bir qator viloyatlar ham inglizlar qo‘liga o‘tdi. Qator yirik hind knyazliklari Angliyaga qaram bo‘lib qoldi. Fransiya esa Hindistonda beshta joyni, uni ham mustahkamlamaslik sharti bilan o‘zida saqlab qoldi.

Shunday qilib, XVIII asrning 60-yillaridayoq Buyuk Britaniya ko‘pgina mustamlakalarga ega bo‘ldi: Shimoliy Amerikada 13 ta shtat, Kanada, Nyufaundlend oroli, Karib dengizidagi orollar, Hindistonning bir qismi va Afrikadagi faktoriyalar shular

*Utrext sulhi*


TRATADO
DE PAZ,
AJUSTADO ENTRE LAS CORONAS
DE ESPAÑA,
Y DE INGLATERRA,
EN UTRECH.
Año 1713.
CON LICENCIA
DE LOS SEÑORES DEL CONSEJO DE ESTADO.

TRACTATUS
PACIS & AMICITIÆ
INTER
TREATY
OF
PEACE and FRIENDSHIP
BETWEEN
By Her Majesties Special Command.
LONDON,

jumlasidan edi. Shu tariqa Buyuk Britaniya mustamlakachilik imperiyasiga asos solindi. Angliya “dengiz hukmroni”ga aylandi.

**Qishloq xo‘jaligidagi o‘zgarishlar.** Angliyada ikki yuz ellik yil ichida yuz bergan “agrar inqilob” oqibatida yerlar yirik mulkdorlar qo‘lida to‘plandi, dehqonlar yo‘qoldi, qishloq xo‘jaligida yollanma ishchilar asosiy kuch bo‘lib qoldi. XVII asr 70-yillariga kelib, an’anaviy yer egalari — dehqonlar qariyb qolmagan edi.

Yirik yer egaligining shakllanishi don ishlab chiqarishni ko‘paytirish uchun sharoit yaratdi, bu esa don narxining pasayishiga olib keldi. Shahar aholisining o‘sishi chorva mahsulotlariga, xususan, go‘shtga bo‘lgan talabni oshirdi va fermerlar chorvachilik bilan faol shug‘ullana boshladilar. Markazlashgan manufakturalarning soni ko‘payib, shahar bilan qishloq o‘rtasida savdo rivojlandi. Hatto savdo yangiliklarini yoritadigan gazetalar ham paydo bo‘ldi. Tobora rivojlanib borayotgan savdo manfaatlari uchun kemalar qatnaydigan kanallar qazildi, yangi yo‘llar va tosh ko‘priklar qurildi.

**Sanoat to‘ntarishi. Yangi ixtirolar.** XVIII asr o‘rtalariga kelib, Angliyada sanoat to‘ntarishi uchun sharoit yetildi.

Bu hol mamlakatning butun oldingi rivoji bilan tayyorlangan edi. Birinchidan, yakunlangan agrar inqilob juda ko‘p bo‘sh ishchi kuchlari zaxirasini yaratdi. Aholining o‘sishi tezlashdi. Ortiqcha ishchi kuchining hammasi sanoatda yollanib ishlashga tayyor edi. Ikkinchidan, mahsulotni sotish bozori shakllandi. Shaharlar soni va aholisi o‘sib bordi. Uchinchidan, mamlakat ichkarisida yer oldi-sotdisi, mustamlakalarni talash va qul savdosi natijasida savdogar va tadbirkorlar qo‘lida fabrikalar qurish va mashinalar xarid qilish uchun zarur bo‘lgan katta mablag‘lar paydo bo‘ldi. Mashinalar ixtiro qilish esa jamiyatning o‘ziga xos iqtisodiy ehtiyojiga aylandi.

Sanoat to‘ntarishi dastlab to‘qimachilikda boshlandi. Buning sabablari to‘qimachilikda ishlab chiqarishni chegaralaydigan sexlarning yo‘qligi, arzonligi va chidamliligi jihatidan hind matolari bilan bellasha oladigan mahsulotga ehtiyojning oshib borayotganligida edi. Bu ehtiyojni qondirishga faqat mashinalar yordamidagina erishish mumkinligini ko‘pchilik yaxshi tushunardi.

To‘quvchi va mexanik **Jon Key** 1733-yili to‘quv dastgohini ixtiro qildi. Bu ixtiro to‘qish jarayonini 2 marta tezlashtirdi, lekin endi yigirilgan ip tanqisligi paydo bo‘ldi.

1765-yili to‘quvchi **Jeyms Xargrivs** bir yo‘la 15–18 yigirgich ishlaydigan mexanik urchuq ixtiro qildi. U bu urchuqni o‘z qizining nomi bilan “Jenni” deb atadi. Mashina arzon, qurilishi juda sodda edi va shu sababli tezda butun dunyoga tarqaldi.

**Yodda tuting:**
**Sanoat to‘ntarishi** – manufaktura ishlab chiqarishidan mashinalar keng qo‘llaniladigan fabrika ishlab chiqarishiga o‘tish.





*Jon Key*



*Jeyms Xargrivs*

*“Jenni” to‘quv dastgohi*







Xeys




Edmund Kartrayt





Jeyms Uatt



Modsli








1767-yili duradgor **Xeys** suv g‘ildiragi (charx) bilan harakatga keltiriladigan mashina yaratdi. Bunday mashina yuqori ish unumdorligi bilan ajralib turardi. Yigiruvdagi yutuqlar mexanik to‘quv dastgohlari yaratilishini keltirib chiqardi. **Edmund Kartraytning** yangi dastgohi to‘quvchilik ishlab chiqarishi unumdorligini 40 martaga oshirdi.


**Fabrikalar** — mashinali ishlab chiqarishning butun bir tizimi paydo bo‘la boshladi. Suv dvigatellaridan foydalanish fabrikalarni faqat daryo bo‘ylarida qurishga majbur qilardi. **Jeyms Uatt** tomonidan universal bug‘ mashinasining yaratilishi esa boshqa yerlarda ham fabrikalar qurish imkoniyatini berdi.

XVIII asr oxirlari boshqa muhim ixtirolar bilan ham ajralib turadi. Xususan, metallurg **Kort** metallarni prokatlash stani (chig‘irlash ustaxonasi)ni ixtiro qildi, **Modsli** esa tokarlik dastgohini yaratdi.

Yangi texnikalarning kashf etilishi sanoatning yangidan tashkil etilishiga olib keldi. Manufaktura o‘rnini fabrikalar egalladi. Sanoat to‘ntarishi mehnat unumdorligini ulkan yuksalishga olib kelgan haqiqiy sanoat inqilobi edi.

**Luddchilik harakati.** Sanoat to‘ntarishi davrida ishchilarning birinchi ommaviy harakati — mashina va dastgohlarni buzuvchilar harakati paydo bo‘ldi. Bu yillarda maoshlar qisqarib ketdi, ishsizlik ko‘paydi. Ko‘pgina ishchilar o‘zlarining achinarli ahvoliga mashinalarni aybdor deb hisoblardilar. Shu sababli mashinalarni buzish harakati keng ko‘lamda avj oldi. Bu harakat ishtirokchilari go‘yoki birinchi bo‘lib dastgoh buzgan afsonaviy ishchi Ned Ludd nomi bilan o‘zlarini “luddchilar” deb atadilar.





Tobora keng quloch yoyib, avj olib ketayotgan luddchilikdan qo‘rqib ketgan tadbirkorlar parlamentga himoya qilishi talabini qo‘ydi. Shundan so‘ng parlament 1769-yili mashinalarni buzganlik uchun o‘lim jazosi berish haqida qonunni qabul qildi. 40 nafar luddchi qatl etildi.

Buyuk ingliz shoiri Jorj Bayron bu voqealar xususida afsus bilan yozgan edi:

*Ajabmasmi, ochlik mehmonga kelib,*
*Qashshoq jon holatda faryodlar ursa.*
*Dastgoh sindirganning suyagi sinib,*
*Hayot paypoqdan ham arzonroq tursa.*

Ingliz xalqi uchun qishloq xo‘jaligidagi taraqqiyot, savdodagi birinchilik va sanoat inqilobi juda qimmatga tushdi.

***Shu tariqa Angliyada yuz bergan inqilob tufayli hokimiyat feodallar qo‘lidan burjuaziyaga o‘tdi, feodal munosabatlar va ularning qoldiqlari yo‘q qilindi. Kapitalizm taraqqiyoti uchun shart-sharoitlar paydo bo‘lib, ishchilarning shaxsiy ozodligi, kapital to‘planishi, ichki bozor rivojlanishi, mustamlakalar boyliklarining talanishi, manufakturadan fabrika ishlab chiqarishiga o‘tish, chetga kapital chiqarishning boshlanishi kabilar jamiyatning qiyofasini tubdan o‘zgartirib yubordi. Yangi texnik ixtirolar odamlarning mehnat sharoitlarini yaxshilashga, ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga olib keldi. Kishilarda boylik yig‘ish, munosib hayot kechirish hissi kuchaydi.***

***XVIII asr oxiriga kelib, Angliya dunyoning birinchi sanoat mamlakatiga aylandi.***

**Savol va topshiriqlar**

1. Angliyaning tashqi siyosatdagi muvaffaqiyatlarining sababi nimada? Angliyada ro‘y bergan “agrar inqilob”ning asosiy belgilari nimalardan iborat?
2. Nima uchun sanoat to‘ntarishi dastlab to‘qimachilikda boshlandi?
3. Angliyada kapitalizmning rivojlanishi bilan qaysi sinflar paydo bo‘ldi? Nima uchun ular o‘rtasida ziddiyat mavjud edi?
4. Luddchilar tomonidan mashina va dastgohlarning buzilishi ishchilar ahvolini yaxshilay oladimi?

**Ijodiy ish topshirig‘i:**

1. XVIII asrda Angliya tomonidan mustamlakaga aylantirilgan hududlarni xaritadan toping.
2. Matn va internet manbalaridan foydalanib, XVIII asrda sanoat inqilobiga asos bo‘lgan ixtirolarning rasmini toping, albom tuzing va quyidagi jadvalni to‘ldiring:

| Ixtirochining ismi sharifi | Yaratilgan ixtiro va uning sanasi | Ixtironing ahamiyati |
|---|---|---|
| | | |
| | | |

**Atamalar mazmuni:**
***Faktoriya*** (*fr. factorie*) – boshqa davlat yoki mustamlaka hududida xorijiy (ko‘pincha, yevropalik) savdogarlar tomonidan tashkil etilgan savdo manzilgohi.
***Uniya*** (*lot. birlashmoq*) – bir monarx boshchiligidagi davlatlar ittifoqi.

**Xarita bilan ishlashga doir topshiriq:** Bugungi kunda davlatning rasmiy nomi – Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo‘shma Qirolligi. Uning tarkibiga qaysi davlatlar kiradi?

# 7-MAVZU. “DAVLAT — BU MEN!”: FRANSIYADA MUTLAQ MONARXIYA



*Genrix IV*



*Lyudovik XIV*

**Siz bilib olasiz:**
– Fransiyada qirol hokimiyatining mustahkamlanishini;
– Fransiyadagi agrar munosabatlarni;
– manufaktura va savdoning rivojlanishini.

**Qirol hokimiyatining mustahkamlanishi.** XVII asr boshlarida Fransiya iqtisodiy o‘sish davrini boshdan kechiradi. Bunga qirol **Genrix IV** davrida soliqlarning kamaytirilishi, manufakturalar uchun qulay moliyaviy sharoitning yaratilishi, ishlab chiqarishni rag‘batlantiruvchi boj soliqlarining joriy qilinishi, texnik qulayliklarning qo‘llab-quvvatlanishi orqali erishildi. Qirol bilan burjuaziya o‘rtasidagi ittifoq mustahkamlanib, xalqning noroziligi ham pasaydi. Natijada muxolifatning harakati uchun ijtimoiy asos ham ancha qisqardi.

Fransiyada mutlaq monarxiyaning uzil-kesil mustahkamlanishi kardinal Rishelyo ministr bo‘lgan yillarga (1624–1642) to‘g‘ri keladi. Bu davrda kardinal Rishelyo hukumati tomonidan gugenotlarning siyosiy avtonomiyasi yo‘q qilindi, feodal zodagonlarning isyoni bostirildi, mahalliy hokimiyatlarning huquqlari provinsiyalar boshqaruvchilari foydasiga qisqartirildi.

1661-yili hokimiyatga kelgan **Lyudovik XIV** Fransiyani amalda 54 yil boshqardi. Mamlakatda dvoryanlar pozitsiyasini mustahkamlash uchun doimiy intilish yangi qirol siyosatining asosiy yo‘nalishi bo‘lib qoldi. Ammo vaqt bu siyosatning kaltafahmlik va halokatli ekanligini ko‘rsatdi. Lyudovik XIV ning dastlabki qadami birinchi ministr lavozimini bekor qilishdan boshlandi. Bu vazifani qirolning o‘zi bajaradigan bo‘ldi. Bu bilan qirol ilgari birinchi ministrga yo‘naltirilgan xalq noroziligi va nafratini endi o‘ziga qaratdi. Keyin u parlamentning huquqlarini keskin qisqartirdi. So‘ng burjuaziyaga qarshi kurash boshlandi. Ular katta pulga sotib olgan dvoryanlik unvonlari, huquq va lavozimlaridan mahrum qilindi. Keyin qirolning nafrati davlat soliqlarini sotib oluvchilarga qaratildi, ularning ko‘pchiligi sudga tortilib, qamaldi.

Shu tariqa Fransiyada qirol hokimiyati mustahkamlandi, Lyudovik XIV ni endi **“Qirol-Quyosh”** deb atay boshladilar. Qirolning mutlaq monarxiyaga asoslangan boshqaruv tizimi mohiyatini u saroy a’yonlariga qarata aytgan: “Janoblar, siz o‘ylaysizki davlat — bu siz? Davlat — bu men”, — degan jumla yaqqol aks ettiradi.

Bu Fransiya tarixida juda ziddiyatli davr bo‘ldi. Bir tomondan bu davr absolyutizm asri, boshqa tomondan esa “Buyuk asr”, san’at va madaniyat gullagan asr bo‘ldi.



*Qirollik oilasi*

***Bu qiziq:***
Lyudovik XIV (1638–1715) – Fransiyani amalda 54 yil boshqardi, rasman esa u 5 yoshida qirol deb e’lon qilingan va 72 yil-u 110 kun hukmronlik qilgan. Yevropa tarixida eng ko‘p vaqt taxtda o‘tirgan qirol. Unga tegishli gaplardan biri: “Fuqarolarning huquqlari yo‘q, faqat majburiyatlari bor”.

Lyudovik XIV san’atni qo‘llab-quvvatladi, unga homiylik qildi, ammo qirol shaxsi — uning siyosiy vazifalari, falsafiy qarashlari, didi va shaxsiy moyilligi davrning madaniy hayotini belgilab berdi.

Lyudovik XIV ning fikricha, san’at bitta maqsadga — uning sulolasini, avvalo, uning o‘zini ulug‘lashga xizmat qilishi lozim.

**Fransiyada agrar munosabatlar.** XVII asrda Fransiyaning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti ziddiyatli xarakterga ega edi. Kapitalistik munosabatlarning kirib kelishi natijasida yuz bergan iqtisodiy o‘sish, absolyutizmning mustahkamlanishi, soliqlarning oshishi, xalq ommasi ahvolining yomonlashuvi va doimiy xalq qo‘zg‘olonlari bilan qo‘shilib ketdi. Yangi iqtisodiy munosabatlar, ayniqsa, qishloqda juda qiyinchilik bilan o‘ziga yo‘l ochayotgan edi.

Butun XVII asr davomida klassik feodalizmning vatani Fransiya bo‘lib qoldi. Yevropaning boshqa hech bir mamlakatida feodal munosabatlar Fransiyadagi singari mukammal bo‘lmagan edi. Fransiyaning iqtisodiy hayotida ham kapitalistik munosabatlar borgan sari katta o‘rin egallasa-da, hukmron sinf avvalgidek dvor- yanlar bo‘lib qolaverdi. Angliyadan farqli ravishda, Fransiyada dvoryanlar burjua-lashmadi, aksincha, burjuaziyaning dvoryanlashuvi yuz berib, bu ijtimoiy hayotda feodalizm hukmronligining yaqqol ko‘rinishi bo‘ldi. Kapitalistik sektorda yaratilgan boyliklarning katta qismi Angliyadagi kabi sanoatni rivojlantirishga emas, feodal mulk, unvonlar, lavozimlar sotib olishga va absolyut monarxiyaga qarz berishga sarflandi.

Kapitalistik munosabatlar fransuz qishloqlariga juda sekin, asosan, dehqonlarning mulkiy qatlamlashuvi va ular o‘rtasida yangicha munosabatlarning, masalan, o‘zaro shajaraning shakllanishi tarzida kirib keldi. Kapitalizm qishloqqa hunarmandchilik sanoatining rivojlanishi tarzida ham joriy qilindi. Shaharlik xaridorlar uchun dehqonlar turli tovarlar — ip, mato, sopol va boshqa buyumlar tayyorlar edi. Bu o‘ziga xos tarqoq manufaktura bo‘lib, Fransiya ular asosida yirik sanoat manufakturasining vataniga aylandi. Kapitalning dastlabki jamg‘arilishi, o‘z yeridan ayrilgan dehqonlarning mavjudligi ham bunga sabab bo‘ldi.

Biroq sanoat va savdodagi muvaffaqiyatlar oldida qishloq xo‘jaligidagi turg‘unlik, ayniqsa, ko‘zga tashlanarli edi. XVII asrning so‘nggi ellik yilida o‘nga yaqin qurg‘oqchilik yillari kuzatilib, ochlik umummamlakat miqyosida rostakam ofatga aylandi. Faqat keyingi davrda ichki bozorning kengayishi aholining o‘sishiga olib keldi.

Savdo va sanoatning muhimligiga qaramasdan, Fransiya iqtisodiyotining asosiy sohasi agrar ishlab chiqarish bo‘lib qolaverdi. Bu sohaga texnologik yangiliklarning qanchalar sekin kirib kelishi barchaga ma’lum. Bu shunchalar sekin ediki, tarixchilarning yozishicha, Yevropa qishloqlari to XIX asrgacha O‘rta asrlarda qolib ketdi. Ushbu ta’kidga qaramasdan, aytish lozimki, qishloq xo‘jaligida ham sezilarli siljishlar yuz berdi. Fransiya qishloq xo‘jaligida ma’rifatchilik jamiyatlari hukumatning faol yordamiga tayangan holda agrar ishlab chiqarishning eng yangi usullarini targ‘ib qildi. Vaqt o‘tishi bilan bu harakatlar o‘z natijasini berdi. Agronomiya fanining ilg‘or yutuqlari asta-sekin dehqonlar tomonidan o‘zlashtirilib, keng ko‘lamda qo‘llanila boshlandi. Ayniqsa, dvoryanlar va fermerlarning bozorga yo‘naltirilgan yirik xo‘jaliklari qishloqlarda kapitalizmning o‘ziga xos asosiga aylanib, agronomiya fani yangiliklarini jadal joriy qildi.

Davlat tomonidan jadal ravishda yo‘llar, ko‘priklar va kanallarning qurilishi ichki savdoning kengayishi va turli mintaqalarning bozor uchun alohida mahsulotlar yetishtirish bo‘yicha ixtisoslashuviga olib keldi.



*Kardinal Rishelyo*

**Esga oling:** Manufakturaning asosiy belgilari nimalardan iborat?

**Yodda tuting:** Ochlik va kasallikdan minglab odamlarning qirilishi natijasida Fransiya aholisi 1650-yilgi 20 mln dan 1710-yili 16–17 mln kishigacha kamayib ketdi.

**O‘zingizni sinang:** Agronomiya fani yutuqlariga nimalar kiradi?



*Jan Batist Kolber*

**Manufaktura va savdoning rivojlanishi.** XVII asrning ikkinchi yarmi, ayniqsa, 1665–1685-yillari Fransiya sanoatida sezilarli o‘sish yuz berdi. Toshko‘mir qazib chiqarish boshlandi, metallurgiya mahsulotlari ko‘paydi, ishlab chiqarishning ko‘plab sohalariga tarqoq manufaktura va hunarmandchilik o‘rniga markazlashgan manufaktura kirib kela boshladi. Manufaktura tashabbusini qo‘llab-quvvatlash, ayniqsa, savdo, sanoat va moliya bosh nazoratchisi **Jan Batist Kolber** davrida hukumatning asosiy iqtisodiy siyosatiga aylandi. Bu davrda mustamlakalar Fransiya sanoati uchun xomashyo va arzon ishchi kuchi manbai bo‘lib xizmat qildi. Kolber Fransiya mustamlaka imperiyasining asoschisiga aylandi.

XVIII asrda Fransiya tez rivojlanayotgan va qudratli iqtisodiyotga ega mamlakatga aylanib bordi. 1720–1780-yillari iqtisod, ayniqsa, mustamlakalar bilan savdoga aloqador sohalar jadal rivojlandi. Yuzlab fransuz kemalari Atlantika okeani orqali Afrikaga rom va matolar olib borar, u yerdan qora tanli qullarni yuklab, Vest Indiya plantatsiyalariga eltar, plantatsiyalardan esa shakarqamish, kofe, indigo va paxta yuklab, Yevropaga qaytib kelardi. Mustamlakalardan keltirilgan xomashyo qirg‘oq bo‘yidagi ko‘p sonli korxonalarda qayta ishlanar, asosiy qismi mamlakatning o‘zida iste’mol qilinib, qolgani chetga sotilar edi.

Atlantika orqali yo‘lga qo‘yilgan savdo kemasozlik, to‘qimachilik va oziq-ovqat sanoatining rivojlanishini rag‘batlantirdi. Bunda savdoning umumiy hajmi to‘rt marta ko‘payib, Fransiya Angliyadan keyin dunyoda ikkinchi o‘ringa chiqdi. Fransiyaning tashqi savdosi jadal rivojlangani uchun ikki mamlakat savdo hajmi o‘rtadagi farq jadal qisqarib bordi va hatto XVIII asr o‘rtalarida tenglashdi. Ammo Fransiya o‘zi uchun muvaffaqiyatsiz yakunlangan **Yetti yillik urush** (1756–1763) oqibatida Shimoliy Amerika, Hindiston va Afrikadagi mustamlakalaridan ayrildi, faqat Vest Indiyada bir nechta orollarni saqlab qoldi.

Shunga qaramasdan, Fransiya saqlanib qolgan dengizorti mustamlakalarida xo‘jalikni jadal rivojlantirish, ular bilan savdo hajmini muttasil oshirib borish evaziga yana Angliyani quvib yetdi. Ammo Fransiyadagi inqilob rivojlanishning jadal sur’atlarini saqlab qolish imkonini bermadi.




**Xarita bilan ishlashga doir topshiriq:** Vest Indiya qayerda joylashganini xaritadan ko‘rsatib bering.

Bu davrda og‘ir sanoat ham katta yutuqlarga erishdi. Boy dvoryanlar oilalari sohaga yirik sarmoyalar kiritishdi. 1780-yillarda mamlakatdagi metallurgiya korxonalarining yarmidan ko‘pi dvoryanlarga tegishli edi. Aynan shu korxonalarda birinchi bo‘lib koksdan foydalangan holda cho‘yan eritish boshlandi, birinchi bug‘ mashinalari ham shu korxonalarda qo‘llanildi. Texnologik rivojlanishning bunday yuqori darajasiga o‘sha paytda faqat Fransiya va Angliya erishgan edi.

Biroq bu davrda Fransiyani Angliya yoki Niderland kabi kapitalistik mamlakat deb atash mumkin emasdi. Mamlakatda ichki bojxona chegaralari saqlanib qolgan bo‘lib, bu umumiy bozorning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Shaharlarda hunarmandlarning sexlari faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, sanoat ishlab chiqarishi kam rivojlangan edi. Tarixchilarning yozishicha, 1790-yili Fransiyada hammasi bo‘lib 900 ta “Jenni” to‘qimachilik dastgohi bo‘lsa, Angliyada esa ular soni 20 mingdan ko‘p bo‘lgan.

XVIII asr oxirlarida tashqi siyosatda yuz bergan o‘zgarishlar ham Fransiyada kapitalizmning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Xususan, Shimoliy Amerikada boshlangan mustaqillik uchun kurashga Yevropa mamlakatlarining munosabati turlicha bo‘ldi. 1778-yil Fransiya Shimoliy Amerika shtatlari bilan ittifoqchilik shartnomasini tuzdi. Bu shartnoma shu yili Fransiya va Angliya o‘rtasidagi urushga olib keldi.

***Aynan shu davrda insonning jamiyatdagi qaysi tabaqaga mansubligidan qat’i nazar, barchaning tengligi, qirol hokimiyatini cheklash va hokimiyatning bo‘linishi haqidagi g‘oyalar keng tarqala boshladi. Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi mustaqillik uchun kurash va qabul qilingan konstitutsiya misolida odamlar o‘z intilishlarining amalga oshishiga ishonch hosil qila boshladi. Bu esa boshqa sabablar bilan qo‘shilib, Fransiyada burjua inqilobini muqarrar qilib qo‘ydi.***

**Atamalar mazmuni:**
***Gugenotlar*** – XVI–XVIII asrlarda Fransiyada protestant (kalvinizm) tarafdorlari. Ular, katoliklardan farqli, odam o‘z ruhini cherkov aralashuvisiz ham qutqarishi mumkinligiga ishonishgan, xristian dinida dabdabali marosimlar va ortiqcha xarajatlarga qarshi chiqishgan.

### Savol va topshiriqlar

1. Fransiyada mutlaq monarxiyaning uzil-kesil mustahkamlanishi qaysi kardinal nomi bilan bog‘liq? Uning siyosati haqida gapirib bering.
2. Fransiya qiroli Lyudovik XIV siyosatining asosiy yo‘nalishi haqida nimalarni bilasiz?
3. Lyudovik XIV ning: “Janoblar, siz o‘ylaysizki davlat — bu siz? Davlat — bu men!” — so‘zlarini qanday izohlaysiz?
4. Fransiyada XVII asr qishloq aholisining hayotini tasvirlab bering.
5. XVIII asrda Fransiyaning tez rivojlanayotgan va qudratli iqtisodiyotga ega mamlakatga aylanishining sabablarini tushuntiring.
6. Fransiya iqtisodining rivojlanishida dengizorti mustamlakalari qanday rol o‘ynagan?

**Ijodiy ish topshirig‘i:**

Savdo, sanoat va moliya bosh nazoratchisi Jan Batist Kolber tomonidan amalga oshirilgan merkantilizm va proteksionizm siyosatining mohiyati haqida ma’lumot yig‘ing va tushuntirib bering.

**Internet bilan ishlashga doir topshiriq:**
1572-yilgi Varfolomey kechasi haqida ma’lumot toping va o‘qing.



*Lyudovik XVI*



*Sharl Lui de Monteskyo*

**Esga oling:**
**General shtatlar** – Fransiyada 1302–1789-yillarda faoliyat yuritgan oliy tabaqaviy vakillik organi. Bu organ jamiyat turli qatlamlarining davlat boshqaruvi va qonun loyihalarini ishlab chiqishga ta'sir etadigan hokimiyat tashkiloti. Masalan, Angliyada bu organ "parlament" deb ataladi.

## 8-MAVZU. FRANSIYA BURJUA INQILOBI

**Siz bilib olasiz:**
– Buyuk fransuz burjua inqilobining sabablari va boshlanishini;
– burjuaziya hokimiyat tepasiga kelishini;
– qirolning ag'darilishi va respublikaning e'lon qilinishini;
– yakobinchilar diktaturasining o'rnatilishi va halokatini;
– 1795-yilgi konstitutsiya va birinchi Direktoriyani.

**Buyuk fransuz burjua inqilobining sabablari va boshlanishi.** Qirol **Lyudovik XV** nabirasi **Lyudovik XVI** ga mamlakatni xarob holatda qoldirdi: xazinada deyarli pul qolmagan, aholi esa urushlar va hukumatning o'zboshimchaliklaridan charchagan edi.


1788-yilga kelib, mamlakatning xarajatlari uning daromadidan 20 foizga ortib ketdi — iqtisodiy inqiroz boshlandi. Davlatning tashqi qarzi besh milliard livrga yetdi. Buyuk Britaniya bilan tuzilgan foydasiz savdo shartnomasi import tovarlarini mahalliy tovarlardan arzon qilib qo'ydi, ko'plab korxonalar kasodga uchradi, ishsizlik boshlandi. Qurg'oqchilik va uning ortidan g'alla hamda vinoning narxi ko'tarilib ketishi ahvolni yanada og'irlashtirdi.

Oddiy odamlar ishidan ayrilib, och qolgan va burjuaziya (tadbirkorlar) juda katta boj solig'idan qiynalgan bir paytda qirol saroyi va zodagonlar kundalik ziyofat va ko'ngilxushliklarini davom ettirdi.

Fransuz jamiyati uchta tabaqaga bo'lingan edi. **Birinchi tabaqa** — ruhoniylar, **ikkinchisi** — dvoryanlar, **uchinchisi** — oddiy odamlar: dehqonlar, ishchilar, burjuaziya va kambag'allar. Birinchi va ikkinchi tabaqa hammasi bo'lib mamlakat aholisining 6 foizini tashkil qilar va soliq to'lamas edi.

Shunday adolatsizlik holatida **Sharl Lui de Monteskyo**, **Jan Jak Russo** va **Volter** kabi fransuz ma'rifatparvar faylasuflarining g'oyalari ommalashib bordi. Ular turli tabaqa kishilari bir-biridan mutlaqo farq qilmaydi, demak, ular bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lishi lozim, deya ta'kidlar edi. Hukumatning bu g'oyalarga qarshi kurashi ma'rifatparvarlarning yanada mashhur bo'lishiga olib keldi, xolos.

Qirol Lyudovik XVI mamlakat uchun og'ir sharoitda qaror qabul qila oladigan qat'iyatli va kuchli hukmdor emasdi. Shunga qaramasdan, hatto u ham mamlakatni qutqarish, iqtisodni tiklash uchun barcha soliq to'lashi lozimligini tushunib yetdi.



*General shtatlar majlisi*

Ammo qirol tomonidan chaqirilgan oliy ruhoniylar va zodagonlar yig‘ilishida ular soliq to‘lashdan bosh tortdi. Shunda qirol so‘nggi 175 yildan beri yig‘ilmagan General shtatlarni — barcha tabaqa va barcha provinsiyalar vakillari yig‘ilishini chaqirishini e’lon qildi.

1789-yil 5-may kuni qirol Lyudovik XVI General shtatlar majlisini ochdi. U o‘z nutqida aholiga yangi soliqlar joriy qilishni so‘radi. Qirolning nutqi uchinchi tabaqa vakillarining noroziligiga sabab bo‘ldi. Parijlik aholi ham deputatlardan qat’iy qarorlar talab qilib, Versal tomon kela boshladi. Shundan so‘ng uchinchi tabaqa deputatlari o‘z yig‘ilishini **“Milliy kengash”** deb e’lon qildi. Birinchi va ikkinchi tabaqa deputatlaridan islohot tarafdorlari bo‘lganlar ularga qo‘shildi. Milliy kengash absolyutizmni tugatishga qaror qildi.

Uchinchi tabaqa qarashlarining ifodachisi **Onore de Mirabo** bo‘ldi. U boy va mashhur oiladan chiqqan, tajribali hamda dono siyosat arbobi edi. Mirabo uchinchi tabaqani birlikka chaqirdi.

Shu orada Milliy kengash o‘zini **“Milliy ta’sis majlisi” (“Assemblee nationale constituante”)** deb e’lon qildi. Parij gazetalari inqilob bir tomchi ham qon to‘kilmasdan yakunlandi, deb yozdilar. Ammo Parij xotirjam emasdi.

**Bastiliyaning olinishi — inqilobning boshlanishi.** O‘zgarishlardan norozi bo‘lgan olomon 1789-yil 14-iyulda Bastiliya qal’asiga bostirib kirdi. Qal’adagi qo‘shinlar taslim bo‘ldi, qal’a komendanti qatl etildi. Shu tariqa inqilob olomonning shafqatsiz terrori bilan boshlandi.

Lyudovik XVI qo‘zg‘olonchilarga yon berishga qaror qildi. Qirol Ta’sis majlisini tan oldi. Poytaxtda hokimiyat shahar kengashi qo‘liga o‘tdi. Hukmron doiralarning mavjud ziddiyatlarni o‘z vaqtida hal qila olmaganligi shu tarzda inqilobga olib keldi. Absolyut monarxiya quladi.

**Burjuaziya hokimiyat tepasida.** Absolyutizmning qulashi bilan hokimiyat yirik burjuaziya qo‘liga o‘tdi, ammo mamlakatda tinchlik o‘rnatilmadi. Butun mamlakatni inqilob va dehqonlar qo‘zg‘olonlari qamrab oldi. Ta’sis majlisi 1789-yili **“Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi”**ni qabul qildi. U so‘z va matbuot erkinligi hamda xususiy mulkning daxlsizligi kabi burjua huquqlarini e’lon qildi. Deklaratsiyaning mohiyati **“Ozodlik, Tenglik, Birodarlik”** degan uchta so‘zda o‘z ifodasini topdi.

1791-yil sentyabrda Ta’sis majlisi Fransiya tarixida ilk konstitutsiyani qabul qildi. Unda qirol hokimiyati cheklandi. Shu tariqa Fransiyada konstitutsion monarxiya rejimi va yirik burjuaziyaning hokimiyati o‘rnatildi, shu bilan inqilobning birinchi bosqichi yakunlandi.



*Bastiliyaning olinishi*

**Yodda tuting:**
**Milliy ta’sis majlisi** — Buyuk fransuz inqilobi davridagi Fransiyaning (1789–1791) oliy vakillik va qonun chiqaruvchi organi. General shtatlar o‘rniga tuzilgan.



*Jan Jak Russo*



*Volter*



*Onore de Mirabo*

***Bu qiziq:***
**Bastiliya** – bu Parijdagi qal'a va qamoqxona. Uning mahbuslari qatorida nafaqat taniqli odamlar, masalan, faylasuf Volter, balki Didroning mashhur 35 jildli "Ensiklopediya" kitobi ham bo'lgan. 1791-yilda Bastiliya butunlay vayron qilingan. 14-iyul Fransiya milliy bayrami sifatida nishonlanadi.

Inqilob jarayonida fransuz jamiyati turli siyosiy oqimlarga bo'linib ketdi. Ta'sis majlisi deputatlaridan qirol tarafdorlari bo'lganlar "o'nglar" yoki "royalistlar" ("*royal*" — "qirol") deb ataldi. So'l deputatlarning ko'pchiligi Jironda departamentidan saylanganligi tufayli ular "jirondachilar" degan nom olishdi.

Ayni paytda inqilob hali oxiriga yetgani yo'q, o'rta va kichik burjuaziya hokimiyatga kelmadi, dehqonlarga yer berilmadi, deb hisoblovchilar ham anchagina edi. Bu o'ta so'l oqim yakobinchilar (ular Avliyo Yakob monastirining kutubxonasida yig'ilganligi uchun shunday atalgan) faoliyatida o'z ifodasini topdi.

**Qirolning ag'darilishi va respublikaning e'lon qilinishi.** 1791-yili yangi Qonun chiqaruvchi majlis o'z ishini boshladi. U zafarli urush mamlakatda vatanparvarlik hissini kuchaytiradi va inqilobiy holatni bartaraf etadi, degan fikr bilan Avstriyaga qarshi urush e'lon qildi. Fransuzlar Belgiyaga qo'shin kiritdi, bunga javoban, avstriyaliklar va prussiyaliklar Fransiyaga bostirib kirdi hamda bir necha qal'ani egallab oldi. Fransiyaga qarshi urushga Angliya ham qo'shildi.

Shunda Qonun chiqaruvchi Majlis "Vatan xavf ostida!" degan chaqiriq bilan xalqqa murojaat qildi. Valmi qishlog'i yaqinidagi jangda fransuz qo'shinlari pruss armiyasi hujumlarini qaytardi. Bu mamlakatni bosqinchilardan ozod qilishning boshlanishi edi. Shu kuni, ya'ni 1792-yil 22-sentyabrda Konvent monarxiyani bekor qilish va Fransiyada respublika tuzumini o'rnatish to'g'risida dekret qabul qildi.

Poytaxtda Milliy gvardiya va ko'ngillilar lashkari qirol saroyini qurshab oldi. Qirol Lyudovik XVI oilasi bilan birga qamoqqa olindi.

Shu tariqa inqilobning ikkinchi bosqichida monarxiya ag'darib tashlandi. Ko'pgina monarxistik gazetalar yopildi, sobiq vazirlar qamoqqa olindi. Balog'at yoshidagi barcha erkaklarga saylash huquqi berildi.

**Yakobinchilar diktaturasining o'rnatilishi va halokati.** Konventning qaroriga binoan, 1793-yil yanvarda qirol Lyudovik XVI qatl qilindi. Bu hodisa Angliya va Ispaniyani Fransiyaga qarshi urushga chorladi. Avstriya armiyasi hujumga o'tdi. Fransuz qo'shinlari mag'lubiyatga uchray boshladi. Yakobinchilar va oddiy xalq bunda jirondachilarni aybladi. Ayni paytda yakobinchilarning obro'yi ortib bordi, Fransiyada hokimiyat yakobinchilarga va ularning yo'lboshchilari — **Robespyer, Marat, Dantonlarga** o'tdi. Ular shafqatsiz terror boshqaruvini o'rnatdi. Jirondachi deputatlar qatl qilindi. Aksilinqilobchilar esa qamoqlardan shahar tashqarisiga olib chiqilib, otib tashlandi. Yakobinchilarning shafqatsizligi chegarasiz, ayovsiz va ma'nosiz edi.

Konventda Robespyer va uning tarafdorlariga qarshi fitna yetilib borardi. 1794-yil 27-iyulda Robespyer Konventda gulduros qarsaklar ostida qamoqqa olindi.



***Robespyerga qarshi fitna***

Robespyer va uning tarafdorlari qonundan tashqari deb e'lon qilindi va o'sha kuni gilyotinada qatl qilindi. Yakobinchilar diktaturasi quladi.

Inqilobiy o'zgarishlar tugadi. Konvent deputatlarini endi xalqning ahvoli qiziqtirmas edi. 1795-yili parijliklar Konvent ishiga ta'sir ko'rsatishga ikki marta urinib ko'rishdilar. Ular ko'targan qo'zg'olon Buyuk fransuz inqilobi davridagi parijliklarning so'nggi ommaviy chiqishlari edi.

**1795-yilgi konstitutsiya va birinchi Direktoriya.** 1795-yilning avgustida Konvent yangi konstitutsiya qabul qildi. U Fransiyada respublika tuzumini mustahkamladi, lekin umumiy saylov huquqini bekor qildi. Endi qonunchilik hokimiyati ikki palatadan — **Beshyuzlar kengashi** va **Oqsoqollar kengashidan** iborat bo'lgan qonunchilik korpusiga berildi. Ijro hokimiyati Oqsoqollar kengashi tayinlaydigan, besh kishidan iborat Direktoriyaga topshirildi. Shu bilan birga, 1795-yilgi konstitutsiya inqilobning barcha antifeodal yutuqlarini, eng muhimi esa emigrantlarning, cherkovning va taxtga qarashli yerlarning sotilishi qonuniyligini tasdiqladi.



*Napoleon Bonapart*

Yangi konstitutsiya monarxiya tarafdorlarini quturtirib yubordi va ular Konventni tarqatib yuborishga urinib ko'rdilar, lekin muvaffaqiyatsizlikka uchradilar. Artilleriya yordamida isyonchilarni tor-mor qilgan general **Bonapart** Konventning xaloskoriga aylandi.

Napoleon Bonapart Tulon shahrini olgani uchun ham yakobinchilar undan qarzdor edilar. Bu voqealardan keyin uni birdaniga diviziya generali darajasiga ko'tarishdi va "Fransiyaning ichki harbiy kuchlari qo'mondoni" etib tayinlashdi.

Hokimiyat tepasiga kelgan yirik burjuaziya o'zga yurtlarni bosib olishdan manfaatdor edi va Direktoriya davridagi Fransiya olib borgan urushlar bosqinchilik xarakteriga ega bo'ldi. Reynning so'l qirg'og'i va Belgiya Fransiyaga qo'shib olindi, Gollandiya esa qaram respublikaga aylantirildi. Bosib olingan yerlarda fransuzlar feodal tartiblarni yo'q qildilar.

1796-yili Napoleon boshchiligidagi qo'shinlar avstriyaliklar egallab turgan Shimoliy Italiyaga bostirib kirdi. Napoleon Pyemontni egallab, Milanga qarab yurish boshladi. Bir qator gersogliklar Bonapartga bo'ysunishlarini izhor qildilar. To'rtta armiya tor-mor etildi va 1797-yil oktyabrda Bonapart Kampo-Formio degan joyda Avstriyani Fransiyaning g'alabasini tan olishga va sulh tuzishga majbur qildi. Keyinchalik Italiya hududida Fransiyaga qaram bo'lgan bir nechta respublika tashkil topdi. Shveysariyaga ham xuddi shunday taqdir nasib etdi.



*Avstriya – Fransiya urushi. 1796-yil*



*Napoleonning Misrga yurishi*

1798-yili Napoleon 350 kemaga joylashgan qo‘shini bilan Misrga, keyin esa Suriyaga yurish qildi. Keyingi yili Napoleon Fransiyaga qaytib keldi. Parij g‘olib qo‘mondonni olqishlar bilan kutib oldi.

Bu paytda Direktoriya hokimiyati xalq orasida obro‘ga ega emasdi, “yangi boylar” ham Direktoriyani yoqtirishmas edi. Shunday sharoitda hokimiyatga qarshi fitna pishib yetildi. Fitnachilar Misrdan qaytgan Napoleondan asosiy kuch sifatida foydalanishga qaror qildilar, Bonapart ham bunga rozilik bildirdi. 18-bryumer (9-noyabr)da huku-mat boshlig‘i harbiylar tazyiqi ostida iste’foga chiqdi. Ertasi kuni, ya’ni 19-bryumerda Parij yaqinidagi **Sen Klu** degan joyda yig‘ilish o‘tkazayotgan Oqsoqollar ken-gashi va Beshyuzlar kengashi 4–5 ming kishilik qo‘shin tomonidan o‘rab olindi. Qo‘rqib ketgan Oqsoqollar kengashi taklif qilingan idora usuli — Konsullikni darhol tasdiqlashdi. Beshyuzlar kengashi ham bu qarorni tasdiqladi. Konsullik uch kishidan iborat ijroiya hokimiyati bo‘lib, ulardan har biri **“Fransuz Respublikasining konsuli”** unvoniga ega bo‘ldi. Saylangan uch konsuldan biri Napoleon Bonapart edi.

Shu tariqa inqilob o‘z nihoyasiga yetdi. U eski tartiblarni yo‘q qilib tashladi: feodal qoidalar va absolyutizm tugatildi; dehqonlar yer oldi; Fransiya respublika deb

*Parijning g‘olib qo‘mondonni olqishlar bilan kutib olinishi*



e’lon qilindi. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati shakllanishi uchun asos solindi. Burjua mulkchiligi o‘rnatildi va sanoat to‘ntarishi uchun sharoit yaratildi.

***Buyuk fransuz inqilobi butun dunyo tarixi uchun ham ma’lum ma’noda burilish nuqtasi bo‘ldi. U olg‘a surgan g‘oyalar — Ozodlik, Tenglik, Birodarlik faqat Yevropaning emas, balki boshqa qit’alar xalqlarining ham keyingi rivojiga arzigulik ta’sir ko‘rsatdi.***

***Shuningdek, inqilob tarixi ko‘plab xalqlar uchun katta saboq ham bo‘ldi. Uning ayovsiz qirg‘inlari, barcha muammolarni hal etishning vositasi sifatida terrorning qo‘llanilishi, siyosiy muxoliflarning jismoniy yo‘q qilinishi kabilar ham inqilob keltirgan dahshatli reallik bo‘ldi.***



***Antuan Lavuaze***

**Atamalar mazmuni:**

**Konvent** — 1792–1795-yillarda Fransiyaning oliy qonun chiqaruvchi organi.

**Terror** (*lot. terror* — qo‘rquv, dahshat) — bu o‘z siyosiy raqiblarini jismoniy zo‘ravonlik ishlatish, shu jumladan, o‘ldirish orqali qo‘rqitish siyosati.

**Gilyotina** — odam boshini tanasidan judo qilish orqali o‘lim jazosini amalga oshirish mexanizmi. U birinchi marta 1792-yilda fransuz vrachi Jozef Gilotenning taklifi bilan Fransiyada qo‘llanilgan. Ushbu mexanizm “insonparvarlik bilan qatl qilishning vaqtinchalik vositasi” deb nomlangan. Fransiyada 185 yil davomida ishlatilgan, qirol va malikaning, ko‘plab zodagonlar va inqilobchilar, zamonaviy kimyo fanining asoschisi **Antuan Lavuaze**, shuningdek, minglab aybsiz odamlar va haqiqiy jinoyatchilar hayotiga zomin bo‘lgan.

**Konsul** — Fransiya burjua inqilobi yillari Direktoriya o‘rniga joriy etilgan ijroiya hokimiyatining uchta rahbaridan biri. Konsullik 1799–1804-yillari amal qilgan.

**Direktoriya** — 1795–1799-yillarda Fransiya Respublikasining besh kishi (direktorlar)dan iborat hukumati.

**Savol va topshiriqlar**

1. “Fransuz inqilobining sabablari” mavzusida jadval tuzing.
2. Fransuz jamiyati qanday tabaqalarga bo‘lingan edi? Har bir tabaqaga qisqa ta’rif bering.
3. Qirol General shtatlarni chaqirishining sabablari va oqibatlarini tushuntirib bering.
4. Yakobinchilar o‘rnatgan shafqatsiz terror haqida nimalarni gapirib bera olasiz?
5. Lyudovik XVI Bastiliya egallanganligi haqida xabar topganda: “Bu isyonku!” — deydi. “Yo‘q, shohim, bu — inqilob!” — deb javob berishadi unga. Isyon va inqilob o‘rtasidagi farq haqida o‘ylab ko‘ring. Xulosalaringizni asoslang.
6. Qaysi omillar Napoleon Bonapart obro‘sining ortishini ta’minladi?
7. “Fransuz inqilobining asosiy voqealari” mavzusida quyidagi jadvalni to‘ldiring:

| Voqea | Sana | Natijalari |
|---|---|---|
| | | |

**Ijodiy ish topshirig‘i:**
1789-yilgi “Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi” matnini internetdan toping. Deklaratsiyaning qaysi g‘oyalari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘z aksini topganligini o‘rganib chiqing.

# 9-MAVZU. GERMANIYA IMPERIYASIDAGI SIYOSIY-IQTISODIY JARAYONLAR

**Siz bilib olasiz:**
– XVI–XVIII asrlarda Germaniyaning siyosiy tuzumini;
– iqtisodiy hayotini;
– xalqaro ahvolini.

**Siyosiy tuzum.** XV asr oxiri — XVI asr boshlarida nemis yerlari ilgarigidek german millati Muqaddas Rim imperiyasining tarkibiy qismi hisoblanar edi. Imperiya tarkibiga Yevropa markazidagi keng hududlar: german yerlari (Tyuringiya, Saksoniya, Vyurtemberg, Frankoniya, Reyn viloyati, Bavariya, Shvabiya va boshqalar), Markaziy Yevropadan sharqdagi bosib olingan hududlar, Gabsburglarning Avstriyadagi meros mulklari, chex taxtiga qarashli yerlar, Elzas va Lotaringiya gersogliklari, niderlandlar yerlari kirar edi. Ammo bu davrda “imperiya” tushunchasi faqat german yerlari bilan bog‘liq holda tushunilar va bu imperiyachilik qadr-qimmatiga ega bo‘lgan “nemis millati” va imperiyaning asosi bo‘lgan nemis yerlariga nisbatan aytilar edi.

XVI asrda Germaniyada protestantizm va isloh qilingan katolitsizmning qaror topishi bir qator boshqa modernizatsiya jarayonlari uchun imkoniyat yaratdi. Xususan, aholi o‘rtasida intizom kuchaydi, boshlang‘ich ta’lim va universitet ta’limi aholining barcha qatlamlari orasida keng yoyildi, turli tabaqalar orasida o‘z yangi axloq normalari shakllandi.

Siyosiy sohada, avvalo, davlat qurilishi sohasida ham yangi jihatlar paydo bo‘ldi. Davlat organlari vakolatlarining kengayishi (sud va soliq tizimining markazlashuvi, boj siyosatini amalga oshirishning boshlanishi, muntazam armiyaning tuzilishi) munosabati bilan byurokratik apparat ham shakllanadi, davlat tashkilotlari paydo bo‘ladi. Amaldorlar, armiya, bir qator hollarda tabaqa organlari shakllanayotgan absolyut monarxiya uchun tayanch bo‘lib xizmat qildi.

Germaniyada bu o‘zgarishlar, asosan, endigina absolyut rejimlar shakllana boshlagan yirik knyazliklarni qamrab oldi. Ularda absolyutizmning eng kuchaygan davri XVII asr oxiri — XVIII asrga to‘g‘ri keladi. XVI–XVII asrlar uchun siyosat va dinning o‘zaro aloqadorligi xarakterli jihat bo‘ldi. Protestantlik va isloh qilingan katolik mazhabi qirollar va knyazlar qo‘liga boshqaruvning qudratli omili — cherkov tizimi va diniy mafkura ustidan to‘liq nazoratni berdi.

Germaniya yerlarida knyazlarning aholiga katolik, lyuteranlik, kalvinistik diniy oqimlardan birini majburan singdirishi imkoniyati knyazlar qo‘lidagi yana bitta omil edi.

**Esga oling:** Muqaddas Rim imperiyasi qachon, qayerda va kim tomonidan tuzilgan?

**Yodda tuting:** **O‘ttiz yillik urush** – 1618–1648-yillarda Muqaddas Rim imperiyasi hududida bo‘lib o‘tgan birinchi Umumyevropa urushi.



*O‘ttiz yillik urush*



*Vestfal sulhi*



*Fridrix Vilgelm I*

**Esga oling:**
**Reyxstag** – Muqaddas Rim imperiyasining oliy qonun chiqaruvchi organi.

***Bu qiziq:***
**Fridrix Vilgelm I** (1713–1740) davrida armiya soni 85 ming, Fridrix II (1740–1786) davrida esa 200 ming kishiga yetdi. Prussiya davlat daromadining 2/3 qismi shu armiyani boqishga sarflangan. Prussiya qo‘shinlarida qat’iy tayoq intizomi o‘rnatilgan, “askar dushman o‘qidan ko‘ra ko‘proq kapralning tayog‘idan qo‘rqishi kerak” degan g‘oya hukmron edi.

Germaniya yerlarining rivojlanishiga **O‘ttiz yillik urush** (1618–1648) katta ta’sir ko‘rsatdi. **Vestfal sulhi** (1648) Muqaddas Rim imperiyasi imperatorini boshqa Yevropa monarxlari orasidagi alohida maqomidan mahrum qildi. Shuningdek, bu sulh imperiyaning tarqoqlik holatini uzoq davrga mustahkamlab qo‘ydi. Endi imperiya 250 dan ortiq mahalliy knyazlik, graflik, gersoglik, yepiskoplik va abbatliklardan tashkil topgan bo‘lib, amalda yagona boshqaruv mavjud emasdi. Shu tariqa Germaniya yagona davlat sifatida barham topdi.

Odatda, imperator Gabsburglar sulolasining vakili bo‘lar edi. Imperator xalqaro munosabatlarda imperiyaning vakili bo‘lib, oliy sud hokimiyatiga ham ega edi. Impe-



**Xarita bilan ishlashga doir topshiriq:** Mavzuda nomlari keltirilgan davlat va shaharlarni xaritadan toping.

riya qonunlari faqat imperator tomonidan tasdiqlangandan so‘ng kuchga kirardi. Ammo vaqt o‘tishi bilan imperatorning hokimiyati faqat ramziy bo‘lib bordi. Knyazlar tashqi siyosatda ham mustaqillikka erishdi.

XVIII asrda ham Muqaddas Rim imperiyasi saqlanib qoldi, ammo imperator hokimiyati sezilarli darajada kuchsizlandi. Reyxstag va knyazlar vakolatlari kengaydi. German monarxiyalari orasida Prussiya, Saksoniya, Bavariya, Gabsburglar Avstriyasi ajralib turardi.

Reyxstagda yuqori tabaqa vakillari majlis qurardi. Ular o‘rtasidagi ziddiyatlar va ovoz berishning murakkab tizimi tufayli reyxstag butun XVIII asr davomida faqat ikkita qonun qabul qildi.

**Ichki siyosat.** XVIII asrda eng katta yutuqqa erishgan mamlakat Prussiya bo‘ldi. 1701-yili Prussiya qirollik deb e’lon qilindi. 1713-yili Prussiya qiroli deb e’lon qilingan Fridrix Vilgelm I Prussiya armiyasini va butun davlatni mustahkamladi. Uni **“qirol-askar”** deb atashdi. Askarlarni harbiy forma bilan ta’minlash uchun mato ishlab chiqaruvchi manufaktura qurildi. Chetdan mato olib kelish taqiqlandi. Qurol-yarog‘ tayyorlash uchun qurol zavodlari barpo etildi.

XVIII asrning birinchi yarmida Saksoniya kurfyurstligi (knyazligi) ham imperiya tarkibidagi eng qudratlilardan biri edi. Saksoniya faol tashqi siyosatdan voz kechdi va Prussiya hamda Gabsburglarning Avstriyadagi mulklari o‘rtasida vositachi bo‘ldi. Shu sababli Saksoniya armiyasi qisqartirildi, armiya uchun sarflangan mablag‘lar endi boshqa sohalarga yo‘naltirildi. Natijada Saksoniya jadal rivojlana boshladi. **Drezden** shahrini, ko‘pincha, **“Elbadagi Florensiya”**, savdo va noshirlik ishi markaziga aylangan **Leypsigni** esa **“Kichik Parij”** deb atardilar.

Bavariya kurfyurstlarining ham rejalari ulkan edi. Ular doimo o‘z hududlarini kengaytirishga intilib keldi, hatto imperiya taxtiga ham da’vo qilardilar. Biroq Ispaniya va Avstriya taxti uchun bo‘lgan urushlar mamlakatni xarob holatga keltirdi va XVIII asr o‘rtalaridan Bavariya kurfyurstlari o‘zlarining takabburona rejalaridan voz kechdilar.

**Iqtisodiy ahvol.** Siyosiy tarqoqlik tufayli imperiyaning turli qismlarida xo‘jalik ham notekis rivojlandi. Qayerdadir krepostnoylik huquqi saqlanib qolgan bo‘lsa, boshqa hududda kapitalistik munosabatlar paydo bo‘la boshladi.

Umuman olganda, Germaniya iqtisodiy taraqqiyotda Angliya, Gollandiya va Fransiya kabi davlatlardan ortda edi. Bu, avvalo, Germaniyaning mayda knyazlik (davlat)larga bo‘linib ketganligi oqibati edi. Siyosiy tarqoqlik yagona ichki bozorning vujudga kelishiga imkon bermadi.

Bundan tashqari, bu davrda dengiz savdo yo‘llarining Atlantika okeaniga ko‘chganligi oqibatida Germaniya orqali o‘tadigan dengiz savdo yo‘llari o‘z ahamiyatini ham yo‘qotdi. Holbuki, XVI asr o‘rtalarigacha Shimoliy Italiya va uning vositachiligida butun Sharqning G‘arbiy Yevropa bozorlari bilan aloqalari Germaniya yerlaridan o‘tardi.

Germaniyaning xalqaro miqyosdagi iqtisodiy roli — uning mis ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda birinchi o‘rinni egallab kelganligi bilan belgilanar edi. Mis savdoda asosiy vosita hisoblanardi. Biroq Amerikadan Yevropaga oltin va kumushning katta miqdorda keltirilishi Germaniya misining ahamiyatiga jiddiy putur yetkazdi. Shuningdek, nemis sanoat mahsulotlari chet davlatlar sanoat mahsulotlari bilan raqobatlasha olmasdi, chunki Germaniyada manufaktura ishlab chiqarishi faqat shahar bilan cheklanib qolgan edi. U qishloqqa yoyilmadi, ya’ni natural xo‘jalik munosabatlari hukm surgan qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida sanoat mahsulotlariga nisbatan talab ko‘paymadi.

Va nihoyat, Yevropa davlatlari o‘rtasida kelib chiqqan O‘ttiz yillik urushda Germaniyaning mag‘lubiyatga uchrashi ham uning qoloqlik botqog‘iga botib qolishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. O‘ttiz yillik urush natijasiga ko‘ra, Yevropadagi siyosiy gegemonlik Fransiyaga o‘tdi. Germaniya esa iqtisodiy va siyosiy tanazzulga yuz tutdi. Siyosiy parokandalik yanada kuchaydi.

XVIII asrning dastlabki o‘n yilida ko‘plab tovarlarni ishlab chiqarishda sex tizimi ustuvor edi. Faqat 1731-yilga kelib qabul qilingan “Hunarmandchilik ustavi” shogirdlarning sexlarga ega bo‘lishini yengillashtirdi va hunarmand ayollar mehnatiga ruxsat berdi. Asta-sekin dastlabki manufakturalar paydo bo‘ldi. Ularda tajribali hunarmandlar bilan bir qatorda tajribasiz ishchilar, shuningdek, ayollar va bolalar mehnatidan ham foydalanildi. Hammasidan ko‘ra markazlashgan va tarqoq manufaktura turlarini mujassamlashtirgan aralash manufakturalar muvaffaqiyatli faoliyat yuritdi. Bunday korxonalarda mahsulotning alohida qismlarini mayda hunarmandlar yasaydi, ularni yig‘ish esa tadbirkorning ustaxonasida amalga oshiriladi.

Manufakturalarni aksariyat hollarda xususiy tadbirkorlar tashkil qilar edi, ammo ayrim hollarda monarxlarning o‘zlari ham manufakturalar ochardi. XVIII asrda Berlin shahri to‘qimachilik manufakturasining markaziga aylandi. Meysen shahrida Yevropada birinchi chinni manufakturasiga asos solindi.

Xalqaro savdoning muhim markazlari Leypsig va Gamburg shaharlari edi. Boltiq dengizidagi g‘alla savdosi Lyubek shahri orqali o‘tardi. Germaniyaning muammolaridan biri dengizga chiqish yo‘lining deyarli umuman yo‘qligi edi.

**Germaniyaning xalqaro ahvoli.** Ichki siyosiy tarqoqlik XVII asrning ikkinchi yarmida Germaniyani Yevropaning kuchli davlatlari qo‘lida qo‘g‘irchoqqa aylantirib qo‘ydi. Fransiya oxir-oqibatda Strasburg shahri va Reyn daryosining chap qirg‘oq yerlarini egallab oldi.

O‘ttiz yillik urush natijasiga ko‘ra, Muqaddas Rim imperiyasi o‘zining shimoldagi ko‘plab shaharlaridan ayrildi, shu sababli dengiz savdosi, asosan, golland savdo kompaniyalari orqali olib borildi.

1683-yili Germaniya knyazliklari usmoniy turklar bosqiniga qarshi kurashish uchun tarixda birinchi marta yakdil qaror qabul qildilar va milliy ozodlik qo‘shinini tuzdilar. Shu yili Vena ostonalarida usmoniylarning qo‘shini tor-mor qilindi. Germaniyaning bu g‘alabasi Markaziy Yevropani usmoniylar bosqinidan saqlab qoldi.




**Yodda tuting:**
Nemislarning Afrika, Hindiston va Xitoyda o‘z hududlariga ega bo‘lish uchun intilishi gollandlar va inglizlar bosimi ostida amalga oshmadi.

1699-yilgi **Karlovits tinchlik sulhiga** ko‘ra, Turkiya deyarli butun Vengriyani, Transilvaniyani, Xorvatiyaning katta qismini va boshqa bir qator hududlarni tark etdi.

Turkiya ustidan qozonilgan bu g‘alaba, Germaniyanigina xavfli dushmandan xalos qilib qolmasdan, balki venger va slavyan xalqlarini ham turklar zulmidan ozod qildi. Biroq ular shu davrdan boshlab qariyb ikki yuz yil Gabsburglar monarxiyasi zulmi ostida qoldi.

**O‘zingizni sinang:**
O‘ttiz yillik urush – …
XVI asr o‘rtalarigacha – …
1683-yili Germaniya knyazliklari – …
1699-yilgi Karlovits tinchlik sulhiga ko‘ra – …



*Turkiya ustidan qozonilgan g‘alaba*

***Shunday qilib, ushbu davrda Germaniyada milliy-siyosiy birlik hali shakllanmagan edi. U O‘rta asrlardagidek german millatining “Muqaddas Rim imperiyasi”, ya’ni yuzlab mustaqil knyazliklarning juda omonat birikmasi bo‘lib qolayotgan edi. Bundan tashqari, imperiyaga gegemonlik qilayotgan Avstriya tarkibiga kiruvchi boshqa millatlar o‘zlarining Germaniyanikidan farqli bo‘lgan tarixiy taqdiri, alohida milliy madaniyatlari, iqtisodiy va siyosiy taraqqiyot yo‘liga ega edilar.***

***Shunga qaramasdan, XVIII asrda, juda sekinlik bilan bo‘lsa-da, nemis millatining shakllanish jarayoni davom etdi. Iqtisodiy hayotning jonlanishi bilan yagona milliy bozor shakllanib bordi, ammo Germaniyaning tarqoqligi bunga hamon to‘siq bo‘lib qolaverdi.***

**Ijodiy ish topshirig‘i:**
Germaniya imperiyasining iqtisodiy taraqqiyotda orqada qolishining sabablarini aniqlang va qisqa tarzda daftaringizga yozing.

**Savol va topshiriqlar**

1. Germaniya imperiyasida ro‘y bergan modernizatsiya jarayonlari haqida so‘zlab bering.
2. Vestfal sulhi (1648) Germaniya uchun qanday natijalarga olib keldi?
3. XVIII asrning birinchi yarmida Germaniyada manufaktura rivojlanishining xususiyatlari haqida gapirib bering.
4. Dengizga chiqish yo‘lining deyarli to‘liq yo‘qligi Germaniya iqtisodiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?

# 10-MAVZU. ROSSIYA — BUYUK KNYAZLIKDAN IMPERIYA SARI

**Siz bilib olasiz:**
– rus yerlarining birlashishini;
– iqtisodiy rivojlanishni;
– Rossiyaning tashqi siyosatini;
– rus millatining shakllanishi va madaniyatini.

**Rus yerlarining birlashishi.** Oltin O‘rdaga qaramlikdan ozod bo‘lgan Rus yerlarining Moskva atrofida birlashish jarayoni XVI asr boshlarida nihoyasiga yetdi. Markazlashgan davlat tashkil topdi va u endi “Rus”, “Rossiya” deb ataldi.

1547-yili taxtga o‘tirgan **Ivan IV** Rossiya tarixida birinchi bor podsholik tojini kiydi. Rusda hukmdorlar ilgari “Buyuk knyaz” deb atalar edi. Ivan IV ga podsho (sar) unvonining berilishi uni G‘arbiy Yevropa qirollari bilan tenglashtirdi. Ivan IV ichki siyosatining asosiy maqsadi dvoryanlar tabaqasini kuchaytirish orqali boyarlar mavqeyini zaiflashtirishga qaratildi. Shu maqsadda 1549-yili u birinchi bor erkin aholi turli toifalari vakillarining yig‘ilishini — **Zemstvo soborini** chaqirdi.

Ivan IV Zemstvo soborida boyarlar hokimiyatini keskin qoraladi. Sobor yangi qonunlar to‘plami — **Sudebnik** tuzish haqida qaror qabul qildi. Unga ko‘ra, bundan buyon dvoryanlarni jinoyat va nojo‘ya qilmishlari uchun boyarlar sudiga berish taqiqlandi. Dvoryanlardan ming nafariga Moskva uyezdidan yer-mulk ajratib berildi. Davlat lavozimlarini faqat zodagon naslidan bo‘lgan kishilar egallashi tartibiga ham chek qo‘yildi.

Boyarlar uchun aholidan yig‘iladigan soliqlar bekor qilindi. Joylarda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari — **zemstvolar** tuzildi.

**Oprichnina.** Boyarlar hokimiyatiga zarba berish maqsadida 1565-yilda Ivan IV mamlakat yerlaridan katta qismini ajratib oldi. Bu yerlar **“oprichnina”** (ajratib olingan) deb ataldi. Oprichnina o‘z qo‘shiniga ega bo‘ldi. U podshoning o‘z raqiblarini jazolash quroliga aylantirildi. Mamlakatda shafqatsiz terror, qatl va surgun davri boshlandi. Shuning uchun Ivan IV “Grozniy” (“Dahshatli”, “Qo‘rqinchli”) laqabi bilan ataldi.

Oprichnina Rossiyada feodal tarqoqlik qoldiqlariga qarshi kuchli zarba berdi. Ammo u mamlakat xo‘jaligiga katta talafot yetkazdi. Nafaqat boyarlar, balki o‘n minglab oddiy odamlar ham qurbon bo‘ldi. Bu esa jamiyatning turli qatlamlarida oprichninadan norozilikni kuchaytirdi. Natijada Ivan IV 1572-yili oprichninani bekor qilishga majbur bo‘ldi.

**Notinch, g‘alayonli davr.** Ivan IV Grozniy vafot etgandan so‘ng taxtga uning o‘g‘li **Fyodor Ivanovich** keldi. 1598-yili Fyodor ham vafot etdi. U farzandsiz edi va taxtga voris qoldirmadi. Shu tariqa Rossiyani 700 yil boshqargan ryuriklar sulolasi hukmronligi barham topdi. Shunday sharoitda Zemstvo sobori **Boris Godunovni** podsho etib sayladi.

Boris Godunov vafot etgach, Rossiya tarixida notinch, g‘alayonlar davri boshlandi. Qisqa vaqt ichida bir nechta podsho almashdi, boyarlar ta’siri yana kuchaydi. Shuningdek, chet davlatlar — Polsha va Shvetsiya Rossiya ichki ishlariga zo‘r berib aralasha boshladilar. Polsha, hatto Moskvani egallab oldi. Shunday og‘ir sharoitda Rossiya vatanparvar kuchlari qishloq oqsoqoli **Kuzma Minin** va sarkarda **Dmitriy Pojarskiy** yetakchiligida xalq lashkarini to‘pladi. Ular 1612-yili Moskva uchun bo‘lgan



*Ivan IV Grozniy*



*Fyodor Ivanovich*

**Esga oling:**
Kiyev Rusi davlatiga qachon va kim tomonidan asos solingan?




Boris Godunov



Mixail Romanov



Pyotr I



Polsha qo‘shinining mag‘lubiyatga uchrashi

janglarda Polsha qo‘shinini mag‘lubiyatga uchratdi va Moskvani chet el bosqinchilaridan ozod qildi.

1613-yili Moskvada chaqirilgan Zemstvo sobori **Mixail Romanovni** Rossiya podshosi etib sayladi. Shu tariqa Rossiyada yangi sulola — **romanovlar sulolasi t**axtga kelib, ular mamlakatni 1917-yil fevralgacha boshqardi.

**Iqtisodiy rivojlanish.** XVII asrdan Rossiya iqtisodiyotida yangi alomatlar paydo bo‘ldi. Bu, avvalo, tovar, ya’ni bozorda sotish uchun mo‘ljallangan mahsulot ishlab chiqarishning rivojlanishida va manufakturalar vujudga kelishida namoyon bo‘ldi. Bu jarayondan qishloq xo‘jaligi ham chetda qolmadi. Asosiy oziq-ovqat mahsuloti — g‘alla hamma yerda tovarga aylandi.

Rossiyada XVII asrdan boshlab shaharlar ham rivojlandi. Ular mamlakatning savdo-sanoat markazlariga aylanib bordi. Hunarmandchilikning rivojlanishi mamlakatning rivojlanishiga, viloyatlar o‘rtasida xo‘jalik aloqalarining kengayishiga, Butunrossiya yagona ichki bozorining tarkib topishiga olib keldi. Shu tariqa Rossiya iqtisodiyotida ham juda sekinlik bilan bo‘lsa-da, yangi — kapitalistik munosabatlar shakllana bordi.



Pyotr I o‘g‘li Aleksey bilan

Rossiyada absolyut monarxiyaning to‘la qaror topishi **Pyotr I** nomi bilan bog‘liq. U 1689–1725-yillari Rossiya taxtida o‘tirdi. 1721-yili Pyotr I imperator deb e’lon qilindi, Buyuk Pyotr degan nom oldi. Rossiya imperiyaga aylandi va mamlakatda mutlaq monarxiya to‘la qaror topdi.

XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib, Rossiya hududi ancha kengaydi, asr oxirigacha esa aholi soni 36 mln kishiga yetdi. Aholining asosiy qismi qishloqlarda yashovchi dehqonlar edi. Iqtisodiyotning yetakchi sohasi qishloq xo‘jaligi bo‘lib, u ekstensiv xarakterda edi. Asr o‘rtalaridan yangi ekinlar — tamaki, kartoshka, kungaboqar ekila boshlandi.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan krepostnoy zulm yanada kuchayadi. Bu **Yelizaveta Petrovna** va **Yekaterina II** qonunlarida o‘z aksini topdi. Krepostnoylik huquqi yangi egallangan hududlar — chap qirg‘oq Ukraina, Volga orti, Ural etaklariga ham joriy qilindi. Krepostnoy zulmning kuchayishi unga qarshi **Yemelyan Pugachyov** boshchiligidagi **dehqonlar urushi** (1773–1775) va aholi quyi qatlamlarining boshqa qo‘zg‘olonlarini keltirib chiqardi. Bu davrda Rossiyada tabaqaviy tizim kuchayib, dvoryanlarning imtiyozlari yanada kengayadi.



*Yekaterina II*



*Yemelyan Pugachyov*

**Tashqi siyosat.** XVI asrning o‘rtalariga kelib, Moskva Rusining geosiyosiy holatini uning G‘arb bilan Sharq o‘rtasida joylashganligi belgilab berdi. Rus podsholari, avvalo, Sharqdan kelayotgan xavfni bartaraf qilishga intildilar. Zero, rus yerlariga ko‘chmanchilar bosqinlari katta zarar keltirardi. G‘arbda esa Rossiyaning asosiy raqiblari Shvetsiya va Polsha edi.

Ivan Grozniy davrida sharqiy yo‘nalishda katta yutuqlarga erishildi. 1552-yili Qozon xonligi va 1556-yili Astraxon (Ashtarxon) xonliklari zabt etilib, ular Rossiya tarkibiga qo‘shib olindi. Shu davrda Sibirdagi xonliklar va xalqlarni ham bo‘ysundirish uchun uzoq davom etgan kurash boshlandi.

G‘arbda holat og‘irroq edi. Cho‘zilib ketgan **Livon urushi** (1558–1583) Rossiyaning mag‘lubiyati bilan yakunlandi. Boltiqbo‘yi hududlari masalasi hal qilinmadi. Urush davomida Rossiya chegaralarida qudratli davlat — **Rech Pospolitaya** tashkil topdi (1569).

XVII asr boshlarida Rossiya boshboshdoqlik holatiga tushib qoldi. Polsha va Shvetsiya uning katta qismini, jumladan, Moskvani bosib oldi. Bu yerlarni qaytarish XVII asrda Rossiya tashqi siyosatining asosiy vazifasiga aylandi.

Bu vazifalarning hal etilishi Rossiyaning Yevropa davlatiga aylanishi uchun sharoit yaratdi. Bu yo‘ldagi muhim bosqich 1654-yili Ukrainaning Rossiyaga qo‘shib olinishi bo‘ldi. Polsha bilan 1667-yili tuzilgan sulhga ko‘ra, chap qirg‘oq Ukraina Kiyev shahri bilan Rossiya tarkibiga kirdi. Ammo XVII asrda Rossiyaning dengizga chiqish muammosi hal etilmadi. Qora dengizga chiqish yo‘lida qudratli Usmoniylar davlatining qarshiligini yengish lozim edi.




*Pyotr I ning kuchli harbiy-dengiz floti*



*M. V. Lomonosov*



*I. P. Kulibin*



*I. A. Krilov*



*G. D. Derjavin*

Rossiya tashqi siyosatining asosiy voqealari XVIII asrning birinchi choragida yuz berdi. Bu davrda Pyotr I tashqi siyosatining asosiy maqsadlaridan biri Rossiyani kuchli harbiy-dengiz flotiga ega davlatga aylantirish edi. U bu vazifani muvaffaqiyat bilan amalga oshirdi. Quruqlikdagi armiya mustahkamlandi, harbiy flot qurilishiga asosiy ahamiyat qaratildi, 1703-yili yangi poytaxt — **Sankt-Peterburgga** asos solinib, bu Yevropa sari qo‘yilgan qadam sifatida qaraldi.

Shvetsiya bilan bo‘lgan **Shimoliy urushda** (1700–1721) Rossiya g‘alaba qozondi. 1721-yili Finlandiyaning Nishtadt shahrida **Rossiya–Shvetsiya tinchlik shartnomasi** imzolandi. Unga binoan, Rossiya Boltiq dengiziga chiqish huquqiga ega bo‘ldi. Ayni paytda Rossiya Yevropaning qudratli davlatlaridan biriga aylandi.



*Shvetsiya bilan bo‘lgan Shimoliy urush*

**Kaspiy yurishi** (1722) natijasida ruslar Kaspiy dengizining g‘arbiy qirg‘og‘ini, jumladan, Resht, Boku, Astrobodni zabt etdi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Rossiyani imperatorlar Yelizaveta Petrovna va Yekaterina II boshqardi. Bu — **islohotlar davri.** Asosiy yo‘nalish yangi yerlarni o‘zlashtirish va mamlakat chegaralarini mustahkamlash bo‘ldi. Rossiya bu davrda o‘zining xalqaro obro‘sini oshirish uchun bosqinchilik siyosatini olib bordi. Yangi yerlarni egallashda, asosan, harbiy kuchga tayandi. Rossiya qo‘shinlari XVIII asrning eng yirik urushlaridan biri — **Yetti yillik urushda** (1756–1763) qatnashdi. Urushda Rossiya g‘alaba qozongan bo‘lsa-da, taxtga kelgan **Pyotr III** ning kaltabin siyosati rus qo‘shinining g‘alabasini yo‘qqa chiqardi.

XVIII asr oxirlarida Rech Pospolitaya Prussiya qirolligi, Rossiya imperiyasi va Gabsburglar monarxiyasi o‘rtasida uch marta (1772, 1793, 1975) taqsimlandi. Natijada Rossiya Kurlandiya, G‘arbiy Belorussiya, Livoniya va G‘arbiy Ukraina yerlarini o‘z tarkibiga qo‘shib oldi.

**Rus millatining shakllanishi. Madaniyat.** Rus yerlarining birlashtirilishi natijasida madaniy aloqalar mustahkamlandi va rus madaniyatining o‘sishi boshlandi. Madaniyatning rivojlanishi iqtisodiy yuksalish bilan birga rus millatining shakllanishiga olib keldi. Asta-sekin mahalliy shevalar barham topib, rus xalqining til birligi vujudga keldi, yagona madaniyat shakllandi. Rusning madaniy birligi xalq og‘zaki ijodi, me’morchilik, tasviriy san’at va adabiyotda o‘z ifodasini topdi.

Ammo, madaniyatning yuksalishiga qaramasdan, aholining asosiy qismi savodsizlik va jaholat botqog‘ida qolayotgan edi. Shu sababli XVIII asrdan boshlab mamlakatda

bir qator maktablar ochilishi katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Moskvadagi matematika va navigatsiya fanlari maktabi, artilleriya, tibbiyot maktablari shular jumlasidan edi. Moskvadan boshqa hududlarda ham bir qator maktablar va bilim yurtlari ochildi.

Shu davrda Peterburgda Rossiya Fanlar akademiyasi, keyinchalik akademiya qoshida gimnaziya va universitet tashkil topdi. 1755-yili buyuk rus olimi **M. V. Lomonosov** tashabbusi bilan Moskva universiteti tashkil qilindi. Bu davrdagi Rossiya fanining muvaffaqiyatlari Moskva universiteti va M. V. Lomonosov faoliyati bilan bog‘liq.

Shu yillari rus geografiya fani katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Osiyo bilan Amerika o‘rtasidagi Bering bo‘g‘ozi kashf etildi. **Laptevlar ekspeditsiyasi** Shimoliy Muz okeanini Murmanskdan to Chukotkagacha o‘rganib chiqdi. **S. I. Chelyuskin** Osiyoning eng shimoliy chekkasini kashf etdi. Hozir bu yer “**Chelyuskin burni**” deb ataladi.

Shu davrda texnika taraqqiyotida ham katta muvaffaqiyatlarga erishildi. **I. I. Polzunov, I. P. Kulibin** kabi olimlar ko‘plab texnik ixtirolarni amalga oshirdi. Rossiyalik olimlar va kashfiyotchilar tomonidan yaratilgan mashinalar jahon fani va texnikasi yutuqlarining oldingi qatorida turardi. Ammo qoloq, krepostnoy Rossiyada bu mashinalarga talab yo‘q, ular deyarli qo‘llanilmas edi.

XVI–XVIII asrlarda rus adabiyoti ham katta yuksalish yo‘lini bosib o‘tdi. Bu davrda ijod qilgan **G. D. Derjavin, D. I. Fonvizin** kabi shoir va yozuvchilar zamonaviy rus adabiyotining shakllanishiga katta hissa qo‘shdilar. Mashhur masalchi **I. A. Krilov** ijodining boshlanishi ham shu davrga to‘g‘ri keladi.

Pyotr I davridan boshlab Peterburg va Moskvada juda katta qurilish ishlari olib borildi. Shu yillari rus me’morchiligida Yevropa va rus milliy an’analarini uyg‘unlashtirgan yo‘nalish paydo bo‘ldi.

Qolaversa rus milliy teatri ham shakllandi. Uning asoschisi savdogar F. G. Volkov rus aktyorlarining butun bir avlodini tarbiyalashda katta xizmat ko‘rsatdi.

***XVI–XVIII asrlar Rossiya tarixida muhim davr bo‘ldi. Bu davrda Rossiya nisbatan kichik knyazlikdan imperiya bo‘lib shakllandi, uning hududi ikki barobardan ziyod kengayib, Yevropaning eng katta va harbiy jihatdan qudratli davlatiga aylandi. Ammo qoloq ijtimoiy munosabatlar tufayli Rossiya iqtisodiy va madaniy taraqqiyotda Yevropadan ortda qolib ketdi.***



*I. I. Polzunov*



*D. I. Fanvizin*


**Ijodiy ish topshirig‘i:** XVI–XVIII asrlarda Rossiya tarkibiga urushlar natijasida qo‘shib olingan yerlar va kashf etilgan geografik hududlarni aniqlang va yozuvsiz xaritaga belgilang.




*Xariton Laptev*



*Semyon Chelyuskin*





*Ivan Polzunov – Rossiyadagi birinchi bug‘ mashinasi*

***Bu qiziq:***
**Ivan Polzunov –** Rossiyadagi birinchi bug‘ mashinasi va dunyoda birinchi ikki silindrli bug‘ dvigatelini yaratgan. **Ivan Kulibin –** “rus Leonardo da Vinchisi”ning ixtirolari: 1) motor yordamida oqimga qarshi suzadigan kema; 2) bir arkali ustunsiz ko‘prik loyihasi; 3) uch oyoqli o‘ziyurar aravacha (o‘ziga xos avtomobil); 4) Yekaterina II uchun lift; 5) protez oyoq; 6) tuxum kattaligida, ichida teatr-avtomat joylashtirilgan soat; 7) projektor.

**Internet bilan ishlashga doir topshiriq:**
M. V. Lomonosovning ilmiy faoliyati va jahon faniga qo‘shgan hissasi haqida internet yordamida ma’lumot to‘plang va sinfda gapirib bering.

**Atamalar mazmuni:**

**Boyarlar** – Rus davlati paydo bo‘lganidan beri feodal jamiyatdagi oliy tabaqa, zodagonlar qatlami. Ular “votchina” – vorisiylik asosida ota mulk yerlariga egalik qilishgan, o‘z hududlarida mutlaq hokimiyatga ega bo‘lishgan va knyazga xizmat qilishgan.

**Dvoryanlar** – knyaz, podsho xizmatida bo‘lgan, harbiy yoki davlat xizmati uchun to‘lov sifatida yer – pomestyega egalik qilgan imtiyozli tabaqa.

**Zemstvo sobori** — tabaqaviy-vakillik organi bo‘lib, podsho tomonidan muhim siyosiy masalalarni muhokama qilish va qonunlar qabul qilish uchun yig‘ilgan.

**Oprichnina** – Ivan Grozniy davrida podshoning yakkahokimligini o‘rnatish, boyarlarning mustaqilligiga barham berish va dushmanlarini zo‘rlik va terror vositalari bilan bostirish siyosati.

**Ekstensiv dehqonchilik** – ekin maydonlarining kengayishi va chorva mollari sonining ko‘payishi hisobiga mahsulot yetishtirishni ko‘paytirish, texnikadan yetarli darajada foydalanmaslik, yerga ishlov berishning qoloq usuli va hosilning pastligi bilan tavsiflanadi; **intensiv usul** – ekinlar hosildorligi va chorvachilik mahsuldorligini oshirish, yangi texnologiyalar, mexanizatsiya, o‘g‘itlar va boshqalarni joriy etish orqali mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish va h. k.

**Krepostnoylik** – dehqonlarning biriktirilgan hududni hokimiyat ruxsatisiz tark etishini, qochib ketganlar majburan qaytarilishini, ma’lum bir feodalning ma’muriy va sud hokimiyatiga bo‘ysunishini ta’minlaydigan huquqiy normalar majmuasi. Krepostnoylikning mohiyati quyidagi so‘zlarda ifodalangan: “Sizlar hech bir narsaga ega emassiz, joningiz – xudoga, taningiz, mol-mulkingiz va bor bisotingiz esa menga tegishli”.

**Savol va topshiriqlar**

1. Rus yerlarining Moskva atrofida birlashish jarayoni qachon nihoyasiga yetdi?
2. Oprichnina siyosati nechanchi yillarda qo‘llanildi?
3. 1612–1613-yillarda Rossiyada qanday voqealar ro‘y berdi?
4. Qaysi podsho davrida Rossiya imperiyaga aylandi? Imperiya deganda nimani tushunasiz?

# 11-MAVZU. XVII–XVIII ASRLARDA SHIMOLIY AMERIKA: YANGI DAVLATNING VUJUDGA KELISHI

**Siz bilib olasiz:**
– Shimoliy Amerikadagi ingliz mustamlakalarini;
– mustaqillik uchun urushning sabablarini;
– Mustaqillik Deklaratsiyasi ishlab chiqilishini;
– 1787-yilgi konstitutsiyaning qabul qilinishini;
– Amerika madaniyatini.

**Esga oling:** O‘rta asrlarda Amerikaning qaysi xalqlari o‘z davlatlarini barpo eta olishgan edi?

**Esga oling:** Nega yevropaliklar yangi ochilgan qit’aga ko‘chib yashashga intilishar edi? Yangi yerlarda ularning hayoti qanday kechgan?


**Shimoliy Amerikadagi ingliz mustamlakalari.** Buyuk geografik kashfiyotlardan so‘ng Markaziy va Janubiy Amerikada Ispaniya va Portugaliya mustamlakalari tashkil qilingan bo‘lsa, Shimoliy Amerika, asosan, Angliya va Fransiya tomonidan egallab olindi.

Angliyaning Shimoliy Amerikadagi ilk mustamlakasi bo‘lgan Virjiniyadagi ilk manzilgohi 1607-yili **Jeymstaunda** tashkil qilindi. Ingliz mustamlakachilarining oqimi yil sayin oshib bordi. Bu yerga puritanlar jamoalari, yerlaridan ayrilgan dehqonlar, minglab yoshlar ko‘chib keldi. Shuningdek, mehnatga yaroqli jinoyatchilar ham hukumat tomonidan mustamlakalarga surgun qilindi.

Mustamlakachilar va hindular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar juda murakkab edi. Hindular yangi texnologiya va savdo-sotiqdan foyda ko‘rishiga qaramasdan, inglizlar keltirgan kasalliklar va ochko‘zlik ularning azaldan shakllangan hayot tarziga jiddiy zarar yetkazdi.


Yevropa mustamlakachiligi hindular rivojlanishining tabiiy jarayonini buzib tashladi. Shimoliy Amerika hindularining katta qismi kasalliklar tufayli vafot etdi va mustamlakachilar tomonidan qirib tashlandi.

XVII asrda Shimoliy Amerikaning sharqiy qirg‘oqlarida manzilgohlar tashkil qilish paytida tarqalgan chechak kasalligi hindular katta qismining o‘limiga olib keldi. 1617–1619-yillari hindular orasida tarqalgan chechak tufayli to‘liq bo‘shab qolgan joyda 1620-yili **Plimut** (Massachusets) manzilgohi paydo bo‘ldi.



***Shimoliy Amerika, 1700-yillar***

**Yodda tuting:** Mustamlakalarda o‘ldirilgan har bir hindu uchun 50–100 funt sterling to‘langan. Bu mablag‘ yaxshi yer uchastkasini sotib olish uchun yetarli edi. Mustamlakalarda ishchi kuchi yetishmas edi. Mag‘rur va erksevar hindular oq tanlilar uchun ishlashni xohlamadilar. Ular qullikdan o‘limni afzal ko‘rdilar. XX asr boshlariga kelib, Shimoliy Amerika hindularining aksariyati yo‘q qilindi.



*Shimoliy Amerika, 1700-yillar*

Mustamlakachilar bilan savdo hindu qabilalari o‘rtasida raqobatni kuchaytirdi, XVII asrda ular o‘rtasida boshlangan o‘zaro qonli urushlarda ham ko‘plab hindular qirilib ketdi.

Mustamlakalarda kichik fermer xo‘jaliklari keng tarqaldi. Asta-sekin qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lgan sanoat o‘sib bordi, XVII asrning ikkinchi yarmida birinchi manufakturalar paydo bo‘ldi. Yangi qatlamlar – **burjuaziya** va **ishchilar** shakllandi. Mamlakatda kapitalistik tuzum rivojlanayotgan bir sharoitda amerikacha plantatsiya qulchiligi ham saqlanib qoldi. XVII asrdan boshlab Afrikadan ko‘plab qora tanli qullar olib kelindi.


**Zamonaviy millatning shakllanishi.** Angliya burjua inqilobidan keyin Amerikadagi mustamlakalarda ham burjuacha boshqaruv usullari va hayot tarzi shakllanib bordi. XVIII asrning o‘rtalariga kelib, mustamlakalarda yagona ichki bozor vujudga kela boshladi, savdo aloqalari rivojlandi.

Amerikada birga yashashning tarixiy tajribasi asosida ko‘chib kelganlarning yagona tarixiy taqdiri yuzaga keldi. Ingliz tili ular uchun umumiy til bo‘lib qoldi. Urf-odatlar va turmush tarzi birxillashib bordi. XVIII asrning o‘rtalariga kelib, Amerikaning ko‘pchilik aholisi o‘zlarini “amerikalik” deb atay boshladi. Ayni paytda o‘ziga xos milliy madaniyatning ham tarkib topish jarayoni yuz berdi. Shu tariqa zamonaviy Amerika millati shakllandi.

**Mustaqillik uchun urushning sabablari.** Buyuk Britaniya qiroli, zodagonlar va tadbirkorlar mustamlakalardan olinadigan foydani tobora ko‘paytirishga harakat qilardi. Ular mustamlakalardan qimmatbaho xomashyo, teri va paxtani olib ketardi, mustamlakalarga esa tayyor mahsulotlarni olib kelishar, soliq va to‘lovlarni yig‘ib olardi. Buyuk Britaniya parlamenti Amerika tadbirkorlari uchun turli taqiq va cheklovlar o‘rnatgan edi. Amerikaliklarning dastlabki norozilik chiqishlari shu cheklovlar va soliqlarning oshirilishiga qarshi bo‘lib o‘tdi.

**Urushning boshlanishi.** 1774-yil sentyabrda Filadelfiyada Birinchi Qit’a Kongressi yig‘ildi. Unda Jorjiyadan tashqari barcha mustamlakalardan vakillar qatnashdi. Kongress hali Buyuk Britaniyadan ajralish masalasini ko‘tarishga jur’at

**Internet bilan ishlashga doir topshiriq:** Urush boshlanishiga bahona bo‘lgan “Boston choyxo‘rligi” voqeasi to‘g‘risida internetdan ma’lumot toping.



*“Boston choyxo‘rligi”*

qila olmadi, lekin Britaniya siyosatini qoraladi. Kongress iqtisodiyotni boshqarish uchun “Kontinental Uyushma” tashkilotini tuzdi. Mustaqillik tarafdorlari tomonidan boshqarilgan mazkur tashkilot jamoatchilik orasida inqilobiy kayfiyatni avj oldirib yubordi. Ingliz qo‘shinlari bilan dastlabki qurolli to‘qnashuvlar bo‘lib o‘tdi.

Mustaqillik uchun kurashchilar Amerikada respublika tuzish g‘oyasi bilan chiqdilar. Ikkinchi Qit’a Kongressi mustaqillik uchun urush boshlashga qaror qildi. Virjiniyalik polkovnik **Jorj Vashington** Amerika qurolli kuchlarining bosh qo‘mondoni etib tayinlandi. Respublikachilik kayfiyati aholining turli qatlamlarini qamrab oldi.

**Mustaqillik Deklaratsiyasi.** 1776-yil mayda Buyuk Britaniyadan ajralib chiqishga da’vat etuvchi qaror qabul qilindi. Rasmiy bayonotnoma tayyorlash uchun virjiniyalik Tomas Jefferson boshchiligida komissiya tuzildi.




*Mustaqillik Deklaratsiyasi muhokamasi*

**Yodda tuting:**
Jorj Vashington (1732–1799) – Amerika davlat arbobi, Shimoliy Amerikada mustaqillik uchun urush davrida Amerika armiyasining bosh qo‘mondoni, AQSHning birinchi prezidenti. AQSH poytaxti Vashington uning sharafiga nomlangan.



*Jorj Vashington*



*Tomas Jefferson*

**Esga oling:**
Nima uchun yaxshi qurollangan va tayyorgarlik ko‘rgan armiyaga ega Angliya bu urushda mag‘lub bo‘ldi? Kamida uchta sababni keltiring.



*Mustaqillik dekloratsiyasi*

1776-yil 4-iyulda qabul qilingan va asosan, T. Jefferson zakovatining mahsuli bo‘lgan Mustaqillik Deklaratsiyasi yangi davlatning qaror topganligini va butun dunyoda harakatchan kuchga aylangan inson ozodligi haqidagi dunyoqarashni e’lon qildi.


***“Biz, Amerika Qo‘shma Shtatlarining vakillari, xalq nomidan va uning vakolati bilan e’lon qilamizki, bu birlashgan mustamlakalar aslida ham va haq-huquqqa ko‘ra ham ozod va mustaqil Shtatlar bo‘lmog‘i lozim. Shu daqiqadan boshlab ular Britaniya taxtiga har qanday mansublikdan ozod qilinadilar”*** — deyiladi Mustaqillik Deklaratsiyasida.

Mustaqillik Deklaratsiyasida davlat qurilishining asosi sifatida xalq suvereniteti prinsipi e’lon qilindi, xalqning zolimlarga qarshi isyon qilishga, yashashga, ozod bo‘lishga, tenglikka bo‘lgan huquqi e’tirof etildi. 4-iyul sanasi AQSHda Musta-qillik kuni sifatida nishonlanadi.


*Jon Jey*


**Amerika inqilobining xarakteri va xususiyatlari.** Shimoliy Amerikada mustaqillik uchun olib borilgan urush ayni paytda burjua inqilobi bo‘lib, u ikkita: milliy mustaqillikka erishish va Amerikada kapitalistik munosabatlarni o‘rnatish muammolarini hal qilishi lozim edi.

Inqilobning asosiy xususiyati shu ediki, u milliy-ozodlik urushi shaklida o‘tdi. Urush davrida bir qator demokratik o‘zgarishlar amalga oshirildi.


*Benjamin Franklin*

**Urush harakatlarining borishi.** Buyuk Britaniya Amerika mustaqilligini birdaniga tan olmadi, mustaqillik tarafdorlariga qarshi qat’iy kurash olib bordi. Harbiy harakatlar, asosan, mamlakat shimolida bo‘lib o‘tdi. Inqilob davrida respublikachilar armiyasi katta qiyinchiliklarni boshidan kechirdi. Askarlar harbiy ishga deyarli o‘rgatilmagan, qurol-aslaha, o‘qdori, oziq-ovqat yetishmas edi.

Shunday sharoitda Fransiya Amerikaga qurol-yarog‘ bilan yordam bera boshladi. Amerika va Fransiya o‘rtasida **“Do‘stlik va tijorat bitimi”** imzolandi. Fransiya – Amerika ittifoqi yaxshi natijalarga olib keldi. 1782-yili ingliz qo‘shinlarining asosiy qismi taslim bo‘ldi. Shundan so‘ng Buyuk Britaniya hukumati Parijda tinchlik muzokaralari o‘tkazishga qaror qildi. Muzokaralarda Amerika tomonidan **B. Franklin, J. Adams** va **J. Jey** qatnashdi. 1783-yili Britaniya va uning Amerikadagi sobiq mustamlakalari o‘rtasida **Parij sulhi** imzolandi. Sulhga muvofiq, Buyuk Britaniya Amerika Qo‘shma Shtatlarining tuzilganligini, uning mustaqilligi, ozodligi va suverenitetini tan oldi.


*Jon Adams*

*Ingilizlar va amerikaliklar o‘rtasidagi jang*



Urush tugadi. Oldinda esa davlatni jipslashtirish, uning iqtisodiy ahvolini yaxshilash vazifasi turardi.

**1787-yilgi konstitutsiya.** Inqilobning muvaffaqiyatli yakunlanishi amerikaliklarga Mustaqillik Deklaratsiyasida ifodalangan orzu-umidlari va g‘oyalarini konstitutsiyada aks ettirish imkonini berdi. Deyarli barcha shtatlar o‘z konstitutsiyasiga ega bo‘ldi.

Ammo mamlakatda shtatlarni yagona qonun asosida birlashtirish, ularni boshqarish, yagona iqtisodiy tizimni shakllantirish kabi muammolar mavjud edi. Ularni hal etish uchun 1787-yilning may oyida Filadelfiyada ish boshlagan **Federal Konvent** yig‘iniga shtatlardan saylangan vakillar sifatida ko‘zga ko‘ringan arboblar to‘plandi. Ular orasida Jorj Vashington, Jeyms Uilson, Benjamin Franklin, Jeyms Medison, Aleksandr Gamilton kabi mashhur kishilar — **“Amerikaning otalari”** bor edi.

Fikr-mulohaza va tortishuvlar uzoq davom etdi. Bahslar, asosan, Kongress, federal hukumat va Oliy sudning maqomi hamda shtatlar bilan markaziy hokimiyat o‘rtasidagi munosabatlar xususida bordi. Natijada 1787-yil 17-sentyabrda AQSH Konstitutsiyasi qabul qilindi.

Konstitutsiya AQSHda respublika tuzumini o‘rnatdi. Ijro hokimiyatini boshqarish uchun 4 yil muddatga saylanadigan va keng vakolatlarga ega bo‘lgan AQSH prezidenti lavozimi joriy qilindi. 1789-yili bo‘lib o‘tgan saylovlarda Jorj Vashington AQSHning birinchi prezidenti etib saylandi.

**Amerika madaniyati.** Amerika madaniyati ko‘p jihatdan mustamlaka davri merosi edi. Yagona ta’lim tizimining yo‘qligiga qaramasdan, mamlakatda ta’limga katta e’tibor qaratildi. XVIII asrda uning ahamiyati yanada ortib, maorif inson va jamiyatni to‘g‘ri yo‘lga solishning vositasi sifatida qarala boshlandi. 1701-yili **Yel universitetiga** asos solindi, mustaqillik uchun urush boshlangunga qadar to‘qqizta kollej ochilib, keyinchalik universitetlarga aylandi. Hamma joyda klassik ta’lim va kasb-hunar ta’limini qo‘shib olib boruvchi “akademiya”lar tashkil qilindi.


1765-yilga kelib, mustamlakalarda 26 ta haftalik jurnal nashr qilinar edi. Ularda o‘sha davrning **Richard Stil** va **Jozef Addison** kabi mashhur mualliflarining ocherklari, ko‘plab she’rlari e’lon qilinar edi. Amerikada gazeta bozori ham jadal rivojlandi. 1785-yili AQSHda 75 ta gazeta nashr qilingan bo‘lsa, besh yil o‘tib, ular soni yuztadan ortib ketdi.

Bu davrda Amerika tasviriy va monumental san’ati, asosan, Yevropa san’atiga taqlid tarzida paydo bo‘ldi. XVIII asr oxirida amerikalik rassomlar **Benjamin Uest** va **Jon Singlton Kopli** Yevropaning taniqli rassomlariga aylandi. AQSHning o‘zida ijodini davom ettirgan rassomlar ham bor edi, ammo ular Yevropada tanilmadi.



***AQSH Konstitutsiyasi qabul qilinishi***

***Bu qiziq:***
“Amerika otalari”dan biri — Benjamin Franklin (1706–1790) elektr sohasidagi kashfiyotlari va yashinqaytargichni ixtiro qilishi bilan ham mashhur bo‘lgan. Oddiy varrak yordamida u chaqmoq elektr razryad ekanligini isbotlagan. Qo‘shimcha manbalardan foydalanib Benjamin Franklin yana nima bilan mashhurligini bilib oling.



***Aleksandr Gamilton***



***Jeyms Medison***



Richard Stil




Jozef Addison



Benjamin Uest



Jon Singlton Kopli



*Inauguratsiya – Prezident qasamyodi*

XVIII asr AQSHda yangi madaniyat va san'atning shakllanish davri bo'ldi. Dastlab yevropaliklar ijodiga taqlid qilingan bo'lsa, keyingi asrdan boshlab o'ziga xos Amerika madaniyati va san'ati rivojlandi.

***Inqilob natijasida AQSH mustaqil davlatga aylandi, respublika tuzumi o'rnatildi, savdo va sanoatni rivojlantirish yo'lidagi barcha to'siqlar olib tashlandi, erkin raqobatga, shaxsiy tashabbus va faollikka, ishbilarmonlikka keng yo'l ochildi. Biroq janubiy shtatlarda plantatsion qullik saqlanib qoldi.***

***Mustaqillik Deklaratsiyasi va AQSH Konstitutsiyasi Yevropaning ilg'or tafakkuriga katta ta'sir ko'rsatdi, ularda ilgari surilgan g'oyalar umuminsoniy xarakterga ega bo'lib, ko'plab xalqlar kurashining mazmuniga aylanib qoldi.***

**Savol va topshiriqlar**

1. Sizningcha, plantatsiya va fermer xo'jaligi o'rtasida asosiy farq nimada?
2. Yevropaliklarning hindular bilan uchrashishi haqida: a) yevropalik; b) hindu qabilasi vakili nuqtayi nazaridan hikoya tuzing.
3. AQSH bayrog'idagi yo'l-yo'l chiziqlar va yulduzlar nimani anglatadi? Javob berish uchun qo'shimcha manbalardan foydalaning.

**Badiiy-tarixiy asar bilan ishlashga doir topshiriq:**
Amerikalik yozuvchi Fenimor Kuperning "So'nggi mogikan" (1826), "Chingachguk — ulkan ilon" (1841), "Izquvar" (1840) asarlarini o'qing va hindu qabilalari haqida tasavvur hosil qiling.

**Ijodiy ish topshirig'i:**
Birinchi amerikalik ko'chmanchilardan biri ekanligingizni tasavvur qiling. Sizningcha, hindular sizga o'z yerlarining bir qismini berishlari kerak edimi? Boshqa yechim topish mumkinmi?

# 12-mavzu. Lotin Amerikasi mustamlakachilik zulmi ostida

**Siz bilib olasiz:**
– mustamlaka tizimining o‘rnatilishini;
– mustamlakachilik boshqaruv tizimini;
– xo‘jalik hayoti va savdoni;
– hindularning ahvolini;
– ozodlik harakatlarini.

**Mustamlaka tizimining o‘rnatilishi.** Lotin Amerikasi xalqlarini yevropaliklar tomonidan bo‘ysundirish Kolumb Amerikani ochgandan so‘ng (1492) darhol boshlanib ketdi. Amerikaning zabt etilishi odatdagi bosib olishdan farq qiladi. Urushning ma’nosi turli xalqlar va davlatlarning qurolli kuchlari o‘rtasidagi kurash bo‘lsa, Amerikada bunday urush bo‘lgan emas va bo‘lishi mumkin ham emasdi. Albatta, mahalliy hindu qabilalari bilan yevropaliklar o‘rtasida ayrim to‘qnashuvlar bo‘lgan. Ammo hindular ispanlarning o‘tochar qurollari — miltiq va pushkalariga qarshi nima bilan jang qilishi mumkin edi? Faqat o‘q-yoy va nayzalar bilanmi? Buning ustiga, ba’zan otliq dushman bostirib kelayotganda umrida ot ko‘rmagan hindular qurollarini tashlab, o‘zlarining diniy ibodatini bajarishga kirishib ketardi.

Taniqli konkistador **Kortes** 1519-yili hozirgi Meksika hududiga tushib, o‘zining 600 nafar askari bilan atsteklar poytaxtini juda tez egallab oldi. Keyinroq boshqa bir konkistador **Pisarro** 168 kishilik otradi bilan inklarning ko‘pming kishilik armiyasini mag‘lubiyatga uchratdi.

Shu tariqa ispanlar va portugallar tomonidan Lotin Amerikasi zabt etildi. Juda katta hududda qattiq mustamlakachilik tartibi va shunga mos tabaqa tizimi o‘rnatildi.

**Boshqaruv tizimi.** Keng mustamlakalarni egallab olgan ispaniyaliklar u yerlarda ham xuddi o‘z vatanlaridagidek boshqarish tizimini joriy qildilar.

***Lotin Amerikasining egallanishi***



**Esga oling:**
O‘rta asrlarda Markaziy va Janubiy Amerikada hindularning qaysi qabilalari o‘ziga xos sivilizatsiya yaratishgan? Ularning madaniy rivojlanishi qay darajada bo‘lgan?

**O‘zingizni sinang:**
Lotin Amerikasi mamlakatlarida, asosan, qaysi til keng tarqalgan? Qaysi davlatda portugal tili qo‘llaniladi?



*Lotin Amerikasining egallanishi*

Bu payt Ispaniyada absolyut monarxiya hukm surardi. Xuddi shu tarzda har bir mustamlakada ham **vitse-qirol** yoki **general-kapitan** butun hokimiyatga ega edi. Ularga viloyatlarning gubernatorlari bo‘ysunardi. Shahar va qishloq okruglarini **korrexidorlar** va **alkoldlar** boshqarardi. Hindu qishloqlarining tepasida esa **kasiklar** bo‘lib, ular hokimiyati nasliy edi. Vitse-qirollar va general-kapitanlar keng huquqlarga ega bo‘lib, ular gubernatorlar va boshqa amaldorlarni tayinlar, xazina va qurolli kuchlarni boshqarar, turli xil farmonlar chiqarar edi. Bundan tashqari, ispan mustamlakalarining vitse-qiroli Ispaniya qiroli nomidan ruhoniylarning tayinlanishini ham tasdiqlar edi.

Ispan Amerikasi shaharlarida ham mahalliy hokimiyat organlari mavjud bo‘lib, ular, asosan, sud ishlari va obodonlashtirish bilan shug‘ullanardi.

**Xo‘jalik hayoti.** Mustamlakalarning butun iqtisodiy rivojlanishi Ispaniya va Portugaliya manfaatlariga bo‘ysundirilgan edi. Metropoliyalar uchun Yangi Dunyo mamlakatlari oltin, kumush va plantatsiyalarda yetishtiriladigan mahsulotlar manbai edi, xolos.

Mustamlaka hukumatlari mahalliy sanoatning shakllanishi uchun sharoit yaratmasdi, manufakturalar qurilishiga to‘sqinlik qilardi.

Mustamlakalarning metropoliyalar bilan raqobatlashuvining oldini olish uchun mahalliy hokimiyat bu yerlarda uzum, olxo‘ri yetishtirishni, ipak qurti boqishni



*Lotin Amerikasining xo‘jalik hayoti*



*Lotin Amerikasining xo‘jalik hayoti*

taqiqlagandi. Tokpoyalar va olxo‘ri daraxtlari kesib tashlanar edi. Mustamlakalarda faqat Ispaniya va Portugaliyada yetishtirilmaydigan meva daraxtlarini o‘stirishga ruxsat berilardi. Bu kabi cheklashlar mustamlakalarda xo‘jalikning taraqqiy etishi uchun katta to‘siq bo‘ldi.

**Savdo.** Mustamlakalardagi aholining asosiy qismi juda kambag‘al bo‘lganligi sababli ichki bozor ham tor va taraqqiyotdan ancha ortda edi. Qirol, cherkov, latifundiyalarning egalari foydasiga olinadigan son-sanoqsiz to‘lovlar aholida eng zarur mahsulotlarni sotib olish uchun ham mablag‘ qoldirmasdi. Buning ustiga, mustamlakalarda spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari, tuz, qog‘oz va shu kabi bozorgir mahsulotlarning savdosiga davlat monopoliyasi o‘rnatilgan edi.

Mustamlakalar boshqa davlatlar bilan mustaqil savdo aloqalarini o‘rnatish huquqiga ega emasdi. Faqat XVIII asrning oxirgi choragiga kelib, ispan va portugal mustamlakalari Shimoliy Amerikadagi inqilobiy voqealar ta’siri ostida bir-biri bilan o‘zaro savdo qilish huquqini qo‘lga kiritdi. Shu davrda ustama solig‘i ham kamaytirildi.

**Mustamlakalardagi hindularning ahvoli.** Amerika egallangandan keyin mustamlakalardagi mahalliy aholi — hindular haq-huquqsiz qullarga aylantirildi. Hindular uchun yangicha hayot tarziga ko‘nikish juda og‘ir kechdi. Konlar va plantatsiyalardagi shafqatsizlarcha, og‘ir mehnatdan, ochlik va kasalliklardan minglab hindular halok bo‘ldi.

Yevropaliklar Yangi Dunyoga o‘zlarining ilg‘or g‘oyalari bilan birga turli kasalliklar — vabo, o‘lat va tifni ham olib keldi. Kasalliklar butun hududlardagi aholini



*Lotin Amerikasiga ko‘chib kelgan yevropaliklar*



***Bu qiziq:***
Hisob-kitoblarga ko‘ra, oq tanli “qul ovlovchilar” ushlab kelgan har 10 afrikalikdan faqat ikkitasi qul bozorida sotilishi vaqtigacha tirik qolar edi. Qolganlari Afrikada qullarni to‘plash lagerlarida yoki kemalarda Atlantika bo‘ylab suzish paytida kaltaklanish, ochlik yoki kasallikdan vafot etishgan. Agar 400 yil davomida Amerikaga 15 mln ga yaqin qul olib kelinganini hisobga olsak, bu davrda Afrikada 70 mln dan ortiq odam ushlangani ma’lum bo‘ladi!

***Bu qiziq:***


**Atuey** (1512-yili vafot etgan) – Kubaning birinchi milliy qahramoni va Amerikaning birinchi isyonchisi hisoblanadi. Qatl qilinishidan oldin rohib Atueyni o‘limdan keyin jannatga tushishi uchun xristianlikni qabul qilishga undaydi. Atuey xristianlar ham jannatga tushadimi degan savoliga rohib: “Hammasi emas, faqat eng yaxshi va munosiblari”, – deb javob beradi. Shunda Atuey: “Yana bunday zolim odamlar orasiga tushmaslik uchun men jannatga borishni xohlamayman. Buning o‘rniga men do‘zaxga tushishni afzal ko‘raman”, – deydi.

qirib tashlardi. Mahalliy aholida bu noma’lum kasalliklarga qarshi na tabiiy, na sun’iy ko‘nikma yo‘q edi. Shu sababli Markaziy Meksikada XVI asrda mahalliy aholining soni 10 marta kamayib ketdi. Braziliyada XVI asr oxiriga kelib, mahalliy hindular deyarli to‘liq qirilib ketgandi. Tirik qolganlari yevropaliklar bora olmaydigan yerlarga yashirindi.

Hindularning tezlik bilan kamayib ketayotganligi ishchi kuchining yetishmasligini keltirib chiqarishi xavfidan qo‘rqqan ispan va portugal hukumatlari mahalliy aholiga shafqatsizlik bilan qilinayotgan munosabatlarni cheklash borasida ba’zi bir choralarni ko‘rishdi.

Hindularga nisbatan zulmni cheklash to‘g‘risida Ispaniya qirolining farmonlarini mustamlakachilar norozilik bilan qabul qildi.

XVII asr oxiriga kelib, mustamlakalarda o‘rnatilgan tartib yana yuz ellik yil saqlanib turdi. Hindulardan jon solig‘i olinar edi. Uni yig‘ishda amaldorlar tez-tez g‘irromlikka yo‘l qo‘yardi. Hindular hokimiyatning ruxsatisiz yashash joylarini o‘zgartira olmasdi. Har bir jamoa kon va plantatsiyalarda ishlash, mol boqish, bino, ko‘prik,



***Mahalliy hindu qabilalari***

yo‘llar qurish uchun o‘z orasidan 15 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan ma’lum sondagi erkaklarni ajratishi lozim edi. Ular tekin yoki juda kam ish haqi evaziga cheklanmagan vaqt davomida ishlar edi.

Shunday qilib, XVIII asr oxiriga kelib, hindularning aksariyati feodal qaramlikda edi. Ularning asosiy qismini qul qilingan dehqonlar, shuningdek, kon, manufaktura, hunarmandchilik ustaxonalarining ishchilari, hammollar, uy xizmatkorlari tashkil qilardi. Shu bilan bir qatorda, borish qiyin bo‘lgan joylarda bosqinchilar hokimiyatini tan olmagan va ularga qattiq qarshilik ko‘rsatayotgan qabilalar ham bor edi. Ba’zi bir viloyatlarda erkin dehqonlar jamoalari ham saqlanib qolgan edi.

XVII–XVIII asrlarda mahalliy aholining kamayib ketganligi, ishchi kuchiga talabning ortib borayotganligi sababli Afrikadan qora tanli qullarni olib kelish boshlandi. Bu davrda Lotin Amerikasiga millionlab afrikalik qullar to‘xtovsiz olib kelingan bo‘lsa ham, og‘ir mehnat, begona iqlim va kasalliklar sababli ular orasida o‘lim yuqori darajada bo‘lib, afrikaliklar soni ko‘pchilik mustamlakalarda amalda ko‘paymadi.

Qora tanli qullarning mehnatidan, birinchi navbatda, shakarqamish va paxta plantatsiyalarida foydalanilar edi. Kubada shakarqamishni yig‘ib olish mavsumida qullar sutkasiga 18–20 soatlab ishlar va faqat ikki martagina ovqatlanar edi. Plantatsiyalarning egalari va nazoratchilar qullarni jazolashning shafqatsiz usullarini qo‘llashardi. Ko‘plab qullar kaltaklanish oqibatida halok bo‘lardi.

Tabiiyki, bunday og‘ir sharoitda qullarning qochib ketish hollari tez-tez uchrab turardi. XVI asr birinchi yarmidayoq ispan mustamlakalarida qochoq qullarni topish, ushlash bilan shug‘ullanuvchi fondlar tashkil qilingan edi. Hatto yangi kasb – qochoq qullarning “ovchisi” ham paydo bo‘ldi. Qo‘lga tushgan qullarni uch kun ichida egasiga qaytarishar yoki qamoqqa tashlardilar.

Dastlab mustamlakalarga kuchli erkaklarni olib kelishgan bo‘lsa, XVIII asrdan boshlab ayollarni ham olib kela boshlashdi.

Mustamlakalarda aralash nikoh natijasida paydo bo‘lgan aholining ko‘plab guruhlari mavjud edi. Ular, asosan, metislar, mulatlar va sambolar bo‘lib, ular fuqarolik huquqlaridan mahrum, zobit va amaldor lavozimlarini egallay olmas, mahalliy hokimiyat organlariga saylovlarda ishtirok etmas edi.

**Amerikadagi yangi irqiy guruhlar**

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Yevropalik | + | Hindu | = | Metis |
| Yevropalik | + | Afrikalik | = | Mulat |
| Hindu | + | Afrikalik | = | Sambo |

**Kreol** — Lotin Amerikasiga birinchi ko‘chib kelgan ispan va portugallarning avlodlari.

Bu toifaning vakillari hunarmandchilik, mayda savdogarlik va boshqa erkin kasblar bilan shug‘ullanishar, boy latifundistlar qo‘lida boshqaruvchi, xizmatkorlar boshlig‘i va nazoratchi bo‘lib ishlashardi, kichik yer egalarining ko‘pchiligini tashkil qilardi. Mustamlaka davrining oxiriga kelib, ular pastki diniy lavozimdagilar safini to‘ldirdilar, manufaktura ishchilariga va askarlarga aylandilar.



*Ozodlik harakatlari*

XVIII asrga kelib, butun Lotin Amerikasi Ispaniya, Portugaliya, Gollandiya, Angliya va Fransiyaning mustamlakalariga aylantirildi. Bunga qarama-qarshi tarzda Lotin Amerikasining aholisi orasida ozod bo‘lish, mustaqil davlat tuzishga intilish kuchayib borayotgan edi.

**Ozodlik harakatlari.** Mustamlakachilarga qarshi qo‘zg‘olonlar XVI asrdayoq boshlangan edi. Birinchilardan bo‘lib Kuba hindulari bosh ko‘tardi (1511–1512). Ularga Atuey ismli shaxs boshchilik qildi. Bu dastlabki qo‘zg‘olon nisbatan uzoq davom etgan bo‘lsa-da, oqibatda tor-mor qilindi. Atueyni ispanlar tutib olishib gulxanda yoqishdi. Keyinchalik ham bunday qo‘zg‘olonlar doimiy ravishda bo‘lib turdi.

Xuddi shu tarzda XVI asrda qora tanli qullar isyoni boshlandi. Shu asrning 30-yillarida Peru hindulari borish qiyin bo‘lgan tog‘li hududlardan birida **Yangi Ink davlatini** tuzdilar. Yuz yil keyin qochoq qora tanli qullar Braziliya hududida **Palmares** (Palma Respublikasi)ni e’lon qildi. Respublika 1630-yildan 1697-yilgacha mavjud bo‘ldi. Bu “ozod davlat”ning 20 ming aholisi bor edi. Aholi, asosan, qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik bilan shug‘ullanardi, ular, hatto metallga qayta ishlov berishni ham o‘zlashtirib olishgan edi. Palma Respublikasini Oqsoqollar Kengashi boshqarardi.



*Yangi Ink davlatini yaratilishi*

Qora tanlilarning ozod davlatini yo‘qotishga qaratilgan muvaffaqiyatsiz urinishlardan so‘ng XVII asr 80-yillarida unga qarshi respublikani qurshab turgan butun portugal armiyasi tashlandi. Respublikaning so‘nggi jangchilari baland qirdan o‘zlarini jarlikka tashlab ozod holda halok bo‘ldilar.

Fransiyadagi inqilob sadosi Gaiti orolidagi fransuz mustamlakasida (uning fransuzcha nomi — San-Domingo) qudratli aks sado bo‘lib jarangladi. Bu yerda 4–5 ming plantator qo‘lida 500 ming qul ishlardi. Fransiyaning Ta’sis majlisi oq tanli bo‘lmagan barcha erkin kishilarning yevropaliklar bilan teng huquqliligini e’lon qildi, biroq qullarning ahvoli o‘zgartirilmadi. Faqat bunga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarilgandan keyin 1791-yilgi dekret bilan Fransiyaning o‘z hududiga qadam qo‘ygan qullarga ozodlik berildi.

Butun XVII–XVIII asrlar — hindular va qora tanlilarning mustamlakachilarga qarshi ozodlik uchun kurash davri bo‘ldi.

***Yevropalik bosqinchilar o‘rnatgan tartib Amerika mustamlakalarining rivojini to‘xtatib turdi, hindu va qora tanlilarning insoniy qadr-qimmatini xo‘rladi. Shimoliy Amerikadagi ingliz mustamlakalarining mustaqillik uchun kurashi va Buyuk Fransuz inqilobining ta’siri ostida Lotin Amerikasidagi mustamlakalarda mustaqillikka intilish kuchaydi. Palma Respublikasining e’lon qilinishi, San-Domingodagi qora tanli qullar inqilobi mustamlakachilik rejimiga qarshi ulug‘ kurash boshlanayotganligidan nishona edi.***

### Atamalar izohi:

**Konkistador** (*isp. bosqinchi*) — XV asr oxiri — XVI asrlarda, Yangi Dunyo — Amerikani mustamlaka qilish davrida ispan yoki portugal bosqinchilari.

**Konkista** — Amerikani zabt etish.

**Latifundiya** (*lot. keng yer-mulk*) — Lotin Amerikasida yevropaliklarga tegishli yirik yerga egalik shakli.

**Plantatsiya** (*lot. o‘simlik ekish*) — yirik dehqonchilik xo‘jaligi. Bunday xo‘jaliklarda, asosan, tropik, subtropik ekinlar — paxta, choy, shakarqamish, kofe va boshqalar yetishtiriladi.

### Savol va topshiriqlar

1. Qanday faktlar mustamlakalarning butun iqtisodiy hayoti metropoliyalar manfaatlariga bo‘ysundirilganligini tasdiqlaydi?
2. Ispaniya va Portugaliya o‘z mustamlakalaridan qanday foyda ko‘rar edi?
3. Lotin Amerikasiga Afrikadan qullar qaysi maqsadda olib kelinardi? Mustamlakachilar ularga qanday munosabatda bo‘lishgan?
4. XVII–XVIII asrlar — hindular va qora tanlilarning mustamlakachilarga qarshi ozodlik uchun kurashi haqida nimalarni bilib oldingiz?

**Badiiy-tarixiy asar bilan ishlashga doir topshiriq:**
Qul savdosi, plantatsiyadagi qullarning ishlashi, xo‘jalik hayoti va shunga o‘xshash mavzularda badiiy yoki tarixiy asar, internet sahifalaridagi ma’lumotlardan foydalanib hikoya tuzing.

# 13-MAVZU. MA’RIFAT ASRI: ILM-FAN VA MADANIYAT RIVOJI


**Siz bilib olasiz:**
– ijtimoiy-siyosiy g‘oyalarni;
– ilm-fanning rivojlanishini;
– Ma’rifat asri badiiy adabiyotini;
– tasviriy san’at va musiqani.

**O‘zingizni sinang:** Nima uchun siz o‘rganayotgan davr “Ma’rifat asri” deb ataladi?

**Ijtimoiy-siyosiy g‘oyalar.** Agar XV–XVII asrlar “Uyg‘onish davri” deb atalgan bo‘lsa, XVIII asr Yevropa tarixiga “Ma’rifat asri” nomi bilan kirdi. Ma’rifat asri g‘oyalari Yevropaning ko‘plab mamlakatlari: Angliya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Rossiya va Shimoliy Amerikaga tarqaldi.

Eng progressiv kayfiyatdagi, ma’lumotli yozuvchilar, rassomlar, faylasuflar insonni ezayotgan, uning qobiliyatini cheklayotgan va qadr-qimmatini oyoqosti qilayotgan hamma holatlarni keskin tanqid qilib chiqdilar. Ular cherkov ta’limoti va umuman, dinning o‘zini tanqid qildilar, absolyutizmga va barcha feodal tartiblarga qarshi chiqdilar, feodal turmush tarzining umrini o‘tab bo‘lgan barcha illatlariga qarshi kurash boshladilar.


XVIII asr ma’rifatparvarlarini insonning tuganmas kuch va imkoniyatlariga buyuk ishonch, ommani keng miqyosda ma’rifatli qilish zaruratini tushunish hissi ajratib turardi. Shu sababli ma’rifatparvarlik o‘z davrining buyuk g‘oyaviy harakati edi. Bu harakat ishtirokchilari tarixda “ma’rifatparvarlar” nomini oldilar. Ulardan eng mashhurlari fransuz allomalari **Volter, Sharl Monteskyo, Jan Jak Russo, Deni Didro** va ingliz ma’rifatparvari **Adam Smit** edi.




*Volter*



*Adam Smit*



*Sharl Monteskyo*



*Jan Jak Russo*



*Deni Didro*



*Ma’rifatning rivojlanishi*



*Ilm-fanning rivojlanishi*

Inson ongining yaratuvchanlik qudratiga cheksiz ishongan ma’rifatparvarlar, feodal tartiblar bilan kurashning inqilobiy usullariga salbiy munosabatda bo‘ldilar. Ular ma’rifatning rivojlanishi o‘z-o‘zidan mavjud tartiblarning o‘zgarishiga olib kelishi mumkin, deb hisoblar edilar. Eski nazariyalar va g‘oyalarga qarama-qarshi tarzda ma’rifatparvarlar progressiv va o‘z davri uchun inqilobiy bo‘lgan yangi g‘oyalarni ilgari surdilar.

**Ilm-fanning rivojlanishi.** Ma’rifat asridagi Yevropa madaniyati matematika va tabiiy fanlarning rivojlanganligi bilan ham ajralib turadi. Aytish mumkinki, ma’rifatlilik fanni faqat olimlarning emas, balki butun jamiyatning mulkiga aylantiradi. Bunda olimlarning turli xil suhbatlari va o‘sha davrda keng tarqalgan gazetalar bilan bir qatorda Fransiyada qariyb o‘ttiz yil (1751–1780) nashr qilingan 35 tomlik “Ensiklopediya yoki Fan, san’at va hunar izohli lug‘ati” ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Unga 4000 kishi obuna bo‘lgan.



**Yodda tuting:**
Ma’rifat davri odamlar ongida “tabiiy huquq” tushunchasini shakllantirdi. Ma’rifatparvarlar barcha odamlar tabiatan berilgan yashash, erkinlik va tenglik kabi huquqlarga ega deb hisoblashgan.



*Ma’rifat asri rivojlanishi*

Ilmiy bilishning universalligiga, ya’ni insonning faqat tabiat qonunlarini emas, jamiyat rivojlanishi qonunlarini ham anglay olishiga ishonch Ma’rifat asrining eng muhim jihati bo‘ldi. Natijada sanoat inqilobi boshlandi va texnik kashfiyotlar ko‘paydi, kapitalistik jamiyat jadal rivojlanish bosqichiga o‘tdi. Industrial jamiyatning asosi bo‘lgan mafkura shakllandi. Cherkov odamlar ongi ustidan nazoratni yo‘qotdi, endi diniy dunyoqarash ustuvor bo‘lmay qoldi.

XVIII asrda ilmiy dunyoqarashning rivojlanishi matematika va tabiiy bilimlarning eksperimental asoslari kengayishi bilan bog‘liq edi. Matematika va fizika fanlarida yangi yo‘nalishlar shakllandi, kimyo esa mustaqil fan sifatida paydo bo‘ldi. Texnik fanlar rivojlanib, mashinalar, mexanizmlar va inshootlarni o‘rganadigan amaliy mexanika shakllandi.

**Ma’rifat asrida tabiiy fanlar sohasida ijod qilgan olimlar**

| Olim | Fanga qo‘shgan hissasi |
|---|---|
| Isaak Nyuton, Angliya, 1643–1727 | Differensial va integral hisoblash, yorug‘likning tabiatini tushuntirish, butun olam tortishish qonunini kashf etgan. |
| Gotfrid Vilgelm Leybnis, Germaniya, 1646–1716 | 0 va 1 raqamlari bilan ikkilik sanoq sistemasini tasvirlab berdi, u mexanikaga “tirik kuch” (kinetik energiya tushunchasining prototipi) tushunchasini kiritdi va energiyaning saqlanish qonunini shakllantirdi. |
| Leonard Eyler, Shveysariya, Rossiya, Prussiya, 1707–1783 | Sonlar nazariyasi, variatsion hisoblash, kompleks funksiyalar nazariyasi, sirt differensial geometriyasini yaratdi. |



*Bosmaxonalarning rivojlanishi*




*Ilm-fanning rivojlanishi*

Texnik bilimlarning ayrim yo‘nalishlari ilmiy tadqiqotlar uchun zarur bo‘lgan eksperimental asboblarni yaratish bilan bog‘liq edi. Shunday asboblarning paydo bo‘lishi ilmiy nazariyalar va kashifiyotlarni rag‘batlantirdi. Masalan, 1657-yili **X. Gyuygens** tomonidan mayatnikli soatning kashf qilinishi avtomatik hisoblash asboblarini yaratish uchun asos bo‘ldi.

Shu tariqa, bu davrda fan asta-sekin ishlab chiqaruvchi kuchga aylanadi. Ishlab chiqarishda ilmiy bilimlarning qo‘llanilishi texnik, keyin esa ilmiy-texnik inqilobga olib keladi, bu esa insonning tabiatga va ishlab chiqarish tizimiga bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartiradi.

| Ma’rifat davrining asosiy belgilari | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Ilm-fanga bo‘lgan ishonch | Inson ongining qudratiga ishonch | Ta’limning hal qiluvchi roli | Mavjud tizimni tanqid qilish | Barchaning qonun oldida tengligi g‘oyasi | Cherkovni tanqid qilish |



*Texnologiyaning rivojlanishi*




*Daniel Defo*




*Jonatan Svift*



*Volfgang Gyote*



**Ma’rifat asri badiiy adabiyoti.** Bolalikdan ko‘pchilikning sevimli qahramoni bo‘lgan Robinzon Kruzo Ma’rifat asrida “dunyoga keldi”. Ingliz yozuvchisi **Daniel Defo** o‘z qahramonini ishbilarmon, mehnatsevar, o‘z kuchiga ishonuvchi qilib yaratdi. Robinzon kimsasiz orolda tirishqoqlik va o‘jarlik bilan uy qurdi, ro‘zg‘or buyumlari va mebel yasadi, hayvonlarni o‘rgatdi. “Robinzon Kruzoning hayoti va g‘aroyib sarguzashtlari” romani mehnat, aniq insoniy fikr, tirishqoqlik va jasorat madhiyasi bo‘lib qoldi.

Qishloq ruhoniysi, keyinroq esa Irlandiyadagi Dublin ibodatxonasi rahbari **Jonatan Svift** ma’rifatchilarning oliyjanob g‘oyalari odamlarni o‘zgartirmaganligini, burjua jamiyati ham feodal jamiyat singari mukammallikdan ancha yiroq ekanligini o‘zining “Gulliverning sayohati” romanida ochib berdi.

Sviftning qahramoni Gulliver bilan Defoning qahramoni Robinzon — zamondoshlar, Ma’rifat asri odamlari, lekin Gulliverning qarashlari chuqurroq. Balki, shuning uchun ham uning olis mamlakatlarga qilgan sayohatlari quvonchsiz yakun topadi. Ammo Sviftning maqsadi inson tabiatini beparvo kuzatish emas, odamlarga sidqidildan achinish, ularga insoniylikni saqlab qolishda ko‘maklashish, yovvoyilashib ketishdan ogohlantirish edi. “Inson siz o‘ylagandan ko‘ra qudratliroq”, deb yozgan Sviftning aql yolqini va qobiliyat kuchi Ma’rifat asrini so‘nmas nur bilan yoritib turadi. Uning og‘ir holatda ham insoniylikni saqlab qolishga bo‘lgan da’vati bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Buyuk nemis shoiri **Iogann Volfgang Gyote** esa o‘z asrini, ong va yorug‘lik asrini ifodalaydigan qahramon izlab doktor Faust haqidagi qadimiy nemis afsonasini qayta yozdi. Yaratilishiga 60 yil sarflangan falsafiy drama insonning o‘z g‘oyalari uchun kurashi buyuk kurash ekanligini ta’kidlash bilan Ma’rifat asrining mohiyatini ochib beradi. Keksayib qolgan Faust mangu haqiqatni anglab yetadi:

***Uzoq hayot yo‘lin o‘tdim-u bosib,***
***Olam haqiqatin ayladim yakun:***
***Faqat shu munosib hayot va erkka,***
***Kim har kun ular-chun kurashga kirsa!***

**Internet bilan ishlashga doir topshiriq:** “*Virtual Museums*” saytidan foydalanib Ma’rifat davri rassomlarining asarlari bilan tanishing.

*Fransua Bushe*



*F. Bushe qalamiga mansub asar*



**Tasviriy san'at.** XVIII asrning birinchi yarmida Yevropa tasviriy san'atida hali ham saroy ahlining nozikta'b san'ati gullab-yashnardi. Bu davrda "qirolning birinchi tasvirchisi", afsonaviy sahnalarning ajoyib ustasi **Fransua Bushe** edi. Uning real hayotdan cheksiz yiroqda bo'lgan suratlari aristokratlar saroylariga ajoyib bezak bo'la olardi.

Boshqa bir rassom **Antuan Vatto**ning sur'atlari esa ancha chuqurroq edi. U chizgan suratlar eng nozik his-tuyg'ularni, qahramonlarning ko'z ilg'amas kayfiyatlarini ifodalaydi. Vatto chizgan "Qiyin taklif", "Beparvo" kabi asarlar juda mashhur edi.



*Antuan Vatto*

**Musiqa.** Nemis kompozitori **Iogann Sebastyan Bax** hayot davrida mashhur emasdi. Uning asarlari odamlarga o'ta jiddiy tuyulardi, cherkov esa xudodan qo'rqish ohanglarining yetarli emasligi uchun uning musiqalarini yoqtirmas edi. Hatto Baxning o'g'illari ham otasining ijodini umidsiz, eskirib qolgan deb hisoblashardi. Ularga meros bo'lib qolgan Bax qo'lyozmalarining ancha qismini yo'qotib yuborishgan.

Baxning xor, solistlar va orkestr uchun yozilgan ulkan asari — "Matto bayon etgan buyuk musibat" Iso Masihning shogirdi Matto hikoya qilib bergan Isoning uqubatlarini, his-hayajonini ifodalaydi. Injil afsonasini Bax odamlarni qutqarish uchun o'zini qurbon qilgan qahramon haqidagi xalq dramasi sifatida bayon qiladi.



*Motsart*

Ma'rifat asri musiqa san'atiga ulkan hissa qo'shgan yana bir shaxs **Volfgang Amadey Motsart** edi. U Avstriyaning qadimiy go'zal shaharchasi Zalsburgda dunyoga keldi.

Zamondoshlari Motsartni o'z davrining haqiqiy mo'jizasi deyishgan. Uning hayoti qisqa, qashshoqlik, xo'rlik va yolg'izlikka to'la bo'lsa ham, unda quvonch va buyuk muhabbat, baxt va ijodga intilish ustun edi.

U 3 yoshidan boshlab musiqani o'rgana boshladi, 4 yoshida o'zining birinchi konsertini yozdi, 12 yoshida yozgan operasining premyerasi Milan teatrida qo'yildi, 14 yoshida Motsart Italiyadagi eng obro'li musiqa akademiyasining akademigi bo'ldi. Motsart hayotining so'nggi o'n yilini Venada o'tkazdi. Kompozitorning "Figaroning uylanishi" operasi uni juda mashhur qildi. Operaning kuylari hamma yerda: ko'chalarda, maydonlarda, oshxonalarda jaranglaydi, uni, hatto ko'cha musiqachilari ham ijro etardilar.

Kompozitorning so'nggi asari — "Rekviyem" (*requem* — tinchlik, orom) cherkovlarda marhumlarning xotirasiga bag'ishlab ijro etilardi. Bu hayot va o'lim haqidagi, insonning bu dunyodagi qismati haqidagi asar. Uning birinchi ijrosigacha yashash Motsartga nasib etmadi.



*Iogann Sebastyan Bax*



*Betxoven*

O‘zini buyuk kompozitor Motsartning vorisi deb hisoblagan kishi **Lyudvig van Betxoven** edi. U 22 yoshidan boshlab Venada yashadi. Dahshatli kasallik oqibatida qiynalgan va butunlay eshitmay qolgan Betxoven taslim bo‘lmadi. U kasallikka qarshi kurashgan yillari ta’sirining qudrati va go‘zalligi bilan kishilarni hayratga soladigan asarlar yaratdi.

“Fantaziya yo‘lida sonata” (“Oydin”) — kompozitorning baxtsiz muhabbati haqidagi asar. “Qahramonona” simfoniyasi esa XVIII asr oxirida Fransiyada yuz bergan inqilobiy voqealar ruhi bilan yo‘g‘rilgan. Simfoniya dastlab Bonapartga bag‘ishlangan edi. U o‘zini imperator deb e’lon qilganidan so‘ng kompozitor asarini uning nomi bilan bog‘lamadi va “Qahramonona” degan yangi nom berdi. Simfoniya markazida — bo‘ysunmas isyonkor obrazi, taqdirning hech qanday zarbalari sindira olmaydigan jasur, qo‘rqmas insonning qiyofasi namoyon bo‘ladi.

Betxoven umrining so‘nggi kunlarigacha ongni, yorqin kuchlar tantanasi va g‘alabasini sharaflashga bag‘ishlangan asarlar yaratish orzusi bilan yashadi.

XVIII asr tarixga Ma’rifat asri sifatida kirdi. Ma’rifatparvarlik g‘oyalari kishilarning ongini egallab, Yevropa sivilizatsiyasining qiyofasini o‘zgartirib yuborgan kuchga aylandi.

***Ma’rifatparvarlik g‘oyalari Shimoliy Amerikada mustaqillik uchun urush yillari, Buyuk fransuz inqilobi davrida ommaviy xarakter kasb etdi. Ma’rifat davrining ko‘plab g‘oyalari XIX, ayniqsa, XX asrda demokratik mamlakatlar siyosiy amaliyotining, huquqiy normalarining asosiga aylanib, jamiyatning keng qatlamlari orasida tan olindi.***

**Savol va topshiriqlar**

1. Ma’rifat deganda nimani tushunasiz?
2. Ma’rifat davri va Uyg‘onish davri o‘rtasidagi farqni tushuntirib bering?
3. Ma’rifatparvarlik g‘oyalari dastlab Angliyada paydo bo‘lgan, ammo Fransiyada rivoj topganligi haqida o‘ylab ko‘ring.
4. Ma’rifat asri badiiy adabiyotining qanday namoyandalarini va ularning qaysi asarlarini bilasiz?
5. Ma’rifat davri tasviriy san’at va musiqa sohasida dunyoga qaysi mashhur shaxslarni berdi?

**Badiiy-tarixiy asar bilan ishlashga doir topshiriq:**
D. Defoning “Robinzon Kruzo” asarini o‘qing (yoki filmini ko‘ring) va qisqa mazmunini sinfda gapirib bering.

**Ijodiy ish topshirig‘i:**
Motsartning “Rekviyem” va Betxovenning “Fantaziya yo‘lida sonata” (“Oydin”) hamda “Qahramonona” asarlaridan parchalarni sinfda tinglang.

# III BOB.
# XVI–XVIII ASRLARDA OSIYO VA AFRIKA MAMLAKATLARI





# 14-MAVZU. OSIYO VA AFRIKA MAMLAKATLARI: AN'ANAVIY JAMIYATLARDA TARAQQIYOT MUAMMOLARI

Agar G'arbda hayotning asosi urush bo'lsa, Sharqda – tinchlik (xotirjamlik); G'arb xalqlarining asosi – alohida shaxs, Sharq xalqlarining asosi – oila; G'arbda harakatlantiruvchi kuch – bu huquq va moddiy manfaat, Sharqda – bu hissiyot va namoyishkorona beg'arazlik.

*L. Delyusin*

**Siz bilib olasiz:**
– an'anaviy jamiyatni;
– rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini;
– Afrika mamlakatlari taraqqiyot muammolarini.

**An'anaviy jamiyat.** Yevropa tarix fanida sharqona taraqqiyot shaklini "an'anaviy sivilizatsiya", "an'anaviy jamiyat" deb atashadi. Bunga ko'pchilik avloddan avlodga o'tib kelayotgan kamtarona hayot tarzi, diniy sabr-toqat, yer egaligining o'ziga xos shakli, kishilar hayotining davlat tomonidan tartibga solinishi kabilarni asosiy belgilar sifatida kiritishadi.

Yangi davr Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida kapitalistik munosabatlar qaror topishi davri bo'ldi. Osiyo va Afrika mamlakatlarida esa an'anaviy jamiyatlar o'z rivojlanishini davom ettirdi.


Osiyoning bir qator sivilizatsiyalarida davlat boshqaruvi, yer egaligi va jamiyatni tashkil qilishning hukmronlik–bo'ysunish munosabatlariga asoslangan o'ziga xos tizimi vujudga keldi. Bu an'anaviy jamiyatlarda din kuchli ta'sirga ega edi.

Bu davrda G'arbiy Yevropa va Osiyo sivilizatsiyalari o'rtasidagi asosiy farq Osiyoda yerga davlat mulkchiligining saqlanib qolayotgani bo'ldi. Barcha yerlarning bosh mulkdori davlat bo'lib, hukmdor shaxsida mujassamlashgan edi.

**Rivojlanishning asosiy yo'nalishlari.** Osiyo mamlakatlarida Yangi davr ularning mustamlakalarga aylantirilishi bilan bog'liq. O'rta asrlarda Sharq mamlakatlari tabiatning nisbatan saxiy in'omi tufayli o'zlarining geografik va tarixiy ustunliklarini

**Esga oling:** Qadimgi sivilizatsiyalar qaysi hududlarda paydo bo'lgan edi?

**Esga oling:** Qadimgi davr va O'rta asrlarda Sharqda qilingan qaysi ixtirolar G'arb tomonidan o'zlashtirib olingan?



*Asosiy muammo – quldorlik*


Ishlab chiqaruvchi kuchlar va xo‘jalik sohalari bo‘yicha jamiyatlarning bosqichlari

| Agrar yoki an’anaviy jamiyat (asosi – qishloq xo‘jaligi, urf-odat va an’analar) | Industrial yoki mashina jamiyati (asosi – sanoat) | Postindustrial yoki axborot jamiyati (asosi – axborot va xizmat ko‘rsatish sohasi) |
|---|---|---|

namoyish qila oldi. Rivojlangan ijtimoiy mehnat taqsimotiga, madaniy taraqqiyotning o‘ta yuqori darajasiga, jamiyat ma’naviy rivojining anchagina yuqori bosqichini aks ettiruvchi diniy va axloqiy tizimni shakllantirishga erishdi. Sharqning G‘arbdan ustunligi, ayniqsa, asrlar davomida to‘plangan ma’naviy imkoniyatlar, tajriba va bilimlarga tayangan intellektual kuchlarida yaqqol namoyon bo‘ldi. Bu davrda texnik, texnologik, tashkiliy va madaniy innovatsiyalar keng tarqalgan bo‘lib, ularning ko‘pchiligi 300–500 va hatto 1000 yil o‘tgandan so‘ng Yevropada paydo bo‘ldi, qisman Sharqdan o‘zlashtirildi.

XVI asr birinchi yarmidan XVIII asrning o‘rtalarigacha bo‘lgan davrda hali Sharqning Xitoy, Usmoniylar, Safaviylar (Eron) kabi kuchli imperiyalari mavjud bo‘lib, jahon siyosatida kuchli ta’sirga ega edi. Sharq mamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro savdo hajmi juda yuqori bo‘lib, G‘arb mamlakatlari bilan savdo 10–20 foizdan oshmasdi. G‘arb mamlakatlari, asosan, o‘z manufakturalari uchun xomashyo sotib olar edi. Aholining o‘sish dinamikasi ham jadal bo‘lib, iqtisodiy imkoniyatlarning yuqoriligidan dalolat beradi.

Biroq, Yangi davr boshlariga kelib, Sharq mamlakatlari taraqqiyotda Yevropaga nisbatan sezilarli orqada qola boshladi. Buning bir qator asosiy sabablarini ko‘rsatish mumkin:



***Bu qiziq:***
Hukmdorning fe'li shamolga monand, xalqning tabiati esa maysaga o'xshaydi. Shamol qaysi tomonga essa, maysalar ham shu tomonga egiladi.

Oila – kichik davlat, davlat esa – katta oila.

Konfutsiy



***Konfutsiy***

– Sharq davlatlarida harbiy xarajatlar miqdori G'arb davlatlarinikidan ancha yuqori edi;

– XVI–XVII asrlardan boshlab Sharq mamlakatlarida transport vositalari (kemalar, portlar, yo'llar, kanallar qurilishi) va kommunikatsiya tizimining (kitob chop qilish, savodxonlik darajasi) rivojlanish sur'atlari G'arb mamlakatlariga nisbatan pasaydi;

– O'rta asrlarning oxirlaridan boshlab Sharq mamlakatlari yakkalanish yoki "yopiq eshiklar" prinsipiga asoslanib, faol tashqi siyosat olib bormadi;

– yevropalik mustamlakachilar kirib kelishi arafasida Sharqning ko'plab mamlakatlarida tarixan yaratilgan moddiy, ijtimoiy va ma'naviy boyliklarni rivojlantirish o'rniga tabiiy resurslardan uzoq vaqt ekstensiv foydalanish natijasida kelib chiqqan ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz kuzatilayotgan edi;

– yevropaliklar tomonidan yangi dengiz savdo yo'llarining ochilishi Sharq savdogarlari o'zlashtirgan eski savdo yo'llarining inqiroziga olib keldi.


Agar insoniyat tarixi uchta bosqichga: an'anaviy jamiyat; industrial jamiyat; postindustrial yoki axborot jamiyatidan iborat ekanligini inobatga olsak, unda Sharq mamlakatlari yangi tarixining asosiy mazmunini an'anaviy jamiyatdan industrial jamiyatga o'tish tashkil qiladi. Bu davrda konfutsiylik, hind-buddaviylik, islom sivilizatsiyalari bilan yevropa-xristianlik sivilizatsiyasi o'rtasida, ikkita dunyo tizimi – an'anaviy Sharq jamiyatlari tizimi va jadal rivojlanayotgan, kuchayib borayotgan G'arb kapitalistik dunyo tizimi o'rtasida muloqot va o'zaro ta'sir kuchaydi.

Aynan shu davrda yuz bergan Yevropa sivilizatsiyasining ekspansiyasi va mustamlakachilik Osiyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga anchagina ziddiyatli ta'sir ko'rsatdi. Sivilizatsiyalar o'rtasidagi "muloqot" odamlar orasidagi juda katta yo'qotishlarga olib keldi. Ko'pchilik hollarda mustamlakachilik keng miqyosdagi talonchilikdan iborat bo'lib qoldi.

Ammo XVII asrning o'rtalarigacha G'arbning Sharqdan ustunligi faqat tashqi ko'rinish bo'lib, bu davrda Sharq harbiy ishda, moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishda Yevropadan ancha oldinda edi. Ammo Sharq bir xil emasdi. Sharqda bir nechta turli sivilizatsiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin.

**Xitoy-konfutsiylik sivilizatsiyasi** XVI asrda dunyoning eng aholisi ko'p va boy qismi bo'lib qolayotgan edi. Kishilarning kamtarona hayot tarzi, diniy sabr-toqat, yer egaligining o'ziga xos shakli, hayotning davlat tomonidan tartibga solinishi kabilar bu sivilizatsiyaning asosiy belgilari hisoblanadi.

***Xitoy sivilizatsiyasi***






*Yaponiya sivilizatsiyasi*


**Yaponiya sivilizatsiyasi** mutlaqo boshqacha xarakterga ega. U Xitoydan ko‘p yangiliklarni: yozuv tizimini, moddiy madaniyatning ancha qismini qabul qildi. Shuning uchun Yaponiya sivilizatsiyasini Xitoy sivilizatsiyasining bitta tarmog‘i ham deyishadi. Ammo Xitoydan farqli ravishda, yapon jamiyatida shaxs va uning o‘z hayot yo‘lini erkin tanlash huquqi rad etilmaydi. Yaponiya aholisi tarkibida Yevropa dvoryanlariga monand oliyhimmat ritsarlar (samuraylar) va knyazlar mavjud bo‘lgan Sharqdagi yagona mamlakat edi. Rivojlanishning yuqori darajasi bu sivilizatsiyaning noyob xislatlaridan dalolat beradi. Faqat xitoycha tartiblarni joriy qilgan Tokugava rejimining o‘rnatilishi yapon jamiyatining rivojlanishini to‘xtatib, uni vaqtincha faol xalqaro aloqalardan uzib qo‘ydi.

**Hind sivilizatsiyasi** Hindiston va Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlariga tarqaldi. Bu sivilizatsiyaning o‘ziga xos tomoni shundaki, hind jamiyatida kishilarning ijtimoiy holati uning tug‘ilish omili, ya’ni ota-onasining jamiyatdagi o‘rni bilan belgilanadi. Bu yerda odamlar kasta (tabaqa)larga bo‘lingan bo‘lib, insonning jamiyatdagi o‘rni uning qaysi kastaga mansubligi bilan bog‘liq.



*Hind sivilizatsiyasi*

**Esga oling:**
Hind jamiyati nechta kastaga bo‘lingan? Ular bir-biridan qanday farqlangan.



*Islom sivilizatsiyasi*

**Islom sivilizatsiyasining** o‘ziga xos jihatlari shundaki, uning asosini tashkil qiluvchi islom dini musulmonlarning faqat dunyoqarashinigina emas, balki hayot tarzini ham belgilab beradi. Islom dini barcha musulmonlarning tengligiga asoslangani uchun ko‘plab xalqlar o‘rtasida keng tarqaldi. Paydo bo‘lganidan to Yangi davr boshlarigacha islom dunyosi Yevropaga nisbatan ilg‘or sivilizatsiya o‘chog‘i edi.

Sharqda O‘rta asrchilik tizimining inqirozi, avvalo, yerga davlat mulkchiligining buzilishida, markaziy hokimiyat va soliq tizimining susayganligida namoyon bo‘ldi. Sharq mamlakatlarida ko‘p asrlar davomida rivojlanib kelgan an’anaviy jamiyat bir qator muhim jihatlarga ega edi. Bunday jihatlarga jamiyatda davlat rolining yuqoriligini, urug‘-qabilachilik va quldorlik munosabatlari qoldiqlarining saqlanib qolishi, jamiyat iqtisodiy hayotida shaharlar rolining pastligi kabilarni kiritish mumkin.

XVII–XVIII asrlarda Yevropa va Osiyo xalqlarining o‘zaro munosabatlarida chuqur o‘zgarishlar yuz berdi. Ilgari ularda harbiy texnika, hunarmandchilik va savdoning rivojlanganlik darajasi bir-biriga yaqin edi. Biroq keyingi davr yevropaliklar uchun juda qulay keldi. Osiyo xalqlari esa turli imperiyalar zulmidan ozod bo‘lganida, har safar an’analarni tiklash, bosqingacha bo‘lgan ijtimoiy va siyosiy hayot tartiblarini qaytadan o‘rnatishga harakat qildilar. Bu tartiblar mahalliy zodagonlarga ham, keng xalq ommasiga ham bosqinchilar o‘rnatgan tartiblardan yaxshiroq, adolatliroq tuyulardi. Eski hayotga qaytish mantig‘iga Xitoyda ham, Hindistonda ham, ko‘pchilik islom mamlakatlarida ham qat’iy amal qilinar edi.

**Afrika mamlakatlari.** Afrika — ulkan qit’a, unda odamzod boshqa hududlardan ancha oldin paydo bo‘lgan. Bu yerda, Nil daryosi vodiysida eng qadimgi jahon sivilizatsiyalaridan biri shakllangan.

Afrika hududi inson yashashi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitga qarab bir necha mintaqalarga bo‘linadi. Shimolda, O‘rtayer va Qizil dengizlar qirg‘oqlarida yerlar unumdor bo‘lib, odamlar qadim zamonlardan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan. Bu Afrika qit’asining aholi eng zich joylashgan qismi. Yevropa va

**Xarita bilan ishlashga doir topshiriq:** Xaritadan foydalanib xitoy-konfutsiylik, yapon, hind, islom sivilizatsiyalarining joylashuv o‘rnini toping.

Yaqin Sharq bilan qo‘shniligi Shimoliy Afrikani savdo va aholi ko‘chib kelishi uchun qulay joyga aylantirgan. Undan janubda Afrikadagi eng katta cho‘l — Sahroyi Kabir boshlanadi.

Markaziy va Janubiy Afrikaning mahalliy aholisi XVIII asr boshlariga kelib ham qabilachilik holatida yashar edi. Qabila urug‘larga bo‘lingan bo‘lib, jamiyatda bosh rolni qabila boshlig‘i, harbiy sarkarda va shaman o‘ynardi.

Afrika xalqlarida yagona din mavjud bo‘lmagan. Ammo O‘rta asrlardayoq Afrikaning shimoli va markazida jahon dinlari — xristianlik va islom ancha keng tarqalgan.


XV asrda Afrikada urushlar tez-tez yuz berganligi tufayli Sudan orqali arab dunyosi va Yevropaga ko‘plab qora tanli qullarni keltirib sotish boshlandi. Qul savdosi arablar va yevropaliklar uchun juda foydali ishga, afrikaliklar uchun esa katta fojiaga aylandi, Afrika sivilizatsiyasining o‘ziga xos rivojlanish yo‘nalishini buzib yubordi.

***Yangi davrda ham shakllangan, hamma ko‘nikib qolgan, an’anaviy tartiblarni ideallashtirish Sharq sivilizatsiyasining muhim jihati bo‘lib qoldi. Aynan shu jihat bir tomondan, ko‘plab tashqi bosqinlar sharoitida sivilizatsiyaning asoslarini saqlab qolish imkonini bergan bo‘lsa, boshqa tomondan, uning rivojlanish sur’atlarini sekinlashtirdi, fan va texnika sohasidagi yangiliklarni tatbiq etishga, ijtimoiy hayot va ishlab chiqarishni tashkillashtirishning yangi usullarini joriy qilishga g‘ov bo‘ldi.***

**Ijodiy ish topshirig‘i:** T-texnologiyasi asosida xitoy-konfutsiylik, yapon, hind, islom sivilizatsiyalarining umumiy va farqli jihatlarini daftaringizga yozing.

**Savol va topshiriqlar**

1. Qo‘shimcha ma’lumotlarga tayangan holda “an’anaviy jamiyat”, “industrial jamiyat”, “postindustrial” yoki “axborot jamiyati” tushunchalariga izoh bering.
2. Yangi davr boshlariga kelib, Sharq mamlakatlari taraqqiyotda Yevropaga nisbatan sezilarli orqada qola boshlashining sabablari nimada?
3. Internet yordamida Konfutsiy kim ekanligini bilib oling. Uning hikmatli gaplarini o‘qing.



*Afrika sivilizatsiyasi*

# 15-MAVZU. XITOY: YUKSALISH VA INQIROZ ORASIDA

**Siz bilib olasiz:**
– siyosiy hayotni;
– chin sulolasi hukmronligini;
– yevropaliklarning Xitoyga kirib kelishini;
– iqtisodiy hayotni;
– XVI–XVIII asrlardagi Xitoy madaniyatini.

**Esga oling:**
Qaysi yevropalik savdogar va sayohatchi birinchi bo‘lib Xitoyga kelgan va 17 yil shu yerda yashagan?

***Bu qiziq:***
Manchjurlar xitoyliklarga ikkinchi darajali odamlar sifatida qaragan. Xitoyliklar va manchjurlar o‘rtasida nikoh taqiqlangan. Bo‘ysunish belgisi sifatida xitoylik erkaklar sochlarini uzun qilib o‘rishlari kerak edi. Manchjurlar xitoyliklardan alohida qurilgan maxsus rayonlarda yashashgan.

**Siyosiy hayot.** XVI asr oxiri — XVII asr boshlarida Xitoyda minlar sulolasi (1368–1644) siyosatidan norozilik kuchaydi. Mamlakatda islohotlar tarafdori bo‘lgan kuchlar shakllandi. Ularning g‘oyalarida davlat apparatini isloh qilish, mamlakatni boshqarishda bevosita imperatorning rolini oshirish, shuningdek, iqtisodiy o‘zgarishlar samaradorligini va ishlab chiqarayotgan mahsulotlarining sifatini oshirish uchun davlat manufakturalari va ustaxonalarini xususiylashtirish, dehqonlarning yerlarini tortib olishni to‘xtatish, soliqqa tortish tizimini tartibga solish kabilar muhim o‘rin tutardi.

XVII asr boshlarida islohotchilar Pekinda hokimiyatni egallashga erishdi va amalda o‘z dasturidagi talablarni hayotga tatbiq etishga urindilar. Ammo saroy asilzodalarining qarshiligi tufayli islohotchilar hokimiyatdan chetlatilib, ko‘pchiligi qatag‘on qilindi. Davlat xazinasini o‘marish, dehqonlar yerlarini tortib olish, soliqlar va shaxsiy majburiyatlarni oshirish davom etaverdi. Xitoyning xalqaro ahvoli ham tobora yomonlashib bordi. Biroq minlar hokimiyati uchun, hukmron tuzumga qarshi tobora yirik miqyosdagi urushga aylanib borayotgan dehqonlar qo‘zg‘olonlari, ayniqsa, xavfli edi.

**Chin sulolasi hukmronligi.** XVI asr oxirida Amur daryosidan janubda Manchjur qabilalarining ittifoqi paydo bo‘ldi. Manchjurlar o‘z davlatini tuzib, qo‘shni Mo‘g‘ulistonni bo‘ysundirdi. 1636-yili manchjurlar sardori **Abaxay** o‘zini xon, yangi davlatni esa “Chin‘ (“Sin”) (ya’ni “sof”, “toza”) deb atadi.

Chinlar Xitoyni egallash uchun uzoq kurash olib bordi. Shu davrda, 1639–1644-yillari Xitoyda dehqonlar qo‘zg‘olonining avj olishi va bir guruh qo‘zg‘olonchilarning Pekinni egallashi ham chinlarga yordam berdi. 1644-yili Pekinga kirib kelgan chinlar hukmdori **Shunchji** Xitoy imperatori deb e’lon qilindi. Chinlar Xitoydagi dehqonlar qo‘zg‘olonini bostirdi. Mahalliy vatanparvarlarning Nankin shahrida chinlarga qarshi yagona front tuzish uchun urinishi ham muvaffaqiyat qozonmadi. Keyingi bir necha yil davomida chinlarga qarshi bo‘lib o‘tgan qo‘zg‘olonlar ham qo‘shinlar tomonidan shafqatsizlarcha bostirildi.

Chinlarning butun Xitoy hududini egallashi oson kechmadi. Har bir shahar qattiq janglar bilan olindi. Uzoq davom etgan urushlardan so‘ng Tayvan ham egallab olindi va Xitoy hududi to‘liq bo‘ysundirildi. Manchjurlarning chin sulolasi Xitoyda 1911-yilgacha hukmronlik qildi.

Chinlar XVII–XVIII asrlarda o‘zlarining bosqinchilik siyosatini davom ettirdi. Koreya, G‘arbiy va Shimoliy Mo‘g‘uliston, Vyetnam, Koshg‘ar bo‘ysundirildi, Birma ham chinlarga vassallikni tan oldi.

**Iqtisodiy hayot.** XVI asr boshlariga kelib, Xitoyda agrar soha rivojlanishning ancha yuqori darajasiga erishgan bo‘lib, u mamlakat iqtisodida muhim o‘rin tutardi. Ish qurollari oddiy bo‘lsa-da, dehqonlar aholining asosiy oziq-ovqati bo‘lgan sholidan

yuqori hosil olardi. Ular yangi texnologiyalar, masalan, sholi ekishning uyali usuli, sifatli urug‘ tayyorlash va shu kabilardan foydalanardi. Xitoy dehqonlari sholidan tashqari, paxta yetishtirishda ham katta yutuqlarni qo‘lga kiritdilar.

Xitoyda yerga egalik qilishning ikkita asosiy turi — davlat va xususiy yer egaligi mavjud edi. Ammo xususiy yerlar XVI asr davomida kamayib bordi. Dehqonlarning yerlari asta-sekin katta yer egalari, sudxo‘rlar va amaldorlarning qo‘liga o‘tdi. Yerlarning katta qismi bevosita imperatorning mulkiga aylandi.

Dehqonlar yerlarni ijaraga olib, ekin ekardi. Ijara haqi hosilning 50 foizini tashkil etardi va bu dehqonlarni holdan toydirib, ularning noroziligiga sabab bo‘lardi. Bu davrda soliqlar ham doimiy oshib bordi. Ular natural holda sholi bilan olinar edi va faqat XVI asrdan soliqlar kumush tanga bilan to‘lana boshlandi. Bu qiyinchiliklar bir qator dehqonlar qo‘zg‘olonlariga olib kelib, ular butun imperiya hududini qamrab oldi.

Shaharlarda aholi soni qishloqqa nisbatan ancha kam edi. Shaharliklar, asosan, hunarmandchilik va savdo bilan shug‘ullanardi. Gazlama ishlab chiqarishda o‘z davri uchun ancha mukammal bo‘lgan dastgohlar, shu jumladan, suv bilan aylantiriluvchi qurilmalar ham qo‘llanilardi. Binolar qurilishida ko‘tarish kranlariga o‘xshash qurilmalardan foydalanilardi. O‘sha paytlardan saqlanib qolgan binolar bugungi kunda ham o‘zining mukammalligi va mahobati bilan kishini hayratga soladi. Yirik va mustahkam kemalar qura oladigan xitoylik kemasozlar ham texnik muvaffaqiyatlarga erishgan edi.

Manchjurlar istilosi Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yo‘lidagi favqulodda to‘siqqa aylandi, mamlakatning ishlab chiqaruvchi kuchlariga katta zarar yetkazdi, ularni ortga uloqtirib tashladi. Chinlar sulolasi hokimiyatining o‘rnatilishi xitoylar bilan birga Osiyoning boshqa bir qator xalqlariga ham katta zarar yetkazdi, zotan, mintaqada chinlarning bosqinchilik yurishlari ancha uzoq davom etdi.

Chinlar hukmronligi, shuningdek, Xitoyda paydo bo‘lgan kapitalistik munosabatlar rivojlanishni va eng asosiysi, texnik taraqqiyot sur’atlarini susaytirib yubordi.

Xitoy XVIII asrning oxirigacha iqtisodiy jihatdan dunyoning eng qudratli davlatlaridan biri bo‘lib qolayotgan bo‘lsa-da, texnik qoloqlik uning G‘arb davlatlari ekspansiyasiga qarshi turishida xalaqit berdi.



***Ingliz elchilari xitoyliklarga sovg‘a-salom topshirishmoqda. J. Gilrey karikaturasi***

**Xarita bilan ishlashga doir topshiriq:** Xaritadan manchjurlar yashagan va XVII–XVIII asrlarda bosib olingan hududni toping.

***Bu qiziq:***
Xitoyda provinsiya (viloyat)larni oliy tabaqaga mansub zodagonlar–mandarinlar boshqarar edi. Mandarin so‘zi portugalcha “*mandar*” – “boshqarmoq”, “idora etmoq” ma’nosini bildiradi va ularning jamiyatda tutgan o‘rnini hayvonlar, o‘simliklarning rasmlari bilan bezalgan kiyimiga qarab bilsa bo‘lardi. Oddiy odamlarga uylarini bezash, mo‘ynali kiyim kiyish va zargarlik buyumlarini taqish, qimmatbaho idishdan foydalanish taqiqlangan edi.

**Yodda tuting:**
XVIII asr oxirlarida Xitoyda 300 mln aholi yashagan. Bu esa Yevropa aholisidan ancha ko‘p bo‘lgan.



*Abaxay*

**Yodda tuting:**
Yevropaliklarning Xitoy hududida o‘rnashishi, missionerlar tomonidan xristian dinining joriy etilishi, Bengaliyadan afyun olib kelib kumush evaziga sotilishidan xavotirga tushgan Xitoy hukumati XVIII asrning o‘rtalarida mamlakat janubidagi Guanchjoudan tashqari barcha shaharlarida yevropaliklar bilan savdo qilishni taqiqlaydi va izolatsiya siyosatini yuritadi.

**Yevropaliklarning Xitoyga kirib kelishi.** Xitoy afsonaviy boy mamlakat sifatida yevropaliklarda doimiy qiziqish uyg‘otib kelgan. Yevropaliklar Xitoyning texnik yutuqlarini o‘zlashtirib olishga intilgan. Buyuk geografik kashfiyotlardan so‘ng kuchaygan bu jarayon XVII asrda ham davom etdi. Ispaniya Filippinni egallab olganidan keyin atrofdagi orollarda savdo bilan shug‘ullanuvchi minglab Xitoy fuqarolarini yo‘q qilib yubordi. Xuddi shunday yovuzlik keyin ham takrorlandi. XVII asrda Xitoy qirg‘oqlarida golland kemalari paydo bo‘ldi. Ular Tayvan orollarining bir qismini egallab oldi. Shuningdek, Angliya ham bu hududlarga qiziqish bildira boshladi. Inglizlar Guanchjou hududiga o‘rnashib, bu yerda savdo olib borish uchun Xitoy hukumatidan ruxsat oldi. Yevropaliklar Xitoydan ipak va chinni olib ketib, bu yerga tamaki va o‘qotar qurollar olib kelardi.

XVIII asrning 70-yillarida Rossiya Xitoy bilan o‘zaro aloqalar o‘rnatishga urindi. Ammo Uzoq Sharqda va Markaziy Osiyoda ta’sir uchun ikkala davlat o‘rtasida raqobat bunga yo‘l qo‘ymadi. Keyin ikki tomon o‘rtasida qurolli to‘qnashuvlar bo‘lib o‘tdi.

**XVI–XVIII asrlarda Xitoy madaniyati.** Minlar davrida Xitoy madaniyati gullab-yashnadi. O‘zidan oldingi davrlarning eng yaxshi yutuqlarini o‘ziga singdirib ol-gan jamiyat taraqqiyotning yangi bosqichiga ko‘tarila oldi. Xitoy madaniyati o‘z mazmuniga ko‘ra an’anaviy bo‘lib qolayotgan bo‘lsa-da, u yangi yutuqlar bilan boyidi, madaniy hayotda yangi g‘oyalar paydo bo‘ldi.

Hunarmandchilikdagi yutuqlar tufayli tabiiy va amaliy fanlarga qiziqish ortdi, bu sohalarda yirik asarlar paydo bo‘ldi. Taniqli shifokor **Li Shi Chjen** dorilarni tayyorlash va saqlashdagi talablar (farmakopeya) bo‘yicha yirik asar yaratib, unda 1900 ga yaqin o‘simlik, hayvonot va minerallarga oid dorilar haqida yozgan. 1637-yili Su Insinning o‘ziga xos texnik ensiklopediyasi paydo bo‘ldi. “Osmon yaratgan va mehnat bilan olinadigan oziq-ovqat mahsulotlari haqida” deb nomlangan bu kitobda xitoy hunarmandchiligi rivojlanishining uzoq yo‘li yoritilgan. Taxminan shu davrda yevropalik missionerlar bilan tanishgan va lotin tilini o‘rgangan **Syuy Guansi** ismli amaldor “Qishloq xo‘jaligi ensiklopediyasi”ni yaratib, unda Xitoy va qisman Yevropadagi dehqonchilikning holatini ta’riflaydi.

Falsafa, gumanitar fanlarda an’anaviy dogmatizm, konservatizm va hayotdan uzilganlik tizimi juda kuchli bo‘lsa-da, amaliy fanlardagi yangiliklar asta-sekin bu sohalarga ham kirib bordi.

Bu davrda qadimiy din va dunyoqarashga asoslangan madaniyatni Yangi davr talablariga moslashtirish boshlandi. Minlar davrining eng yorqin olimlaridan biri **Van Yanmin** xitoyliklar dunyoqarashining asosi bo‘lgan konfutsiylikdan voz kechmagan holda bu ta’limotni o‘zgargan tarixiy vaziyatga mos ravishda, yangicha sharhlay boshladi.

*Xitoy tasviriy san’ati*





*“G‘arbga sayohat” asari*

Adabiyotda ham katta yutuqlarga erishildi. Qadimgi xalq afsonalari asosida “G‘arbga sayohat” romani yaratilib, unda xitoylik ruhoniyning mo‘jiza izlab Hindistonga qilgan safari tasvirlanadi. Bu roman kitobxonlarning ko‘plab avlodlarida katta taassurot qoldirdi.

XVI–XVII asrlarda teatr san’atining eng mashhur turi – umummilliy teatrga aylangan **kunsyuy** bo‘ldi. Kunsyuy asosida shakllangan Pekin operasi butun dunyoga tanildi.

Tasviriy san’atda o‘tmish an’analari davom ettirildi. Minlar davrida Tasviriy san’at akademiyasi qayta tiklandi. Badiiy asarlarga tasviriy bezak berish san’ati rivojlandi, peyzaj san’ati ham gullab-yashnadi. Xitoylik ustalar, faqat o‘z yurtlaridagina emas, balki G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida ham juda qadrlanadigan chinni, gazlama, loklangan miniaturalar yaratishda katta yutuqlarga erishdilar.

***Shunday qilib, chin sulolasi davrida Xitoy o‘z qudratining cho‘qqisiga erishdi. XVIII asr oxiriga kelib, G‘arb davlatlari Xitoyga suqilib kirish va uni mustamlakaga aylantirish rejasini amalga oshira boshlagan bo‘lsalar-da, Xitoy Osiyoning eng katta va qudratli davlati bo‘lib qolayotgan edi. Ammo iqtisodiy va siyosiy qoloqlik oqibatida keyingi davrda Xitoy G‘arb davlatlarining yarim mustamlakasiga aylandi.***

### Savol va topshiriqlar

1. Nima uchun manchjurlar Xitoy va boshqa hududlarni bosib olishga muvaffaq bo‘lishdi?
2. Xitoyda agrar soha yuqori darajada rivojlanganligi haqida so‘zlab bering.
3. XVI–XVIII asrlarda Xitoy madaniyati rivojlanishining o‘ziga xos tomonlari nimalardan iborat edi?
4. Yevropaliklarning Xitoyga qiziqishi sabablarini tushuntirib bering.
5. Xitoy madaniyati rivojlanishi darajasiga baho bering.

### O‘zingizni sinang:

Abaxay ..., 1644 ..., 1911 ..., Chinlar XVII–XVIII asrlarda – ... XVII asrda Xitoy qirg‘oqlarida – ... Van Yanmin – bu ... Kunsyuy – ...

### Ijodiy ish topshirig‘i:

1. O‘ylab ko‘ring va guruhlarga bo‘linib bahs uyushtiring: yevropaliklarning Xitoyga kirib kelishi ijobiy hodisami yoki salbiymi? Yevropaliklar istilosi qanday oqibatlarga olib keldi?
2. Konfutsiy hikmatlaridan birida shunday deyilgan: “Shoh – shohligini, fuqaro – fuqaroligini, ota – otaligini, o‘g‘il esa farzandligini qilishi kerak”. Ushbu so‘zlarning ma’nosiga izoh bering va bu bilan xitoyliklar nimaga da’vat etilganligini tushuntiring.

# 16-MAVZU. HINDISTON BOBURIYLAR IMPERIYASI DAVRIDA

**Siz bilib olasiz:**
– Hindistondagi siyosiy parokandalikni;
– Boburiylar imperiyasining tashkil topishini;
– Akbarshoh va uning islohotlarini;
– xalq harakatlari va imperiyaning parchalanishini;
– yevropaliklarning Hindistonga kirib kelishini;
– ijtimoiy fikr, fan, adabiyot va san'atni.

**Esga oling:** Boburning Movarounnahrda taxt uchun kurashi qanday yakun topdi?



*Z. M. Bobur*

**Hindistonda siyosiy parokandalik.** XVI asr boshlarida Hindiston siyosiy parokandalik, feodal urushlar holatida edi. Faqat vayronalik keltiruvchi bu urushlarning tugatilishidan aholining deyarli barcha qatlami manfaatdor edi.

Shunday sharoitda XVI asr 20-yillaridan Dehlida hokimiyatni egallab turgan sulton **Ibrohimning** harakatlari ajralib chiqqan vasallarni o'z hukmi ostida birlashtirish uchun yetarli bo'lmadi. Natijada sulton Ibrohimning siyosatidan norozi bo'lgan saroy a'yonlari orasida o'sha paytda Kobulda hukmdor bo'lib turgan **Zahiriddin Muhammad Boburni** taxtga taklif qilish g'oyasi paydo bo'ldi.

Mahoratli sarkarda, tajribali davlat arbobi va ajoyib shoir Mirzo Bobur bu qulay sharoitdan ustalik bilan foydalandi.

**Boburiylar imperiyasining tashkil topishi.** 1526-yili Mirzo Boburning janglarda toblangan 20 ming qo'shini Afg'onistonning tog'li yo'llari orqali Hindistonga yurish qildi. Hind rojalari birlasha olmadilar va Mirzo Bobur qo'shiniga qarshilik qilishga ojizlik qildilar. Mirzo Bobur qisqa vaqt ichida Shimoliy Hindistonning katta qismini o'ziga bo'ysundirdi. 1526-yil 21-aprelda **Panipat jangida** sulton Ibrohim qo'shinlarini tor-mor qildi va Dehlini egalladi. Mirzo Boburni taxtga taklif qilgan saroy a'yonlari undan faqat sulton Ibrohimga qarshi foydalanmoqchi edilar, xolos. Mirzo Bobur Dehli taxtida uzoq o'tirmaydi, olgan o'ljalari ko'rsatgan yordami uchun yetarli, taxtni o'zimizga qoldirib, qaytib ketadi, deb hisoblashgandi. Ammo keyinchalik Mirzo Boburning Dehli taxtida uzoq qolishini tushungan hind zodagonlari unga qarshi birlashdilar. 1527-yil 13-martda bo'lgan jangda Mirzo Bobur ular ustidan ham g'alaba qozondi.

Mirzo Bobur yana bir qator hind yerlarini bosib oldi va o'zini bu yerlarning hukmdori deb e'lon qildi. U asos solgan davlatni G'arb tarixchilari "Buyuk Mo'g'ullar imperiyasi" (yangi sulolaning asoschisi bo'lgan Boburning kelib chiqishini Chingizxonga bog'lab, sulolani Yevropada "Buyuk Mongollar imperiyasi" deyishgan) deb atashadi. U G'arbda Kobuldan Sharqda Bengaliya chegaralarigacha bo'lgan hududni qamrab oldi.

Mirzo Bobur qobiliyatli va uzoqni ko'ruvchi siyosatchi, lashkarboshi va davlat arbobi, shoir va tarixchi olim edi. U hammadan ko'proq hind xalqi zarar ko'rayotgan feodal urushlarni tugatdi, savdo-sotiq, qurilish, fan va adabiyotga homiylik qildi. Bu buyuk vatandoshimiz Turkiston, Hindiston va Afg'oniston xalqlari tarixiga, ularning san'ati, urf-odatlariga va diniga katta qiziqish va hurmatini namoyon qildi. Shu xislatlar tufayli u o'zi zabt etgan hududda qudratli davlat barpo etdi va madaniyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi.

Mirzo Bobur 1530-yili vafot etdi. U yer-mulkini farzandlariga bo'lib, Dehli taxtida sevimli farzandi Humoyunshohni qoldirdi va boshqa farzandlariga unga

bo‘ysunishni vasiyat qildi. Biroq aka-ukalar Bengaliya va Bixar feodallari bilan birga Humoyunshohga qarshi birlashdilar. Bir necha janglarda mag‘lub bo‘lgan qobiliyatsiz Humoyunshoh Sind orqali Eronga qochib ketdi. Natijada hokimiyat 15 yilga (1540–1555) **Sur urug‘idan bo‘lgan afg‘on feodallari** qo‘lida qoldi. Humoyunshoh Dehli taxtiga qaytishga muvaffaq bo‘ldi, ammo tez orada, 1556-yili vafot etdi. Taxtga Humoyunshohning 13 yoshli o‘g‘li **Akbarshoh** (1542–1605) keldi.




*Akbarshoh*

**Akbarshoh va uning islohotlari.** Mirzo Boburning vorislari ichida eng mashhuri Akbarshoh edi. U haqiqiy imperiyaning asoschisi, Hindiston tarixida buyuk islohotchi sifatida nom qoldirgan. Boburiylar imperiyasi uning hukmronligi davrida eng yuksak taraqqiyotga erishdi. U mamlakat hududini bir necha marta kengaytirdi.

Akbarshoh mustahkam, markazlashgan davlatni va kuchli markaziy hokimiyatni barpo qilish uchun bir qator islohotlarni amalga oshirdi. Hududiy-ma’muriy islohotlar natijasida imperiya noiblar tomonidan boshqariladigan hududlarga ajratildi. Butun imperiya uchun bir xil uzunlik va og‘irlik o‘lchov birliklari tizimi **taqvim** joriy qilindi.

Islohotlar ichida Akbarshohga eng katta shuhrat keltirgani diniy islohot bo‘ldi. Bu islohotning maqsadi diniy mansubligidan qat’i nazar, hukmron guruhlarni jipslashtirishdan iborat edi. Akbarshoh diniy murosasozlik siyosatini olib bordi. U mamlakatni boshqarishga musulmonlar bilan birga hindlarni ham jalb qildi, hindlarni har qanday ta’qib qilishlarini to‘xtatdi, musulmon bo‘lmaganlardan olinadigan soliq – **jizyani** bekor qildi. U o‘z mamlakati doirasida to‘liq diniy erkinlikni e’lon qilib, musulmon bo‘lmaganlarning har qanday kamsitilishini bekor qildi.





*Humoyun*

| Akbarshohning islohotlari | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Hududiy-ma’muriy | Diniy | Harbiy | Soliq | Madaniyat, san’at, yozuv | O‘lchov birliklari va taqvim |
| Boburiylar davlati imperiyaga aylandi | | | | | |

Akbarshohning islohotlari musulmon feodallar va diniy mutaassiblarning noroziligiga sabab bo‘ldi. Ular podshohni dinsizlikda aybladilar, xalqni unga qarshi ko‘tarishga harakat qildilar. Norozilar tomonida Akbarshohning o‘g‘li, taxt vorisi **Jahongirshoh** ham bor edi. U taxtga kelishi bilan (1605–1627) otasining ko‘plab islohotlarini yo‘qqa chiqardi.

Jahongirshohning o‘g‘li **Shohjahon** hukmronlik qilgan yillari (1628–1657) imperiya o‘z qudratining eng cho‘qqisiga yetdi.

**Shahar, hunarmandchilik va savdo.** Hindistonning Boburiylar hukmronligi ostida birlashishi shaharlarning, savdo va hunarmandchilikning ham rivojlanishiga olib keldi. Shaharlar iqtisodiy, ma’muriy-siyosiy va madaniy markazlar rolini o‘ynay boshladi. XVII asrda hind shaharlarida aholining 15–20 foizi yashardi. Ayrim shaharlar, masalan, Dehli, Laxor, Agra, Ahmadobod kabilar aholisi juda ko‘p sonli bo‘lib, yarim milliondan oshardi. Shaharlarda hunarmandchilikning ko‘plab turlari, ayniqsa, to‘qimachilik keng rivojlangandi. Bu sohada yangi mehnat qurollari, masalan, yirik naqshli matolarni to‘qish dastgohi, lentali dastgoh va yangi texnik usullar paydo bo‘ldi. Hind matolari Yevropa bozorlariga chiqarildi. Ayniqsa, Bengaliyaning o‘ta nozik va chiroyli paxta matolari juda mashhur edi.

Metallga ishlov berish, ayniqsa, qurolsozlik yaxshi rivojlangan bo‘lib, yevropaliklar hindlarning to‘plari, mushketlari va to‘pponchalariga yuqori baho berishgan. Qirg‘oqbo‘yi shaharlarida, ayniqsa, Suratda yevropaliklarnikiga o‘xshash kemalar qurilardi, Angliyaning “Ost Indiya” kompaniyasi tez-tez shunday kemalarga buyurtma berardi.

**Ijodiy ish topshirig‘i:** XVII asrda Angliya va Hindistonning iqtisodiy rivojlanishidagi umumiy va o‘ziga xos tomonlarini taqqoslang.



*Shohjahon*



*1526-yil 21-apreldagi Panipat jangi*

Shahar savdogarlarini o‘ta yuqori kasbiy mahorat va ishchanlik axloqi ajratib turardi. Savdogarlar va bankirlar orasida kredit xatlari keng tarqalgan bo‘lib, savdogar bu xat vositasida Samarqand va Jiddada, Pega va Maskatda, hatto Astraxanda ham osongina pul olishi mumkin bo‘lgan. Boy savdogarlar podshoh saroyiga ham kredit berib, shu yo‘sinda siyosatga ham ta’sir o‘tkazishgan.

**Xalq harakatlari va imperiyaning parchalanishi.** Akbarshohning soliq islohotlari, umuman, taraqqiyparvar ahamiyatiga qaramasdan, dehqonlarning ahvolini yanada og‘irlashtirdi, sudxo‘rlikka keng yo‘l ochdi. Qarzdor bo‘lib qolgan dehqonlar yerlarini tashlab qochib keta boshladilar. Unumdor yerlar changalzorlarga aylandi. Yo‘llarda qaroqchilar ko‘payib, savdo kasodga uchray boshladi. Davlat xazinasiga ham tushumlar kamayib ketdi. Bunday holatda imperiyadan ajralib chiqish, ayirmachilik kayfiyati kuchaydi. Natijada Boburiylar imperiyasi inqirozga yuz tuta boshladi. Bu holat, ayniqsa, Shohjahonning o‘g‘li **Shoh Avrangzeb** hukmronligi yillarida (1658–1707) avjiga chiqdi. Avrangzeb mutaassib dindor bo‘lganligi sababli parchalanayotgan imperiyani saqlashning yo‘li sifatida islom qoidalarini qat’iy joriy qilishga kirishdi. Musulmon bo‘lmaganlardan olinadigan soliq — jizyani qaytadan tikladi, hindlar uchun qolgan barcha soliqlarni ikki hissaga oshirdi, ularga o‘z bayramlarini nishonlashni taqiqladi, hind ibodatxonalarini buzib tashlashni buyurdi. Natijada imperiyaning turli chekkalarida boburiylarga qarshi harakatlar boshlanib ketdi.

XVIII asr boshlariga kelib, imperiyaning real inqirozi boshlandi. Armiya avvalgi qudratini yo‘qotdi, mahalliy hukmdorlarning esa mustaqilligi oshdi. Imperator endi na ma’muriy, na harbiy huquqqa ega bo‘lmagan, o‘ziga xos davlatlar uyushmasining ramziy hukmdoriga aylanib qoldi.

Shunday bir holatda, 1739-yili Eron shohi **Nodirshoh** qo‘shinlari Hindistonga bostirib kirib, Dehlini taladi, poytaxt aholisining ko‘pchiligini qirg‘in qildi. Undan keyin Shimoliy Hindistonni afg‘onlar bosdi. Dehli imperatorlarining hokimiyati tobora zaiflashib borardi. Mamlakat amalda unga ko‘z olaytirayotgan yevropaliklar uchun qulay bo‘lgan feodal tarqoqlikka qaytdi.



*Akbarshoh saroy a’yonlari bilan*

**Yodda tuting:**
“Ost Indiya” kompaniyasi (1600–1858) — “Ost Indiya” (Hindiston va Janubi-sharqiy Osiyo) va Xitoy bilan savdo qiluvchi xususiy kompaniya, Angliya hukumatining bosib olingan hududlarni ekspluatatsiya qilish apparati. Hindistondan Yevropada sotish uchun gazlama, ip, indigo, afyun, selitra olib ketar edi.

**Esga oling:**
Qadimgi dunyo va O‘rta asrlarda hindlar jahon madaniyatiga qanday hissa qo‘shgan?

**Yevropaliklarning Hindistonga kirib kelishi.** Yevropalik mustamlakachilarning Hindistonga kirib kelishi XVI asrdayoq boshlangan edi. Hindistonga dengiz yo‘lini ochgan portugallar Malabar qirg‘oqlaridagi bir necha bazani egallab oldilar. Lekin ular mamlakat ichkarisiga kirish uchun yetarli kuchga ega emasdilar.

Angliyaning “Ost Indiya” kompaniyasi 1600-yili Hindistonda o‘z korxonalarini ochish huquqini qo‘lga kiritdi. Kompaniya Hindistonning turli nuqtalarida savdo shoxobchalari tashkil qila boshladi. Ular savdo va siyosiy faoliyatining markazlari Dehli, Kalkutta va Madras shaharlari bo‘lib qoldi.

“Ost Indiya”ning savdo kompaniyasidan mustamlaka hokimiyatiga aylanib borishi oqibatida XVIII asr o‘rtalaridan boshlab egallangan hududlarda harbiy va ma’muriy hokimiyatni o‘rnatish hamda diplomatik kelishuvlar kompaniya faoliyatining asosiy turlari bo‘lib qoldi. 1757-yili inglizlar Bengaliyani bosib oldilar va bu “Ost Indiya” kompaniyasining qo‘shinlari tomonidan butun mamlakatni asta-sekin egallashning, hind xalqining ikki yuz yillik arosatining boshlanishi edi. Inglizlarning muvaffaqiyatlariga ularning sanoatdagi ilg‘orligi bilan birga ulkan sipohiy qo‘shinlariga egaligi ham sabab bo‘ldi. Aytish mumkinki, Hindiston, asosan, hindlarning o‘z qo‘llari bilan zabt etildi.

**Ijtimoiy fikr, fan, adabiyot va san’at.** Bu davr fani so‘nggi O‘rta asrlar va Yangi davr boshlariga xos bo‘lgan inqilobiy jarayonlarni boshdan kechiradi. Fanning yutuqlari orasida matematikaning rivojini alohida ta’kidlash lozim. Ulug‘ matematik **Nilakanta** va boshqa hind matematiklari o‘z asarlari bilan **Gregori, Leybnis** va boshqa yevropalik olimlardan ancha oldinlab ketdilar. Shuningdek, astronomiya, kimyo, fizika fanlari ham katta muvaffaqiyatlar bilan rivojlandi.

Tabiiy fanlar ichida tibbiyot alohida yuqori o‘rin egallaydi. Hind tabobati turli kasalliklarni aniqlash va davolash bo‘yicha o‘z zamonasining ilg‘or usullarini kashf etgan. Xirurgiya, ayniqsa, plastik xirurgiya, Yevropa faniga nisbatan ancha ilg‘or edi. Bu davrda hind farmakologiyasi ham yaxshi rivojlandi.

Akbarshoh podsholik qilgan davr misli ko‘rilmagan madaniy yuksalish davri bo‘ldi. Shoir va tarixchi **Abul Fazlning** Hindiston tarixiga bag‘ishlangan asarlari, **Abul Fayziyning** “Nal va Daman” poemasi Hindiston adabiyotining yuksak namunalaridan hisoblanadi. Bu davr adabiyotining eng yuksak cho‘qqisi Sharq xalqlarining genial shoiri, faylasufi, mutafakkiri **Mirzo Abdulqodir Bedil** (1644–1721) ijodida namoyon bo‘ldi.



*“Ost Indiya” kompaniyasining Hindistonga kirib kelishi*

***Bu qiziq:***

Toj Mahal — Agra shahrida oq marmardan qurilgan. Balandligi — 74 metr, 17 gektar hududda joylashgan. Qurilishida 20 yil davomida 20 ming odam ishlagan. Marmarning shunday xususiyati bor — kunduzi oq rangda, tongda pushti, oydin kechada esa kumushrang ko‘rinadi.

Boburiylar davri arxitekturasi mahobati, bezaklarning boyligi, musulmon me’morchiligi va hind saroy arxitekturasi an’analarining uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Bu davrda bunyod etilgan me’moriy obidalarning eng mashhuri, jahon me’morchilik san’atining noyob durdonalaridan biri Toj Mahal saroyidir. Uni Shohjahon sevimli xotini Mumtoz Mahalga bag‘ishlab qurdirgan.

***Shunday qilib, qachonlardir yuksak taraqqiyotga erishgan Hindiston XVII asr oxiridan boshlab qariyb 300 yilga inglizlarning mustamlakasiga aylandi. Mamlakatdagi iqtisodiy tushkunlik va siyosiy parokandalik, Boburiylar imperiyasi o‘rnida paydo bo‘lgan davlatlarning o‘zaro urushlari inglizlarning Hindistonni bosib olishi uchun imkoniyat yaratdi. Eng achinarlisi, inglizlar Hindistonni hindlarning o‘zlari yordamida bosib oldi va uzoq yillar qaramlikda ushlab turdi.***

**Atamalar mazmuni:**
***Sipohiylar*** (*fors.* — *“askar”*) — inglizlar tomonidan mahalliy aholi orasidan yollangan askarlar.

**Savol va topshiriqlar**

1. Hindistonda Boburiylar imperiyasi qay tariqa o‘rnatildi?
2. Akbarshoh va Avrangzebning yuritgan siyosatini taqqoslang, ularning o‘xshash va farqli tomonlarini toping.
3. Boburiylar imperiyasi zaiflashuvi boshlanishiga sabab bo‘lgan omillarni sanab bering.
4. Qanday omillar yevropaliklarning Hindistonga kirib kelishi uchun imkon yaratdi?
5. Tolerantlik (bag‘rikenglik) va vijdon erkinligi tushunchalariga ta’rif bering.

**Ijodiy ish topshirig‘i:** “Boburnoma” asarining asosiy mazmuni nimadan iborat ekanligini aniqlang va sinfda so‘zlab bering.

**Internet bilan ishlashga doir topshiriq:** Internet yordamida “Bobur”, “Akbarshoh”, “Toj Mahal” yoki “Boburiylar imperiyasi” mavzularidan bittasini tanlab, o‘zingiz yoki guruhda ishlab, taqdimot tayyorlang.

# 17-MAVZU. YAPONIYA VA KOREYADA IJTIMOIY-SIYOSIY JARAYONLAR

**Siz bilib olasiz:**
– Yaponiya siyosiy tizimini;
– Yosimune islohotlarini;
– Yaponiyaning Koreya yerlariga kirib kelishini;
– Koreyaga manchjurlarning bostirib kirishini;
– madaniyat va san’atni.

**Yodda tuting:**
1542-yilda Yaponiya qirg‘oqlariga portugallar, keyin ispanlar, birmuncha vaqt o‘tgach – gollandlar va inglizlar kelishadi. Aynan portugallar yapon orollariga feodal o‘zaro to‘qnashuvlar avjida o‘qotar qurollar (arkebuzalar va mushketlar) olib kelganlar. Portugallar va ispanlar bilan birgalikda Yaponiyada katolik – iyezuit missionerlari paydo bo‘ladi.


Yaponiya Uzoq Sharqda, Tinch okeani orollarida joylashgan bo‘lib, uni “Kun-chiqar mamlakat” deb atashadi.

O‘rta asrlar davomida Xitoy Yaponiya taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu ta’sir ayniqsa, min sulolasi hukmronligi davrida Xitoy madaniyati, rassomchiligi, adabiyoti, me’morchiligi, falsafasi va harbiy san’ati sohalarida sezilarli bo‘ldi.

**Siyosiy tizim.** XVI–XVIII asrlarda Yaponiya aholisi **Si** — samuraylar, **No** — dehqonlar, **Ko** — hunarmandlar, **Syo** — savdogarlar toifalariga bo‘lingan bo‘lib, viloyatlarni feodallar — daymyolar nazorat qilar, ularning qo‘lida samuraylar xizmat qilardi. Mamlakat tepasida rasman mikado — imperator tursa-da, siyosiy hokimiyat amalda harbiy hukmdor **si-no-ko-syo – syogun** qo‘lida edi. Bu davrdagi eng muhim siyosiy voqea butun Yaponiyaning markazlashgan yagona davlatga birlashishi bo‘ldi.

Mamlakatni birlashtirishda uch mashhur tarixiy shaxs: Oda Nobunaga, Toyotomi Xideyosi va Tokugava Ieyasuning xizmatlari beqiyos bo‘ldi. Ular hukmronlik qilgan davrda jangovar armiya tuzilib, mamlakatni fuqarolar urushi girdobidan olib chiqishga muvaffaq bo‘lindi. Ulardan **Tokugava Ieyasu** 1603-yili syogun unvonini qabul qildi va **Edo** (zamonaviy Tokio) shahrini poytaxt qilib, Tokugava syogunligiga asos soldi. Tokugavalar Yaponiyani birlashtirish ishini yakunlab, uni 1867-yilgacha boshqardi. Mamlakatda tokugava sulolasining mutlaq hokimiyati o‘rnatildi. Biroq bu sulola nomiga bo‘lsa-da, imperator hokimiyati daxlsizligini saqlab qoldi. Chunki yapon xalqi uchun imperator xudoning avlodi, “tirik xudo” bo‘lib, taxtda o‘tirar, hokimiyatni esa syogun boshqarar edi.

**O‘zini o‘zi ajratib qo‘yish.** Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin Yaponiyada yevropaliklar paydo bo‘lib, xristian dini ham tarqala boshladi. Yevropalik missionerlar uni yaponlar orasida zo‘r berib targ‘ib qilishdi. Ammo ko‘pchilik missionerlar din niqobi ostida yapon xalqini arosatga solishni, Yaponiyaning mustaqilligiga chek qo‘yib, uni bosib olishni maqsad qilib qo‘ygan edilar.




*XVI–XVIII asrlarda Yaponiya aholisi*

| Yaponiyada qo‘shhokimiyatchilik – syogunat, harbiy-feodal boshqaruv tizimi | |
|---|---|
| Mikado – “tirik xudo” – podsholik qilgan, diniy marosimlar va an’analar o‘tkazilishini nazorat qilgan, lekin davlatni boshqarmagan. Poytaxti – Kioto shahri. | Syogunlar amalda davlatni boshqarishgan. Poytaxti – Edo shahri, syogunlar qarorgohi |
| Yaponiyaning yirik shaharlari: Edo, Kioto, Osaka, Nagoya, Nagasaki, Xakata | |



***Tokugava Ieyasu***

Yaponiyada XVI asr oxirida qabul qilingan qonunga binoan, barcha xristian missionerlari mamlakatdan quvib yuborildi. 1614-yili syogun xristian dinini taqiqlovchi qonun chiqardi. Qonun xristian dinini mamlakat dushmani deb e’lon qildi. Budda dinini hurmat qilmaydigan barcha shaxslarning Yaponiyadan chiqib ketishi talab etildi. Shu tariqa Yevropa mustamlakachilari Yaponiyadan quvib yuborildi. Bu hol Yaponiyaning Yevropa bilan munosabatlariga ta’sir etmay qolmadi. Natijada Yaponiya tashqi dunyodan o‘zini o‘zi ajratib qo‘ydi. Syogun o‘zini o‘zi ajratib qo‘yish siyosati orqali Yaponiyaning mustamlakaga aylanib qolish xavfining oldini olish maqsadini ham ko‘zlagan edi.



*Syogun **Ienari***

| O‘zini o‘zi ajratib qo‘yish siyosati (XVII asrda joriy etilib, 200 yildan ortiq vaqt davom etgan) | | | |
|---|---|---|---|
| Har qanday o‘zga dinlar taqiqlandi. | Xitoy va Yevropadan kitob olib kirishga taqiq qo‘yildi. | Yaponlarning mamlakatdan tashqariga chiqishi taqiqlandi. | Ispanlar va portugallar mamlakatdan chiqarib yuborildi. |

**Yosimune islohotlari. Yosimune** tokugava sulolasidan chiqqan sakkizinchi syogun bo‘lib, 1716–1745-yillar hukmronlik qildi. U sulolaning eng mashhur davlat arbobi sifatida tanildi. Yosimune islohotchi syogun sifatida tarixga kirdi. U amalga oshirgan ma’muriy islohot bo‘yicha 80 foiz boshqaruvchi ma’murlar almashtirildi, samuraylar va daymyolar bo‘shatilib, o‘rniga oddiy fuqarolar tayinlandi. Moliya bo‘yicha mas’ul kishi tayinlanib, u butun davlat xarajatlari va tushumlari ustidan nazorat o‘rnatdi. Davlat mablag‘larini iqtisod qilishga alohida e’tibor qaratildi. Xarajatlarga qarshi kurash e’lon qilinib, maishatbozlik va hashamdorlik taqiqlandi. Korrupsiyaga qarshi kurash boshlanib, poraxo‘rlik uchun o‘lim jazosi belgilandi.

Yosimune qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish hisobiga dehqonchilik bilan shug‘ullanishni rag‘batlantirish siyosatini yuritdi. Sug‘orish inshootlari tizimini takomillashtirdi. Yerni sotish, sotib olish yoki garovga qo‘yishni taqiqlovchi qonun chiqardi. U sholi ekini maydonlarini kengaytirishni buyurdi. Eng yaxshi sholi dalalari uchun mukofot e’lon qildi. Bu siyosat yaponlarni uzoq vaqt oziq-ovqat muammosidan xalos etdi.

Mamlakat va jamiyat hayotini tartibga solishda Yosimune joriy etgan “100 moddali farmon” deb ataluvchi qonunlar to‘plami katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

O‘n birinchi syogun **Ienari** (1787–1837) ham islohotlar siyosatini davom ettirdi. U ham islohotlarni davom ettirib, ocharchilikka qarshi kurashish uchun sholi zaxirasini yaratishni buyurdi. Ienari isrofgarchilik, poraxo‘rlik, firibgarlik kabi illatlarga qarshi kurash e’lon qildi. Qat’iy tejamkorlik siyosati tufayli budjet xarajatlarini kamaytirdi. Uning faoliyati savdogarlar, sudxo‘rlar va dvoryanlarning noroziligiga sabab bo‘ldi.

**Esga oling:**
Birinchi koreys davlati nima deb atalgan va unga kim asos solgan?



*Li Sun Sin*

## XVI–XVIII ASRLARDA KOREYA

**Yaponiya tajovuzi.** XVI asrda Koreyada markazlashgan davlatning asta-sekin zaiflashib borishi qo‘shnilarning tajovuzlariga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, janubda Yaponiya tomonidan xavf kuchaydi.

1592-yili Yaponiya qo‘shini Koreya hududiga bostirib kirib, koreys qo‘shinlari qarshiligini yengdi va Seul, Pxenyan shaharlarini egalladi. Mamlakatning katta qismi yapon qo‘shinlari tomonidan bosib olindi. Ular tinch aholiga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘ldilar.


Mamlakatda yapon bosqinchilariga qarshi xalq urushi boshlandi. Bosib olingan hududlarda “Haq ish uchun” xalq partizan guruhlari tuzildi. Xalq qo‘shinlarining harakatlariga Li Sun Sin qo‘mondonligi ostidagi koreys flotining g‘alabalari dalda bo‘ldi. **Li Sun Sin** floti yapon flotini tor-mor qildi.

Ellik minglik Xitoy qo‘shinining yordamga kelganligi koreyslarning yaponlarga qarshi kurashini yengillashtirdi. 1593-yili Xitoy va Koreyaning birlashgan qo‘shinlari Pxenyan va Seulni ozod qildi.

Yaponlar bosqini mamlakatda ulkan ma’naviy va moddiy yo‘qotishlarga olib keldi. Haydaladigan yer maydonlari keskin qisqarib ketdi. Amaldorlar orasida poraxo‘rlik va jinoyatchilik, xalq orasida esa ocharchilik va vabo avjiga chiqdi. Mamlakat endi o‘zini tiklayotgan bir paytda unga manchjurlarning hujumi boshlandi.

**Koreyaga manchjurlarning bostirib kirishi.** Xitoyda o‘z hukmronligini o‘rnatishga intilayotgan manchjurlar 1627-yili Koreyaga bostirib kirdilar. Ular koreys qo‘shinining qarshiligini yengib, ko‘plab shaharlarni egallab oldilar va taladilar. Koreys hukumati bosqinchilar bilan muzokaralar olib bordi. Ikki tomon o‘rtasida imzolangan tinchlik shartnomasiga ko‘ra, Koreya Xitoyning yordamidan va u bilan ittifoqchilik munosabatlaridan voz kechishi kerak edi.

Manchjur qo‘shinlari Koreyaga yangi hujum boshladi. Manchjurlar Seulni egallashga muvaffaq bo‘ldilar. Noiloj qolgan Koreya taslim bo‘ldi. 1637-yilgi yangi shartnomaga ko‘ra, Koreya qiroli o‘zini manchjurlarning vassali deb tan oldi. Koreys hukumati minlar sulolasi bilan har qanday munosabatlarni to‘xtatish va manchjurlarga Xitoyga qarshi urushda yordam berish, har yili o‘lpon to‘lab turish majburiyatini



*XVI–XVIII asrlarda Koreya*

oldi. Manchjurlarga to‘lanadigan ulkan o‘lpon xonavayron aholiga og‘ir yuk bo‘ldi va Koreyaning ahvolini yanada og‘irlashtirdi.

**Ijtimoiy taraqqiyot.** Og‘ir iqtisodiy va siyosiy inqiroz Koreya hukmdorlarini mamlakatda islohotlar o‘tkazishga majbur qildi. Aholining ilg‘or qatlami ham hukumatni shunga undayotgan edi. Feodal munosabatlarning to‘siq bo‘lishiga qaramasdan, mamlakatda mahalliy bozorlar shakllandi, yarmarka va yirik savdo markazlari paydo bo‘ldi, Xitoy va Yaponiya bilan savdo aloqalari kengaydi.

Qirol **Yeongjo** (1725–1776) davrida mamlakatni rivojlantirish maqsadida islohot o‘tkazildi. To‘g‘onlar, suv omborlari qurildi, ocharchilik holati uchun maxsus don omborlari tashkil etildi. Shuningdek, guruchdan spirtli ichimliklar tayyorlash man etildi va ba’zi bir davlat soliqlari bekor qilindi yoki kamaytirildi. So‘roq qilish paytida qiynoqning eng og‘ir turlari (oyoqlarni sindirish) taqiqlandi. Qirol **Yeongjo** davrida dehqonlarning katta yer egalariga shaxsiy qaramligini bekor qilish va qul ayolning nevarasi ozod inson bo‘lishi haqida deklaratsiya e’lon qilindi. Zaiflashayotgan feodal tuzumni mustahkamlashga bo‘lgan bu urinishlar 1785-yilda tuzilgan “Qonunlarning buyuk to‘plami” deb nomlangan hujjatda o‘z ifodasini topdi. Biroq katta yer egalari va amaldorlar hukmronligini mustahkamlash maqsadida qilingan bu kabi qisman yon berishlar, mamlakatdagi butun feodal tuzumining chuqur inqirozini to‘xtata olmadi. Mamlakat mustamlakachi davlatlarining mustamlakachilik obyektiga aylanib bordi.

**Madaniyat va san’at.** Yaponlar hayotida san’at alohida rol o‘ynaydi. Olamning uyg‘unligini his etishga intilish, atrofda go‘zallikni ko‘ra olish qobiliyati yaponlar xarakterining o‘ziga xos jihatlaridir.

XVI–XVIII asrlarda o‘rtada joylashgan qal’a atrofida yapon bog‘ini yaratish san’ati rivojlandi. Ko‘p qavatli, tomining uchi qayrilgan binolar parvoz qilayotgan katta qushni eslatardi.

XVII asrda an’anaviy yapon teatri — **kabuki** (qo‘shiq, raqs, mahorat) paydo bo‘ldi. Bu teatr aktyorlari faqat erkaklar bo‘lib, ularning yuzlari murakkab usulda grim qilinardi.

Yangi davrda yapon she’riyati ham yuksaklikka erishdi. Poeziyaning eng keng tarqalgan **xokku janri** qofiyalashmagan besh qator lirik she’rlar bo‘lib, ular “Tomchi



*Yapon – Koreya urushi*

**Yodda tuting:**
XVIII asrning oxiriga kelib, deyarli barcha samuraylar, shuningdek, dehqonlar, hunarmandlar va savdogarlarning katta qismi savodli edi. Yaponiyada olti yoshdan oshgan, o‘z ismini yoza oladigan va oddiy matnni o‘qiy oladigan har bir kishi savodli hisoblanardi. Shunday qilib, Tokugava hukmronligi davrida Yaponiya aholisining barcha qatlamlari orasida savodxonlik va ta’lim keng tarqalgan edi.

suvda ummonni ko‘rish kerak” degan badiiy tamoyil asosida yozilgan. Bu janrning eng mashhur namoyandasi — **Masuo Basyo.**

1742-yili syogun **Yosimune** Yaponiyaga yevropaliklarning tabiiy va amaliy fanlar bo‘yicha kitoblarini kiritishga ruxsat berdi. Poytaxt Edo (hozirgi Tokio) shahriga Yaponiya madaniyati va tarixi bilan qiziquvchi yevropaliklarni taklif qildi. Saroyda yaponlar va yevropaliklar o‘rtasida madaniyat almashinuvi markazini tashkil qildi. Yaponlar ingliz tilini tezda o‘zlashtirib olib, matematika, astronomiya va tibbiyot bo‘yicha o‘z bilimlarini rivojlantirdi.

Yangi davrda Koreyada ham bizdagi baxshichilik san’atiga o‘xshash qo‘shiq--chilik keng tarqaldi. Bu bilan xalq og‘zaki ijodi adabiyot maqomini oldi va yozma adabiyot sifatida ham davom ettirildi.

Tasviriy san’atda ham xalq ijodiyoti, koreys xalqi hayotidan lavhalarni aks ettirish an’analari kuchaydi. Xitoyning peyzaj usuli kirib keldi. Bu “tog‘ va suvni tasvirlash” janri bo‘lib, unda ijod qilgan rassomlar orasida **Chon Son, Li Myonuk, Kim Xondo** chizgan rasmlar juda mashhur edi.

***Shunday qilib, XVI–XVIII asrlar davomida Yaponiya birlashib, yagona markazlashgan davlatga aylandi, umumyapon milliy bozori shakllandi. Ichki islohotlar hamda oqilona tashqi siyosat tufayli ko‘pchilik Osiyo davlatlaridan farqli o‘laroq, o‘z mustaqilligini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi.***

***Koreyada esa amalga oshirilgan islohotlar mavjud tizimning inqirozini to‘xtata olmadi. Mamlakat Xitoy, Yaponiya, Rossiya va Yevropa davlatlarining mustamlakachilik obyektiga aylanib bordi.***

**Atamalar mazmuni:**

**Mikado** (*yap. izzat-hurmatli darvoza*) – Yaponiya imperatorining qadimgi unvoni.

**Syogun** (*yap. qo‘mondon, lashkarboshi*) – O‘rta asrlarda Yaponiyadagi harbiy hukmdor. 1192–1867-yillarda Yaponiya hukmdorlari unvoni bo‘lib, ular hukmronligi davrida imperator sulolasi haqiqiy hokimiyatdan mahrum bo‘lgan. Uchta syogun sulolasi mavjud bo‘lgan: minamoto, ashikaga, tokugava.

**Samuray** (*yap. xizmat qilish*) — feodal Yaponiyadagi mayda zodagonlar va knyazlar (daymyo)larning harbiy-feodal tabaqasi.

**Missioner** (fr. — diniy tashkilot), cherkov tomonidan o‘z dinini targ‘ib qilish va boshqa dindagilarni o‘z e’tiqodiga o‘tkazish uchun yuborilgan shaxs.

**Savol va topshiriqlar**

1. Syogun o‘zini o‘zi ajratib qo‘yish siyosatini qo‘llashining sababini tushuntiring va uning oqibatlari haqida so‘zlab bering.
2. “Ikebana”, “neske” so‘zlarining ma’nosini internetdan toping.
3. Koreyada qirol Yeongjo islohotlariga munosabatingizni bildiring.
4. “Peyzaj usuli” deganda nimani tushunasiz?

**Yodda tuting:**
**Sintoizm, sinto** (*yap. “xudolar yo‘li”*) – qadimgi yapon dini bo‘lib, ezgu va yovuz ruhlarga e’tiqodni o‘z ichiga oladi. Asosiy xudo – Quyosh ma’budasi Amaterasu bo‘lib, rivoyatga ko‘ra, Mikado uning avlodi hisoblanadi.

**Ijodiy ish topshirig‘i:**
Yaponiyaning orollarda joylashganligi uning: a) siyosiy; b) iqtisodiy; d) madaniy rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatganligi haqida ma’lumot toping va sinfda muhokama qiling.

**Internet bilan ishlashga doir topshiriq:** “So‘nggi samuray” yoki mashhur yapon kinorejissori Akiro Kurosava filmlaridan birini tanlab, tomosha qiling.

# 18-MAVZU. USMONIYLAR IMPERIYASI: YUKSALISH, INQIROZ VA ISLOHOT


**Siz bilib olasiz:**
– imperiyaning yuksalishi va bosqinchilik siyosatini;
– imperiyaning ichki ahvolini;
– Yevropa davlatlariga qaramlikning boshlanishini;
– fan, madaniyat va san’atni.

**Imperiyaning yuksalishi va bosqinchilik siyosati.** XVI asr boshlarida butun imperiya **viloyatga**, viloyatlar esa **sanjoq** (tuman)larga bo‘lingan edi. Viloyatlarni **vali,** sanjoqlarni esa **sanjoqbey** boshqarardi. Imperiyaning asosiy tayanchi uning qo‘shini edi.

Imperiya bosib olgan hududlardagi yerlar ham davlat mulki deb e’lon qilindi. Sulton bu yerlarni o‘z **sipohiy** (otliq askar)lariga harbiy majburiyat evaziga taqsimlab bergan. Ularning miqdori har xil edi. Sipohiylar shu tariqa o‘z xo‘jaliklariga ega bo‘lganlar. Ular o‘z yerlarini dehqonlarga ijaraga berganlar. Ayni paytda harbiy harakatlarda qatnashish, sipohiylar zimmasiga zarurat tug‘ilganida sulton farmon ber-gani zahotiyoq uning ijrosini ta’minlash esa sanjoqbey zimmasiga yuklatilgan. Shuningdek, ular o‘zlari bilan birga yerdan oladigan daromadi miqdoriga mos ravishda qurolli askarlar ham olib kelishi shart bo‘lgan. Sipohiy xo‘jaligining daromadini ijarachi dehqon to‘laydigan soliq tashkil etardi. Bundan tashqari, imperiyaning doimiy piyoda qo‘shini — **yanicharlar** (yangi qo‘shin), shuningdek, kuchli harbiy dengiz floti ham bor edi. Bu omillar XVI asrda ham Usmoniylar imperiyasiga keng ko‘lamda bosqinchilik urushlari olib borish imkonini berdi.

**Imperiyaning bosqinchilik siyosati.** XVI asr boshida Turkiyaning sharqiy chegarasi — Erondagi Safaviylar davlati kuchaydi. Islom dinining shialik oqimini davlat diniga aylantirgan Safaviylar davlatining kuchayishi, nafaqat usmoniylarning Sharqdagi bosqinchilik yurishlarini cheklab qo‘ydi, balki uning ichki xotirjamligiga ham putur yetkazdi.

1514-yili Manu shahri yaqinidagi Chaldiron tekisligida bo‘lib o‘tgan jangda usmoniylar qo‘shini safaviylarga qattiq zarba berib, ularning poytaxti Tabrizni egalladi, lekin Eronda mustahkamlanib ololmasdan Onado‘liga chekindi. 1515-yili imzolangan sulhga ko‘ra, Armanistonning bir qancha tumanlari Turkiya tasarrufiga o‘tdi.




**Esga oling:** Usmoniylar imperiyasi qachon va qanday tashkil topgan?

**Yodda tuting:** Sultonning barcha fuqarolari uning qullari hisoblangan, shuning uchun quyi tabaqadan bo‘lgan odamlar ham eng yuqori davlat lavozimlariga ko‘tarilishlari mumkin bo‘lgan.

**Esga oling:** Nima uchun turk sultonlarining shiori: “Kuch va qudrat – davlat va qo‘shinda” bo‘lgan?



*Salim I*



*Sulton Sulaymon I*

Eron urushi tugagandan so‘ng usmoniylar arab yerlariga yurish boshladi. Bu paytda Suriya va Misr mamluklar qo‘l ostida birlashtirilgan edi. 1516-yil Usmoniylar armiyasi Salim I qo‘mondonligida Shimoliy Suriyaga bostirib kirdi. Xalab yaqinidagi birinchi jangdayoq turklar to‘liq g‘alabani qo‘lga kiritdilar.

Misrda esa mamluklar ancha qattiq, ammo muvaffaqiyatsiz qarshilik ko‘rsatdilar. 1517-yili **Salim I** armiyasi Qohiraga kirdi. Shundan so‘ng musulmonlarning muqaddas yurti hisoblangan Xijoz Makka va Madina shaharlari bilan birga bosib olindi. Tez orada Salim I Ka’baning kalitini ham qo‘lga kiritdi.

**Sulaymon I Qonunchi** (1520–1566) davrida Usmoniylar imperiyasi o‘z harbiy yutuqlarining eng cho‘qqisiga ko‘tarildi. Misr egallab olinganidan so‘ng usmoniy sultonlarning hokimiyati butun Shimoliy Afrika qirg‘oqlaridan to Marokashgacha bo‘lgan hududlarda o‘rnatildi.

Yevropada esa Sulaymon I Gabsburglar imperiyasi bilan qattiq kurash olib bordi. Belgradning bosib olinishi va venger-chex qo‘shinining tor-mor keltirilishi turklarga Venetsiyani bosib olish uchun yo‘l ochib berdi. Usmoniylar Venani egallashga harakat qilib ko‘rdi. Biroq harakat muvaffaqiyatsiz yakunlandi. 1547-yilgi shartnomaga ko‘ra, Vengriya hududlari Turkiya va Avstriya o‘rtasida bo‘lib olindi. Transilvaniya (hozirgi Ruminiya hududida) Turkiyaning vassaliga aylandi, oldinroq bosib olingan Moldaviya va Valaxiyaning ichki avtonomiyasi sezilarli darajada qisqartirildi.

Janubda esa usmoniylarning qo‘shinlari Qizil dengizning butun qirg‘oqbo‘yi yerlarini va Janubiy Arabistonni bosib oldi. Imperiya hududining kengayishi yirik savdo yo‘llarining ham Turkiya nazorati ostiga o‘tishiga olib keldi. Bu omillar imperiya markaziy hokimiyatining hamda harbiy qudratining yanada yuksalishini ta’minladi. Oqibatda, Turkiyaning savdo yo‘nalishida xalqaro nufuzi Yevropa, Osiyo va Afrika mamlakatlari o‘rtasida yanada ortdi.

Sulaymon Qonunchi o‘zining 46 yillik hukmronligi davrida harbiy yurishlarda 13 marotaba ishtirok etdi, shulardan 10 tasi Yevropada olib borildi. Venaning qamal qilinishi, Hindiston qirg‘oqlariga ekspeditsiya, Maltani bosib olishga urinish — bular hammasi usmoniylarning rejalari ulkan bo‘lganligidan dalolat beradi.

**Imperiyaning ichki ahvoli.** Usmoniylar imperiyasidagi aholining ko‘pchiligi qishloqlarda yashar, qishloq xo‘jaligi bilan band bo‘lib, dehqonlarning ko‘pchiligi davlatga yoki katta yer egalariga qaram edi. Dastlab aholining tarkibi har xil bo‘lib, XVI asr davomida ular bir xil, huquqsiz, shafqatsiz ekspluatatsiya qilinadigan olomonga aylandi.

Dehqon xo‘jaliklari, asosan, don ekinlari — bug‘doy, arpa, tariq yetishtirishardi, ko‘pchiligi esa sabzavotchilik bilan band edi. Kamroq miqdorda paxta yetishtirilardi.

**Xarita bilan ishlashga doir topshiriq:**
Xarita yordamida Sulaymon I davrida usmoniylar bosib olgan hududlarni belgilang.

**Yodda tuting:**
Sulaymon Qonunchi hukmronligi davrida Usmoniylar imperiyasining umumiy maydoni butun Yevropa hududidan katta bo‘lgan.



*Vena ostonasida jang*



*Usmoniylar harbiylari*

**Esga oling:**
Nima sababdan Yevropada kapitalistik munosabatlar rivojlanayotgan bir paytda Turkiya iqtisodiy jihatdan orqada qola boshlagan?

Juda ko‘plab tumanlarda uzumchilik, bog‘dorchilik va asalarichilik yaxshi rivojlangan bo‘lsa-da, biroq umumiy olganda, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi juda qoloq edi.

Xo‘jalik taraqqiyotidagi jonlanish, asosan, shaharlarda sezilarli edi. Shaharlar aholisi tez ko‘payib bordi. Buning asosiy sabablaridan biri – hunarmandchilik mahsulotlariga bo‘lgan talabning ortib borishi edi. Yirik yer-mulk va boyliklarni qo‘llarida to‘plab olgan turk feodallari keng qurilishlar olib borishi, qimmatbaho buyumlar sotib olish, ko‘plab hunarmandlar va rassomlar mehnatiga haq to‘lay olish kabi katta imkoniyatlarga ega edi. Shuning uchun ham shaharlarda zodagonlar va yirik feodallarning ehtiyojlari uchun mahsulotlar ishlab chiqaruvchi hunarmandlarning soni tez o‘sib bordi.

Ishlab chiqarishda, asosan, to‘qimachilik — jun va ipak matolar to‘qish, teriga, metallga ishlov berish, har xil turdagi qurol-yarog‘ ishlab chiqarish, ayniqsa, o‘sdi.

Bu paytda hunarmandchilikda mayda ishlab chiqarish hukmron bo‘lib, yollanma ishchi kuchidan foydalanilmas edi. Hunarmandchilik butunlay qo‘l mehnatiga asoslangan edi. Tor doirada ishlab chiqarish hunarmandlarni o‘z ishining usta mutaxassisi bo‘lib yetishuviga imkon yaratdi. Imperiyaning o‘zida va Yevropada Bursada ishlab chiqarilgan barqut, Ushak va Konyada to‘qilgan gilamlar, Anqaradan keltiriladigan, echki junidan to‘qilgan matolar, ayniqsa, mashhur edi. Bolgariyaning Somonovo shahrida ko‘plab temir buyumlar, Turkiyaning Diyorbakir, Erzurum, Kastamonu shaharlarida misdan buyumlar yasash, Iznik shahrida esa ko‘proq kulolchilik yaxshi rivojlangan edi.

Shaharlarning o‘sib borishi va hunarmandchilikning kengayishi bilan savdo-sotiq ham rivojlanib bordi. Dehqonlarning xarid quvvati cheklangan bo‘lishiga qaramasdan, ular shahardan ayrim hunarmandchilik mahsulotlarini, jumladan, tuz, matolar, ayrim mehnat qurollari va kundalik xo‘jalik mollarini sotib olishga majbur edilar.

Usmoniylar imperiyasining ayrim hududlarida, xususan, Bolqonda yarmarka savdosi ham kengayib bordi. Biroq yarmarkalardagi savdoning umumiy hajmi unchalik katta emasdi. Ko‘plab savdogarlar tashqi savdo bilan ham shug‘ullanishar edi. Yevropa mamlakatlaridan, Eron va Hindistondan matolar, metall, bezak buyumlari va turli taqinchoqlar keltirilardi.

**Yodda tuting:**
1683-yili turklarning Vena ostonasidagi mag‘lubiyati Yevropa davlatlarining Usmoniylar imperiyasiga qarshi uch asrlik urushida yevropaliklar foydasiga burilish yasadi.

**Internet bilan ishlashga doir topshiriq:**
**Sinon** – turklar bu me'morni Istanbulning bosh arxitektori deb hisoblashadi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, Sinon jami 300 dan ortiq mashhur obidalarni yaratgan. Internet yordamida Sinon yaratgan obidalarning eng mashhurlarini tanlab taqdimot tayyorlang.

Hukumat esa xazinaga yaxshigina daromad keltiradigan ichki rivojlanishdan ko'proq manfaatdor edi. Sulton hukumati yo'llar va ko'priklarni tiklash va qo'riqlash bo'yicha bir qancha chora-tadbirlar ko'rdi. Asosiy karvon yo'llarida ko'plab karvonsaroylar qurildi. Biroq og'ir feodal munosabatlar sharoitida savdo-sotiq erkin rivojlana olmasdi. Ko'p sonli ichki bojlar, transport vositalarining rivojlanmaganligi, dengiz aloqalarining og'irligi — bularning hammasi savdoning rivojlanishiga to'sqinlik qilar edi.

**Yevropa davlatlariga qaramlikning boshlanishi.** Bora-bora Turkiyada iqtisodiy tanglik davri boshlandi. Bunday sharoitda Turkiya Yevropa davlatlari madadiga tayanishni lozim ko'rdi. Yevropa davlatlari savdogarlariga bir qator yengillik va imtiyozlar berildi.

Masalan, Fransiya savdogarlari uchun atigi uch foiz miqdorida boj to'lovi joriy etildi. Natijada Turkiya bozorlari Yevropa tovarlariga to'lib ketdi. Bu esa mahalliy hunarmandchilikka qattiq zarba berdi.

Tashqi siyosatda Turkiya, birinchi navbatda, Angliya va Fransiya bilan yaqinlasha boshladi. Sultonlar nazdida ular imperiyaning Rossiyaga qarshi kurashida ittifoqchilar bo'lishlari mumkin edi. Angliya va Fransiya hukumatlari ham mavjud vaziyatdan o'z manfaatlari yo'lida foydalanib qolishga intildilar. Ularning madadidan umidvor bo'lgan Turkiya XVIII asrda Rossiya bilan besh marta urush olib bordi. Bu urushlarda Turkiya armiyasining yo'qotishlari juda katta bo'ldi. Turklar harbiy texnika va harbiy san'at sohasida Yevropa armiyalaridan ortda qola boshlagan edi. Oqibatda turklarning juda ko'p sonli armiyasi ham Turkiyaga g'alaba olib kelmadi. Mag'lubiyat Turkiyada hukm surayotgan O'rta asrchilik munosabatlarining inqiroziga sabab bo'ldi.

Shunday holatda 1789-yili taxtga kelgan **Sulton Salim III** imperiyani isloh qilishga kirishdi. Shu maqsadda bir nechta farmon chiqardi. Bu farmonlarga ko'ra, harbiy majburiyatni o'tashdan bosh tortgan mulkdorlarning mol-mulki musodara qilindi, armiya qayta tuzilib, yangicha intizom joriy etildi, harbiy muhandislik va dengiz floti bilim yurtlari tashkil etildi. Yevropaning ilg'or usullari asosida to'p quyish o'zlashtirildi, xorijdan mutaxassislar taklif etilib, flot uchun 23 ta yirik harbiy kema qurildi va flot qayta tashkil qilindi.

Salim III islohotlari **"Yangi tuzum"** ("Nizom-i-jadid") deb nom oldi. Islohotlardan maqsad, markaziy hokimiyatni kuchaytirish orqali imperiya yaxlitligini asrab qolish edi. Islohotchilar armiyani davlatning tayanchi deb bilishar va shu sababli asosiy e'tibor uni kuchaytirishga qaratilgan edi.


***Sulaymon masjidi. Istanbul***


***Avliyo Chalabiy***

| Salim III islohotlaridan norozi bo‘lgan qatlamlar: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Yirik feodallar | Musulmon ruhoniylari | Yanicharlar | Dehqonlar | Hunarmandlar |
| Imtiyozlardan mahrum bo‘lganliklari uchun | | | Soliqlar oshirilganligi uchun | |
| Yanicharlar qo‘zg‘olon ko‘tarib, Istanbulni egallashadi va Salim III ni o‘ldirishadi. Islohotlar bekor qilindi. | | | | |

Islohotlar, so‘zsiz, progressiv ahamiyatga ega edi va agar to‘liq amalga oshirilganda Usmoniylar imperiyasini taraqqiyotning yangi bosqichiga olib chiqishi mumkin edi. Ammo mamlakatdagi mulkdor qatlamlarning katta qismi hamda har qanday islohotlarni davlat va dinning asoslariga zarar yetkazadi, deb hisoblagan musulmon ruhoniylari islohotlarga qarshi chiqdi. Bu esa islohotlarning muvaffaqiyatsizligini belgilab berdi.

**Fan, madaniyat va san’at.** XVII asrdan Yevropaning ilg‘or g‘oyalari ta’siri ostida yirik shaharlar, asosan, poytaxt Istanbulda dunyoviy fanlarni rivojlantirishga harakat boshlanadi. Bu davrda buyuk turk olimi **Kotib Chalabiy**, matematika va astronomiya sohasida **Xizir Xalifa Tabariy, Mulla Mehmet Chalabiy, Mustafo Koshifzoda** kabi olimlar unumli faoliyat olib bordi.

Shu davrda turk adabiyotida ham o‘ziga xos faollik kuzatiladi, yirik asarlar yaratiladi. Shulardan Avliyo Chalabiyning “Sayohatnoma” asari tarixiy-etnografik manba sifatida alohida ahamiyatga ega.

Me’morchilikda ham XVII asr oxiri — XVIII asr boshlarida tushunarsiz, milliylikdan ancha yiroq bo‘lgan qorishiq uslublar yaratildi. Vaholanki, XV–XVII asrlarda turk me’morlari buyuk tarixiy obidalarni yaratishgan edi. Ayniqsa, XVI asrning buyuk me’mori Sinon o‘zining betakror binolari bilan turk me’morchiligi rivojiga katta hissa qo‘shgan. XVII asr turk me’morchiligining ajoyib namunalari sifatida sultonning To‘pqopi saroyidagi Bag‘dod va Ravon ko‘shklarini ham aytib o‘tishimiz lozim.

Bu davrda naqqoshlik va miniatura san’ati ham yaxshi rivojlandi. Naqqoshlikda bezak vositasi sifatida, asosan, miniatura rasmlaridan va yozuvlardan foydalanilar edi.

Yevropa madaniyatining ta’siriga qaramasdan, Yangi davrda turk madaniyati, asosan, milliylik va o‘ziga xoslikni saqlab qola oldi. Ammo imperiyada boshlangan siyosiy va iqtisodiy inqiroz madaniyat rivojiga ham salbiy ta’sir etmasdan qolmadi.

Xullas, O‘rta asrlarning qudratli imperiyasi bo‘lgan Usmoniylar davlati Yangi davrga kelib, keng miqyosli inqirozni boshdan kechirdi. Bir qator islohotlarni amalga oshirish uchun bo‘lgan urinishlarga qaramasdan, mamlakat G‘arb davlatlarining yarimmustamlakasiga aylanib bordi.

**Ijodiy ish topshirig‘i:** Internet yordamida yanicharlar kimlar ekanligini bilib oling va ularning Usmoniylar imperiyasining yuksalishidagi rolini aniqlang. Yanicharlar va mamluklarning tarbiyasidagi umumiylikni ko‘rsatib bering.

**Savol va topshiriqlar**

1. Usmoniylar imperiyasi ko‘proq qaysi davlatlar bilan urushlar olib borgan? Bu urushlarning sababini tushuntiring.
2. Usmoniylar imperiyasi kuchsizlanishining sabablari nimada deb o‘ylaysiz?
3. XVII asrdan boshlab Turkiyaning harbiy jihatdan kuchsizlanishi va Yevropa armiyalaridan mag‘lubiyatga uchrashining sabablari nimada?

# 19-MAVZU. ERON RIVOJLANISH VA QARAMLIK ARAFASIDA

**Siz bilib olasiz:**
– safaviylar sulolasi hukmronligining o‘rnatilishini;
– Shoh Abbos I hukmronligi davrini;
– afg‘onlar istilosini;
– Nodirshohning hokimiyat tepasiga kelishini;
– qojarlar sulolasi hukmronligining o‘rnatilishini;
– Eronni mustamlakaga aylantirishning boshlanishini.

**Esga oling:**
Suyurg‘ol yer egaligi qachon, qaysi davrda joriy etilgan va kimlarga berilgan?

**Safaviylar sulolasi hukmronligining o‘rnatilishi.** XV asr oxirida Eron markaziy hokimiyatga bo‘ysunmaydigan bir qancha mustaqil hududlarga bo‘linib ketgan edi. Buning oqibatida o‘zaro ichki urushlar tobora avj oldi. Bu esa mamlakat taraqqiyotiga katta salbiy ta’sir ko‘rsata boshladi. Oqibatda mamlakat zaiflashdi. Eronning zaiflashuvi Turkiya bosqini xavfini kuchaytirdi.

Natijada Eronni yagona davlatga birlashtirish hayotiy zaruratga aylanib qoldi. Bu tarixiy vazifa sarkarda, Eronda katta siyosiy nufuzga ega bo‘lgan Ardabil shahri ho-kimi **Ismoil Safaviy** tomonidan amalga oshirildi.


*Ismoil Safaviy*

Ismoil I Safaviy olib borgan urushlari natijasida katta-katta hududlarni egalladi. 1502-yilda esa Tabriz shahrini ishg‘ol etgach, o‘zini shahanshoh deb e’lon qildi (1502–1524). Shu tariqa tarixga “Safaviylar davlati” nomi bilan kirgan davlat vujudga keldi. Tabriz shahri poytaxt etib belgilandi.

Ismoil I Safaviy markazlashgan davlat tuzibgina qolmay, uni o‘z davrining qudratli davlatlaridan biriga ham aylantira oldi. Uning davrida islom dinining shia mazhabi Eronning davlat diniga aylandi.

Ismoil I Safaviy markaziy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida yer egaligining **suyurg‘ol** shaklini deyarli butunlay bekor qildi. Uning o‘rniga tiyul shakli, ya’ni bir umrga, lekin meros bo‘lib qolmaslik sharti bilan tarqatishni joriy etdi. Biroq bu tadbir yirik yer-mulk egalarining markazga bo‘ysunmaslikka intilishlarini to‘xtata olmadi.


*Shoh Abbos*

**Shoh Abbos I hukmronligi davri. Abbos I** davrida (1587–1629) eng yirik yer-mulk egalarining mustaqilligi tugatilib, Safaviylar davlati o‘z qudratining cho‘qqisiga erishdi. Abbos I Usmoniylar imperiyasi bilan jangda g‘olib chiqib, hozirgi Iroq, Afg‘oniston,



*Safaviylar davlati. XVI asr*

Pokistonning bir qismi, Ozarbayjon, Armaniston va Gruziyaning bir qismini, shuningdek, Kaspiy dengizi bo‘yidagi G‘ilon va Mozandaron hududlarini qo‘shib oldi. Shu tariqa Eron egallagan hududlar Dajla daryosidan Hind daryosigacha bo‘lgan masofaga kengaydi.

Abbos I mamlakat poytaxtini Tabriz shahridan Isfahonga ko‘chirdi. Mamlakat soliq tizimida tartib o‘rnatdi va soliqlar miqdori kamaytirildi. Savdo-sotiq va hunarmandchilikni rivojlantirishga alohida e’tibor berdi. Yangi-yangi karvonsaroylar va savdo yo‘llari qurildi. Savdo karvonlari qaroqchilarga qarshi shafqatsiz kurashdi. Tashqi siyosatda keng ko‘lamli savdo-sotiq yo‘lga qo‘yildi. Bu esa Eronning ichki va tashqi savdosi o‘sishiga olib keldi. Yangi-yangi sug‘orish inshootlari ham bunyod etildi. Bundan tashqari, Abbos I muntazam qo‘shin ham barpo etdi.

**Iqtisodiy tanazzulning boshlanishi.** XVI asr oxiri — XVII asr boshlariga kelib, Eronning iqtisodiy ahvoli ancha yaxshilandi, Safaviylar davlati ham mustahkamlandi. Davlatga qarashli yerlar – **mulki devoniy** (amlok) ancha kengaydi.

XVIII asrdan e’tiboran Safaviylar davlatida iqtisodiy inqiroz boshlandi. Bunga tiyul yer egaligining ko‘payib borganligi davlatga qarashli yer miqdori va davlat xazinasiga tushadigan daromadning kamayishiga olib kelganligi sabab bo‘ldi. Buning oldini olish uchun keyingi hukmdorlar dehqonlar to‘laydigan soliq va jon solig‘i (jizya) miqdorini oshirdilar. Natijada dehqon xo‘jaliklari xonavayron bo‘ldi, hunarmand va savdogarning ahvoli yomonlashdi.

Oqibatda dehqonlar uchun yerni ijaraga olib tirikchilik qilishdan manfaat qolmadi. Dehqonlarning tirikchilik ilinjida boshqa joylarga ketishdan o‘zga ilojlari yo‘q edi. Biroq sulton **Husayn** bunga yo‘l qo‘ymaslik uchun 1710-yilda dehqonlarning yerni tashlab ketishlarini taqiqlovchi farmon chiqardi.

Dehqon xo‘jaligining xonavayron bo‘lishi ichki savdoning keskin kamayishiga olib keldi.

**Afg‘onlar istilosi.** Iqtisodiy inqiroz, o‘z navbatida, aholining turli tabaqalari orasida noroziliklarni keltirib chiqardi. Ayni paytda yirik yer-mulk egalarining markaziy hokimiyatga bo‘ysunmasligi va bosib olingan o‘lka xalqlarining ozodlik uchun kurashi avj oldi. Chunonchi, 1722-yilda afg‘onlar o‘z yetakchilari **Mir Mahmud** boshchiligida zaiflashib qolgan Eronga hujum qildi. Eron shohi Sulton Husayn hokimiyatni Mir Mahmudga topshirishga majbur bo‘ldi. Shu tariqa Eron tarixida afg‘onlarga qaramlik davri boshlandi.

**Yodda tuting:**
Nodirshoh imperiyasi tarkibiga Eron va Ozarbayjondan tashqari Armaniston, Gruziya, Dog‘istonning bir qismi, Afg‘oniston, Xiva va Buxoro xonliklari va Hindistonning shimoliy qismi kirgan.



***Nodirshoh***



***Nodirshohning usmoniylarga qarshi shonli yurishi***

**O‘zingizni sinang:** Ismoil Safaviy davridagi poytaxt – ... Abbos I davrida – ... Qojarlar sulolasi davrida – ...

**Nodirshohning hokimiyat tepasiga kelishi.** Bu davrda safaviylar sulolasi hukmronligi nomiga bo‘lsa-da, hamon davom etardi. So‘nggi hukmdor **Taxmasp II** amalda hech qanday hokimiyatga ega emas edi. Buning ustiga, unda xalqni turk va afg‘on bosqinchilariga qarshi kurashga chorlay oladigan qobiliyat ham bo‘lmagan.

Shunday sharoitda Eronda shijoatkor, katta lashkarboshilik qobiliyatiga ega **Nodir Qulibek** kurash maydoniga chiqdi. U 1726–1730-yillari hokimiyatda turgan afg‘onlarga qarshi harakatga boshchilik qilgan, turkmanlarning afshar qabilasidan bo‘lgan.

U Safaviylar davlatining tarkibiga kiruvchi barcha hududlarda o‘z hokimiya-tini o‘rnatib, 1736-yilda barcha qabilalar asilzodalarining qurultoyida o‘zini “**Eron shohi Nodirshoh**” deb e’lon qilishga erishdi. Shu tariqa safaviylar sulolasi hukmronligi butunlay barham topdi va o‘rniga afshariylar sulolasi hukmronligi o‘rnatildi. Nodirshoh avvalgi shia mazhabi o‘rniga sunniy mazhabini davlat dini sifatida o‘rnatdi.

Nodirshoh katta bosqinchilik urushlari natijasida ulkan imperiya tuzdi. Biroq u 1747-yilda o‘zaro ichki nizolar natijasida o‘ldirildi.

**Qojarlar sulolasi hukmronligining o‘rnatilishi.** Nodirshoh halokatidan keyin imperiya bir necha qismlarga bo‘linib ketdi. Eronda turli qabilalar o‘rtasida toj-u taxt uchun kurash avj oldi. Bu kurashda asosiy rolni zend va qojar qabilalari o‘ynadi. Ular o‘rtasidagi toj-u taxt kurashi 1758-yilda zend qabilasi g‘alabasi bilan tugadi. Bu qabila boshliqlari 1796-yilgacha hukmronlik qildilar. 1796-yilda esa hokimiyatni qojarlar egallab oldi.

**Esga oling:** Nima sababdan chet el kompaniyalari tovar olib chiqishdan ko‘ra ko‘proq uni Eronga olib kirishni ma’qul ko‘rishardi?

Shu tariqa Eronda yangi sulola — **qojarlar sulolasi** hukmronligi o‘rnatildi. Mamlakat poytaxti Tehron shahriga ko‘chirildi. Qojarlar rahnamosi **Og‘a Muhammad** 1796-yili o‘zini shahanshoh deb e’lon qildi. Biroq keyingi yili Og‘a Muhammad-xon saroy fitnasi natijasida o‘ldirildi, taxtga uning jiyani **Fotih Ali** shoh keldi. Qojar xonlari sulolasi to 1925-yilgacha Eronda hukmronlik qildi.

**Eronni mustamlakaga aylantirishning boshlanishi.** Fors ko‘rfazini egallab olish uchun dastlabki harakatni XVI asrda portugallar boshlab berishdi. 1507-yili ular Hormuz orolini va undagi yirik savdo portini egallab olishdi. Bu yerda garnizon joylashtirilib, savdo faktoriyasi tashkil etildi.

XVII asr boshlarida Eronga inglizlarning “Ost Indiya” kompaniyasi o‘z vakillarini jo‘natdi. Shoh Abbos I Eron portlarida ingliz savdo kemalarini qabul qilish to‘g‘risida buyruq berdi. Bir yildan so‘ng Sheroz va Isfahonda ingliz faktoriyalarini ochishga ham ruxsat berdi.

**Esga oling:** Yevropa davlatlarining Eronga qiziqishi nima bilan bog‘liq?

XVII asr o‘rtalariga kelib, gollandlarning “Ost Indiya” kompaniyasi inglizlar bilan raqobatda muvaffaqiyatga erishib, ularni ortda qoldirdi. Chet el kompaniyalari tovar olib chiqishdan ko‘ra ko‘proq uni Eronga olib kirishni ma’qul ko‘rishardi. Eron iqtisodiyoti uchun xavfli bo‘lgan holatlardan biri, kumush tangalar, shuningdek, oltin va kumush buyumlarning ko‘plab olib chiqib ketilayotganligi edi.

XVII asrda Eronga G‘arbiy Yevropa tovarlarining ko‘plab keltirilishi mahalliy hunarmandchilik sanoati bilan kuchli raqobatni keltirib chiqardi. Safaviylar tomonidan savdo sohasida chet elliklarga berilayotgan imtiyozlar nafaqat tashqi savdoni kengaytirish uchun, balki siyosiy manfaatlarni ham ko‘zlab qilinayotgan edi. Biroq bu imtiyozlardan Yevropa savdo kompaniyalarining agentlari shu qadar jadal foydalandiki, natijada Eron Yevropa davlatlari uchun daromad manbaiga aylanib qoldi.

Natijada XVII asr ikkinchi yarmidan Eron iqtisodiy va siyosiy tushkunlikni boshidan kechirdi, xalqning ahvoli og‘irlashdi. XVII asr oxiri — XVIII asr boshlarida turli viloyatlar dehqonlarining qo‘zg‘olonlari bo‘lib o‘tdi.

Qo‘zg‘olonlar va tinimsiz o‘zaro urushlar natijasida mamlakat ham iqtisodiy, ham siyosiy inqirozga yuz tutdi. Bu esa mamlakatga chet el, birinchi navbatda, Yevropa mustamlakachilarining kirib kelishi uchun keng yo‘l ochdi. Kuchsizlanib qolgan Eron Yevropa davlatlari, birinchi o‘rinda, Angliya va Fransiya hamda Rossiya mustamlakachilik intilishlarining obyektiga aylandi. Natijada Eron yuqoridagi davlatlar bilan bir nechta teng bo‘lmagan shartnomalarni imzolab, ularning iqtisodiy va siyosiy ekspansiyasiga keng yo‘l ochib berdi.

**Adabiyot, san’at va me’morchilik.** XVI–XVII asrlarda ham Eronning qadimiy madaniy an’analari davom ettirildi. Ayniqsa, shaharsozlik, amaliy san’at va she’riyatda an’analar davomiyligi saqlanib qolindi. Bu davrda shoirlar **Xatoiy** (Shoh Ismoil), **Sodiqbek Afshar, Soib Tabriziy** kurd mumtoz adabiyotining yorqin namoyandasi **Ahmad Hasaniy,** kurd shoiri **Mirza Shafiq** va boshqalar unumli ijod qildi.

Tasviriy san’at va me’morchilik o‘zining yuqori darajasiga ko‘tarildi. Ajoyib saroylar, madrasa va masjidlar qurildi. Bular qatorida Isfahonda bunyod etilgan **Shoh masjidi, Shayx Lutfulla masjidi, Ali Kapa** va **Chexel Sotun** saroy ansambllari o‘zining nafisligi va mahobati bilan ajralib turadi.

Bu davr Eron miniaturasi jahon mumtoz badiiy san’atining eng yuksak namunalaridan hisoblanadi. Isfahon bu san’at turining markaziga aylanadi. Miniatura san’atining rivojlanishiga Hirotdagi **Behzod maktabi** katta ta’sir ko‘rsatdi.

XVIII asrda ham madaniy an’analar davom ettirildi. Ammo mamlakatdagi iqtisodiy tushkunlik va siyosiy parokandalik adabiyot va san’atda ham o‘z aksini topdi. Bundan tashqari, yevropaliklarning kirib kela boshlashi ham azaliy an’analarga ta’sir etmasdan qolmadi. Bozor talabidan kelib chiqib, gilam va boshqa amaliy san’at buyumlarini ishlab chiqarishga e’tibor kuchaydi. Bu esa Eron madaniyatining keyingi asrlardagi taraqqiyot yo‘nalishini belgilab berdi.

***Xullas, tinimsiz o‘zaro urushlar, qo‘zg‘olonlar natijasida XVIII asrga kelib, Eron ham iqtisodiy, ham siyosiy inqirozga yuz tutdi. Bu esa mamlakatga Yevropa mustamlakachilarining kirib kelishi uchun imkoniyat yaratdi. Kuchsizlanib qolgan Eron Yevropa davlatlari, birinchi o‘rinda, Angliya va Fransiya hamda chor Rossiyasining mustamlakachilik obyektiga aylandi. Natijada Eron yuqoridagi davlatlar bilan bir nechta teng bo‘lmagan shartnomalarni imzolab, ularning iqtisodiy va siyosiy ekspansiyasiga keng yo‘l ochib berdi.***

**Savol va topshiriqlar**

1. Nima sababdan Ismoil I Safaviy yer egaligining suyurg‘ol shaklini bekor qilib, uning o‘rniga tiul shaklini joriy etdi?
2. Abbos I davrida Safaviylar davlati o‘z qudratining cho‘qqisiga qanday erishganligini tushuntiring.
3. Eronda qojarlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi qay tarzda yuz berdi?
4. Rafael Santi kim bo‘lganligini bilib oling.

**Yodda tuting:**
Kamoliddin Behzod (1455—1535) – mashhur xattot, naqqosh va miniatura san’ati ustasi, Hirot rassomlik maktabining yirik ustalaridan biri. G‘arbda u “Sharq Rafaeli” sifatida tan olingan.



*Kamoliddin Behzod*

**Ijodiy ish topshirig‘i:**
XVIII asrdan boshlab Eronda dehqon xo‘jaliklari xonavayron bo‘lib, hunarmand va savdogarlarning ahvoli yomonlashdi. Mamlakatdagi holatni yaxshilash uchun hukmdor o‘rnida siz qanday yo‘l tutar edingiz?

# 20-MAVZU. AFRIKA: MUSTAMLAKACHILIKNING BOSHLANISHI

**Siz bilib olasiz:**
– Afrikadagi arab mamlakatlari: Misr, Jazoir, Liviya, Tunis, Sudan, Marokashni;
– Tropik va Janubiy Afrikani.

**Xarita bilan ishlashga doir topshiriq:** Afrikadagi qaysi mamlakatlar arab dunyosiga mansub? Ularni xaritadan toping.

**Afrikadagi arab mamlakatlari.** Afrika qit'asi, odatda, uchga — Shimoliy, Tropik va Janubiyga bo'lib o'rganiladi. Shimoliy Afrikada, asosan, arab xalqlari istiqomat qiladi. Sahroyi Kabirdan janubda joylashgan mamlakatlar Tropik Afrika deb ataladi. Kunene va Zambezi daryolaridan pastda joylashgan hudud Janubiy Afrika deyiladi. Tropik va Janubiy Afrika hududlarida, asosan, qora tanli xalqlar yashaydi.


Shimoliy Afrikaning o'ziga xos jihati shundaki, u Janubiy Yevropa, Tropik Afrika va Janubi-g'arbiy Osiyoni bog'lab turuvchi savdo chorrahasida joylashgan. Bu yerda dengiz va quruqlikdagi savdo yo'llari tutashgan bo'lib, ular mintaqaning rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan va ayni paytda bosqinchilarni ham o'ziga jalb qilgan.

XVI asrdan Shimoliy Afrikadagi ko'pchilik arab mamlakatlari turklar tomonidan zabt etilib, Usmoniylar imperiyasi tarkibiga qo'shib olindi.

***Misr.*** Mamluklar hukmronligi ostida bo'lgan Misr ham birinchilardan bo'lib o'z mustaqilligini yo'qotdi. 1517-yilning boshida Qohirani egallagan sulton Salim I armiyasi Misr poytaxtini taladi va vayron qildi.

Turklar istilosi mamlakatdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga katta o'zgarish kiritmadi. Faqat mamluklarning siyosiy hokimiyati ag'darilib, barcha feodallar o'z mulklari va imtiyozlarini saqlab qoldilar.

XVII asrdan boshlab Misrning iqtisodiy taraqqiyotida bir qator yangiliklar ko'zga tashlanadi. Sanoatning ba'zi, ayniqsa, eksportga ishlaydigan tarmoqlarida manufaktura ishlab chiqarishiga o'tila boshladi. Ayrim shaharlarda to'qimachilik sanoatida manufakturalar tashkil qilindi. Ishlab chiqarish texnikasi hali o'ta oddiy bo'lsa-da, manufakturalardagi ichki mehnat taqsimoti mahsulotlarning ko'payishiga olib keldi. Natijada ichki va tashqi savdo tez rivojlandi.



***Bu qiziq:***

Ehromlar oldidagi jang boshlanishidan oldin Napoleon: “Askarlar! Qirq asrlik tarix bugun sizlarga mana shu ehromlar balandligidan qarab turibdi!” – deb, shu mashhur so‘zlari bilan fransuzlarni o‘zining qo‘shinidan uch baravar ko‘p bo‘lgan mamluklarga qarshi kurashga ilhomlantiradi.

Ammo XVIII asrga kelib, mamluk zodagonlarining o‘zaro urushlari Misrning iqtisodiy ahvoliga yomon ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, dehqonlarning ahvoli og‘irlashdi. Turk hukmronligi va mamluklarga qarshi mamlakatda boshlangan xalq harakatiga Qohiradagi **Al-Azhar masjidining** taniqli shayxlari boshchilik qildilar. Ularning chaqirig‘iga binoan, 1795-yilning yozida Qohiraning hunarmandlari va savdogarlari o‘z do‘konlarini yopdilar. Mamluk hukmdorlari shayxlar bilan muzokara boshlashga, zo‘ravonlik va qonunsizliklarga chek qo‘yilishiga va’da berishga majbur bo‘ldilar.

Al-Azhar masjidi 1798-yili boshlangan Napoleon Bonapart boshchiligidagi fransuz bosqinchilariga qarshi xalq harakatining ham markaziga aylandi. Misrda fransuz armiyasining kelajagi yo‘qligini tushungan Napoleon bu yerni tark etishga majbur bo‘ldi.



*Xayriddin Barbarossa*

**Jazoir.** XVI asr boshlarida Jazoirning qirg‘oq bo‘yi hududlarini ispanlar bosib oldi. Ulardan ozod bo‘lishga harakat qilgan Jazoir aholisi **jihod** (muqaddas urush) bayrog‘ini ko‘targan musulmon **korsarlar** (dengiz qaroqchilari)ni qo‘lladilar.

Korsarlar yetakchisi **Aruj** vafotidan so‘ng uning ukasi **Xayriddin Barbarossa** (Sariq soqol) ularga boshchilik qildi. Xayriddin ispanlarga qarshi kurashda yordam so‘rab usmoniylarga murojaat qildi. Turklarning yordamiga tayangan Xayriddin birin-ketin Jazoir shaharlarini ispanlardan ozod qildi. Hukmronlik yillarida Ispaniya qirg‘oqlariga yettita ekspeditsiya uyushtirib, majburan xristian diniga o‘tkazilgan 70 ming andalusiyalik musulmonlar (morisklar)ni u yerdan Jazoir va Tunisga olib keldi.



*Mamluklar davrida Misr*



**Yodda tuting:**
XVI–XVII asrlarda shimoldan – usmoniy turklar, janub va g‘arbdan dushman qabilalar va portugallar hujumlarini qaytarib, mustaqilligini saqlab qolgan yagona davlat Efiopiya bo‘ldi. Efiopiya hukmdori **“negus”** deb atalardi.

Xayriddin va uning vorislari davrida shakllangan Jazoirning harbiy-siyosiy tizimi XIX asr boshlarigacha o‘zgarmasdan qoldi.

**Liviya.** XVI asrdan Liviyaga yevropaliklarning harbiy ekspansiyasi boshlandi. 1510-yili Tripoli ispan armiyasi tomonidan zabt etildi.

Arablarning mahalliy berber qabilasi doimiy qarshilik ko‘rsatsa-da, Tripolini xristianlardan ozod qilishga qurbi yetmasdi. Shu sababli ular yordam so‘rab usmoniylar sultoni Salim I ga murojaat qildilar. Musulmonlarni ozod qilish shiori ostida harakat qilgan turklar butun Liviyani imperiyaga qo‘shib oldilar.

XVII asr birinchi choragida Jazoir va Tunisdagi singari Tripolida ham yanicharlar tomonidan saylanadigan deylar hokimiyati o‘rnatildi. Shu tariqa usmoniylar o‘rnatgan tartiblar bekor qilinib, ijtimoiy va siyosiy hayotda mahalliy an’analarning tiklanishi boshlandi.

XVIII asr boshlarida Liviyada **Ahmad Karamanli** boshchiligida **qulo‘g‘lilar** (otasi turk, onasi arab bo‘lganlar shunday atalgan) hokimiyati o‘rnatildi. Qulo‘g‘lilar mamlakatda ma’muriy boshqaruv va soliq tizimini mustahkamladi. Mustaqil tashqi siyosat olib borib, usmoniylar ruxsatisiz bir qator Yevropa davlatlari bilan tinchlik shartnomalarini imzoladi.

**Tunis.** XV asr oxiri — XVI asr boshlarida Tunis chuqur inqiroz davriga kirdi. Mamlakat O‘rtayer dengizining o‘sha paytdagi kuchli davlatlari — Ispaniya va Usmoniylar imperiyasining siyosiy manfaatlari to‘qnashgan joyga aylandi. Natijada 1574-yili Tunis turk qo‘shinlari tomonidan zabt etilib, usmoniylar siyosiy tartibi o‘rnatildi.

XVIII asrda tunisliklarning mustaqillik uchun kurashi qizg‘in tus oldi. Asr boshlarida sipohiylarning yangi sardori **Husayn ibn Ali** Tunisda yangi monarxiyaga va husayniylar sulolasiga asos soldi. Bu sulola vakillari Tunisni 1957-yilgacha boshqardilar.


**Sudan.** Sudanning cho‘l va savannalarida istiqomat qiladigan badaviy arablar islom dini, arab madaniyati va arab tilining tarqalishiga katta hissa qo‘shdilar. Sudanning ming yillar davomida shakllangan madaniy qiyofasi bir necha asr ichida keskin o‘zgardi. Biroq badaviylar yangi siyosiy tuzumning asosini tashkil qila olmadilar. Bu rolni ikkita hosildor dehqonchilik viloyatlari — **Fung** va **Darfur** uddaladi. Fungning poytaxti **Sennar** shahri edi. Shu sababli 1504-yili tashkil topgan davlat **“Sennar sultonligi”** deb ataldi.

XVII asr oxiri — XVIII asr boshlarida Sennar bilan qo‘shni Efiopiya o‘rtasida urush boshlandi. Natijada Sennarda sulton hokimiyati to‘liq inqirozga yuz tutib, hokimiyat **Xamaj vazirlari sulolasiga** o‘tdi.

Bu davrda Sudanning eng kuchli va boy davlati Darfur sultonligi edi. Darfur savdo aylanmasi bo‘yicha Sennardan ko‘p marta oldinga o‘tib ketdi. Eng katta foyda keltiradigan asosiy tovar qullar bo‘lib qoldi.

**Marokash.** XVI asr boshida Marokash janubida **shariflar** (o‘zlarini Muhammad payg‘ambar avlodlari deb hisoblovchilar) yuksala boshlaydi. Shariflar imperiyasi qat’iy markazlashmagan, aniqrog‘i, shaharlar federatsiyasidan iborat edi. XVI asrda Marokashning yuksalishiga eng katta hissa qo‘shgan sulton **Ahmad al-Mansur** bo‘ldi. U savdoni rivojlantirdi, qo‘shni davlatlar bilan diplomatik va savdo aloqalarini o‘rnatdi.

XVII asr o‘rtalaridan boshlab shariflar avlodining boshqa bir sulolasi Filaliylar hokimiyatga kelib, mamlakat qudratining yuksalishiga katta hissa qo‘shdilar.



*Mulay Ismoil davrida Marokash*



*Ahmad al-Mansur*

Ayniqsa, davlatni 55 yil boshqargan **Mulay Ismoil** o‘z faoliyatini ikkita maqsadga yo‘naltirdi: turklar va yevropaliklar tahdididan mamlakat mustaqilligini saqlab qolish; mamlakatning iqtisodiy gullab-yashnashini ta’minlash.

Ismoildan keyin hokimiyatda o‘ttiz yil barqarorlik bo‘lmadi. Faqat uning nabirasi **Sidi Muhammad ibn Abdulloh** (1757–1790) mamlakatda tinchlik va tartib o‘rnata oldi. U mamlakatni har tomonlama mustahkamladi.

**Tropik va Janubiy Afrika.** Yevropaliklarning mustamlakachilik bosqinlari va qul savdosi Tropik va Janubiy Afrika xalqlari rivojlanishida ma’lum turg‘unlikni vujudga keltirdi. Oldingi davrlardan saqlanib kelayotgan turli xalqlar va hududlar taraqqiyotidagi notekislik ham bu holatga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Qadimgi va O‘rta asrlardagi davlatlar va davlat birikmalari Tropik va Janubiy Afrikaning hamma hududini egallamagan edi. Katta hududdagi, asosan, o‘rmonlarda, hozirgi Nigeriya va Kamerun davlatlari, Ubangi daryosi havzasi va Kongo daryosining o‘rta oqimi, Sharqiy Ekvatorial Afrikaning qator viloyatlari, butun Janubiy Afrika aholisi ibtidoiy sharoitda yashashni davom ettirayotgan edi. Kalaxari cho‘llarida yashaydigan ayrim bushmen qabilalari, hatto yuqori paleolitga mos keladigan taraqqiyot bosqichida edilar. Bir paytlar kuchli va nisbatan taraqqiy etgan davlatlarning tarkibiga kirgan yerlar (asosan, G‘arbiy Sudan) yana siyosiy tarqoqlik holatiga qaytdi.

XVIII–XIX asr boshlarida yangi davlat va siyosiy birikmalarning vujudga kelishi qiyin va murakkab kechdi. Shunga qaramasdan, Tropik Afrikada va qisman Janubiy Afrikada bir qator davlat va davlat birikmalari mavjud edi.

Yevropaliklar Afrikaga, asosan, XV asrdan boshlab kirib keldi. XVI asr oxirigacha Afrikaning g‘arbiy qirg‘oqlarida o‘rnashib olgan yagona davlat Portugaliya edi. Qul savdosi bilan shug‘ullangan birinchi yevropaliklar ham portugaliyaliklar bo‘ldi. Ular sohil bo‘ylarini to‘rtta zonaga ajratib, bu zonalarni ulardan olinadigan asosiy tovarning nomi bilan atadilar. Hozirgi Shimoliy Liberiyaning qirg‘oqlari “Qalampir-



*Qullarning kemalarda olib ketilishi*

**Yodda tuting:**
Atlantika okeani orqali amalga oshirilgan qul savdosi jarayonida 60–70 million afrikalik halok bo‘ldi.

***Bu qiziq:***
1787-yilda bir guruh inglizlar Afrikaning g‘arbiy sohilidagi Serra-Leone hududidan yer sotib olib, tajriba sifatida u yerda qora tanlilar davlatini tuzadi va sobiq qullarni ko‘chirib keltirishadi. Ammo XIX asrda bu tajriba muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlanadi.

li qirg‘oq”, “Fil suyagi qirg‘og‘i”, “Oltin qirg‘oq”, Volta va Niger daryolari oralig‘i “Qul qirg‘og‘i” deb atalgan.

Bu davrda Amerikaning mustamlaka hududlarida plantatsiyali xo‘jalik keng rivojlanib, qullar mehnatiga ehtiyoj ham ortib bordi. Afrikadagi qullar bozorini egallash uchun Yevropa davlatlari o‘rtasida kuchli kurash boshlandi. Bu kurashda Portugaliya ancha kuchliroq Yevropa davlatlari bilan to‘qnash keldi. Ammo eng katta jabr tort-ganlar afrikaliklar bo‘ldi. XVII asrdan Afrika yerlarida qullarni ovlash uchun hech qanday qonunlar bilan cheklanmagan chinakam qaroqchilik urushlari boshlandi. 1530-yildan 1600-yilgacha bo‘lgan 70 yil ichida faqat portugaliyaliklarning o‘zlari tomonidangina Amerikaga 1 mln ga yaqin qul olib ketildi.

Portugaliyaning o‘rnini Gollandiya egalladi va XVII asr birinchi yarmida Amerikadagi ispan mustamlakalariga afrikalik qullarni ular yetkazib berdi.

XVII asr ikkinchi yarmidan mustamlaka bozorlarini egallash uchun kurashga Angliya va Fransiya, shuningdek, Shvetsiya, Daniya kabi boshqa Yevropa davlatlari ham qo‘shildi. Qul savdosida monopoliya o‘rnatish uchun kurash XVII asr ikkinchi yarmi va butun XVIII asr davomida yirik Yevropa davlatlari o‘rtasidagi keskin raqobatning asosiy maqsadini tashkil qildi. Bu kurash maydoni Afrika qit’asi, ayniqsa, G‘arbiy va Markaziy Afrika bo‘ldi.

Qul savdosi Afrika xalqlarining rivojlanishiga juda katta, to‘ldirib bo‘lmaydigan zarar yetkazdi. Qullarni okean orqali Amerikaga yetkazib borish sharoitining o‘ta og‘irligi millionlab kishilarning o‘limiga olib keldi.

Qulchilik Afrikada yevropaliklar kelishidan oldin ham mavjud bo‘lsa-da, unda patriarxal, xonaki ko‘rinishda edi. Yevropaliklar kelishi bilan odam savdosi misli ko‘rilmagan darajada kengayib, dahshatli tus oldi. Qul savdosi eng rivojlangan XVII–XVIII asrlarda G‘arbiy Yevropaning deyarli hamma davlatlari ochiq yoki yashirin ravishda bunday foydali “hunar” bilan shug‘ullanishgan. Qul savdosi, Afrika xalqlarining millionlab odamlarni yo‘qotishi ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojiga va Afrika xalqlarining siyosiy taraqqiyotiga o‘ta salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Qul savdosining

ommaviy tus olishi o‘zaro urushlarning keskin kuchayishiga olib keldi. Bu urushlar va ular oqibatida qullar sonining ko‘payishidan, asosan, yevropalik mustamlakachilar manfaatdor edilar. Endi qabila boshliqlari odam ovlab qo‘shni qabilalarga to‘satdan yurishlar uyushtirar yoki o‘z qabiladoshlarini sotar edi.

Tropik Afrikadagi barcha davlatlarning asosiy xususiyati ko‘plab urug‘-qabila institutlarining saqlanib qolishidir. Hamma joyda feodal renta bilan jamoa yer egaligi va yerga ishlov berishning jamoa usuli birga mavjud edi. Urug‘chilik qoldiqlari ijtimoiy hayotni tashkil qilishga katta ta’sir ko‘rsatdi. Urug‘chilik o‘z-o‘zini boshqarish organlari, ko‘pincha, davlat apparatining funksiyasini bajarardi. XVIII asr oxiridan qabilalarning davlatlarga birlashish jarayoni kuchaydi.

***XVI–XVIII asrlarda Afrika xalqlari taraqqiyotning nisbatan past bosqichida bo‘lib, ilg‘or Yevropa davlatlari tomonidan bosib olindi va mustamlakalarga aylantirildi. Uzoq davom etgan mustamlakachilik davrida bu xalqlar taraqqiyotida ham muhim o‘zgarishlar yuz berdi: tabiiy boyliklarning yevropaliklar tomonidan jadal o‘zlashtirilishi natijasida sanoat paydo bo‘ldi; pul-tovar xo‘jaligi kengayib, bozor munosabatlari tarkib topdi; kishilarning kundalik hayoti va dunyoqarashida yangi tamoyillar shakllandi, Yevropa madaniyati bilan milliy madaniyatlarning uyg‘unlashuvi bo‘lgan madaniyat rivojlandi.***

***Shu bilan birga, ushbu asrlar Afrika xalqlarining o‘z ozodligi uchun to‘xtovsiz kurash davri ham bo‘ldi. Bu kurash davomida milliy ong shakllandi, kishilarda tenglik, ozodlik, mustaqillik kabi tushunchalar rivojlanib, ular Afrika xalqlari kurashining mazmuniga aylandi.***

**Atamalar mazmuni:**

Afrikaning g‘arbiy qirg‘oqlari bo‘ylab portugallar **faktoriya** – qul savdosi bilan shug‘ullanish uchun mustahkamlangan manzilgohlar yaratdi.

**Renta** – bu mehnat daromadi va kapital qo‘yilmalardan olingan daromaddan tashqari har qanday daromad.

**Feodal renta** – yer rentasi shakllaridan biri bo‘lib, feodal foydasiga ishlab berish, oziq-ovqat (natural) va naqd pul shaklida mavjud bo‘lgan.

**Savol va topshiriqlar**

1. Misrning usmoniylar tomonidan zabt etilishi bu yerdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda qanday o‘zgarishlarga olib keldi?
2. Misr xalqining bosqinchilarga qarshi kurashi qanday kechgan?
3. Qaysi Yevropa mamlakatlari qulchilik bilan shug‘ullana boshlagan?
4. Tropik Afrikadagi barcha davlatlarning asosiy xususiyati nimada?

**Internet bilan ishlashga doir topshiriq:**
Qul savdosi, asosan, Markaziy Afrikaning g‘arbiy qismida rivojlangan. Internet ma’lumotlariga asoslanib Afrikaning boshqa hududlarida qul savdosi bu qadar avj olmaganligining sabablarini tushuntirib bering.

**Ijodiy ish topshirig‘i:**
Turk hukmronligi va mamluklarga qarshi 1795-yil yozida boshlangan xalq harakatida Qohiraning hunarmandlari va savdogarlari o‘z do‘konlarini yopdilar. Ular nima uchun bunday qilganlar?



# VI BOB.
# 1800–1870-YILLARDA YEVROPA VA AMERIKA MAMLAKATLARI



# 21-MAVZU. BUYUK BRITANIYANING YUKSALISHI

**Siz bilib olasiz:**
– XIX asrning boshlarida Angliyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini;
– sanoatning yuksalishini;
– mustamlakachilik siyosatini;
– parlament islohotini.

**XIX asrning boshlarida Angliyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.** Bu Angliyada kapitalizm jadal taraqqiy etgan davr bo‘ldi. XVIII asr oxirida boshlangan sanoat inqilobi Angliyaning qiyofasini mutlaqo o‘zgartirib yubordi. XIX asrning o‘rtalariga kelib, Angliya fabrikali ulkan shaharlar, qudratli sanoat, murakkab mashinalar va zamonaviy texnikaga ega bo‘lgan ilg‘or sanoat mamlakatiga aylandi.

Iqtisodiy o‘sish mamlakatda siyosiy vaziyatning ham yumshashiga, ba’zi islohotlarning amalga oshirilishiga olib keldi. Xususan, g‘alla va sanoat xomashyosiga boj to‘lovlari pasaytirildi, chetga tovar olib chiqish qoidalari yengillashdi. Jinoyat qonunchiligi ham qayta ko‘rib chiqilib, ba’zi jinoyatlar uchun jazo yengillashtirildi.


Shu davrdagi muhim islohotlardan biri ishchilarning turli xil ittifoqlarga birlashishlarini qat’iyan taqiqlovchi 1799-yilgi qonunning bekor qilinishi bo‘ldi. Yangi qonun kasaba uyushmalari — **tred-yunionlar** faoliyatiga ruxsat berdi. Bu ishchilar huquqlarini himoya qilish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida katta qadam bo‘ldi.

Sanoat to‘ntirishi aholi tarkibida ham katta o‘zgarishlarga olib keldi, yangi sinf — **proletariat** paydo bo‘ldi. Butun mamlakat miqyosida tashkil qilingan proletariatning birinchi mustaqil harakati — **chartizm** vujudga keldi va ishchilar huquqlarini himoya qilishda katta rol o‘ynadi.

**Sanoatning yuksalishi.** XVIII asr oxirlarida boshlangan sanoat inqilobi Angliyaning jadal iqtisodiy rivojlanish davrini boshlab berdi. XIX asrning birinchi yarmida yengil sanoat taraqqiyoti ulkan yutuqlarga erishdi. Masalan, 1820-yili 120 mln funt paxta qayta ishlangan bo‘lsa, 1848-yili bu ko‘rsatkich 588 mln funtga yetdi. To‘qimachilik sanoati rivojlanishi bilan mamlakatga chetdan jun olib kirish qariyb besh marta ko‘paydi.


Mashinalarning unumdorligi ortib bordi. Bitta mashinali urchuq yigiradigan ip miqdori ikki barobar ko‘paydi. Ayniqsa, to‘qimachilik sohasi jiddiy takomillashtirildi. Natijada to‘qimachilik dastgohining ish unumdorligi deyarli qirq marta ortdi.

***Angliyada sanoat inqilobi***



**Yodda tuting:**
Dunyodagi birinchi temiryo‘l 1825-yilda Angliyada Jorj Stefenson tomonidan qurilgan va uning uzunligi 40 kilometr (26 milya) bo‘lgan.





***J. Stefensonning “Blyuxer” nomli birinchi parovozi***

***Bu qiziq:***
1820-yillarda ingliz matbuotida temir-yo‘llar haqida quyidagilarni yozishgan: “Temir-yo‘llar sigirlarning o‘tlashiga to‘sqinlik qiladi, tovuqlar tuxum qo‘yishni to‘xtatadi, tutundan zaharlangan havo uchayotgan qushlarni o‘ldiradi... yo‘l bo‘yidagi uylar yonib ketadi... lokomotiv portlashi sodir bo‘lsa, barcha yo‘lovchilar parcha-parcha bo‘ladi”. Germaniyada vrachlar yo‘lovchilarni poyezdda tez harakatlanishi tufayli miya xastaligiga chalinish xavfi haqida ogohlantirgan edi.


| Chartizm vujudga kelishining sabablari | | |
|---|---|---|
| Iqtisodiy inqiroz | Ishchilarning siyosiy huquqlarga ega emasligi | Hukumatning ishchilarga qarshi siyosati |

Sanoatning boshqa sohalari, jumladan, og‘ir sanoatda muvaffaqiyatlarga erishildi. Armiya uchun artilleriya qurollariga davlat buyurtmalari metallurgiya sohasining rivoji uchun katta turtki bo‘ldi. Mexanik kuchdan keng foydalanish tobora ommalashib bordi. XIX asr tarixga **bug‘ mashinalari asri** sifatida kirdi. 1810-yili Angliya sanoatida 5 mingta bug‘ mashinasi ishlatilgan bo‘lsa, keyingi 15 yilda ular soni uch barobarga oshdi. Mashinasozlik, ayniqsa, 1824-yili parlament Angliyadan tashqariga mashinalar olib chiqishga qisman ruxsat bergandan so‘ng jadal rivojlandi. Shu davrda cho‘yan eritish ham besh marta ko‘paydi.

Sanoat taraqqiyoti transportning yangi turi paydo bo‘lishini taqozo etdi. Buning aks sadosi o‘laroq, 1825-yilda Buyuk Britaniyada **dunyodagi ilk temiryo‘l** qurildi. Bu hodisa mamlakatning turli mintaqalarini bir-biri bilan tutashtirdi hamda yuk tashishning arzonlashuvini ta’minladi. Ayni paytda ichki bozor kengaydi. Oqibatda zavod va fabrika egalari mumkin qadar ko‘proq mahsulot ishlab chiqara boshladilar.

Temiryo‘l qurilishining boshlanishi, o‘z navbatida, cho‘yan, temir va po‘latga bo‘lgan ehtiyojni oshirib yubordi. Sanoatning yangi tarmog‘i — **parovozsozlik** paydo bo‘ldi. Bu esa qudratli savdo va harbiy dengiz floti tuzishga imkon yaratdi.

***Angliyadagi birinchi temiryo‘l***



Sanoat ishchilarining soni ham tez o‘sib bordi. Mashinali ishlab chiqarish bilan raqobatga bardosh bera olmagan, xonavayron bo‘lgan mayda ishlab chiqaruvchilar ishsizlarning sonini to‘ldirib bordi.


XIX asr 30–40-yillari Angliya tarixida kapitalizm jadal rivojlangan davr hisoblanadi. Bu yerda sanoat to‘ntarishi boshqalardan oldinroq o‘zining yakunlovchi bosqichiga o‘tdi va Angliya kapitalistik dunyoning eng rivojlangan mamlakatiga aylandi. Angliya sanoatining asosiy tarmoqlarida fabrikali ishlab chiqarish uzil-kesil g‘alaba qozondi, sanoat to‘ntarishi o‘z nihoyasiga yetdi, mamlakat jahon sanoat ishlab chiqarishi va savdosida birinchi o‘ringa chiqdi. Angliya “dunyo ustaxonasi”ga aylandi.

XIX asr 70-yillaridan Angliya jahon sanoat ishlab chiqarishidagi yetakchilik o‘rnini yo‘qota bordi. Ammo u hali juda katta mustamlakalarga ega, dengizda hukmronlikni, jahon savdosida vositachilikni, sug‘urta va bank ishlarida yetakchilikni egallab kelayotgan edi. Bu hol mamlakatni avvalgidek katta foyda bilan ta’minlab turardi.

**Mustamlakachilik siyosati.** XIX asrning boshlanishi Angliya uchun katta sinov davri bo‘ldi. Napoleon bilan urush og‘ir kechdi, ko‘plab qurbonlar berish va mustaqillikni yo‘qotish xavfini keltirib chiqardi. Napoleon Yevropadagi deyarli barcha janglarda g‘olib chiqib, Angliyaning Osiyo va Afrikadagi mustamlakalariga tahdid sola boshladi. Qit’a qamali oqibatida Yevropaning barcha portlari ingliz kemalari uchun yopildi, bu Angliya savdosi uchun katta yo‘qotish bo‘ldi.

Bu urushda inglizlar katta matonat namoyish qildi. **Trafalgar jangida** (1805) fransuzlar flotini tor-mor qilib, dengizda ustunlikka erishdi va Fransiyaning deyarli barcha mustamlakalarini tortib oldi. Mustamlakalar resurslari va diplomatiyaga tayangan Angliya Fransiyaga qarshi yangidan yangi koalitsiyalar tashkil etdi va Napoleonni Rossiyaga qarshi urushga majbur qildi. Bu urush Fransiya uchun halokatli yakunlandi.

Napoleon mag‘lub etilgandan so‘ng, XIX asrning ikkinchi choragidan boshlab Angliya Yer sharining barcha qit’alari va dengizlarida faol bosqinchilik siyosatini olib bordi. Hindistonda o‘zining mustamlakachilik faoliyatini kengaytirib, Sind vodiysi va Kashmirni bosib oldi. Shu davrda ingliz mustamlakachilari Afg‘onistonga qarshi bosqinchilik urushini olib bordilar, ammo afg‘on xalqining mardonavor qarshiligiga uchrab, 1842-yili Afg‘oniston amiri bilan sulh tuzishga va vaqtincha bu mamlakatni bosib olishdan voz kechishga majbur bo‘ldilar. Xitoydagi **Birinchi afyun urushi** (1839–1842) natijasida inglizlar Gonkongni bosib oldi va Xitoydagi Chin (Sin) hukumatini chet el, avvalo, Angliya savdosi uchun (jumladan, afyun olib kirish uchun) qator




**Yodda tuting:**
XIX asrda Britaniya “Quyosh hech qachon botmaydigan imperiya” deb atala boshlandi.

**Atamalar mazmuni:**
***Funt*** (*lot. og‘irlik, qadoq*) – Angliyada va boshqa ba’zi mamlakatlarda bu 453,6 grammga teng og‘irlik o‘lchovi.

***Chartizm*** (*ingl. xartiya, hujjat*) – ingliz ishchilarining 1836–1848-yillardagi dastlabki ommaviy ijtimoiy-siyosiy harakati bo‘lib, ular mehnatkashlar ahvolini yaxshilash va aholi huquqlarini himoya qilish talablari bilan chiqdi.

***“Oq koloniyalar”***da, asosan, Yevropadan, birinchi navbatda, Angliya va Irlandiyadan kelgan ko‘chmanchilar istiqomat qilgan. Bu hududlar mahalliy aholi yashaydigan boshqa hududlarga nisbatan imtiyozli mavqega ega edi.

***Dominion*** – (*ingl. egalik, qaram o‘lka*) – Britaniya imperiyasi tarkibidagi o‘zini o‘zi boshqaradigan va Britaniya qirolini davlat boshlig‘i deb tan oladigan davlat. Qirolning dominiondagi vakili – general-gubernator.



***Trafalgar jangi***


portlarini ochishga majbur qildi. Dunyoning boshqa joylarida ham Angliyaga qarashli hududlar kengayib bordi: 1840-yili Yangi Zelandiya, 1842-yili Borneo orolining shimoliy qismi, 1843-yili Janubiy Afrikadagi bir qator hududlar bosib olindi. Buyuk Britaniya XIX asrning o‘rtalarida eng yirik mustamlakachi davlatga aylandi. Buyuk Britaniya mustamlakalari ichida eng yirigi hisoblangan Hindistonda 300 mln aholi bo‘lib, bu Buyuk Britaniyanikiga nisbatan taxminan 10 barobar ko‘p edi.

XIX asrning ikkinchi yarmi mustamlakalarda ozodlik uchun kurashlar davri bo‘ldi.

XIX asrning 70-yillari tashqi siyosatda mamlakat uchun manfaatli faoliyat olib borish davom ettirildi. 1875-yili Misr hukmdori Ismoil I (1830–1895) Angliya hukumatiga Suvaysh kanalining 45% aksiyasini sotishga majbur qilindi va mayda aksiyadorlardan olingan aksiyalar bilan qo‘shib, inglizlar Suvaysh kanalining nazorat paketini qo‘lga kiritdilar.

Shu davrda Angliyaning xalqaro obro‘sini oshirish sari yo‘l tutildi.

**Parlament islohoti.** 1825-yilda Buyuk Britaniya parlamenti ish tashlashni taqiqlovchi qonun qabul qildi. Bu qonun ishchilar o‘rtasida keskin norozilik keltirib chiqardi. Natijada parlament islohoti o‘tkazish masalasi zaruratga aylandi. Bu jamiyatda



***Angliyada bolalar mehnati***

yetilgan muammolarni tinch yo‘l bilan hal qilishga imkon berardi. Oxir-oqibatda 1832-yilda parlament islohoti o‘tkazilib, parlamentga saylov tartibi o‘zgartirildi.

Unga ko‘ra, yirik sanoat markazlariga parlamentdan 144 o‘rin ajratib berildi. Shu tariqa sanoat burjuaziyasi endi siyosiy jihatdan ham o‘z hukmronligini mustahkamladi. Islohot natijasida parlament quyi palatasining mamlakat siyosiy hayotidagi o‘rni mustahkamlandi. U davlat budjetini nazorat qilish huquqini saqlab qoldi. Buyuk Britaniya hukumatining faqat quyi palata oldida javobgarligi belgilab qo‘yildi. Quyi palata hukumatga ishonchsizlik bildirgan taqdirda, hukumat iste’foga chiqishga majbur bo‘ladigan bo‘ldi.

Islohotdan so‘ng saylangan yangi parlament 13 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun 8 soatlik ish vaqti belgiladi. 9 yoshgacha bo‘lgan bolalarning mehnat qilishi taqiqlandi. Parlament islohoti mamlakatda saylov huquqi uchun kurashni batamom to‘xtata olmadi.

1867-yilda ikkinchi parlament islohoti o‘tkazildi. Unga ko‘ra, shaharlarda o‘z uyiga ega bo‘lgan hamda alohida xonadonda turadigan barcha erkaklarga saylov huquqi berildi.

**“Oq koloniyalar”.** Buyuk Britaniya o‘z mustamlakachilik siyosatida “oq koloniyalar”ga katta e’tibor qaratdi. Amerika, Afrika va Avstraliyaga Buyuk Britaniya va boshqa Yevropa mamlakatlaridan ko‘chib borgan kishilar o‘zlashtirgan hududlar “Oq koloniyalar” deb atalardi. Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya ana shunday mustamlakalar edi. Ayni paytda bu mustamlakalar o‘zini o‘zi boshqarish uchun kurash olib bordi. Bu kurash, ayniqsa, Kanadada shiddatli tus oldi. Natijada Buyuk Britaniya 1867-yilda Kanadaga dominion maqomini berishga majbur bo‘ldi.

Shu davrda bir qator olimlar jamiyatga mafkuraviy tizimlarni taklif qila boshladilar. Shundaylardan biri **Charlz Dilk** (1843–1911) o‘zining “Yanada Buyuk Britaniya” nomli asarida ko‘chib kelgan inglizlardan tashkil topgan “oq koloniyalar”da burjuaziyaning huquqlarini kengaytirishni, amalda ularni mustamlakalarni boshqarishga sherik qilishni taklif qildi. Dilkning fikricha, bu Angliyaning dunyodagi yetakchilik rolini saqlab qolishga yordam berar ekan. Shu bilan birga, Dilk “erkin savdo” o‘rniga Angliyani va butun Britaniya imperiyasini chet davlatlar raqobatidan himoya qilishga qaratilgan “adolatli savdo”ni joriy qilish zarur deb hisoblaydi.

***XIX asr ko‘p jihatdan Buyuk Britaniya asri bo‘ldi. Bu yerda birinchi bo‘lib huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati asoslari yaratildi. Fan va texnik taraqqiyot sanoat to‘ntarishiga olib keldi va Angliya “dunyo ustaxonasiga” aylandi. To‘xtovsiz urushlar olib borgan inglizlar Yer yuzi aholisining chorak qismini birlashtirgan ulkan imperiyani yaratdi.***

| Angliya – bu ... | | |
|---|---|---|
| Dunyo ustaxonasi | Jahon bankiri | Jahon izvoshchisi |

**Xarita bilan ishlashga doir topshiriq:** Xaritada Buyuk Britaniyaning “oq koloniyalari” va mustamlakalari bo‘lgan mamlakatlarni toping va poytaxtlarini yodlab oling.

**Ijodiy ish topshirig‘i:** O‘ylab ko‘ring, nima sababdan Angliyada parlament islohotining o‘tkazilishi mamlakatning keyingi rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan?

**Savol va topshiriqlar**

1. XIX asrning birinchi yarmida Angliyada sanoatning qaysi sohasi jadal rivoj topdi? Qaysi xomashyo turlarini olib kelish keskin ko‘paydi?
2. XIX asr tarixga qanday nom bilan kirdi?
3. Shu davrda metallurgiya sohasini rivojlantirish uchun qaysi omil turtki bo‘ldi?
4. Nima uchun XIX asrda Angliyani “dunyo ustaxonasi” deb atashgan?

# 22-MAVZU. FRANSIYA INQILOB VA IMPERIYALAR DAVRIDA

**Siz bilib olasiz:**
– Fransiyada Birinchi imperiya tashkil topishini;
– Rossiyaga qarshi urushni;
– imperiyaning qulashini;
– Ikkinchi imperiya o‘rnatilishini.

**Yodda tuting:**
Napoleon Bonapart (1769, Korsika oroli, Ayachcho shahri – 1821, Atlantika okeanidagi Avliyo Yelena oroli) — fransuz davlat arbobi va sarkardasi, imperator. Zamonaviy Fransiya davlatining asoslarini yaratgan.

**Fransiyada Birinchi imperiya.** Buyuk fransuz inqilobi Fransiyaning yangi, inqilobiy tarixini ham boshlab berdi. Inqilobdan keyingi bir asrdan ko‘proq vaqt davomida Fransiya yana to‘rtta inqilobni boshdan kechirdi, to‘rt marta respublika, ikki marta imperiya ta’sis etildi.

Napoleonning 1799-yilgi davlat to‘ntarishidan so‘ng u Birinchi konsul lavozimini egalladi. Keyin umrbod konsullikka saylandi. 1804-yili Senat uni **“Fransuzlar imperatori Napoleon I”** deb e’lon qildi. Shu tariqa Fransiyada monarxiya qayta tiklandi. Biroq bu monarxiya zodagonlar emas, burjuaziya manfaatlariga xizmat qilar edi.

**Birinchi imperiya davrida** (1804–1814) Napoleon urushlari natijasida imperiya hududlari kengayib bordi. Napoleon 1807-yili Austerlisda **“Uch imperator jangi”** deb nom olgan jangda Rossiya va Avstriyaning birlashgan armiyasi ustidan hal qiluvchi g‘alabani qo‘lga kiritdi.

Bu g‘alabadan ruhlangan Napoleon endi Buyuk Britaniyaga qarshi **“qit’a qamali”** deb nomlangan siyosatini e’lon qildi. Unga ko‘ra, Napoleonga qaram barcha davlatlarning Buyuk Britaniya bilan savdo-sotiq qilishi taqiqlandi. Napoleonning maqsadi shu yo‘l bilan Buyuk Britaniyani bo‘ysundirish edi.

Rossiya ham 1807-yili Napoleon bilan tinchlik hamda ittifoq to‘g‘risida **Tilzit shartnomasini** imzolab, Fransiyaning Yevropadagi barcha g‘alabalarini tan oldi. Shartnomaga ko‘ra, Rossiyaga Buyuk Britaniya bilan aloqani uzish va qit’a qamaliga qo‘shilish majburiyati yuklandi.

Ammo Napoleon Buyuk Britaniyaga qarshi qit’a qamalidan ko‘zlangan maqsadiga erisha olmadi. Aholi tinimsiz urushlardan charchadi, mamlakatda norozilik, bosib olingan hududlarda milliy-ozodlik harakatlari kuchaydi. Napoleonga bu noroziliklarni bostirish, odamlarni chalg‘itish uchun katta bir g‘olibona urush kerak



*Austerlis jangi*



*Leypsig ostonasidagi jang. “Xalqlar jangi”. 1813-yil*

edi. Shuning uchun ham u Rossiyaga qarshi urush boshlab, unda g‘alaba qozonishni rejalashtirdi.

**Rossiyaga qarshi urush.** 1812-yili Napoleon Rossiyaga qarshi urush boshladi. Urush Rossiya tarixiga **“Vatan urushi”** nomi bilan kirdi. 1812-yilning 7-sentyabrida ikki davlat qo‘shini o‘rtasidagi hal qiluvchi jang Moskva yaqinidagi **Borodino** qishlog‘ida bo‘lib o‘tdi. Har ikki tomon ham ko‘plab qurbonlar berdi. Napoleon Moskvani egalladi. Ammo Napoleon armiyasida tartib yo‘qolib, askarlar yoppasiga talonchilik bilan shug‘ullana boshladi. Armiyada jangovar ruh yo‘qoldi. Napoleon Moskvani tashlab chiqishga majbur bo‘ldi. M. I. Kutuzov boshchiligidagi Rossiya armiyasi chekinayotgan fransuzlarni ta’qib qilib, ularga katta talafot yetkazdi.

**Imperiyaning qulashi.** Napoleonga qarshi urush Yevropa hududiga ko‘chdi. Yevropa mamlakatlari qo‘shinlaridan iborat qurolli kuchlar bilan Napoleon armiyasi o‘rtasidagi hal qiluvchi jang 1813-yili Leypsig ostonasida bo‘lib o‘tdi. **“Xalqlar jangi”** deb nom olgan bu jangda Napoleon qo‘shini tor-mor etildi.

1814-yili ittifoqchi davlatlar armiyasi Parij shahriga kirib keldi. Napoleon taxtdan voz kechishga majbur bo‘ldi. Ittifoqchilar uni O‘rtayer dengizidagi Elba oroliga surgun qildi. Shu tariqa imperiya quladi.

Ittifoqchi davlatlar Fransiyada Burbonlar sulolasi hokimiyatini tiklashga qaror qildilar. Inqilob yillari qatl etilgan qirol **Lyudovik XVI** ning ukasi **Lyudovik XVIII** Senatning qarori bilan taxtga o‘tqazildi. Ittifoqchilar Fransiya bilan sulh shartnomasini imzoladilar. Unga ko‘ra, Fransiya Napoleon davrida bosib olgan barcha hududlardan mahrum etildi.



*Moskvadagi yong‘in, 1812-yil*

**Esga oling:**
M. I. Kutuzov o‘z maktublaridan birida shunday deb yozgan edi: “Haligacha hal etilmagan savol bu quyidagi savoldir: nima muhimroq – armiyani yo‘qotishmi yoki Moskvani yo‘qotishmi?”. M. I. Kutuzov Moskvani fransuzlarga vaqtincha topshirib, to‘g‘ri ish qildimi? Siz nima qilgan bo‘lardingiz?

**O‘zingizni sinang:**
Napoleon 1807-yili – ...
Tilzit shartnomasiga binoan, Rossiya – ...
1812-yilning 7-sentyabrida – ...
1813-yili Leypsig ostonasida – ...
“Vaterloo jangi” – ...
Elba va Muqaddas Yelena orollari – ...



*M.I. Kutuzov*

**Vaterloo jangi.** Ayni paytda Fransiyada ichki vaziyat murakkablashib bordi. Bunga eski zodagonlarning feodal tartiblar va mutlaq monarxiyani tiklashni, shuningdek, qo‘llaridan ketgan mol-mulklarini qaytarib berishni talab qilishlari sabab bo‘ldi. Napoleon davrida boyib olgan yangi zodagonlar va armiyadan bo‘shatilgan zobitlar ham mamlakatdagi holatdan norozi edi.

Vaziyatdan surgundagi Napoleon foydalanib qolishga qaror qildi. U 1815-yil mart oyida Elba orolidan Fransiyaning janubiga yetib keldi. Qirol Lyudovik XVIII ning Napoleonga qarshi yuborgan 30 ming kishilik qo‘shini ham Napoleon tomoniga o‘tib ketdi. Napoleon Parij shahrini egallab, yana taxtga o‘tirdi. Biroq u bu safar hokimiyatni atigi 100 kun boshqardi.

Ittifoqchi davlatlar (Buyuk Britaniya, Gollandiya va Prussiya) juda katta armiyani Napoleonga qarshi qo‘ydi. Ikki o‘rtada 1815-yil Vaterloo qishlog‘ida (hozirgi Belgiya davlati hududida) hal qiluvchi jang bo‘lib o‘tdi. Shu sababli bu jang tarixga **“Vaterloo jangi”** nomi bilan kirdi. Jangda Napoleon qo‘shini butunlay tor-mor etildi. Ikkinchi bor taxtdan voz kechgan Napoleon endi uzoq Muqaddas Yelena oroliga surgun qilindi va u shu yerda 1821-yili vafot etdi. Fransiyada burbonlar hokimiyati qayta tiklandi.

**Vena Kongressi.** G‘olib davlatlar Kongress chaqirdilar. Bu Kongress 1814–1815-yillarda Avstriyaning poytaxti Vena shahrida bo‘lib o‘tdi. Kongressning asosiy maqsadi — Yevropani g‘oliblar manfaatlari yo‘lida qayta taqsimlashdan iborat edi. Kongressning yakunlovchi hujjatiga binoan, Fransiya hududi o‘zining 1789-yilgi chegarasigacha qisqartirildi. Yevropada Buyuk Britaniya va Rossiyaning ta’siri kuchaydi.

Ayni paytda Vena Kongressi qul savdosini taqiqlovchi deklaratsiya ham qabul qildi.

1814–1815 yillar. Vena kongressi qaroriga ko‘ra egallangan hududlar

| | |
|---|---|
| Rossiya | Varshava gersogligi (Polshaning bir qismi) |
| Prussiya | Reyn viloyati va Vestfaliya, Polshaning g‘arbiy hududlari |
| Avstriya | Lombardiya va Venetsiya (Italiya) |
| Angliya | Malta va Seylon orollari, Kap yerlari |
| Fransiya | 1789-yilgi chegaralariga qaytarildi |



*Vilyam Sedler. Vaterloo jangi*

**“Muqaddas ittifoq”.** Yevropada kelgusida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan inqiloblarga qarshi birgalikda kurashish maqsadida 1815-yil 26-sentyabr kuni Parijda uch davlat — Rossiya, Avstriya va Prussiya monarxlari ittifoq tuzdilar. U tarixga **“Muqaddas ittifoq”** nomi bilan kirdi.

**Fransiyada Ikkinchi imperiyaning o‘rnatilishi. Iyul monarxiyasi.** 1824-yili Lyudovik XVIII vafot etdi. Taxtni ukasi **Karl X** egalladi. U o‘z hokimiyatini yanada mustahkamlashga urinib, 1830-yili mamlakat parlamentini tarqatib yubordi va fuqarolar saylov huquqlarining yanada cheklanishini ma’lum qildi. Bu esa Parij shahrida inqilob boshlanishiga olib keldi. Uning ishtirokchilari burjuaziya, ishchilar, hunarmand va talabalar bo‘ldi. Inqilobning maqsadi Fransiyada respublika tuzumini o‘rnatish edi.



*Lui Filipp*

Fransiya qiroli Karl X inqilobdan cho‘chib chet elga qochib ketdi. Hokimiyat yirik burjuaziya — bankirlar, yirik sanoatchilar va katta yer egalari qo‘liga o‘tdi. Ular burbonlarning qarindoshi **Lui Filippni** taxtga o‘tqazib, shu yo‘l bilan monarxiyani saqlab qoldilar. Bu hodisa 1830-yilning iyul oyida ro‘y berganligi tufayli tarixga **“Iyul monarxiyasi”** nomi bilan kirdi. Uning davrida yangi konstitutsiya qabul qilindi. Konstitutsiyada so‘z, matbuot, yig‘inlar o‘tkazish erkinliklari e’lon qilindi. Saylovchilar uchun yosh va mulk senzlari kamaytirildi.

Ammo ishchilar va dehqonlarning ahvoli og‘irligicha qoldi. Ular tomonidan boshlangan bir necha qo‘zg‘olon shafqatsizlarcha bostirildi.

**1848-yilgi inqilob.** 1846-yili Fransiyada qish juda sovuq kelib, kuzgi g‘alla nobud bo‘ldi. Oqibatda oziq-ovqat mahsulotlari, birinchi navbatda, nonning narxi keskin oshib ketdi. Buning ustiga, qahraton qish natijasida tut daraxtlarini sovuq urdi, pilla yetishtiruvchi to‘qimachilik sanoati inqirozga uchradi va ishsizlikni yuzaga keltirdi.

Bunday vaziyat ishlab chiqarishning keskin kamayishiga, pulning qadrsizlanishiga olib keldi. Korxonalarning yopilishi yoki ishchi o‘rinlarining qisqartirilishi natijasida ishsizlik oshib bordi. Bularning barchasi inqilobning yuzaga kelishiga sharoit yaratdi.

O‘tkazilgan bir qator tadbirlarga qaramasdan, iqtisodiy inqiroz tobora chuqurlashib bordi. Oqibatda ommaviy ishsizlik vujudga keldi. Ishchilarning ish haqi ikki barobardan ortiqqa kamaydi. Qashshoqlashgan ishchilar endi qurollana boshladilar. Nihoyat, 1848-yilning fevral oyida Fransiya tarixida yana bir inqilob yuz berdi.

Qisqa vaqt ichida Parij shahridagi barcha muhim joylar, muassasalar qo‘zg‘olonchilar qo‘liga o‘tdi. Qirol Lui Filipp taxtdan voz kechib, Buyuk Britaniyaga qochib ketdi. Qo‘zg‘olonchilar qirol saroyini egallab, uning taxtini yoqib yubordilar.

**Esga oling:**
Nima sababdan 1848-yilgi inqilobda dehqonlarga nisbatan ishchilar harakati ancha keskin tus oldi?



***Muqaddas ittifoq. “Uch monarx”: Rossiya imperatori – Aleksandr I, Avstriya imperatori – Frans II, Prussiya qiroli – Fridrix Vilgelm III.***

**Yodda tuting:**
1869-yilda fransuzlar O‘rtayer dengizi va Qizil dengizni bog‘lovchi Suvaysh kanalini ochib, kemalar qatnovini yo‘lga qo‘yishadi. Kanal ishga tushgach, yevropaliklarning kemalari Afrikani aylanib o‘tishiga hojat qolmadi va dengiz yo‘li 8 ming km ga qisqardi.

Shu tariqa 1848-yil **fevral inqilobi** natijasida Iyul monarxiyasi quladi. 25-fevral kuni esa Fransiya Respublika deb e’lon qilindi. Bu Fransiya tarixidagi ikkinchi Respublika edi. Fransiya parlamenti Muvaqqat hukumat tuzdi. Yangi hukumat matbuot, namoyishlar o‘tkazish erkinligini e’lon qildi. Shuningdek, 21 yoshga to‘lgan barcha erkaklarga saylov huquqi berildi.

**Ikkinchi imperiya.** Mamlakatda tartib o‘rnatishga qodir hokimiyat zarur edi. Shu tufayli hukmron tabaqalar katta vakolatlarga ega prezidentlik lavozimini joriy etishga qaror qildilar. Unga hukumat tuzish va uni iste’foga chiqarish huquqi ham beriladigan bo‘ldi.

1848-yilning dekabr oyida Napoleon Bonapartning jiyani **Lui Napoleon Bonapart** Fransiya Prezidenti etib saylandi. Uning asl maqsadi Fransiya imperiyasini qayta tiklash edi.

U o‘z niyatini amalga oshirishga zimdan tayyorgarlik ko‘rdi. Nihoyat, 1851-yili davlat to‘ntarishi o‘tkazdi va o‘zi uchun xavfli bo‘lgan kishilarning barchasini qamoqqa oldi. Endi u o‘zini imperator deb e’lon qilishi uchun hech qanday to‘siq yo‘q edi.

Nihoyat, 1852-yil 2-dekabr kuni u **Napoleon III** nomi bilan Fransiya imperatori deb e’lon qilindi. Shu tariqa Fransiyada **Ikkinchi imperiya** o‘rnatildi. Ikkinchi imperiya davri nisbatan barqarorlik davri bo‘ldi. Bu barqarorlik, shuningdek, sanoat inqilobining yakunlanishi mamlakatning jadal iqtisodiy yuksalishiga olib keldi. Yigirma yilda (1850–1870) Fransiyada sanoat ishlab chiqarishi deyarli uch barobarga o‘sdi. Agar mamlakat korxonalarida 1852-yili 6 ming bug‘ mashinasi ishlangan bo‘lsa, 1869-yili ular soni 26 ming 200 taga yetdi. Shu davrda toshko‘mir qazib olish, cho‘yan va temir eritish uch barobarga, po‘lat ishlab chiqarish esa sakkiz marta ko‘paydi. Ammo Fransiyada asosiy e’tibor an’anaviy yengil sanoatni rivojlantirishga qaratildi. Albatta, aholi ham cho‘yan po‘latdan ko‘ra yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdan ko‘proq manfaatdor edi.



*Napoleon III*

Fransiya iqtisodiyotida banklarning roli ortdi. Bir nechta yirik banklar amalda mamlakat iqtisodini o‘z qo‘llariga oldi. Ayni paytda ishchilar va dehqonlarning ahvoli yomonlashdi. Ish kuni 14–16 soat davom etardi. Fabrika va zavodlarda kattalar bilan bir qatorda 8–12 yoshli bolalar ham mehnat qilardi. Angliyadan farqli ravishda, Fransiyada boylar va kambag‘allarning yashash sharoiti o‘rtasidagi tafovut keskin



*Parij kommunasi*

ko‘zga tashlanib, aholining noroziligi ham ortib bordi. Bu hol xalqaro vaziyatning keskinlashuvi sharoitida imperiya taqdirida halokatli rol o‘ynadi.

Napoleon III asos solgan Ikkinchi imperiya 1870-yilgacha mavjud bo‘ldi. 1870-yil iyulda boshlangan **Fransiya – Prussiya urushi** dastlabki janglardanoq Fransiya hukumati va armiyasining yaroqsizligini ko‘rsatdi. Fransiya hukumati Prussiyaga qarshi urush e’lon qilar ekan, tashqi dushman ustidan qozonilgan g‘alaba tobora chuqurlashib borayotgan ichki siyosiy inqirozni bartaraf etadi, deya rejalashtirgan edi. Ammo urushda Fransiya mag‘lubiyatga uchradi. 1870-yil 2-sentyabr kuni Fransiya armiyasi Germaniya qo‘shinlariga taslim bo‘ldi. 4-sentyabr kuni Parij ishchilari Lui Napoleon Bonapart va uning sulolasi taxtdan ag‘darilganligini e’lon qildi. Ikkinchi imperiya quladi. Fransiya respublikachilik an’analariga qaytdi. 1870-yildagi bu voqea va ayniqsa, 1871-yili 72 kun faoliyat yuritgan **Parij Kommunasi** Fransiya tarixining keyingi davri uchun respublika tuzumini uzil-kesil o‘rnatdi.

***XIX asrda hech bir xalq fransuzlarchalik ko‘p urushlarda qatnashmadi, boshqa birorta yevropalik millat fransuzlardek ko‘p inqilobni amalga oshirmadi. Natijada XIX asr oxiriga kelib, Fransiya dunyoning eng qudratli davlatlari qatoriga kirsada, inqiloblar va urushlardagi juda katta yo‘qotishlar tufayli rivojlanish sur’atlari tobora pasayib borayotgan edi.***

**O‘zingizni sinang:**
Yengil sanoat og‘ir sanoatdan nimasi bilan farq qiladi?

**Badiiy-tarixiy asar bilan ishlashga doir topshiriq:**
*M. Y. Lermontovning “Borodino” she’rini G‘. G‘ulom tarjimasida (https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/gafur-gulom-tarjimalar.html) va A. Oripovning “Xatolar” she’rini o‘qing.*

### Savol va topshiriqlar

1. Napoleon davrining Yevropaga ijobiy ta’siri ko‘pmidi yoki salbiymi? Javobingizni asoslang.
2. Vena kongressida qanday qarorlar qabul qilindi?
3. Nima uchun “Muqaddas ittifoq” aynan Rossiya, Avstriya va Prussiya monarxlari tashabbusi bilan tuzildi?
4. Ikkinchi imperiya davrida Fransiya iqtisodida qanday o‘zgarishlar ro‘y berdi?

### Ijodiy ish topshirig‘i:

1804-yilda Napoleon “Fuqarolik kodeksi” — burjua huquqi normalari to‘plamini nashr etdi. “Napoleon kodeksi” deb nomlangan ushbu kodeks mulk huquqini, xususiy tadbirkorlik erkinligini va oilaviy huquq normalarini ta’minladi. U bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Napoleonning o‘zi keyinroq shunday degan edi: “Mening haqiqiy shon-shuhratim 40 ta jangda g‘alaba qozonganimda emas... Ular unutilishi mumkin. Lekin mening “Fuqarolik kodeksim” abadiy yashaydi”. Nima uchun Napoleon o‘zining “Fuqarolik kodeksi”ni harbiy g‘alabalaridan ustun qo‘yganini tushuntiring. Qo‘shimcha ma’lumotlardan foydalangan holda batafsil javob tayyorlang.

# 23-MAVZU. GERMANIYA VA ITALIYADA MAMLAKATNI BIRLASHTIRISH UCHUN KURASH

**Siz bilib olasiz:**
– Vena kongressidan so‘ng Germaniyadagi holatni;
– Germaniyada inqilobning kelib chiqish sabablarini;
– iqtisodiy rivojlanishni;
– XIX asrning boshlarida Italiyani;
– Italiyaning birlashtirilishini.

**Esga oling:** Muqaddas Rim imperiyasi qachon va kim tomonidan tuzilgan edi?

**Vena kongressidan so‘ng Germaniyadagi holat.** 1815-yil 8-iyunda Vena kongressida imzolangan aktga binoan, Muqaddas Rim imperiyasi (1806-yili tarqalib ketgan) o‘rnida 34 ta mustaqil davlat va 4 ta erkin shahardan iborat **German ittifoqi** tuzildi. Ittifoq tarkibiga Avstriya imperiyasi, beshta qirollik, gersoglik va knyazliklar, to‘rtta shahar-respublika kirdi. Shuningdek, bu davrda boshqa davlatlar — Angliya, Daniya va Niderland qirolligi tarkibida bo‘lgan Gannover qirolligi, Golshteyn va Saksen-Lauenburg gersogliklari hamda Luksemburg buyuk gersogligi ham German ittifoqining a’zolari deb tan olindi. Ittifoqning eng katta davlatlari Avstriya bilan Prussiya bo‘lib, ushbu davlatlar yerlarining bir qismi yangi tashkil qilingan Ittifoq tarkibiga kiritilmadi. Masalaning bunday hal qilinishi Avstriya bilan Prussiyaning German ittifoqidan mustaqilligini kuchaytirib, Germaniyani birlashtirish yo‘lida qo‘shimcha qiyinchiliklar tug‘dirdi.

German ittifoqi mustaqil davlatlarning konfederatsiyasi ko‘rinishida bo‘lib, ittifoqqa kiruvchi davlatlar orasida uzviy bog‘liqlik yo‘q edi. Na umumiy qonunchilik, na umumiy armiya, na umumiy moliya, na diplomatik vakolatxonalar mavjud edi. Avstriya vakili German ittifoqining doimiy raisi sanalardi.

German ittifoqi davlatlari o‘rtasidagi mavjud bojxona to‘siqlari, yagona valuta tizimi, o‘lchov birliklari va tadbirkorlik to‘g‘risidagi qonunchilikning yo‘qligi milliy bozor va sanoatning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Shu tariqa Germaniyaning birlashishi masalasi o‘z yechimini topmadi.

**Yodda tuting:** Inqilobning asosiy maqsadi – Germaniyaning siyosiy tarqoqligiga barham berish va feodal tartiblarni tugatish edi.

**Germaniyada inqilobning kelib chiqish sabablari.** Germaniya inqilobining asosiy sababi — O‘rta asr feodal tartiblarning kapitalistik taraqqiyotga to‘siq bo‘lib kelayotganligi edi. Shuningdek, Germaniyada hamon siyosiy tarqoqlik hukm surardi. Oqibatda yagona umumiy bozor vujudga kelmadi. Sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi boshqa ilg‘or davlatlardan orqada qoldi. Zo‘ravonlikka asoslangan davlat apparati har qanday hurfikrlikni ta’qib qilar edi. Bu omillar Germaniyada ham inqilobning yetilishiga olib keldi. Inqilobga burjuaziyaning konstitutsiyaviy monarxiya tarafdori bo‘lgan mo‘tadil qismi rahbarlik qildi.



*Berlin barrikadalarida. 1848-yil*

| Kapitalizm rivojlanishining ikkita yo‘li | |
|---|---|
| Prusscha yo‘l | Amerikacha yo‘l |
| Feodalizm elementlari saqlanib qolgan | Feodal tuzumning elementlari yo‘q |
| Burjuaziya siyosiy hokimiyatga ega emas | Siyosiy hokimiyat burjuaziya qo‘lida |
| Demokratiya rivojlanmagan | Demokratiya mavjud |


**1848-yilgi inqilob.** Yevropaning boshqa davlatlarida 1847-yilda yuz bergan iqtisodiy inqiroz Germaniyani ham chetlab o‘tmadi. Bu inqiroz ishsizlikning ko‘payishiga, ish haqining pasayishiga olib keldi. Barcha tovarlar, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlarining narxi ko‘tarilib ketdi. Oqibatda och qolgan aholi ko‘chaga chiqdi. Fransiyada boshlangan 1848-yilgi fevral inqilobi ta’sirida Berlinda qo‘zg‘olon boshlandi. Berlin ko‘chalari barrikadalar bilan qamrab olindi. Tun bo‘yi shiddatli ko‘cha janglari davom etdi. Shunday sharoitda Prussiya qiroli murosa yo‘lini izlashga majbur bo‘ldi va **Millat majlisi** (parlament)ga saylov belgilashga hamda konstitutsiya ishlab chiqishga va’da berdi. Siyosiy vaziyatni biroz yumshatish evaziga bo‘lsa-da, qirol hokimiyati inqilobni bostirishga erishdi, biroq inqilob butunlay izsiz ketmadi.

1848-yilda Prussiya qirolligida konstitutsiya joriy etilishining o‘zi katta siyosiy voqea bo‘ldi.

**Iqtisodiy rivojlanish.** Inqilob nemis davlatlarining keyingi iqtisodiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Burjua inqiloblari g‘alaba qozongan boshqa Yevropa mamlakatlariga nisbatan Germaniyada kapitalizm, ayniqsa, qishloq xo‘jaligida, o‘zgacha yo‘l bilan qaror topdi. Bu yo‘l tarixda **kapitalizm rivojlanishining “prusscha” yo‘li** nomini olgan. Prusscha yo‘lning xarakterli jihati shundaki, krepostnoy pomeshchik xo‘jalik shakli kapitalistik xo‘jalikka juda sekinlik bilan rivojlanib kirib boradi. Hukumat qator islohotlarni amalga oshirib, ularda feodal imtiyozlarning bekor qilinishi pomeshchiklar uchun ham ma’qul bo‘lgan iqtisodiy va siyosiy kompensatsiyalar orqali amalga oshirildi. 1850-yilgi “Pomeshchiklar va dehqonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish to‘g‘risida”gi farmon faqat ikkinchi darajali feodal qaramliklarnigina bepul bekor qildi. Asosiy qaramliklar esa sotib olinishi kerak edi. Bu islohotlar, arzon ishchi kuchi mavjudligi va qulay konyunktura shartlari yunker xo‘jaliklarining mustahkamlanishiga olib keldi.



*A. Borzigning mashinasozlik zavodi. 1847-yil*



*Alfred Krupp*



*Verner fon Simens*

**Yodda tuting:**
Otto fon Bismark (1815, Shyonxauzen, Prussiya qirolligi — 1898, Fridrixsru, Prussiya qirolligi, Germaniya imperiyasi) — siyosatchi, davlat arbobi, Germaniya imperiyasining birinchi kansleri, uni “Temir kansler” deb atashgan. Germaniyani birlashtirish rejasini amalga oshirgan.



*Otto fon Bismark*

***Bu qiziq:*** Otto fon Bismarkka tegishli ikkita sitata: 1. “Jang maydonida halok bo‘layotgan jangchining so‘nib borayotgan ko‘zlariga hech bo‘lmasa bir bor tikilgan kishi urush boshlashdan oldin yaxshilab o‘ylab ko‘radi”. 2. “Agar bugun maktab qurmasak, ertaga qamoqxonalar qurishga to‘g‘ri keladi”.



*Kamillo di Kavur*

Inqilobdan keyingi o‘n yil sanoat uchun hal qiluvchi davr bo‘ldi. Yosh burjuaziya o‘zining bor kuchini ishlab chiqarish sohasiga yo‘naltirdi. Xalqaro doiradagi sanoatchilar paydo bo‘ldi. Ulardan XIX asr 50–60-yillarida dunyoda eng yirik hisoblangan lokomotiv zavodining egasi **Borzig,** ko‘plab davlatlarni qurol bilan ta’minlab turgan **Alfred Krupp,** dengiz kabellari va telegraf simlarining egalari **Simens** va **Galske,** temiryo‘llar quruvchisi **fon Unru** va boshqalar juda mashhur edi. Biroq nemis davlatlarining sanoat taraqqiyotidagi muvaffaqiyati ancha nisbiy bo‘lib, hali ilg‘or Yevropa mamlakatlaridan ortda edi.

**Germaniyani birlashtirish uchun kurash.** Germaniyada ham jamiyatning ilg‘or qatlami milliy birlashuv uchun kurashayotgan edi. Bu yerda ham butun mas’uliyatni Germaniyada mavjud ko‘plab davlatlardan biri o‘z zimmasiga olishi zaruriyatga aylandi. Bunday mas’uliyat Prussiya zimmasiga tushdi. Prussiya bu davrda Germaniya imperiyasidagi eng qudratli davlat edi. Qirollikda o‘z davrining eng mashhur davlat arboblaridan biri **Otto fon Bismark** kanslerlik qilardi. U Germaniyani yagona davlatga birlashtirishdek tarixiy ishga rahbarlik qildi.

1866-yilda Prussiya Avstriya ustidan qozongan tarixiy g‘alabadan so‘ng Otto fon Bismark Prussiya bilan Germaniyadagi mavjud boshqa davlatlar o‘rtasida **“Shimoliy Germaniya ittifoqi”**ni tuzish haqida shartnoma imzolanishiga erishdi. Bismark o‘z yordamchilari bilan qisqa muddatda Shimoliy Germaniya ittifoqi konstitutsiyasini ishlab chiqdi.

Bu konstitutsiya, asosiy matnidagi ba’zi bir o‘zgarishlarni hisobga olmaganda, 50 yildan ko‘proq vaqt davomida — 1919-yili Veymar Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilingunga qadar amal qilib keldi.

Shu tariqa Germaniyaning janubi-g‘arbida hukmronlik qilgan gogensollernlar sulolasining qizil hoshiya bilan bezatilgan oq-qora bayrog‘i ostida Shimoliy Germaniya birlashtirildi. Yagona nemis millatining rivojlanishi yo‘lidagi barcha to‘siqlar olib tashlandi, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga to‘siq bo‘layotgan feodal tarqoqlik barham topdi.

**Fransiya – Prussiya urushi** prussiyaliklarning g‘alabasi bilan yakunlangandan so‘ng (urush haqida Fransiyaga bag‘ishlangan mavzuda tanishgansiz) 1871-yil yanvarda Prussiya imperatori **Vilgelm I** Versal saroyining serhasham zalida Germaniya imperatori deb e’lon qilindi. Mamlakatni birlashtirish uchun olib borilgan uzoq yillik kurashni Bismark yakunladi.



*Prussiya – Avstriya urushi. 1866-yil*

**XIX asrning boshlarida Italiya.** 1800-yili fransuz intervensiyasining yangi davri boshlanib, Italiya o‘n besh yilga Napoleon imperiyasining hukmronligi ostida qoldi. Fransiya ta’siri ostida Italiyada kapitalizm rivojini tezlashtirgan muhim o‘zgarishlar amalga oshirildi.

Napoleonning ag‘darilishi Italiyaga ozodlik olib kelmadi, fransuzlar zulmi avstriyaliklar zulmi bilan almashdi, xolos. Barcha italyan davlatlari Avstriyaga qaram bo‘lib qoldi.

1807-yili Janubiy Italiyadagi **Neapolitan qirolligida karbonariylar** (“ko‘mirchilar”)ning maxfiy tashkiloti paydo bo‘lib, ular mamlakatni birlashtirish maqsadida harakat qiladi. Ammo Avstriya qo‘shinlari bu harakatni ham bostiradi.

**Italiyaning birlashtirilishi.** Avstriya zulmiga qarshi kurashning hal qiluvchi janglari 1850-yillarda bo‘lib o‘tdi.

1840-yillari Shimoliy Italiyada sanoat rivojlanishi boshlanadi. Burjuaziya va ziyolilar monarxlarga tobora katta talablar qo‘ya boshlaydi. Shunda Rim papasi hokimiyati ostida birlashish g‘oyasi paydo bo‘ladi. 1847-yili graf **Kamillo Kavur “Risorjimento”** (“Uyg‘onish”) nomli gazeta nashr qiladi. Shu tariqa Risorjimento mamlakatni birlashtirish uchun kurash davrining umumiy nomiga aylandi.

Risorjimento uchun boshlanish nuqta **Buyuk fransuz inqilobi** bo‘ldi. Aynan inqilob yillari Apennin yarimorolining turli qismlarida boshlangan respublikachilik, feodal tartiblarga va avstriyaliklarga qarshi shiorlar ostida birlashgan ozodlik harakatlariga italiyalik vatanparvarlar boshchilik qildilar.

Mamlakatni birlashtirish g‘oyasini yangidan ilgari surgan **Juzeppe Madzini “Yosh Italiya”** nomli inqilobiy tashkilotni tuzadi. Ammo ular boshlagan qo‘zg‘olon ham oldingilari kabi mag‘lubiyatga uchradi.

Bu mag‘lubiyatlarning asosiy sababi italyan vatanparvarlarining tarqoqligi edi. Burjuaziya dehqonlarni yordamga chaqirmasdi. Sitsiliya va Neapol qirolligi Italiya siyosiy tarqoqligining tayanchi bo‘lib qolayotgan edi.

Shunday holatda mamlakatni birlashtirish ishiga hal qiluvchi hissani **Juzeppe Garibaldi** va uning askarlari qo‘shdi. 1860-yili Italiyani birlashtirishning qizg‘in tarafdori, xalq qahramoni Juzeppe Garibaldi o‘z harbiy kuchlari bilan Sitsiliya oroliga kelib, tushdi. Xalq ommasi uni xaloskor sifatida kutib oldi. Sitsiliyaning Palermo shahri egallandi. Shundan so‘ng J. Garibaldi qo‘shini Neapolga yurish qildi. Neapol qo‘shini tor-mor etildi va Neapol qirolligi tugatildi.

1861-yil 17-martda Sardiniya qiroli **Viktor Emmanuil** boshchiligida yagona Italiya qirolligi e’lon qilindi. Qirol Viktor Emmanuil II nomi bilan taxtga o‘tirdi. Mamlakatda konstitutsiyaviy monarxiya qaror topdi hamda ikki palatali (Senat va Deputatlar palatasi) parlament joriy etildi.




*Juzeppe Garibaldi. Italiyaning birlashishi*



**Yodda tuting:**
Kamillodi Kavur (1810, Turin, Po departamenti — 1861, Turin) — Italiyaning birlashishida beqiyos rol o‘ynagan italyan davlat arbobi. Italiyaning birinchi bosh vaziri.



**Yodda tuting:**
Juzeppe Madzini (1805, Genuya — 1872, Piza) — italiyalik siyosatchi, yozuvchi va faylasuf, XIX asrda milliy-ozodlik harakati va liberal islohotlarning birinchi bosqichida muhim rol o‘ynagan.



*Juzeppe Madzini*

**Yodda tuting:** Juzeppe Garibaldi (1807, Nitsa — 1882, Kaprera oroli) — italyan qo‘mondoni, inqilobchi va siyosatchi. Risordjimento yetakchilaridan biri. Italiyaning milliy qahramoni. Yozuvchi.



*Juzeppe Garibaldi*

**Internet bilan ishlashga doir topshiriq:** Internet yordamida Otto fon Bismark va Juzeppe Garibaldilarning hayoti haqida qiziqarli ma’lumotlar bilan tanishing, o‘zingizni jurnalist deb tasavvur qiling va gazetaga qisqa maqola tayyorlang.

Endi kapitalizmni yanada rivojlantirish zarurati mamlakatni birlashtirish ishini nihoyasiga yetkazishni taqozo etardi. Busiz Italiya Yevropada o‘z o‘rniga ega bo‘la olmas edi. Til va madaniyat birligi Italiyani yagona davlatga birlashtirish imkonini berdi.

Bosh vazir lavozimini egallagan K. Kavur Avstriya zulmiga qarshi kurashda Fransiya bilan shartnoma tuzishga erishdi. Avstriya qo‘shini mag‘lubiyatga uchratilib, u bilan sulh tuzildi. 1866-yili Fransiya ko‘magida Avstriyaga qarshi urush boshlagan Italiya Venetsiyani egalladi, ammo Savoyya va Nitsadan Fransiya foydasiga voz kechishga majbur bo‘ldi. 1870-yili Germaniya bilan urushda mag‘lubiyatga uchragan Fransiya **Rimdan** o‘z qo‘shinlarini olib chiqadi va **“Abadiy shahar”** birlashgan **Italiyaning poytaxtiga** aylanadi.

Ammo hali oldinda muammolar ko‘p edi. Ular — Shimol va Janub o‘rtasida rivojlanishdagi katta farq, mamlakatda pulning yetishmasligi, dehqonlarning zodagonlarga qaramligi, saylov huquqining cheklanganligi va boshqalar. Ammo Italiya o‘z taraqqiyotining keyingi bosqichlarida bu muammolarni muvaffaqiyatli hal etib, mamlakatni jadal rivojlantirish yo‘liga tushib oladi.

Shu tariqa Italiyani birlashtirish jarayonida ikkita masala — mamlakatning shimoli-sharqini avstriyaliklardan ozod qilish va milliy davlatni tashkil etish hal bo‘ldi.

***Ko‘plab mayda davlatlarga bo‘linib ketgan Germaniya XIX asrda nemis millatining katta qismini birlashtirgan zamonaviy davlatga aylandi. Asr oxiriga kelib, Germaniya eng rivojlangan davlatlar qatoridan o‘rin egalladi.***

***Italiya birlashgandan so‘ng konstitutsion monarxiya yo‘lini tanladi. Ichki bozorning sust taraqqiy etganligi hukmron doiralarni bosqinchilikka, mustamlaka imperiyasini tuzishga chorladi.***

**Atamalar mazmuni:**

**Yunker xo‘jaligi** – bu xususiy mulkni boshqarishning bir turi bo‘lib, yirik yer egalari bo‘lgan nemis zodagonlari xususiy xo‘jaligining kapitalistik tarzda isloh qilingan shaklidir, ya’ni ular yollanma mehnatdan foydalanganlar, lekin shu bilan birga, krepostnoylar mehnatini ham saqlab qolganlar.

**Karbonariylar** (*ital.* “*ko‘mirchilar*”) – 1807–1832-yillarda Italiyada faoliyat yuritgan yashirin inqilobiy jamiyat. Karbonariylarning asosiy maqsadi monarxlar zulmini yengish va konstitutsiyaviy hukumat o‘rnatish edi.

**Savol va topshiriqlar**

1. Qirol hokimiyati 1848-yili Germaniyadagi inqilobni bostirishga erisha olishining sababi nimada?
2. Kapitalizm rivojlanishida “prusscha” yo‘lining xarakterli jihati nimada?
3. Germaniya va Italiyadagi milliy harakatlar oldida qanday vazifalar turardi?
4. Qaysi omillar Italiyani yagona davlatga birlashtirish imkonini berdi?
5. Italiya inqilobi asosiy maqsadining qaysi xususiyati Germaniya inqilobining asosiy maqsadidan farq qilgan?

**Ijodiy ish topshirig‘i:**

Venn diagrammasi yordamida Germaniya va Italiya tarixidagi umumiylik va farqli jihatlarni tahlil qiling va daftaringizga yozing.

# 24-MAVZU. ROSSIYA: TARAQQIYOTNING O‘ZGACHA YO‘LI

**Siz bilib olasiz:**
– iqtisodiy hayotning o‘ziga xos xususiyatlarini;
– ijtimoiy-siyosiy harakatlarni;
– krepostnoylik huquqining bekor qilinishini;
– tashqi siyosatni;
– Rossiya madaniyatini.

**Iqtisodiy hayotning o‘ziga xos xususiyatlari.** Chor Rossiyasida krepostnoylik tartiblari jamiyat taraqqiyotiga katta g‘ov bo‘lib qoldi. G‘arbiy Yevropa davlatlari va AQSHda mashinalashgan sanoat rivojlanayotgan bir davrda, Rossiyada hamon manufaktura ishlab chiqarishi hukmron edi. Qishloq xo‘jaligida esa hamon O‘rta asr krepostnoylik tartiblari hukm surardi va u taraqqiyotning asosiy to‘sig‘iga aylangan edi.

Ammo G‘arbning ilg‘or mamlakatlaridan kirib kelayotgan yangi g‘oyalarning ta’siri jamiyatda borgan sari ko‘proq sezila bordi. Buning natijasida Rossiyaning iqtisodi ko‘p ukladli xarakter kasb etdi, ijtimoiy munosabatlar esa nisbatan murakkab va ziddiyatli tus oldi. Yangi sinf — **burjuaziya** tez o‘sdi. Dvoryanlarning yerga bo‘lgan monopoliyasi susaydi. 1801-yildan yerning erkin savdosiga ruxsat berildi. 1803-yili esa pomeshchiklarga dehqonlarni to‘lov evaziga ozod qilish, 1818-yili esa dehqonlarning zavod va fabrikalar qurishiga ruxsat berildi. Keyinchalik Rossiyada savdo uylarining asoschilari, fabrikantlar va sanoatchilar bo‘lgan mashhur kishilar dehqonlar orasidan chiqqan edi. Biroq XIX asr boshlarida yerga pomeshchik egaligi va dehqonlarning krepostnoylik holati mamlakatda sanoat taraqqiyotiga to‘siq bo‘layotgan edi. Qaram dehqonlarning mehnati sanoatda juda unumsiz bo‘lib, texnik taraqqiyotni qiyinlashtirayotgan edi.

Iqtisodiyotning rivojlanishiga yo‘llarning yomon ahvoli ham to‘siq bo‘ldi. Masalan, Volga bo‘yida yetishtirilgan don ikki yildan keyingina Moskvaga yetib kelardi. 1815-yili **“Yelizaveta”** deb atalgan ilk paroxod paydo bo‘ldi. Sankt-Peterburg bilan Sarskoye Seloni bog‘lovchi temiryo‘l esa 1837-yili qurildi, xolos. 1861-yilgi islohot arafasida Rossiyada 1500 chaqirimlik temiryo‘l mavjud bo‘lib, bu Angliyadagidan 15 marta kam edi. Paroxodlar soni ham 400 ta bo‘lib, bular juda katta hududga ega bo‘lgan Rossiya uchun, albatta, yetarli emasdi.

Xullas, XIX asr boshlarida Rossiyada **kapitalistik uklad** shakllana boshlashiga qaramasdan, u qoloq agrar mamlakat bo‘lib qolaverdi. Shu bilan birga, jamiyatda yangilanish zarurati tobora yaqqol sezila bordi.

**Yodda tuting:**
Krepostnoylik – dehqon qaramligining eng to‘liq va og‘ir shakli bo‘lib, u dehqonlarning yerga bog‘lanishi (rus tilida – *krepost*), ya’ni ularning yer uchastkalarini tark etishini taqiqlash, yer egasining ma’muriy va sud hokimiyatiga bo‘ysunishini nazarda tutgan.



***I. Y. Repin. Burlaklar Volgada. XIX asr***



*Aleksandr I*



*Krepostnoylik huquqi amalda*

**Yodda tuting:**
Dekabristlar qo‘zg‘oloni Sankt-Peterburgda Senat maydonida bir guruh zodagonlar tomonidan rus podshosining hukmronligi — samoderjaviyeni ag‘darib tashlash va krepostnoylikni yo‘q qilish maqsadida tashkil etilgan. Qo‘zg‘olon bostirilib, besh kishi o‘lim jazosiga hukm qilinib, qatl etildi. 120 kishi Sibirga surgun qilindi.

Shunday holatda 1801-yili taxtga o‘tirgan imperator Aleksandr I yosh, mag‘rur, liberal g‘oyalarga xayrixoh edi. U 1808-yili yarmarkalarda dehqonlarni sotishni, 1809-yili esa ularni katorga qilishni taqiqladi.

**Ijtimoiy-siyosiy harakatlar.** Rossiyaning ilg‘or fikrli kishilari o‘z vatanini Yevropaning yetakchi davlatlari qatorida ko‘rishni istardilar. Ammo mavjud tuzumni o‘zgartirmay turib, o‘z orzularining ro‘yobga chiqmasligini ham yaxshi bilar edilar.

Ular samoderjaviye va krepostnoylik huquqiqa qarshi aniq dastur bilan kurash boshladilar. Bu kurash Rossiya tarixiga **“Dekabristlar harakati”** nomi bilan kirgan. Dekabristlar o‘z maqsadlariga qo‘zg‘olon ko‘tarish orqali erishish mumkin deb hisoblab, unga tayyorlana boshladilar. Qo‘zg‘olon vafot etgan imperator **Aleksandr I** o‘rniga ukasi **Nikolay I** taxtga o‘tirishiga bag‘ishlangan marosim kuniga belgilandi. Isyon dekabristlar tarafdori bo‘lgan harbiy qism tomonidan amalga oshirilishi lozim edi. U 1825-yilning 14-dekabr kuni boshlandi, biroq u muvaffaqiyatsizlikka uchradi va imperatorga sodiq harbiy kuchlar tomonidan bostirildi.



*Dekabristlar qo‘zg‘oloni*


| Narodniklik harakatlari | | |
|---|---|---|
| Anarxistik (isyonchilik) yo‘nalishi. M. A. Bakunin | Tashviqotchilik yo‘nalishi. P. L. Lavrov | Fitnachilik yo‘nalishi. P. N. Tkachyov |
| Har qanday hokimiyatga qarshi. | Ziyolilarga tayangan. | Inqilobchilarga tayangan. |
| Xalq inqilobga tayyor, faqat uni faol harakatga chorlash kerak. | Dehqonlar inqilobga tayyor emas. | Samoderjaviyening jamiyatda tayanchi yo‘q. |
| Dehqonlarning o‘zini o‘zi boshqaradigan, erkin federatsiyasini tuzish | Dehqonlarni faol harakatga tashviqot orqali tayyorlash mumkin. | Hokimiyatni qo‘lga olib, o‘zgarishlarni amalga oshirish. |




*A. I.Gersen*



*M. A. Bakunin*



*P. L. Lavrov*



*P. N. Tkachyov*

XIX asrning 30–40-yillari rus ijtimoiy-siyosiy hayotida inqilobiy – demokratik mafkuraning shakllanish davri bo‘ldi. Uning asoschilari V. G. Belinskiy va A. I. Gersen bo‘ldilar. Ular G‘arbiy Yevropa bilan Rossiyaning tarixiy taraqqiyotidagi umumiylikni isbotlashga harakat qildilar, G‘arb bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarni mustahkamlashga chaqirdilar, G‘arbning fan, texnika va madaniy taraqqiyotidagi ilg‘or yutuqlardan Rossiyada foydalanishni muhim deb hisobladilar.

XIX asr 60–70-yillarida Rossiyada **“narodniklik”** deb nom olgan harakat shakllanadi. Bu harakatning asosiy yo‘lboshchilari **M. A. Bakunin, P. L. Lavrov, P. N. Tkachyov** bo‘lib, ular narodniklikdagi uchta asosiy oqimni: anarxistik, tashviqotchilik, fitnachilikni aks ettiradilar. M. A. Bakunin dehqonlar inqilobga tayyor, faqat ziyolilardan chiqqan qahramon ularni inqilobga chaqirishi lozim, deb hisoblaydi. P. Lavrov esa dehqonlar inqilobga tayyor emas, shuning uchun ma’lumotli kishilardan tashviqotchilarni bu ishga jalb qilish, uzoq tushuntirish orqali dehqonlarni inqilobga tayyorlashlari lozim, deb yozadi. P. N. Tkachyov fitna yo‘li bilan ozchilik tomonidan inqilobni amalga oshirish mumkin, deb hisoblaydi.

**Krepostnoylik huquqining bekor qilinishi.** 1853–1856-yillardagi Qrim urushida Rossiya mag‘lubiyatga uchradi. Bu mag‘lubiyat Rossiyaning iqtisodiy qoloqligi oqibati edi. Rossiyada krepostnoylik tuzumi allaqachon taraqqiyotning asosiy to‘sig‘iga aylangan edi. Shuningdek, bu mag‘lubiyat Rossiyada krepostnoylik huquqi bekor qilinmasa, kapitalizm tez sur’atlar bilan taraqqiy etishi mumkin emasligini ham ko‘rsatib berdi. Ayni paytda mag‘lubiyat inqilobiy harakatning o‘sishiga ham turtki bo‘ldi.



*Krepostnoylik huquqining bekor qilinishi*

**Yodda tuting:**
**Qrim urushi** 1853–1856 (Sharqiy urush) – Rossiya imperiyasi va bir qator davlatlar (Buyuk Britaniya, Fransiya, Usmoniylar imperiyasi va Sardiniya qirolligi) koalitsiyasi o‘rtasidagi urush, ularning Qora dengiz havzasi Kavkaz va Bolqondagi manfaatlari to‘qnashuvi natijasida yuzaga kelgan.



*Qrim urushi. 1853–1856-yillar*

Mamlakatda vujudga kelgan kuchli norozilik to‘lqinini bostirish maqsadida imperator **Aleksandr II** 1861-yil 19-fevralda krepostnoylik huquqini bekor qilish to‘g‘risida manifest imzoladi. Unga ko‘ra, krepostnoy dehqonlar shaxsan ozod bo‘ldilar. Bundan buyon dehqonlarni sotib olish, sotish yoki boshqa birovga hadya qilish taqiqlandi. Dehqon endi pomeshchikning ruxsatisiz oila qurish, mustaqil ravishda shartnoma, savdo bitimlari tuzish, ko‘chmas mulk sotib olish va uni meros qoldirish kabi huquqlarga ega bo‘ldi.




*Aleksandr II*

Hukumat dehqonlarni ozod qilib, ularga yer berdi. Shuningdek, dehqonlarning asosiy soliq to‘lovchilar bo‘lib qolishi ham hisobga olindi. Dehqonlarga berilgan yer “chek yerlar” deb ataldi. Hukumat pomeshchikning manfaatini ham hisobga oldi. Jumladan, pomeshchik o‘z ixtiyoridagi yerning 1/3, cho‘l hududlarda esa 1/2 qismini saqlab qolish huquqiga ega bo‘ldi.



*Kavkaz urushi*



*Sankt-Peterburg – Sarskoye Selo. Rossiyadagi birinchi temiryo‘l*

Dehqon o‘ziga berilgan yerga egalik qilish uchun to‘lov to‘lashi shart edi. Biroq dehqonda to‘lov uchun pul bo‘lmaganligi sababli u davlat tomonidan beriladigan bo‘ldi. Dehqonlar bu qarzni 49 yil davomida davlatga foizi bilan to‘lab borishi shart edi.

Shu tariqa Rossiyada krepostnoylik huquqi bekor bo‘ldi. Islohot Rossiya tarixida juda muhim tarixiy ahamiyat kasb etdi. Xususan, dehqonlar shaxsiy erkinlik va fuqarolik huquqiga ega bo‘ldi.

XIX asr 60–70-yillarida o‘tkazilgan boshqa islohotlar bilan birga (yer, moliya, sud, universitet, maktab, matbuot islohotlari va boshq.) krepostnoylik huquqining bekor qilinishi mamlakatning yangi — burjuacha strategik kursini belgilab berdi. Iqtisodda kapitalistik munosabatlar jadal rivojlandi. Dunyoning yetakchi davlatlariga nisbatan kech bo‘lsa-da, boshlangan sanoat to‘ntarishi davom etdi.

**Tashqi siyosat.** XIX asrda ham Rossiya Pyotr I zamonidan boshlangan imperiya hududini kengaytirish va atrofdagi davlatlarga o‘z ta’sirini o‘tkazish siyosatini faol davom ettirdi. 1801-yili imperator Aleksandr I manifestiga binoan, Gruziya Rossiya tarkibiga qo‘shib olindi va u yerdagi hukmron **bagrationlar sulolasi** taxtdan mahrum qilindi. 1803–1804-yillari butun Gruziya hududi Rossiya imperiyasi tarkibiga qo‘shib olindi. Gruziyaning qo‘shib olinishi Rossiyaning Eron va Usmoniylar imperiyasi bilan to‘qnashuviga olib keldi. 1804-yili Rossiya bilan Eron o‘rtasida boshlangan urush natijasida 1804–1806-yillari Ozarbayjonning ham asosiy qismi Rossiyaga qo‘shib olindi. Urush 1813-yili Ozarbayjonning Rossiyaga qo‘shilgan qismining Eron tomonidan tan olinishi bilan yakunlandi. Bundan tashqari, Rossiya Kaspiy dengizida harbiy kemalarga ega bo‘lish huquqini ham qo‘lga kiritdi.

1806-yili Usmoniylar imperiyasi bilan Rossiya o‘rtasida urush boshlandi. Shu yili rus qo‘shinlari Moldaviya va Valaxiyani egalladilar. 1812-yili Buxarestda tinchlik shartnomasi imzolanib, unga binoan, Moldaviyaning sharqiy qismi Rossiyaga qo‘shib olindi.

Napoleon imperiyasi tor-mor qilingandan so‘ng Rossiyaning Yevropadagi mavqeyi oshib ketdi va u o‘z yerlarini Yevropadagi mamlakatlar hisobiga kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. 1832-yili Polsha qirolligi Rossiya imperiyasining tarkibiy qismi deb e’lon qilindi.

**Esga oling:**
Toshkentning egallanishi, Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishi, Buxoro va Xiva xonliklarining protektoratga aylanishi va Qo‘qon xonligining tugatilishi haqidagi ma’lumotlarni eslang.


**O‘zingizni sinang:**
Rus yozuvchilari, shoirlari yoki kompozitorlarining qaysi asarlari bilan tanishsiz?



A. S. Pushkin



M. Y. Lermontov



F. M. Dostoyevskiy



N. V. Gogol



Isaakiyev ibodatxonasi


XIX asrning boshlarida Kavkazortining Rossiyaga qo‘shib olinishi butun Shimoliy Kavkazni bo‘ysundirish muammosini keltirib chiqardi. Chorizmning Kavkazni bo‘ysundirish istagi Dog‘iston, Chechenistan va Adigeya xalqlarining kuchli qarshiligiga uchradi. 1817-yili boshlangan **Kavkaz urushi** 1864-yili yakunlandi va Rossiyaga juda qimmatga tushdi.

XIX asrning I yarmida Qozog‘iston Rossiyaga qo‘shib olingandan so‘ng O‘rta Osiyodagi uchta davlat — Qo‘qon va Xiva xonliklari hamda Buxoro amirligini zabt etish uchun tayyorgarlik boshlab yuborildi. 1854-yili Sirdaryo va Sibir harbiy liniyalari va Verniy qal’asi (hozirgi Olmaota shahri) barpo qilindi. Natijada O‘rta Osiyoga bostirib kirish uchun istehkom yaratilib, Qo‘qon xonligi bosib olindi, Xiva xonligi va Buxoro amirligi bo‘ysundirildi.

**Rossiya madaniyati.** Rossiya hayotida XIX asrda yuz bergan barcha o‘zgarishlar madaniyatda o‘z aksini topdi. Agar qolgan barcha sohalarda Rossiya Yevropaning ortidan borayotgan bo‘lsa, XIX asrda rus madaniyati butun dunyoga o‘z ta’sirini o‘tkaza boshladi. Bu, eng avvalo, adabiyotga tegishli, unda **A. S. Pushkin** va **M. Y. Lermontov, F. M. Dostoyevskiy** va **L. N. Tolstoy, A. P. Chexov** va **N. V. Gogol** singari daholar ijod qildi. Shu davrdagi rus kompozitorlari — **M. I. Glinka, M. P. Musorgskiy, P. I. Chaykovskiy** va **N.A. Rimskiy-Korsakov**larning asarlari jahon musiqa san’atining durdonalaridan hisoblanadi.


XVIII asrning oxiridan boshlab tarix fanida **N. M. Karamzin,** tasviriy san’atda **V. A. Tropinin** va **V. A. Venetsianov** kabilar ijodiga xos bo‘lgan sentimentalizmni klassitsizm siqib chiqara boshladi.

Bu davr rus arxitekturasi uchun klassitsizm xarakterli yo‘nalishdir. Arxitektura ko‘proq umumlashtiruvchi san’at sifatida insonning Vatan oldidagi burchini, uning muvaffaqiyatlari uchun faxr tuyg‘usini, davlatning birlamchiligi va uning qudrati g‘oyasini yaxshiroq aks ettiradi. Bu davrda **A. N. Voronixin, A. D. Zaxarov, T. de Tomon, O. I. Bove, D. I. Jilyardi, K. I. Rossi, O. Manferran** kabi arxitektorlar tomonidan bunyod etilgan Qozon ibodatxonasi, Admiralteystvo, Peterburgdagi Birja binosi, Teatr maydoni, Moskvadagi Triumfalnaya arka, rekonstruksiya qilingan Moskva


P. I. Chaykovskiy


M. I. Glinka


N.M. Karamzin


L. N. Tolstoy

universiteti binosi, Mixaylov saroyi (Rus muzeyi), Senat va Sinodning binosi, Isaakiyev ibodatxonasi va boshqalar yuqoridagi fikrning yaqqol isbotidir.

***Shunday qilib, XIX asr 60–70-yillarida Rossiya G‘arbning ilg‘or mamlakatlaridagidek bozor iqtisodi va parlament demokratiyasiga asoslangan industrial jamiyatga keng ko‘lam bilan o‘ta boshladi. Ammo boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar jarayonidagi tanaffus, hatto tarixni ortga burish uchun harakat, ijtimoiy ongda feodal-krepostnoylik qoldiqlarini saqlab qoldi va bu Rossiyani ilg‘or davlatlardan uzoqlashtiribgina qolmasdan, uning to‘laqonli industrial jamiyatga tinch evolutsion yo‘l bilan o‘tish imkoniyatlarini ham keskin kamaytirdi va rivojlanishning inqilobiy yo‘lini muqarrar qilib qo‘ydi.***


A. P. Chexov

**Atamalar mazmuni:**

**Ko‘p ukladli iqtisodiyot** – ma’lum iqtisodiy tizimda xo‘jalik yuritishning turli shakllarining mavjudligini bildiradi (masalan, bozor bilan sust bog‘langan patriarxal, yarim natural xo‘jalik; mayda tovar ishlab chiqaruvchi xo‘jalik (hunarmandlar, kosiblar); kapitalistik va boshqalar).

**Savol va topshiriqlar**

1. Matndan Rossiyaning iqtisodiy taraqqiyot jihatidan G‘arbiy Yevropa mamlakatlaridan orqada qolganligi sabablarini aniqlang.
2. Rossiya hukmron doiralari nega krepostnoylik huquqini bekor qilishga majbur bo‘ldilar va u qanday tartibda amalga oshiriladigan bo‘ldi? Rossiyada krepostnoylik qachon va qanday tugatilgan?
3. 1860–1870-yillardagi islohotlar davlat uchun qanday ahamiyatga ega edi?
4. Rossiya tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari haqida so‘zlab bering.
5. Nima uchun XIX asrning birinchi yarmi Rossiya tarixida rus madaniyatining “oltin davri” deb nomlangan?

**Internet bilan ishlashga doir topshiriq:**

1. Qo‘shimcha adabiyotlar va internet manbalaridan foydalanib o‘sha davrning mashhur rus yozuvchilari (shoirlar, rassomlar, haykaltaroshlar, me’morlar, rassomlar)dan biri haqida ma’lumot tayyorlang.
2. XIX asrda rus arxitekturasi to‘g‘risida taqdimot tayyorlang.

**Ijodiy ish topshirig‘i:**

XIX asrda Rossiya imperiyasida sodir bo‘lgan eng muhim voqealarni jadval ko‘rinishida tuzing (yillar, voqealar, shaxslar, natijalar).

# 25-MAVZU. 1800–1870-YILLARDA AQSH: FUQAROLAR URUSHI VA KEYINGI TARAQQIYOT

**Siz bilib olasiz:**
– AQSHning iqtisodiy taraqqiyotini;
– sanoat to‘ntarishini;
– AQSHda fuqarolar urushini;
– urushdan keyingi tiklanishni.

**Esga oling:** Angliyaning Shimoliy Amerikadagi mustamlakalarining mustaqillik urushi qanday natijalarga olib keldi? Mustaqillik deklaratsiyasining asosiy tamoyillari nimalardan iborat?

**Yodda tuting:** 1803-yilda Qo‘shma Shtatlar Missisipi daryosining g‘arbiy qismida joylashgan Luizianani Fransiyadan sotib oldi. Pulga muhtoj bo‘lgan Napoleon Bonapart uni 15 million dollarga sotdi. Mamlakat hududi birdaniga ikki baravarga kengaydi. Amerikaliklar ham, fransuzlar ham o‘sha davrlarda bu hududlarning asl chegaralari haqida hech qanday tasavvurga ega emas edilar.

**AQSHning iqtisodiy taraqqiyoti.** Amerika mustaqilligi uchun kurash davrida muhim ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar yuz berdi, mamlakatda kapitalistik munosabatlarning tez rivojlanishi va to‘liq g‘alaba qozonishi uchun asos yaratildi. Mamlakatda yagona ichki bozor shakllanib, uning ustidan nazorat federal hukumatga o‘tishi muhim voqea bo‘ldi. Shu yo‘nalishdagi ikkinchi muhim voqea tashqi savdo erkinligi, AQSHning mustaqil subyekt sifatida xalqaro maydonga chiqishi, G‘arbiy Yevropa, Xitoy, Rossiya va boshqa davlatlar bilan bevosita aloqalarning o‘rnatilishi bo‘ldi.


XIX asr boshlarida AQSHning eksport va import salohiyati o‘sha davrda misli ko‘rilmagan darajaga yetdi. Yevropadagi Napoleon urushlari bu yerdagi ichki va tashqi savdoni izdan chiqardi, juda katta moddiy va insoniy resurslarni barbod qildi. Ayni paytda bu urush AQSH iqtisodiyotining oyoqqa turishi va gullab-yashnashi uchun juda katta imkoniyat yaratdi.

AQSH rahbarlari Yevropadagi urush tufayli vujudga kelgan imkoniyatdan va orttirilgan katta boylikdan mamlakat hududini kengaytirishda ham juda unumli foydalandilar. Jumladan, Luiziana, Florida yerlarini, 1836-yili Meksikaning Texas provinsiyasi AQSH tarkibiga qo‘shib olindi. Bu 1846–1848-yillardagi AQSH bilan Meksika o‘rtasidagi urushga olib keldi. Urush natijasida Meksika Texasdan tashqari butun shimoliy hududlaridan ayrildi. AQSH Meksikaning qariyb yarim hududini anneksiya qildi. Keyinchalik bu hududda Arizona, Nyu Mexiko, Kaliforniya, Nevada va Yuta shtatlari tashkil qilindi. Angliyaliklar bilan uzoq davom etgan savdodan so‘ng 1846-yili AQSH Tinch okeani qirg‘oqlaridagi Origonaning katta qismini egalladi.

AQSH hududining kengayishi bilan uning aholisi ham tez o‘sib, 1850-yili 23,1 mln kishiga yetdi. Bu esa, o‘z navbatida, qishloq xo‘jaligi va sanoatning jadal rivojlani-shiga olib keldi.

***Shimoliy Kaliforniyadagi oltin vasvasasi***









**Yodda tuting:**
1867-yilda AQSH Rossiyadan Alyaskani 7,2 mln dollarga sotib oldi.

**Sanoat to‘ntarishi.** XIX asr boshlarida AQSHda, avvalo, uning shimoliy shtatlarida sanoat to‘ntarishi boshlandi. Bu jarayon AQSH uchun o‘ziga xos jihatlarga ega edi. Xususan, AQSH mustaqillikka erishgandan so‘ng uning chegarasi g‘arbga qarab doimiy kengayib bordi. XIX asr boshiga kelib, mamlakat ulkan hududga ega bo‘lib, faqat uning sharqiy qirg‘oqbo‘yi hududlarida aholi zich joylashgan edi. Shu hududlarda juda ko‘plab qazilma boyliklar bo‘lib, ular asta-sekin o‘zlashtirilib borildi. Bu jarayonda Angliyadan ko‘plab zamonaviy mashinalar keltirildi. Butun Yevropadan boy kishilar bu yerga pul tikish va o‘z biznesini yo‘lga qo‘yish uchun kela boshlashdi.


Biroq sanoat shimoliy shtatlarda rivojlandi, janubiy shtatlarda iqtisodiyotning asosini qullar mehnatidan foydalanuvchi qishloq xo‘jaligi tashkil qilar edi.

AQSH yagona ichki bozorining shakllanishida XIX asrning ikkinchi o‘n yilligida avj olgan yo‘llar qurilishi, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etdi. Baltimordan boshlangan va 1818-yili Ohayo daryosigacha yetkazilgan Kamberlend yo‘li g‘arbga boradigan asosiy yo‘lga aylandi.


*G‘arb tomonga birinchi temiryo‘l*



Jon Fitch



*Jon Fitchning bug‘ dvigatelli qayig‘i, 1787-yil*



*Robert Fultonning birinchi paroxodi (bug‘ dvigatelli kemasi), 1807-yil*



Robert Fulton

Hali 1787-yildayoq **Jon Fitch** bug‘ dvigatelli qayiq yasagan edi. Uning ishini muvaffaqiyatli davom ettirgan muhandis **Robert Fulton** 1807-yili Gudzon daryosida dunyoda birinchi **paroxodni** (bug‘ dvigatelli kemani) namoyish qildi (uning bug‘ qozoni va mexanizmlari Angliyada yasalgan edi). 1818–1820-yillari yirik daryolarda va Buyuk ko‘llarda muntazam paroxod qatnovi yo‘lga qo‘yildi, 1819-yildan esa paroxodlar Atlantika okeani orqali Yevropaga muntazam qatnaydigan bo‘ldi.


1825-yili uzunligi 580 km bo‘lgan, Buyuk ko‘llarni Gudzon daryosi orqali Nyu York porti bilan bog‘lagan Eri kanalining qurilishi yakunlandi. Boshqa shtatlarda ham bir qancha kanallar qurildi.

Ayniqsa, temiryo‘l qurilishi yagona ichki bozorning shakllanishida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Temiryo‘llar qurilishining sur’ati bo‘yicha AQSH dunyoda birinchi bo‘lib oldi. Temiryo‘llarning uzunligi 1850-yili 14 ming km ga yetdi.

40-yillari **Morzening** elektromagnit telegrafi keng tarqaldi va mamlakat bo‘ylab axborot yetkazishni tezlashtirdi. Biroq sanoatdagi kabi transport rivojlanishida ham qulchilik mavjud bo‘lgan janubiy shtatlar shimoldan ancha ortda qolayotgan edi.

**Plantatsiya xo‘jaligi, qulchilikka qarshi kurash.** Yevropada, ayniqsa, Angliyada, paxta xomashyosiga bo‘lgan talabning ortishi Janubda paxtachilikning rivojlanishiga, janubiy shtatlarning Yevropa to‘qimachilik sanoati uchun xomashyo bazasiga aylanishiga olib keldi. AQSH yalpi eksportining yarmidan ko‘prog‘ini paxta xomashyosi tashkil qilardi.

AQSH plantatorlari qullarni shafqatsiz ekspluatatsiya qilish evaziga juda katta boylik orttirayotgan edi. Paxta maydonlari borgan sari kengayib, qullar mehnatidan foydalanuvchi shtatlar soni ortib bordi.



Uilyam Garrison

*Qullar paxta plantatsiyalarida*



Janubiy shtatlardagi qulchilik tizimi bilan Shimoldagi erkin yollanma mehnatga asoslangan tizim o‘rtasida ziddiyat dastlab 1818–1820-yillarda yangi tashkil qilingan Missuri shtatini Qo‘shma Shtatlar tarkibiga qabul qilish paytida yuzaga keldi va mamlakatning bo‘linib ketishiga olib keluvchi jiddiy ziddiyatga aylandi. Gap shundaki, 1821-yili Qo‘shma Shtatlar tarkibiga 11 ta qulchilik mavjud shtat va 11 ta erkin yollanma mehnatga asoslangan shtat kirgan edi. Shimoliy shtatlar, agar Missuri qabul qilinsa, qulchilik mavjud shtatlar soni ko‘payib, ular senatda ko‘pchilikni tashkil etadi, degan xavfsirash bilan Missurida qullikni tugatish talabi bilan chiqdilar. Qullik birinchi marta milliy muammoga aylanib, butun mamlakat uni muhokama qilishga kirishdi.

Plantatsiyalarda qullarni shafqatsiz ekspluatatsiya qilish qora tanli qullarning qarshiligiga uchradi. Bu qarshilik borgan sari kuchayib bordi. Turli shtatlarda qullar qo‘zg‘olonlari bo‘lib turdi. Qullar o‘z kurashlarida yolg‘iz emasdilar. 1831-yili Bostonda **“Xaloskor”** nomli gazeta chiqa boshladi. Gazeta noshiri **Uilyam Garrison** qullikni zudlik bilan bekor qilishni talab qildi. Uning atrofida qullikni bekor qilish tarafdorlari — *abolitsionistlar* (*lotincha* “*abolitio*” — bekor qilish so‘zidan olingan) birlashdilar. 1832-yili **Yangi Angliya abolitsionistik tashkiloti** tuzildi, keyingi yili esa **“Qullikka qarshi kurashish Amerika jamiyati”** tashkil qilindi. Abolitsionistik harakatga borgan sari Amerika jamiyatining turli qatlamlari qo‘shilib bordi. Demokrat shoirlar Uolt Uitmen, Jeyms Louell, Genri Longfello qullikka qarshi qat’iy kurashga chorladi.


**AQSHda fuqarolar urushi.** Shimol bilan Janub o‘rtasidagi yangi janjal 1854-yili Kongressda Kanzas va Nebraska shtatlarini AQSH tarkibiga qabul qilish jarayonida yuz berdi. Shimol aholisi yangi shtatlarda qulchilikning joriy qilinishiga qarshi chiqdi, Janub esa buning aksi, qulchilikni yoqlab namoyishlar tashkil etdi. Kanzas va Nebraska shtatlarida ikki yil davomida o‘ziga xos kichik fuqarolar urushi davom etdi.

1857-yili AQSH Oliy sudi qora tanli kishi teng huquqli fuqaro bo‘lishi mumkin emas, degan qaror chiqargandan so‘ng Shimoliy shtatlarni qullikka qarshi namoyishlar qamrab oldi. Shu yili iqtisodiy inqiroz ham yuz berib, birinchi navbatda, Shimol sanoati va qishloq xo‘jaligiga katta zarar yetkazdi. Nyu York va boshqa katta shaharlarda namoyishlar, mitinglar va g‘alayonlar boshlanib ketdi.

Shimoldagi bu harakatlar ta’sirida 1859-yilning oxirida Janubda abolitsionistlar partizan otradi komandiri **Jon Braun** boshchiligida qo‘zg‘olon boshlandi. Yaxshi tayyorlanmagan qo‘zg‘olon osonlik bilan bostirildi. J. Braun va uning safdoshlari qatl qilindi. J. Braunning jasorati qullikka qarshi kurashning yangi bosqichini tayyorlashda mafkuraviy asos bo‘ldi.




***Jon Braun qo‘zg‘oloni***



***Jon Braun***

**Yodda tuting:**
**Avraam Linkoln (1809–1865)** – AQSHning 16-prezidenti (1861–1865), AQSHda qullikni bekor qilgan. Kambag‘al fermer oilasida o‘sgan. Yoshligidan jismoniy mehnat bilan shug‘ullangan. Oilasining moddiy ahvoli og‘ir bo‘lgani uchun u maktabda bir yilcha o‘qigan, lekin o‘qish va yozishni o‘rganib, kitobga mehr qo‘ydi. 1865-yilda Vashingtondagi teatrda janubliklar tarafdori aktyor J. V. But tomonidan otib o‘ldirilgan.



*Avraam Linkoln*



*AQSHda fuqarolar urushi*

1860-yilgi prezidentlik saylovlarida respublikachilar partiyasidan nomzod, qullikka qarshi siyosiy faoliyati bilan shuhrat qozongan **Avraam Linkoln** prezident etib saylandi va janubliklarning ko‘p yillik hukmronligiga barham berildi.

Janublik quldorlar mag‘lubiyatni tan olishni istamadilar. 1861-yil fevralda AQSH-dan ajralib chiqqan janubiy shtatlar o‘zlarining Konfederatsiyasini tashkil qildilar.

1861-yil boshida ikki qarama-qarshi tomon bir-biriga yuzma-yuz turardi. Qo‘shma Shtatlarning 31 millionli aholisining 2/3 qismi Shimolda yashardi. Mamlakatning deyarli butun sanoati shu yerda joylashgan edi. Oziq-ovqat mahsulotlarining ham ko‘p qismi shu yerda ishlab chiqarilardi. Shu sababli Shimolning g‘alabasi oldindan ma’lum edi, ammo unga erishish uchun to‘rt yil og‘ir, qonli urush kerak bo‘ldi.

Urushni janubliklar boshladi. 1861-yil aprelda ular Janubiy Karolinadagi Samter federal fortini kuch bilan egallab oldilar. Shimolliklar ham respublikani parchalab yuborayotgan isyonchilarga qarshi kurashga shijoat bilan kirishdilar. Linkolnning armiyaga 75 ming ko‘ngilli so‘rab qilgan murojaatiga 300 ming kishi harbiy xizmatga kirish istagini bildirdi.

Shu tariqa 1861-yili boshlangan fuqarolar urushi 1865-yilgacha davom etdi. Urushda Shimolning 24 ta shtatiga qarshi Janubning 11 shtati kurash olib bordi. Urush Shimolning g‘alabasi va qullikning to‘liq bekor qilinishi bilan yakunlandi. Urush jarayonida ikki mingga yaqin jang bo‘lib, ularda 1,5 millionga yaqin kishi jabrlandi, ulardan 750 ming kishi halok bo‘ldi.

**Urushdan keyingi tiklanish.** Urushdan keyin mamlakat oldida davlatning birligini ta’minlash va Janubning vayron bo‘lgan xo‘jaligini tiklash, amalda qullarni ozod qilish muammosi turardi. Hali urush davrida, 1862-yili prezident A. Linkoln AQSH hududida qullikni bekor qilish to‘g‘risida farmon imzolab, 1863-yili **“Qullarni ozod qilish to‘g‘risida proklamatsiya”ni** e’lon qilgan edi. Ammo janubiy shtatlar buni tan olmadi. Shunda 1865-yil 1-fevralda Kongress AQSH Konstitutsiyasiga 13-tuzatish kiritib, qullikni bekor qildi. Biroq qullarni amalda ozod qilish ancha murakkab jarayon bo‘ldi. Shtatlar 13-tuzatishni juda uzoq ratifikatsiya qilishdi (Missisipi rasman 2013-yili ratifikatsiya qildi). Shuningdek, shaxsiy erkinlikka erishgan qullar yashash vositalaridan mahrum edi. Ko‘plab kechagi qullar yo‘llarda tentirab yurishar, ochlikdan o‘lishar edi. Ularning birdan bir orzusi bir parcha yerga ega bo‘lish edi. Plantatsiyalardagi yer va ish qurollarini

bo‘lib olish, har bir kishiga **“40 akr yer va bitta xachir”** — qora tanlilarning talabi shunday edi. Ayrim joylarda ular plantatorlarning yerlarini egallab, o‘zaro bo‘lib olishar, ba’zan esa qurolli qo‘zg‘olon ham ko‘tarishardi. Ular siyosiy hayotda va ta’lim olish jarayonida to‘liq ishtirok etishni talab qilishayotgan edi. 1866-yil 9-iyulda Kongress konstitutsiyaga 14-tuzatish kiritishni qabul qilib, unga binoan, AQSH hududida tug‘ilgan yoki qonuniy yashab kelayotgan barcha kishilarga, jumladan, qora tanlilarga ham fuqarolik huquqi berildi.

Janub asta-sekin tiklana bordi. Bu jarayonda Shimol burjuaziyasi katta rol o‘ynadi. Ko‘plab yerlar shimollik kapitalistlar, ofitserlar, siyosatchilar tomonidan sotib olindi. Bu yerlarda yollanma mehnatga asoslangan yirik xo‘jaliklar tashkil qilindi. Sanoat, ayniqsa, mashinasozlik sanoati jadal rivojlandi. Aynan shu davrda AQSHda sanoat to‘ntarishi yakunlandi. Mamlakatni temiryo‘llar tarmog‘i o‘rab oldi, Atlantika okeanidan Tinch okeanigacha bo‘lgan transkontinental temiryo‘l qurib bitkazildi.

AQSHda 1861–1865-yillarda bo‘lib o‘tgan **Fuqarolar urushi** o‘z mohiyatiga ko‘ra, burjua-demokratik inqilob edi. U AQSHning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti masalalarini, ular ichida eng muhimlaridan biri bo‘lgan qulchilikning taqdirini burjuacha ruhda hal qildi. Natijada sanoat jadal rivojlandi, qishloq xo‘jaligida esa kapitalizm rivojlanishining erkin fermerlikka asoslangan “amerikacha” yo‘li qaror topdi.

***XIX asr AQSH asri bo‘ldi. Hali asr boshlarida davlatning bir butunligini saqlab qolish uchun o‘zaro urush olib borgan xalq, asr oxiriga kelib, dunyoning eng rivojlangan va kuchli davlatlaridan birini yaratdi. Keng demokratik erkinliklar, huquq va majburiyatlar tengligi, odamlarning tadbirkorligi va tashabbuskorligi uchun yaratilgan imkoniyatlar asr oxiriga kelib, AQSHni dunyoning eng qudratli davlatlaridan biriga aylantirdi.***

**Badiiy-tarixiy asar bilan ishlashga doir topshiriq:** *Yozuvchi Garriyet Bicher Stouning “Tom tog‘aning kulbasi” asarini o‘qing va qullarning hayoti haqida sinfda gapirib bering.*

**Atamalar izohi:**

**Plantatsiya xo‘jaligi** — qullar mehnatiga asoslangan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, asosan, katta foyda keltiradigan paxta yetishtiradigan xo‘jalik.

Qo‘shma Shtatlarda qullik rasman bekor qilindi, ammo segregatsiya — oq tanli aholini boshqa etnik guruhlar (asosan, qora tanlilar va hindular)dan ajratish joriy qilindi. U qora va oq tanlilar uchun alohida maktablar, jamoat transportida o‘tirish zonalarini chegaralash (oqlar oldinda o‘tirishi) va hokazolarda namoyon bo‘ldi.

**Fermer xo‘jaligi** – o‘ziga tegishli yoki ijaraga olingan yer uchastkasida amalga oshiriladigan tadbirkorlik turidagi xususiy qishloq xo‘jaligi korxonasi.

**Savol va topshiriqlar**

1. XIX asrning birinchi yarmida AQSH chegaralari qanday yo‘llar bilan kengaya bordi?
2. Shimoliy va janubiy shtatlarning iqtisodiy rivojlanishi bir-biridan qanday farq qilardi?
3. Dehqonchilik va plantatsiya dehqonchiligini taqqoslang. Qullikka qarshi umummilliy harakatning sabablari nimada edi?
4. Amerikaliklarning tub aholi — hindularga munosabati qanday edi?
5. XIX asrning birinchi yarmida AQSH aholisi tez o‘sishining sabablari nimada?
6. Amerikadagi fuqarolar urushining sabablari va natijalari haqida nimalarni bilib oldingiz?



# V BOB.
# 1800–1870–YILLARDA OSIYO VA AFRIKA MAMLAKATLARI



# 26-MAVZU. YAPONIYA VA KOREYA: MA'RIFATLI BOSHQARUV VA MUSTQIL TARAQQIYOT UCHUN KURASH

**Siz bilib olasiz:**
– Yaponiyaning kuch bilan "ochilishi"ni;
– Meydzi islohotlarining boshlanishini;
– iqtisodiy taraqqiyotning yangi xususiyatlarini;
– XIX asrda Koreyaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini.

**Yaponiyaning kuch bilan "ochilishi".** XVII asrda Yaponiya chet elliklar uchun yopib qo'yilgan edi. XIX asr boshlariga kelib, mamlakatni tashqi dunyodan yopib qo'yish noto'g'ri ekanligi ko'pchilikka ayon bo'lib qoldi. Ijtimoiy-iqtisodiy va harbiy jihatdan qoloq bo'lgan Yaponiya kapitalistik davlatlarning mamlakat eshiklarini kuch bilan ochish uchun urinishlariga qarshilik qila olmasdi. Yevropalik va amerikalik harbiy kemalarning yapon portlariga taklifsiz tashriflari tobora ko'paya bordi.

Va nihoyat, 1854-yili AQSH harbiy-dengiz floti Yaponiyani ochilishga majbur etdi. Shu yili AQSH bilan Yaponiya o'rtasida **"Tinchlik va do'stlik to'g'risida" shartnoma** imzolandi. Unga ko'ra, Yaponiya AQSHga ikkita portini ochdi va AQSH konsulini qabul qildi. AQSHdan so'ng Yaponiyaga Yevropa davlatlari ham kirib kela boshladilar. Ular syogunni Yaponiyani kamsituvchi, teng bo'lmagan shartnomalarni imzolashga majbur qildi. Shu tariqa Yaponiyaning siyosiy va iqtisodiy yopiqlik davri tugadi.

Shu davrda mamlakatning ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan tarqoqlik jarayonlari feodallarning bir qismi va burjuaziyaning syogunatga qarshi siyosiy ittifoqi yuzaga kelishiga ko'maklashdi. Mamlakatda qo'zg'olonlar avjiga chiqdi. 1868-yili Fusima va Toba yaqinida muxolifat kuchlar bilan bo'lgan jangda syogun mag'lubiyatga uchradi va Edoga qochdi. 1869-yilning bahorida muxolifat qo'shinlari Xokkaydo orolida to'plangan syogun tarafdorlarini tor-mor etdi. Syogunat tugadi, imperator hukmronligi tiklandi. Bu yillardagi voqealar Yaponiya tarixida "Meydzi inqilobi" nomini olgan. Bu nom shuning bilan bog'liqki, imperator **Musuxito hukmronligi** rasman "Meydzi" deb atalib, aynan "ma'rifatli boshqaruv"ni anglatardi.

**Meydzi islohotlarining boshlanishi.** Yaponiya uchun modernizatsiya davri boshlandi. Hukumat o'z oldiga milliy an'analardan voz kechmagan, mustaqillikni

**Esga oling:**
Yaponiya o'zini o'zi ajratib qo'yish siyosatini joriy qilishining sabablari va uning belgilarini yodga oling.

**Esga oling:**
Yaponiyada syogunat tizimi qancha vaqt davom etgan?




*Imperator Meydzi*



*Yaponiyaning qurol kuchi bilan ochilishi*

**Esga oling:**
XVI–XVII asrlarda Koreyaga yaponlar va manchjurlarning tajovuzi qanday natijalarga olib keldi?


Ma’muriy islohot

to‘la saqlab qolgan holatda G‘arb namunasida Yaponiyani zamonaviylashtirish vazifasini qo‘ydi. Dastlab agrar islohot o‘tkazildi. Bu islohot yerni sotish va sotib olishga, uni xususiy mulkka aylantirishga ruxsat berdi. Natijada asrlar davomida katta yer egalari uchun mehnat qilib kelgan dehqonlar chek yerga ega bo‘ldilar. To‘g‘ri, yer uchun katta soliq ham belgilab qo‘yildi. Bu soliq qiymati hosildan olinadigan daromad hajmining 50 foiziga teng edi. Shuning uchun ham islohotdan 10 yil o‘tgach, yer olgan dehqonlarning atigi 1/3 qismi o‘zlariga berilgan yerni qo‘llarida saqlab qola oldilar. Qolganlari esa ijarachilarga aylandilar. Shunday bo‘lishiga qaramay, islohot qishloq xo‘jaligida kapitalistik munosabatlarning rivojlanishini ta’minladi. Ma’muriy sohada o‘tkazilgan islohot mahalliy knyazlar hokimiyatini tugatdi. Knyazlar qudratini sindirish uchun dastlab yerlarining bir qismi musodara qilindi. So‘ng ular boshqaruv huquqidan ham mahrum etildi. Joylarda hokimiyat imperator tayinlaydigan gubernatorlar qo‘liga o‘tdi.

Harbiy islohotga ko‘ra, Yaponiyada umumiy harbiy majburiyat joriy etildi. Samuraylar avvalgi mavqeyini yo‘qotdi. Endi ular doimiy harbiy xizmat qilish imtiyozidan mahrum bo‘ldilar. Yevropacha nusxadagi yangi qo‘shinning shakllantirilishi belgilandi.

Fransiyadan harbiy mutaxassislar taklif etildi. Qo‘shin Yevropadan sotib olingan zamonaviy qurollar bilan qayta qurollantirildi. Garchand qo‘shin yevropacha andoza asosida tuzilgan bo‘lsa-da, uning mafkurasi yaponcha bo‘lib qolaverdi.

Chunonchi, qurolli kuchlarda xizmat qiluvchilar ongiga o‘z davlatining man-

**Bu qiziq:**
Endi sobiq samuraylar davlat xizmatchilariga aylanishdi. Ular busido an’analarida tarbiyalangan bo‘lib, mutlaqo pora olishmas va barcha topshiriqlarni so‘zsiz bajarishar edi. Busido (*yap. “busi-do” – “jangchining yo‘li”*) – bu samuraylar kodeksi, jamiyatda, jangda va yolg‘izlikda haqiqiy jangchi uchun qoidalar, tavsiyalar va xatti-harakatlar me’yorlari to‘plami.


Harbiy islohot


faatlariga sodiqlik, imperatorga muhabbat va o‘limni nazar-pisand qilmaslik g‘oyalari izchillik bilan singdirildi. Bu xususiyatlar “yaponcha milliy ruh”ning qirralari, belgilari deb hisoblandi.

Bundan tashqari, yaponlar ongiga Yaponiyaning quyosh xudosi Amaterasu xohishiga ko‘ra paydo bo‘lganligi, shuning uchun ham bu davlat Osmon va Yer kabi abadiy mavjudligi, imperatorga xudo Amaterasudek mehribonlik xos ekanligi, uning hech qachon nohaq bo‘lishi mumkin emasligi singdirilgan.

Imperatorga sodiqlik vatanparvarlikning oliy namunasi ekanligi, yaponlarning boshqalardan ustunligi, millatning ulug‘ vazifasi kabi g‘oyalar ham undanda kam bo‘lmagan sabr-bardosh bilan singdirila borildi.

Ayni paytda G‘arb davlatlari siquviga qarshi turmoq uchun barcha Osiyo davlatlari Yaponiya imperatori hokimiyati ostiga birlashishi lozimligi haqidagi g‘oyalar ham esdan chiqarilmadi.


**Iqtisodiy taraqqiyotning yangi xususiyatlari.** Meydzi islohotlari mamlakatda feodal tarqoqlikka chek qo‘ydi. Natijada yagona yapon ichki bozori vujudga keldi. Mamlakatda yagona pul birligi – **iyena** joriy etildi. Hukumat ishlab chiqarishni sanoatlashtirish masalasiga Yaponiyani uning ichki ishlariga chet davlatlar aralashuvi xavfidan himoya qiluvchi asosiy omil deb qaradi. Shuning uchun ham davlat sanoat korxonalari qurilishlariga homiylik qildi. Asosiy sanoat korxonalari davlat mablag‘i hisobiga qurildi, keyinchalik ular imtiyozli asoslarda turli firmalarga sotildi yoki ijaraga berildi. Davlat tadbirkorlikni har tomonlama rag‘batlantirdi va qo‘llab-



*XIX asr boshlarida Koreya*

quvvatladi. Meydzi islohotlari tarixga “Meydzi inqilobi” nomi bilan kirgan.

**XIX asr boshlarida Koreya.** Bu davrda hokimiyatdan siqib chiqarilgan asilzodalar hukmron guruhga qarshi jangga hozirlanar edi. Li hukmron sulolasiga qarshi boy zamindor **Xon Gyon Ne** boshchiligidagi eng yirik qurolli qo‘zg‘olon bo‘lib o‘tdi. Ular dastlab erishgan bir qator muvaffaqiyatlarga qaramasdan, oxir-oqibatda mag‘lubiyatga uchrab, shafqatsiz jazolandilar, asirga olingan Xon Gyon Ne qatl etildi. Isyonning bostirilishi mamlakatda noroziliklarni to‘xtata olmadi. 1813-yili **Chjechjyu orolida** dehqonlar va baliqchilarning qo‘zg‘oloni bo‘lib o‘tdi. Keyin kelgan qurg‘oqchilik yillarida ochlik va kasalliklardan ko‘plab odamlar qirilib ketdi. Shaharlarda ochlarning bir qator isyonlari ro‘y berdi.




*Fransuzlarning Koreyaga kirib kelishi*

**Esga oling:** Qirol operator (1724–1776) davrida mamlakatni rivojlantirish maqsadida qanday islohotlar o‘tkazilgan edi?

**XIX asrning 30–60-yillarida Koreya.** XIX asrdan koreys jamiyatining barcha tizimlaridagi inqiroz yanada keskinlashdi. Ichki siyosiy ziddiyatlar tufayli zaiflashgan li sulolasi tanazzulga yuz tutdi. Ana shunday paytda mamlakatga Koreyani chet davlat uchun ochish va uni mustamlakaga aylantirishga intilayotgan kapitalistik davlatlar xavf solayotgan edi. Bu xavf dastlab yevropalik xristian missionerlarining faolligi oshganligi bilan ifodalandi.

1831-yili Rim papasi Koreya yepiskopligi tuzilganligini e’lon qildi. 1832-yili Koreya qirg‘oqlari yaqinida paydo bo‘lgan kema Buyuk Britaniya nomidan savdo munosabatlari o‘rnatishni taklif qildi, lekin rad javobini oldi. Bu orada xristian cherkovi missionerlari vakillari Koreyaga yashirin kirib kelib, o‘z faoliyatlarini olib borayotgan edilar. Ular, asosan, fransuz missionerlari edi. Bu missionerlarning xristian dinini qabul qilgan koreyslar bilan birga qatl etilishi Koreyaga Fransiyaning harbiy kemalari yuborilishi uchun bahona bo‘ldi. Fransuzlar o‘z missionerla-rining o‘limi uchun tovon sifatida Koreya portlarining ochilishini talab qildilar. Biroq tashrif muvaffaqiyatsiz bo‘ldi, ikkita kema Koreya qirg‘oqlari yaqinida sayozlikka o‘tirib qoldi.

**Yodda tuting:** Koreyaga Rossiya, G‘arb davlatlari, Xitoy kabi bir nechta davlatlar o‘z ta’sirini o‘tkazish uchun kurashdilar. Ammo Yaponiya g‘olib chiqdi.



*Suv tashuvchilar. Koreya. XIX asr*



*Guruch oshlovchilar*

Xitoyning chet davlatlar uchun zo‘ravonlik bilan “ochilishi” va manchjurlarning G‘arbning qudratli davlatlariga taslim bo‘lishi Koreyaning hukmron doiralariga juda katta ta’sir ko‘rsatdi. Seullik hukmdorlar mamlakatni tashqi dunyodan yana ham qattiqroq va yana ham to‘laroq ajratib qo‘yish yo‘liga o‘tdilar.

XIX asrning o‘rtalarida Koreyadagi ichki vaziyat xalq g‘azabining oshib borishi bilan xarakterlanadi. Missionerlardan biri o‘z yashirin xabarida: “Kichik bir uchqun shunday yong‘in keltirib chiqarishi mumkinki, uning oqibatlarini, hatto taxmin qilib ham bo‘lmaydi”, deya yozgandi. Ocharchilik ahvolni yanada og‘irlashtirib yubordi. Dehqonlarning ko‘plab qo‘zg‘olonlari ko‘tarildi, biroq ularning hammasi hukumat tomonidan shafqatsizlik bilan bostirildi.

Bu orada kapitalistik davlatlarning Koreyaga bosimi ham kuchaydi. Ayniqsa, amerikaliklar bir necha bor Koreya portlarini o‘zlari uchun “ochishga” va teng bo‘lmagan shartnomalar tuzishga urinib ko‘rdilar. Lekin ularning barcha urinishlari koreyslarning qattiq qarshiligiga uchradi va amalga oshmadi.

XIX asrda hokimiyatni hokim **Li Xa In** egalladi. Uning hukmronlik qilish davri **“tevongun”,** ya’ni “**hokim” prezentatsiya** nomi bilan mashhur. Tevongun eng muhim davlat lavozim-lariga o‘z odamlarini qo‘yib olgan **noron** (oqsoqollar) asilzodalar partiyasining zo‘ravonligiga chek qo‘ydi. U, hatto dvoryan bo‘lmagan qatlamlar: savdogarlar, o‘ziga to‘q mayda yer egalarining ayrim vakillariga ham davlat xizmatiga kirish imkoniyatini yaratdi. Koreyaning ilgari hal qiluvchi ta’sirga ega bo‘lgan qudratli asilzodalarini bir qadar zaiflashtirdi. Oddiy kishilar to‘laydigan harbiy soliq barcha qatlamlar uchun majburiy uy boshi solig‘i bilan almashtirildi. Asilzodalar va oddiy xalqni “tenglashtirish” maqsadida xalq uchun qora rangdagi oyoq kiyimni kiyib yurishni taqiqladi. Yangi podsholikning obro‘sini oshirish uchun tevongun XVI asr-da yaponlar bosqini paytida yonib ketgan **Kyonbokkun saroyini** tikladi.

Biroq Koreya hukmron tabaqalarining zamon talablariga mos iqtisodiy islohotlarni o‘tkazmaganligi, mamlakatni tashqi dunyodan ajratib qo‘yganligi Koreya iqtisodiyotining nochor ahvolda qolaverishiga sabab bo‘ldi. Bu esa, oxir-oqibat, Koreyaning Yaponiya mustamlakasiga aylanib qolishiga olib keldi.

**Internet bilan ishlashga doir topshiriq:**

Kino foto fono materiallar bilan ishlash: “So‘nggi samuray” filmini tomosha qiling va u haqda do‘stlaringizga so‘zlab bering.

**Atamalar mazmuni:**
***Missionerlik*** – biror dinga e'tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ'ib qilish.

**Xarita bilan ishlashga doir topshiriq:**
XVIII–XIX asr boshlarida Xitoy Manchjuriya, Mo'g'uliston, Tibet, Jung'oriya va boshqa hududlarni o'z ichiga olgan ulkan imperiya edi. Koreya, Annam (hozirgi Vyetnam) va Birma Chin sulolasining vassallari bo'lgan. Xaritadan ushbu davlatlar va hududlarni toping.



*Kyonbokkun saroyi. Koreya. XIX asr*

***XIX asr, ayniqsa, uning ikkinchi yarmi Yaponiyada kapitalizmning shiddatli rivojlanish davri bo'ldi. U Meydzi inqilobidan so'ng an'anaviy sivilizatsiya mamlakatlari ichida birinchi bo'lib industrial taraqqiyot yo'liga kirdi, kapitalistik taraqqiyot uchun sharoit yaratildi, konstitutsiya qabul qildi, siyosiy partiyalar paydo bo'la boshladi, huquqiy davlatning belgilari shakllandi.***

***Yaponiyaning mustamlakasiga aylangan Koreyada ham bu davrda iqtisodiy o'sishning yuqori darajasi ta'minlandi, hozirgi zamon koreys madaniyati shakllandi, zamonaviy sanoatning asoslari yaratildi, o'rtacha umr darajasi ikki marta oshdi, zamonaviy boshlang'ich ta'lim keng joriy qilindi. Ayni paytda mustamlaka hokimiyati tomonidan koreyslarni kamsitishga qaratilgan avtoritar siyosat olib borilishi milliy-ozodlik harakatiga sabab bo'ldi.***

**Savol va topshiriqlar**

1. Nima uchun G'arb davlatlari Yaponiyani kuch bilan ochmoqchi bo'lganligining sabablarini tushuntiring.
2. O'ylab ko'ring, nima uchun boshqa Sharq davlatlaridan farqli ravishda Yaponiyada modernizatsiya jarayoni muvaffaqiyatli o'tdi?
3. Meydzi islohotlarining Yaponiya taraqqiyotidagi o'rniga baho bering.
4. Koreya hukumati xristianlik dinining tarqalishiga qattiq qarshilik ko'rsatishining sabablarini tushuntirib bering.
5. Koreya va Yaponiyaning bu davrdagi rivojlanishini taqqoslang va Koreya orqada qolishining sabablarini ko'rsating.

**Ijodiy ish topshirig'i:** Yaponiyada Meydzi inqilobidan so'ng madaniy sohada, kundalik hayotda juda katta va qiziqarli o'zgarishlar ro'y bergan. Ingliz va rus tillaridagi qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanib yapon jamiyatidagi bu o'zgarishlar haqida taqdimotga asoslangan hikoya tuzing.

# 27-MAVZU. XITOY QO‘ZG‘OLON VA URUSHLAR DAVRIDA


**Siz bilib olasiz:**
– Chin imperiyasining zaiflashuvini;
– Birinchi afyun urushini;
– Taypinlar qo‘zg‘olonini;
– XIX asr Xitoy madaniyatini.

**Chin imperiyasining zaiflashuvi.** XIX asrning boshlariga kelib, Xitoyda Chin (Sin) imperiyasi inqirozining belgilari tobora aniqroq namoyon bo‘la boshladi. Bu ichki siyosatda ham, iqtisodda ham ko‘zga tashlandi. Amaldorlarning katta qismi poraxo‘rlik botqog‘iga botib, markaziy hokimiyatning obro‘si pasayib ketdi. Alohida viloyatlarga ajratilgan armiya jangovarlik mahoratida va qurollanishda Yevropa armiyalariga teng kela olmasdi.

Chinlar siyosatidan norozilik bir qator xalq harakatlarini keltirib chiqardi. Harakatlarning barchasi qo‘shinlar tomonidan bostirildi.

Iqtisodni ham chuqur inqiroz qamrab oldi. Mamlakatda dehqonlarni yerdan mahrum qilish jarayoni davom etdi, ulardan ko‘pchiligining yer-mulki sudxo‘rlar va savdogarlar qo‘liga o‘tib ketdi. Yer maydonlarining anchagina qismini o‘z qo‘llarida jamlagan ijarachilarning ham ahvoli yaxshi emasdi. Turli xil soliqlar tufayli ularning, hatto kun kechirishlari uchun ham mablag‘ yetishmasdi. Shuningdek, shaharlarda ham aholining ko‘pgina toifalari qiyin iqtisodiy ahvolda edi. Hatto xususiy korxonalarning egalari ham o‘zlarini xotirjam his qila olishmasdi, chunki ular ham yirik savdo birlashmalariga bog‘liq edilar.

***Xitoyliklar sochini manchjurliklar kokiliga o‘xshatib o‘rishmoqda. Manchjurlar o‘lim bilan tahdid qilish orqali xitoylik erkaklarni Chin hokimiyatiga bo‘ysunish ramzi sifatida shu haqoratomuz jarayondan o‘tishga majbur qilishar edi.***



Yevropaliklarning Xitoyga kirib kelishi natijasida mamlakatda ular ta’sirining ortib borishi chin sulolasi hukumatini xavotirga solib qo‘ydi. Chet elliklarning mamlakatga ko‘plab kirib kelishining oldini olish maqsadida imperator 1857-yilda Xitoy portlarini tashqi savdo uchun yopiq deb e’lon qildi. Bu siyosat keyinchalik **“yopiq eshiklar”** siyosati degan nom oldi. Shu tariqa Xitoyni tashqi dunyodan ajratib qo‘yish siyosati boshlandi. Tashqi savdo imperator amaldorlari nazorati ostida faqat Guanchjou porti orqaligina olib boriladigan bo‘ldi. Xitoyning “yopiq eshiklar”, ya’ni o‘zini o‘zi yakkalab qo‘yish siyosati feodal tartiblarning saqlanishiga xizmat qildi. Uning iqtisodiy, ijti-moiy va madaniy rivojlanishiga katta zarar yetkazdi. Imperator ma’murlari fan va texnika sohasida boshqa xalqlarning yutuqlarini rad etdilar. Mamlakat qoloqlik bot-qog‘iga botib qoldi.


Ayni paytda Xitoyning “yopiq eshiklar” siyosati ko‘pgina Yevropa mamlakatlarini qoniqtirmas edi. Ular bu davrga kelib, qizg‘in iqtisodiy o‘sish bosqichiga kirgan bo‘lib, o‘z mahsulotlarini sotish uchun yangi bozorlarga, arzon xomashyo manbalariga va ishchi kuchiga muhtoj edilar.

Ayniqsa, Xitoyni ikkinchi Hindistonga aylantirishni istayotgan inglizlarning “Ost Indiya” kompaniyasi alohida faollik ko‘rsatdi. Bu kompaniya 1834-yilgacha Xitoy bilan savdoda monopol huquqdan foydalanardi. Uzoq yillar Angliya portugallardan Makao (Aomin) orolini tortib olishga urindi, lekin bu harakatlarni Xitoy hukumati ma’qullamadi, ular norozilik belgisi sifatida birmuncha vaqt inglizlar bilan savdo munosabatlarini to‘xtatib ham qo‘ydi. Keyin ikkita ingliz missiyasi Xitoyni “ochish” maqsadida bu yerga tashrif buyurdi. Inglizlarning eng katta yutuqlari Xitoyga qo‘shni Hindistondan qoradori kiritishni ko‘paytirgani bo‘ldi. Xitoy bozorida qoradori savdosi bilan shug‘ullanganlar misli ko‘rilmagan daromad olardi. Shu davrda qoradori Xitoyga kiritilayotgan barcha ingliz tovarlari narxining yarmidan ko‘prog‘ini tashkil etardi.

Xitoy dastlab hukmron doiralarda qoradori savdosini taqiqlashga urinib ko‘rdi, ammo bu amalga oshmagach, uni ochiq amalga oshirish haqidagi masala muhokama qilindi.



*Xitoy, XIX asr*




*Afyun urushi*

**Yodda tuting:**
XIX asr o‘rtalarida Xitoyda 400 mln ga yaqin aholi yashar va bu Yer shari aholisining salkam 1/3 qismini tashkil qilardi.

**Atamalar mazmuni:**
**“Afyun”** so‘zi aslida yunoncha *“abi-jun” – “mudra-tuvchi”*, uxlatuvchi so‘zidan kelib chiqqan, arabchada afyun deyiladi. O‘zbek tilida ko‘proq “qoradori” deb yuritiladi.

**Birinchi afyun urushi** (1839–1842) Xitoyga afyun kiritilishiga to‘sqinlik qilish maqsadida chinlar 1839-yili **Kanton** (hozirgi Guandun provinsiyasi, markazi – Guanchjou shahri) hokimi etib, faqat ma’mur sifatidagina emas, xitoy asilzodalari ilg‘or fikrlovchi qismining vakili sifatida ham buyuk rol o‘ynagan, vatanparvarlik kayfiyatidagi amaldor **Lin Szesyuyni** tayinladi.

Lin Szesyuy Guandundagi faoliyatini ikki asosiy yo‘nalishda olib bordi – mamlakat ichkarisida qoradori tayyorlovchilar, yetkazib beruvchilar va sotuvchilarga qarshi kurashdi hamda uning chet ellardan kelishini to‘xtatish uchun harakat qildi. U inglizlar olib kelayotgan qoradorilarni portda “hibs”ga oldi. Bunga javoban, ingliz harbiy kemalari Xitoy qirg‘oqlarini to‘pdan o‘qqa tutdi. O‘z navbatida, Lin Szesyuy ham ingliz kemalarining Guanchjouga kelishini taqiqladi.



***Bu qiziq:***

Xitoy harbiy qo‘mondonligi kuchsiz va nochor edi. Xitoy gubernatorlaridan biri afyun urushi paytida paroxodlarning g‘ildiraklarini buqalar emas, mashinalar aylantirishini o‘zi uchun “kashf” etadi.


Bunga javoban, Britaniya hukumati afyun va ingliz tovarlarini olib kirishni qonunlashtirish uchun 1840-yili Xitoyga qarshi urush boshladi. Urush tarixga “Birinchi afyun urushi” nomi bilan kirgan. Bu urush 1842-yilgacha davom etdi. Urushda Xitoy iqtisodiy va harbiy texnika jihatdan qoloqligi tufayli mag‘lubiyatga uchradi. Urush yakunida Buyuk Britaniya Gonkong orolini bosib oldi va Xitoyni chet el savdogarlari uchun bir nechta portlarni ochib qo‘yish haqidagi shartnomani imzolashga majbur etdi. Lekin Xitoy afyun olib kirilishining qonuniy ekanligini tan olmadi.

**Taypinlar qo‘zg‘oloni (1850–1864).** Birinchi afyun urushida Xitoyning mag‘lubiyatga uchraganligi aholining keng qatlamlarida norozilik uyg‘otdi. Dehqonlarning og‘ir ahvoli asta-sekin hukmron tuzumga qarshi yangi urushga zamin tayyorlardi. XIX asrning 40-yillarida butun Xitoy bo‘ylab yuzta dehqonlar qo‘zg‘oloni alanga oldi. 1850-yilning iyunida taypinlar chinlar hukmronligiga qarshi kurashish va Xitoyda “an’anaviy jamiyat” o‘rnatish uchun yetarli kuchga aylangan edi.

Taypinlarga guandunlik qishloq o‘qituvchisi **Xun Syusyuan** boshchilik qildi. U dehqonlar orasidan chiqqan bo‘lib, xalq hayotini yaxshi bilardi. Xun Syusyuan xristian dini bilan tanishgandan so‘ng xudo unga Xitoyni iblisdan, Chin imperatorlarini nazarda tutib, xalos qilish va adolat podsholigini – “Buyuk huzur-halovat samo davlati”ni (xitoychasiga – “Taypin tyango”, shu sababli harakat qatnashchilarini “taypinlar” deb atadilar) o‘rnatishni topshirganligini e’lon qildi.

Xun Syusyuan fikricha, bunday davlatlarda dehqonlar jamoa bo‘lib yashashlari, jamoada “hech bir narsada tengsizlik bo‘lmasligi, hammaning to‘q va kiyimi

**Yodda tuting:**
Taypinlar davlatida yerga bo‘lgan xususiy mulkchilik tugatildi, bo‘linma komandirlarini xalq saylardi, ayol va erkaklarga teng huquq berildi, qizlarning oyog‘ini bog‘lash qadimiy odati bekor qilindi, afyun, tamaki chekish, spirtli ichimliklar ichish, qimor o‘yinlari taqiqlandi. Taypinlarni yana “uzun sochlilar” deb atashgan, chunki fuqarolar Chin davlatida manchjurlar o‘rnatgan sochini qirib yurish tartibini tan olishmagan.



*Taypinlar qo‘zg‘oloni*



*Taypinlar mag‘lubiyati*

but bo‘lishi uchun yerga ega bo‘lgan holda unga birgalikda ishlov berish, oziq-ovqat bo‘lganida birgalikda tanovul qilish, kiyim-kechak bo‘lganida ularni baravar taqsimlash, pul bo‘lganida uni birgalikda sarflash lozim” edi. Aholi turmushi harbiy tartib asosida qurildi. Har bir oilaning qo‘shinga bitta askar yetkazib berishi belgilab qo‘yildi. Harbiy qism boshlig‘i ayni paytda qism joylashgan hududda davlat hokimiyatini amalga oshirardi. Barcha erkaklar bitta mehnat lageriga, ayollar va bolalar boshqa yerga joylashtirildi.

**Taypinlarning mag‘lubiyati.** Qo‘zg‘olon rahbarlarining orzu-umidlari puch xayol edi, xolos. Ularning yerni oilaga, oila a’zolari soniga qarab teng bo‘lib berish haqidagi rejalari qo‘zg‘olonda ishtirok etayotgan mulkdor tabaqalarni qo‘zg‘olondan uzoqlashtirdi. Bu hol taypinlar rahbarlari orasida nizo kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Yer ololmagan dehqonlar esa umidsizlikka tusha boshladilar. Bu esa chin davlati ma’murlariga taypinlarni tor-mor qilishda yordam berdi. Hukumat kuch to‘plab hujumga o‘tdi. Unga Buyuk Britaniya, Fransiya va Amerika Qo‘shma Shtatlari yordam ko‘rsatdi. Buyuk davlatlar Xitoyda inqirozga yuz tutgan chin sulolasi hukmronligining saqlanib qolishidan manfaatdor edilar.

1864-yili hukumat qo‘shini qo‘zg‘olon rahbarlari joylashgan Nankin shahrini ishg‘ol qildi. Xun Syusyuan o‘z joniga qasd qildi. Taypinlar qo‘zg‘oloni bostirilganidan keyin chet el mustamlakachilari chin sulolasini qo‘llab-quvvatlashni davom ettirdi va uning yangi-yangi yon berishlariga erishdi.


*Xun Syusyuan*

**Madaniyat.** XIX asrda Xitoy madaniyatining yuksalishi mamlakatning Yevropa davlatlari yarimmustamlakasiga aylanishi va xalq qo‘zg‘olonlarining kuchayishi sharoitida yuz berdi. Bu jarayonlar Xitoyda an’anaviy jamiyat asoslariga qattiq zarba berib, kapitalistik munosabatlarning keyingi rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Yarimmustamlaka tizim va hukmron qatlamning eski tartiblarni saqlab qolishga urinishi ham XIX asr Xitoy madaniyatida yorqin aks etdi.



*Taypinlar bayrog‘idagi ajdar tasviri*

Eski an’analarning saqlanib qolinishi va G‘arb madaniyatining ta’siri natijasida bu davrdagi Xitoy madaniyati eski va yangi g‘oyalarning kurashidan iborat rivojlanishning o‘ziga xos bosqichiga qadam qo‘ydi.

Bu davrda Xitoyda tasviriy san’at, kalligrafiya (xattotlik), musiqa, teatr va san’atning boshqa sohalari rivojlandi. XIX asr Xitoy madaniyatining yorqin namoyandalaridan biri rassom **Un Szishan** bo‘lib, uning asarlari xitoy xalq an’analarini o‘zida yorqin aks ettirganligi bilan hozirgacha o‘z qiymatini yo‘qotmagan.

XIX asrda Xitoyda an’anaviy teatr san’ati bilan bir qatorda, yangi teatr janrlari, opera teatri va soyalar teatri kabi yangi yo‘nalishlar ham paydo bo‘ldi.

Umuman, bu davr Xitoy madaniyati dunyo sivilizatsiyasidan chuqur iz qoldirdi va butun dunyo bo‘ylab yozuvchilar, rassomlar va musiqachilarni ilhomlantirishda davom etdi.

***XIX asrning boshlarida hali buyuk davlat sanalgan Xitoy asr o‘rtalariga kelib, G‘arb davlatlari, so‘ngra esa AQSH, Rossiya va Yaponiyaning ham mustamlakachilik manfaatlari kesishgan eng dolzarb hududga aylandi. Xitoyning iqtisodiy va harbiy qoloqligi uning o‘z-o‘zicha saqlanib qolayotgan buyuk davlat maqomiga qaramasdan, uni G‘arb davlatlarining yarimmustamlakasiga aylantirdi.***

**Savol va topshiriqlar**

1. Yevropaliklar Xitoyni “ochishga” bo‘lgan harakatining sabablarini tushuntiring.
2. Xitoy qay tarzda buyuk davlatlar asoratiga tushib qoldi?
3. “Yopiq eshiklar” siyosatidan ko‘zlangan maqsad nima edi va u qanday oqibatlarga olib keldi?
4. Xitoyni chet el kapitali uchun ochishda afyun urushlari qanday rol o‘ynadi?
5. Taypinlar qo‘zg‘oloni va uning mag‘lubiyati sabablari haqida nimalarni bilib oldingiz?

**Ijodiy ish topshirig‘i:** 1700 yil avval Xitoyda paydo bo‘lgan soyalar teatri to‘g‘risida taqdimot tayyorlang va uning butun dunyo bo‘ylab tarqalishi haqida gapirib bering.

# 28-MAVZU. HINDISTONNING BUYUK BRITANIYA MUSTAMLAKASIGA AYLANISHI

**Siz bilib olasiz:**
– Buyuk Britaniya mustamlakachilik tartibini;
– Sipohiylar qo‘zg‘oloni va uning bostirilishini;
– zamonaviy ziyolilar qatlamini shakllantirish uchun harakatni.

**Buyuk Britaniya mustamlakachilik tartibi.** Inglizlar Hindistonni nisbatan yengil, katta yo‘qotishlarsiz va hindlarning o‘z qo‘llari bilan zabt etdi. Mahalliy sipohiylardan tashkil topgan ingliz qo‘shinlari hind knyazliklarini birin-ketin bosib oldi. Hindistonda o‘z mustaqilligini yo‘qotgan so‘nggi knyazlik Panjob bo‘lib, u 1849-yili “Ost Indiya” kompaniyasi hududiga qo‘shib olindi. Shu tariqa juda katta hududga ega bo‘lgan Hindistonni to‘liq o‘z nazoratiga olish uchun inglizlarga qariyb yuz yil kerak bo‘ldi. **Hindiston o‘z tarixida birinchi marta mustaqil davlatchiligidan mahrum qilindi.**

Albatta, Hindiston ilgari ham bosqinchilar tomonidan zabt etilgandi. Ammo mamlakat hududida joylashib olgan begona bosqinchilar hindlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarziga moslashishga intilganlar. Xuddi Angliyadagi normannlar yoki Xitoydagi manchjurlar singari bosqinchilar har doim hind davlatchiligining ajralmas qismiga aylangan edi.

Yangi bosqinchilar mutlaqo boshqacha yo‘l tutdi. Inglizlar bilan hindlarning urf-odat va an’analari, hayot tarzi va qadriyatlar tizimida katta farq mavjud edi. Inglizlar mahalliy aholiga nafrat bilan qarardi, ulardan o‘zlarini uzoq tutib, alohida “yuksak” dunyosida yashardi. Hatto Hindistonga kelgan ingliz ishchilari va fermerlari ham bu yerda o‘zlarini hukmron qatlamga mansubdek his qilardi. Dastlab inglizlar bilan hindlar o‘rtasida o‘zaro nafratdan boshqa hech qanday umumiylik yo‘q edi. Inglizlar o‘zgacha – kapitalistik tipdagi sivilizatsiyaga mansub bo‘lib, u o‘zga xalqlarni ekspluatatsiya qilish evaziga gullab-yashnardi.

Angliya hukumati tashkil qilgan **“Hindiston ishlari bo‘yicha nazorat kengashi”** Buyuk Britaniyaning Hindistondagi mustamlakachilik siyosatining yo‘nalishlarini belgilab borardi. Buyuk Britaniya parlamenti Hindistonni boshqarish to‘g‘risida qonun qabul qildi. Unga ko‘ra, “Ost Indiya” kompaniyasining Kalkutta shahridagi gubernatori Buyuk Britaniyaning Hindistondagi barcha mustamlakalari general-gubernatori etib tayinlandi. Shu tariqa kompaniya amalda Hindistonni boshqaruvchi mustamlakachi ma’muriyat apparatiga aylantirildi.



*“Ost Indiya” kompaniyasi*

**Yodda tuting:**
Qadimgi dunyo va O‘rta asrlarda Hindiston hududini kimlar zabt etganligini eslang va jadval tuzib, xronologik tartibda daftaringizga yozing.

**Yodda tuting:**
XIX asrning birinchi yarmida ingliz kapitalizmi Hindistonni ingliz tovarlari bozoriga va xomashyosi manbaiga aylantirdi. Qishloq xo‘jaligida paxta, choy, qahva, kauchuk, shakarqamish plantatsiyalari ko‘paydi. Hindistondan Angliyaga bug‘doy, sholi, choy va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetkazilgan, Angliyadan Hindistonga arzon yarimtayyor mahsulotlar olib kelingan.




*Sipohiy askarlar*

Ammo inglizlar Hindiston hududining bir qismini bevosita o‘z ma’muriyati orqali boshqarib, qolgan qismini feodal knyazlar qo‘lida qoldirdi. Bu mustaqil knyazliklar taxminan 600 ta edi. Bunday knyazlar mustamlaka ma’murlarining qat’iy nazorati ostida bo‘lib, inglizlar uchun Hindistonni shunday boshqarish oson bo‘lgan.

**Mustamlaka zulmi.** Hindiston Britaniya tojining eng katta gavhari hisoblangan. Hindistonni zabt etish jarayonida mamlakatning ulkan boyliklari va hind roja (knyaz)-larining xazinalari Angliyaga tashib ketildi. Bu esa Angliyadagi sanoat inqilobi uchun ulkan ko‘mak bo‘ldi.

Hindistonni to‘g‘ridan to‘g‘ri talash ekspluatatsiyaning qonuniy shakliga aylandi. Mamlakatni talashning asosiy quroli soliq bo‘lib, juda ulkan miqdordagi soliqlar “Ost Indiya” kompaniyasining xazinasiga tushardi. Ilgari ko‘plab eksport qilingan hind tovarlari uchun endi Yevropa bozorlari yopildi. Ayni paytda ingliz tovarlari hech qanday to‘siqsiz Hindistonga olib kirildi. Oqibatda Hindistonning to‘qimachilik sanoati inqirozga uchradi. Hunarmandlar orasida ishsizlik dahshatli tus oldi. Ishsiz qolgan minglab odamlar ochlikdan o‘lardi.



*Sipohiylar qo‘zg‘oloni*

Shu tariqa Hindiston Angliyaning iqtisodiy talonchilik manbaiga aylandi. Buyuk Britaniyaning farovonligi va boyligi ko‘p jihatdan hind xalqini talash hisobiga yuz berdi.

**Sipohiylar qo‘zg‘oloni.** Hindiston ustidan Britaniya hukmronligining o‘rnatilishi oqibatida xalq ommasining ahvoli keskin yomonlashdi, norozilik esa kuchaydi. Sog‘lom fikrlovchi inglizlar ham buning xavfini tushunardi. Ulardan biri: “Chet ellik bosqinchilar hindlarga nisbatan zo‘ravonlik va hatto qattiq shafqatsizlik ham qilgan, ammo hali hech kim ularga bizchalik nafrat bilan munosabatda bo‘lmagan”, – deb yozgan edi.

XIX asrning 50-yillarida mamlakatda inglizlar zulmidan norozilik keskin kuchaydi. Inglizlar hindlar va musulmonlarni zo‘rlik bilan xristian diniga o‘tkazishi haqida mamlakat bo‘ylab tarqalgan xabar norozilikni yanada kuchaytirdi. Inglizlarga nisbatan dushmanlik hissi faqat kambag‘al qatlamni emas, balki mustamlaka ma’muriyati tomonidan huquqlari cheklangan feodal zodagonlar, kichik yer egalari va qishloq oqsoqollarining ham bir qismini qamrab olgan edi. Hatto yagona uyushgan harbiy kuch – sipohiylar orasida ham mustamlakachilik tartiblaridan norozilik tobora kuchayib, ular qo‘zg‘olonga tayyorlana boshlaydi.

Sipohiylar qo‘zg‘olonining boshlanishiga bevosita turtki bo‘lgan narsa qo‘shinda patron bilan o‘qlanadigan miltiqning joriy etilishi bo‘ldi. Yangi patronning usti qalin qog‘oz bilan qoplangan bo‘lib, patronni miltiq stvoliga solishdan oldin po‘stloqni tish bilan yirtib tashlash kerak edi. Bu qog‘oz po‘stloq ustiga esa yog‘ surtilgan bo‘lgan. Sipohiylar orasida shu yog‘ sigir va cho‘chqa yog‘ining aralashmasidan tayyorlangan, degan gap tarqalib ketdi.

Hinduiylik dinida sigir muqaddas hisoblanadi va uning go‘shti iste’mol qilinmaydi. Hind sipohiy sigir yog‘i, musulmon sipohiy esa cho‘chqa yog‘i ishlatilgan patronni tishi bilan tishlash o‘z dinining ongli ravishda qattiq tahqirlanishi (islomda cho‘chqa go‘shti harom hisoblanadi) deb qabul qildi. Oqibatda ular yangi patronni olishdan bosh tortdilar. Bu hodisa oxiri qo‘zg‘olon ko‘tarilishiga olib keldi.

Hindiston tarixida **“Mustaqillik uchun birinchi urush”** deb nom olgan Sipohiylar qo‘zg‘oloni 1857-yilda boshlandi. Sipohiylar tez orada Dehli shahrini egalladilar. Shoh saroyiga bostirib kirishib, boburiy hukmdor Bahodirshoh II ni hind xalqini mustamlakachilarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarishga chorlovchi chaqiriqni imzolashga majbur etdilar.


**Qo‘zg‘olonning bostirilishi.** Buyuk Britaniya Hindistonga qo‘shimcha harbiy kuchlarni yuborishga majbur bo‘ldi. Shundan so‘ng harbiy kuch ustunligi Buyuk Britaniya bosqinchilari tomoniga o‘tdi.



*Sipohiylar qo‘zg‘oloni qatnashchilarning qatl etilishi*

**Esga oling:**
Boburiylar sulolasi Hindistonda 1526–1858-yillarda, Buyuk Britaniya – 1858–1947-yillarda hukmronlik qilgan.

**O‘zingizni sinang:**
Hindiston general-gubernatori 1834-yili Londonga: “Hindiston tekisliklari to‘quvchilar suyaklari bilan to‘ldi”, – deya xabar bergandi. Shu general-gubernator nomidan hindlarning ahvoli to‘g‘risida Londonga batafsil hisobot tayyorlashga urinib ko‘ring.



*Malika Lakshmi Bay*


**Bu qiziq:**
Hindistonning milliy qahramonlaridan biri taxminan 20 yoshlardagi rani (malika) **Lakshmi Bay** asrab olingan o‘g‘lini orqasida ko‘tarib, inglizlarga qarshi isyonchilarga rahbarlik qilgan. Unga qarshi kurashgan ingliz generali bu jasoratli ayolni qo‘zg‘olon rahbarlari orasida “eng dovyurak va eng jasur” deb atagan.
U inglizlarga qarshi beayov janglarning birida halok bo‘lgan.

Britaniya qo‘shini qo‘zg‘olonchilar egallagan shaharlarni qamal qilib, ularni shturm bilan egalladilar. Aholi o‘zini qahramonona himoya qildi. Janglar ko‘chalarda olib borildi. Mustamlakachilar to‘plarni fillarga ortib, Dehliga olib kirdilar va bu tadbir jang taqdirini hal qildi.

Qo‘zg‘olonni bostirish paytida dahshatli vahshiyliklar qilindi. Buyuk Britaniya askarlari xotin-qizlar, bolalar va keksalarni ayashmadi. Asir tushganlarni bir joyga to‘plangan olomon oldida to‘p og‘ziga bog‘lardilar va to‘pdan o‘q otib, parcha-parcha qilib tashlardilar.

Mustamlakachilar 1858-yilda Hindistonni Buyuk Britaniya mulki deb e’lon qildilar. Qo‘zg‘olonchilar tor-mor keltirilgan bo‘lsa-da, inglizlar ba’zi islohotlarni o‘tkazishga majbur bo‘ldilar. Chunonchi, yer egalarining soliqlarni oshirishi taqiqlab qo‘yildi. Mahalliy knyazlarning o‘z yerlariga egaligi daxlsiz deb e’lon qilindi. “Ost Indiya” kompaniyasi esa tugatildi. Hindistonni boshqarish Britaniya ma’murlari qo‘liga o‘tdi.

**Zamonaviy ziyolilar qatlamini shakllantirish uchun harakat.** Boburiylar imperiyasi qulagandan so‘ng imperiyaning madaniy taraqqiyoti ham to‘xtagan edi. Ingliz mustamlakachiligi va to‘xtovsiz urushlar oqibatida tasviriy san’at, arxitektura va san’atning boshqa turlari inqirozga yuz tutdi.




**Esga oling:**
Hind xalqining qaysi dostonlarini bilasiz? Ular qaysi tilda yozilgan?

Hindistonning yangi xo‘jayinlari hindlarning madaniy qadriyatlarini rad etishdi, xalqni qashshoqlik va jaholat domiga tashladi. Bir ingliz amaldori pisandsizlik bilan: “Inglizlarning bir to‘plam kitobi butun Hindiston va Afrika adabiyotining hammasidan qimmat turadi”, – degan edi.

Shunga qaramasdan, XIX asrning o‘rtalariga kelib, inglizlar Hindistonda o‘ta murakkab va ziddiyatli yevropalashtirish va modernizatsiyalash jarayonini, ya’ni juda ulkan mustamlakani G‘arbiy Yevropa sivilizatsiyasining yutuq va imtiyozlari hamda kamchiliklariga jalb qilish jarayonini boshladi. Hindlar esa ularning an’anaviy hayot tarziga xavf solayotgan yangi tartiblarni qabul qilishni istamadi.

Inglizlar ma’lumotli hindlarning kichik guruhiga muhtoj bo‘lib, qoni va rangi hind, didi, tili va fikrlash usuli ingliz bo‘lgan shunday qatlamni tarbiyalashga kirishdi. Bu ishni amalga oshirish maqsadida XIX asrning 30-yillarida Yevropa tipidagi kam sonli o‘rta maktablar ochildi, ularda boy hind oilalarining bolalari o‘qiy boshladi. Ta’lim xarajatlari uncha yuqori bo‘lmasa-da, bunga faqat boy oilalarning qurbi yetardi. Oqibatda 1947-yili inglizlar Hindistonni tark etgandan so‘ng mamlakat aholisining 89 foizi savodsizligicha qolgan edi.

Inglizlar o‘z maqsadlari yo‘lida oliy ta’limni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratdi – 1857-yiliyoq Hindistonda Yevropa tipidagi dastlabki uchta universitet ochildi. Britaniya ta’lim tizimining bitiruvchilari bo‘lgan ayrim hindlar o‘z vatani, uning madaniyatiga nafrat bilan qaray boshladilar, ammo bu holat ommaviy tus olmadi. Buning sababi shundaki, bu vaqtga kelib, inglizlar va boshqa yevropaliklarning o‘zlari ham qadimiy hind madaniyatiga katta qiziqish va hurmat bilan qaray boshladilar.

Shuningdek, hind milliy madaniyatining G‘arb madaniyati bilan yaqinlashuvi yuz berib, bu keyinchalik “Hind uyg‘onishi” nomini olgan diniy va madaniy hayotdagi chuqur o‘zgarishlar uchun asos bo‘ldi.

***Shunday qilib, XIX asrning 70-yillarigacha Hindistonning iqtisodiy va siyosiy hayotida muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Sekinlik bilan bo‘lsa-da, kapitalizm rivojlandi. Milliy-ozodlik harakati paydo bo‘lib, ingliz mustamlaka hukmronligiga qarshi kurash kuchaydi. Mustamlakachilarning urinishlariga qaramasdan, hind xalqi o‘zining qadim madaniyati va milliy urf-odatini saqlab qoldi.***

**Atamalar mazmuni:**
***Sipohiylar*** (*fors.* – *“askar”*) — inglizlar tomonidan mahalliy aholi orasidan yollangan askarlar.



***Bahodirshoh II***

**Internet bilan ishlashga doir topshiriq:**
XIX asrda hind xalqining nochor ahvoli va Sipohiylar qo‘zg‘oloni to‘g‘risida rasmlarni topib, taqdimot tayyorlang.

**Savol va topshiriqlar**

1. Hindistonda o‘rnatilgan Buyuk Britaniya mustamlakachilik tartiblari haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Mustamlakachilar Hindistonni qay tariqa boshqardilar?
3. Sipohiylar qo‘zg‘olonining sabablarini tushuntirib bering.
4. Buyuk Britaniya hukumati qo‘zg‘olonni bostirish uchun qanday choralar ko‘rdi va qo‘zg‘olonning tarixiy ahamiyati nimalardan iborat edi?

**Ijodiy ish topshirig‘i:**
Nima uchun Hindistonni “Britaniya imperiyasi tojidagi marvarid” deb atashgan? Izohlab bering.

# 29-MAVZU. USMONIYLAR IMPERIYASI INQIROZ VA ISLOHOTLAR DAVRIDA

**Siz bilib olasiz:**
– XIX asr boshlaridagi Turkiyani;
– Mahmud II islohotlarini;
– Tanzimatning boshlanishini;
– Turkiya madaniyatini.

**Esga oling:**
Nima uchun XIX asrda yevropaliklar Usmoniylar imperiyasini “Yevropaning kasal odami” deb atashar edi?

**XIX asr boshlarida Turkiya.** Asr boshlarida Usmoniylar imperiyasi inqirozni boshdan kechirayotgan edi. Bu paytda Turkiyaning o‘z hududidan tashqari Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikadagi barcha arab mamlakatlari ham imperiya tarkibiga kirardi. Sanoat to‘ntarishini amalga oshirgan Yevropa mamlakatlaridan farqli ravishda, islom dunyosi turg‘unlik va tushkunlikni boshdan kechirayotgan edi.

Shuningdek, aynan shu davrda Yevropa davlatlari Usmoniylar imperiyasi hududini bo‘lib olish uchun kurashni avj oldirdi. 1830-yili Fransiya Jazoirni bosib oldi, Marokash ham Fransiya protektorati bo‘lib qoldi. 1801-yili Misrni inglizlar egalladi, ammo ular bu yerda o‘rnashib ololmadilar, shuningdek, sulton **Salim I** ning o‘z hokimiyatini tiklash uchun urinishi ham muvaffaqiyat qozonmadi. 1805-yili Misrda navbatdagi qo‘zg‘olon ko‘tarildi va **Muhammad Ali** mamlakatning hukmdori deb e’lon qilindi. Sulton o‘z obro‘sini saqlab, Muhammad Aliga posho unvonini in’om qilgan bo‘lsa-da, amalda Turkiya Misr ustidan o‘z hukmronligini yo‘qotdi. Bir paytlar dunyoning eng qudratli davlati bo‘lgan, yevropaliklarni zir titratgan imperiyaning intihosi yaqinlashib qolgandi.


**Mahmud II islohotlari.** Sulton **Mahmud II** mamlakatni inqirozdan olib chiqishga harakat qildi va bir qator islohotlarni amalga oshirdi. U 1826-yilning may oyida chet ellik ofitserlar yordamida yangi qo‘shin tashkil qilish to‘g‘risida farmon imzoladi.




*Sulton Salim III*



*Sulton Mahmud*



*Istanbul XIX asr*



*Yanicharlar isyoni*



*Mahmud II*

Bu islohotlarning boshlanishi edi. Ammo oradan bir oy o‘tgach, yanicharlar isyon ko‘tardilar. Sulton uchun bu kutilmagan hodisa emasdi, aytish mumkinki, uning o‘zi yanicharlarni bir yo‘la tugatish maqsadida ularni bu qo‘zg‘olonga undadi. Yanicharlarni jazolash bir necha kun davom etdi, bu juda dahshatli va qonli bo‘ldi. O‘n minglab yanicharlarning jasadlari Marmar dengizi va Bosforga uloqtirildi.

Bu voqea shunga olib keldiki, Turkiyaning xalqaro ahvoli yomonlashgan bir paytda eski armiya yo‘q qilingan, yangisi esa hali tuzilmaganligi mamlakatning harbiy qudratiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Oqibatda 1829-yilgi rus–turk urushida Turkiya mag‘lubiyatga uchradi.

Islohotlarning keyingi bosqichi, asosan, quyidagilarni amalga oshirishga qaratildi: harbiy-len tizimini bekor qilish, katta qiyinchilik tug‘dirayotgan ichki bojxonalarga barham berish, viloyatlar hokimlarining to‘g‘ridan to‘g‘ri sultonga bo‘ysunishini ta’minlaydigan yangi boshqaruv tizimini joriy qilish. Bu turk feodallari sultonni qo‘llaydigan, yetarli majburlash kuchiga ega bo‘lgan viloyatlarga tegishli bo‘lib, chekka o‘lkalar amalda mustaqil bo‘lgan hukmdorlar va noiblar qo‘lida qolaverdi.

Hukumatdagi eski lavozimlar o‘rniga yevropacha tipdagi ichki ishlar, tashqi ishlar, moliya vazirliklari tashkil etildi. Istanbulda harbiy-tibbiyot bilim yurti ochildi, 1832-yildan turk tilida birinchi gazeta – **“Voqealar kundaligi”** nashr qilina boshladi.

Turkiyada kapitalizmning rivojlanishiga yana bir to‘siq shiddat bilan kirib kelayotgan chet el kapitali edi. Mahmud II bunga nafaqat qarshilik qilmadi, balki uni rag‘batlantirdi ham.

1838-yili Angliya Turkiyani savdo konvensiyasi imzolashga majbur qildi. Unga ko‘ra, Turkiyaga olib kiriladigan barcha ingliz tovarlariga ular qiymatining 5 foizi miqdorida boj solig‘i o‘rnatildi. Natijada turklarning kosibchilik sanoati narxi arzon bo‘lgan chet el tovarlari bilan raqobatlashish uchun oxirgi imkoniyatidan mahrum bo‘ldi.

**Yodda tuting:**
Tanzimat davrida (XIX asr o‘rtalarida) Turkiyada madaniyat sohasidagi islohotlar: birinchi universitetlar, akademiyalar va pedagogik maktablar, dunyoviy (ya’ni diniy bo‘lmagan) maktablar paydo bo‘ldi; Sog‘liqni saqlash vazirligi, Fanlar akademiyasi, Iqtisodiy va siyosiy fanlar maktabi tashkil etildi. Tarixda birinchi marta Usmoniylar imperiyasidan talabalar xorijga o‘qishga ketishdi.

**Yodda tuting:**
Tanzimat (*arab. "tanzim" – "tartib o'rnatish"*) – 1839–1876-yillarda Usmoniylar imperiyasining barcha sohalarini modernizatsiya-lashtirish (yangilash, zamonaviy tus berish)ga yo'naltirilgan islohotlar.



*Tanzimat*

**Tanzimatning boshlanishi.** Shunday og'ir sharoitda Turkiyaning hukmron doiralari islohotlar yo'li bilan imperiyani halokatdan saqlab qolish uchun bu safar ancha jiddiy harakat boshladilar. Islohotlarsiz imperiya tarkibidagi turk bo'lmagan xalqlarning ozodlik harakatlarini bostirish, xalq ommasining noroziligini pasaytirish va Usmoniylar imperiyasining butunligini saqlab qolish mumkin emasdi. Bu qarashning tarafdorlari **Mustafo Rashid posho** boshchiligidagi kichik, ammo nufuzli, yevropacha ta'lim olgan turk feodal byurokratiyasi edi. Mustafo Rashid posho tayyorlagan memorandum **"Tanzimat"** nomi bilan ma'lum bo'lgan islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi.

Bu islohotlar chala, bir tomonlama xarakterga ega bo'lib, ular zodagonlar va ruhoniylarning jiddiy qarshiligiga uchradi va natijada oxirigacha amalga oshirilmadi.

**Qrim urushi (1853–1856).** Shunday bir sharoitda Rossiya imperatori Nikolay I Turkiya hududida yashovchi barcha pravoslav xristianlarga Rossiyaning homiylik qilish huquqini tan olish to'g'risida ultimatum topshiradi. Bu ikki davlat o'rtasida urushning boshlanishiga olib keldi.

Aslida 1853–1856-yillardagi Qrim urushining asosiy sabablari Rossiyaning Bolqon va Yaqin Sharqdagi diniy, siyosiy va iqtisodiy manfaatlarining boshqa Yevropa mamlakatlari manfaatlari bilan to'qnashuvi bo'ldi. Ushbu mintaqalarda Rossiya ta'siri kuchayishining oldini olish maqsadida Turkiya, Angliya va Fransiya tarkibida hamda boshqa Yevropa mamlakatlarining qo'llab-quvvatlashida harbiy koalitsiya tuzildi.

Harbiy harakatlar keng hududga yoyilib, Kavkaz, Dunay knyazliklari hamda Boltiq, Qora, Azov, Oq va Barens dengizlari, shuningdek, Kamchatka va Kuril orollarini ham qamrab oldi. Koalitsiyaning Rossiyaga qarshi asosiy qonli janglari Qrimda bo'ldi va urush shu sababli **"Qrim urushi"** degan nom oldi.

Urushda Buyuk Britaniya, Fransiya va Turkiya **uchlik ittifoqi** g'alaba qozondi. Biroq bu g'alaba Turkiyaning Buyuk Britaniya va Fransiyaga qaramligini yanada



*Qrim uchun jang*

kuchaytirdi. Urush natijasida 1856-yil 30-mart kuni imzolangan **Parij tinchlik shartnomasi** Turkiya ustidan amalda G‘arb davlatlarining “homiyligi”ni o‘rnatdi. Chet elliklarga Turkiyada yer va boshqa ko‘chmas mulklar sotib olishga ruxsat berildi. Xorijiy davlatlarga berilgan konsessiyalar kafolatlandi. Shu tariqa Turkiyaning yarimmustamlakaga aylanishi uchun yo‘l ochildi. XIX asrning 60-yillariga kelib, mustamlakachi davlatlar Turkiyada uning siyosatini belgilashga imkon beruvchi iqtisodiy va siyosiy mavqega ega bo‘lib oldilar.

Turkiyaning chet davlatlardan qarzi 2,4 mlrd frankka teng bo‘ldi. Shu tariqa bir vaqtlar dunyoning 3 qit’asida ham katta-katta mustamlakalarga ega bo‘lib olgan Turkiya endilikda Yevropaning kuchli davlatlari yarimmustamlakasiga aylandi.

**Tanzimatning yangi bosqichi. “Yangi usmoniylar”.** Mamlakatda feodal qoldiqlarning saqlanib qolayotganligiga qaramasdan, burjua munosabatlari ham rivojlana boshlagan, bozor munosabatlari aholining ko‘plab qatlamini qamrab olayotgan edi. Ammo burjua munosabatlarining jadal rivojlanishi uchun feodal qoldiqlar to‘siq bo‘lib, jamiyatning ilg‘or qatlamlari orasida mavjud holatga qarshi norozilik kayfiyati shakllana boshladi. Kelib chiqishi feodal bo‘lsa-da, g‘oyasi burjuacha bo‘lgan ziyolilar bu norozilikning ifodachilari bo‘ldilar.

| TANZIMAT | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Temiryo‘llar, telegraf liniyalari, sanoat korxonalarining qurilishi | Yer, fuqarolik va jinoiy kodekslarning qabul qilinishi | Pul islohoti | Dunyoviy mazmundagi maktablarning ochilishi | Milliy harakatlarga yon bosish va ularning teng huquqli ekanligini tan olish | Xristianlarni davlat tashkilotlariga xizmatga olish |
| Yevropa davlatlari bilan hamkorlik | | | | | |
| Kreditlar olish | Iqtisodga chet el kapitalini jalb etish | Chet elliklarning Turkiyada yer va ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarini kafolatlash | | | |

***Bu qiziq:*** Qrim urushi vaqtida ruslar Sevastopol shahrini ingliz, fransuz va turklardan 350 kun himoya qilishgan. Sevastopol himoyasida buyuk rus yozuvchisi L. N. Tolstoy qatnashgan. Urushda Rossiya mag‘lub bo‘lib, Qora dengizdagi flotidan ayriladi. Shu urushdan keyin Rossiya imperatori Aleksandr II diqqat-e’tiborini krepostnoylikni bekor qilish va O‘rta Osiyoni bosib olishga qaratadi.

***O‘zingizni sinang:*** Konstitutsion monarxiya deganda nimani tushunasiz? “Yosh turklar” qanday tuzum o‘rnatmoqchi bo‘lishgan?



*Abdul Aziz*



*Namiq Kemal*



*Ibrohim Shinasi*

1865-yili Istanbulda maxfiy siyosiy tashkilot tuzilib, o‘z oldiga Turkiyada konstitutsion tuzum joriy qilinishiga erishishni maqsad qilib qo‘yadi. Tashkilot 250 ga yaqin a’zoga ega bo‘lib, ularning orasida dramaturg **Namiq Kemal** hamda boshqa yozuvchi va jurnalistlar bilan bir qatorda, amaldorlar, ofitserlar va savdo burjuaziyasi vakillari ham bor edi. Tashkilot a’zolari o‘zlarini “Yangi usmoniylar” deb atadilar. Yevropada bu tashkilot “Yosh Turkiya”, uning ishtirokchilari – “Yosh turklar” nomini oldi.

“Yosh turklar” sulton Abdul Azizni konstitutsiya qabul qilishga ishontirish yoki majbur qilish umidida edilar. 1865-yili ular tashkillashtirgan fitna tez orada fosh qilindi. “Yosh turklar”ning bir qismi qamoqqa olindi, ba’zilari chet elga qochib ketdi. Ularga xayrixoh bo‘lganlar ham ta’qib va qatag‘onga uchradilar.

**Turkiya madaniyati.** Bu davr Turkiya ijtimoiy hayotidagi muhim madaniy jarayonlar bilan ham ajralib turadi. Asrlar davomida usmoniy turklar adabiyotida hukmronlik qilib kelgan saroyning nozik so‘z san’ati inqirozga yuz tutib, o‘rniga Yevropa ta’siri ostidagi yangi burjua adabiyoti va san’ati shakllana boshladi.

Endi o‘tmishga aylanayotgan feodal davrning adabiy shakllari o‘rniga zamonaviy roman va hikoya namunalari paydo bo‘ldi, ilk pyesalar yozildi. Bu asarlarning mualliflari, publitsistlar va tanzimat davri jamoat arboblari o‘tmishning qoloq an’analari va axloqini tanqid qildi, turk jamiyatidagi jaholat ustidan kuldi, ma’rifat va taraqqiyot g‘oyalarini targ‘ib qildi.

Shakllanayotgan yangi turk adabiyotining ko‘zga ko‘ringan vakillari – **Ibrohim Shinasi, Namiq Kemal, Ziyobey** va boshqalar birinchi turk ma’rifatparvarlari bo‘ldilar. Ular **“Usmoniylar ma’rifat jamiyati”** va **“Kitobsevarlar jamiyati”**ni tashkil qildilar. Bu ma’rifatchilik tashkilotlari, shuningdek, Ibrohim Shinasi tashkil qilgan “Tasviri efkar” (“G‘oyalar ifodachisi”) gazetasi jamiyatni yangi g‘oyalar va tushunchalar bilan tanishtirdi. Bu, jumladan, turk adabiy tilida “vatan”, “millat”, “vatanparvarlik”, “inqilob” kabi yangi so‘zlarning paydo bo‘lishida ham aks etdi. Umuman olganda, bu o‘zgarishlar turk aholisidan burjua qatlamining shakllanish jarayoni boshlanganidan, milliy ongning o‘sganligidan dalolat beradi.

Tanzimat davrida o‘zining ilk mustaqil qadamlarini qo‘yib boshlagan turk teatr san’atida ham Yevropaning ta’siri aks etdi. Avvalgi davrlarda teatr san’ati xalq qo‘g‘irchoq teatridan iborat bo‘lib, asosan, satirik yo‘nalishdagi tomoshalarni namoyish qilar edi. Endi sulton saroyida va mashhur odamlarning uylarida Yevropa teatr truppalari tomoshalar ko‘rsata boshladi.

XIX asrning 50-yillarida tashkil qilingan No‘mon poshoning **birinchi turk xususiy teatrida** ham italyan va fransuz operetta va komediyalariga asosiy o‘rin ajratiladi.

Asl turk pyesalari 1869-yili **“Gedik posho”** teatri sahnasida paydo bo‘ldi. Ayni paytda **“Teatr” gazetasi** ham nashr qilinib, unda Namiq Kemalning mamlakat ijtimoiy hayotida teatrning ahamiyati va roli haqidagi maqolasi chop etildi.

Adabiyot va teatr sohasidagi faollik ilgari miniatura ko‘rinishida bo‘lib, asosan, tor doiradagi saroy ahliga xizmat qilgan tasviriy san’atga ham ta’sir qildi. **Husnu Yusuf, Ibrohim posho, Ahmad Shekib posho** va boshqa ko‘plab turk rassomlari Parijda ta’lim olgan edi. Ular Istanbul saroylarini, masjidlar, bog‘lar va favvoralarni bezatishdi. Ular chizgan rasmlarda binolar go‘zalligi, tabiatning ulug‘vorligini aks ettirgan yangi uslub ko‘zga tashlanadi.

Turkiya bu davrda milliy adabiyot va san’atni yaratish yo‘lida dastlabki qadamlarni qo‘ydi. Turk adabiyoti va san’ati namoyandalari taraqqiyotdan ortda

qolib ketgan, tobora Yevropa davlatlariga qaram bo‘lib borayotgan Turkiyani modernizatsiya qilish tarafdorlari, ma’rifatparvarlar sifatida maydonga chiqdilar. Ular Turkiyaning burjuacha taraqqiyot yo‘liga o‘tishini boshlab berdilar, xolos.

***Xullas, Yangi davr boshlarida ham Yevropa davlatlarini xavotirga solib kelgan kuchli Usmoniylar imperiyasi XIX asrda bir nechta urushlarda mag‘lubiyatga uchradi. Mamlakatdagi qoloq ijtimoiy va siyosiy tizim tufayli imperiya asta-sekin yemirilib bordi. Imperiya va unga qaram hududlarda mustaqillik uchun kurash avj oldi. Turkiya kuchli Yevropa davlatlarining mustamlakachilik obyektiga aylanib qoldi.***

***Ayni paytda shu qoloqlikni yengib o‘tish, mamlakatni modernizatsiya qilish maqsadida paydo bo‘lgan ma’rifatparvarlik harakati Turkiya singari zamondan ortda qolib ketgan va Yevropa davlatlarining bosqinchilik tazyiqlariga uchrayotgan barcha islom mamlakatlari, jumladan, Turkiston jamiyatining ham uyg‘onishi yo‘lida katta qadam bo‘ldi.***

**Atamalar izohi:**

**Harbiy-len yoki timar** (yerga egalik shakli) – turkiylar va keyinchalik Usmoniylar imperiyasida feodal yer egaligi shakli. Timar yoki len egasi shaxsan harbiy yurishlarda qatnashishi va har 3 ming aqcha daromadi hisobidan o‘zi bilan bitta otliq askar ham olib kelishi shart bo‘lgan.

**Konvensiya** – maxsus masala bo‘yicha ko‘p tomonlama xalqaro shartnoma, bitim (odatda, davlatlar o‘rtasida).

**Konsessiya** (*lot. ruxsat, yon berish*) – davlat korxonalarini, mulkini muayyan muddatga chet el kapitaliga berish haqidagi kelishuv, shartnoma.

**Savol va topshiriqlar**

1. Sulton Mahmud II mamlakatni inqirozdan olib chiqish uchun qanday islohotlarni amalga oshirdi?
2. Tanzimat haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Nima uchun Usmoniylar imperiyasi ham Qrim urushida g‘oliblar qatorida bo‘lsa-da, bu g‘alaba Turkiyaning Buyuk Britaniya va Fransiyaga qaramligini yanada kuchaytirdi?
4. Turkiyada “Yosh turklar” tashkiloti tuzilganligi haqida o‘qidingiz. Buxoro amirligi va Xiva xonligida XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida shunga o‘xshash qanday harakat yuzaga keladi?
5. XIX asrning o‘rtalarida turklarning teatr san’atida qanday o‘zgarishlar ro‘y berdi?

**Ijodiy ish topshirig‘i:** XIX asrda Turkiyaga kapitalizmning kirib kelishiga qanday baho berasiz? Ushbu jarayonning “ijobiy” va “salbiy” tomonlarini jadval tuzib, yozib chiqing.

# 30-MAVZU. G‘ARB MAMLAKATLARINING ERON VA AFG‘ONISTONNI EGALLASH UCHUN URINISHLARI

**Siz bilib olasiz:**

– Eronda ingliz–fransuz raqobatini;
– rus–eron urushlarini;
– Bobiylar qo‘zg‘oloni. Amir Nizom islohotlarini;
– Afg‘onistonda Zamonshohning taxtdan ag‘darilishi va hokimiyat uchun kurashlarning boshlanishini;
– Birinchi ingliz–afg‘on urushini.

**Yodda tuting:**
1935-yilga qadar Eron Yevropada **“Fors davlati”** deb atalgan.

**Yodda tuting:**
Birinchi rus-eron urushi Britaniya va Rossiyta imperiyalari o‘rtasida tarixda **“Katta o‘yin”** deb nom olgann Osiyo va Kavkazorti uchun raqobatni boshlab bergan.

**Yodda tuting:**
1795–1925-yillarda Eronda kelib chiqishi turkiy bo‘lgan qojarlar sulolasi hukmronlik qilgan.

**Eronda ingliz–fransuz raqobati.** XIX asrning dastlabki yillaridan Eron Angliya va Fransiyaning siyosiy hamda iqtisodiy manfaatlari obyektiga aylandi. 1801-yili Angliya va Eron o‘rtasida siyosiy va savdo shartnomasi imzolanib, unga binoan, ayrim Angliya tovarlari boj solig‘idan ozod qilindi, uning fuqarolari esa Eron portlarida erkin joylashish huquqini oldilar. Imzolangan shartnoma faqat Fransiyaga emas, Rossiyaga ham qarshi qaratilgan edi. Eronning fikricha, uning Kavkaz ortini qo‘shib olish yo‘lidagi urinishiga faqat Rossiya to‘siq bo‘layotgan edi. Ayniqsa, 1801-yili Sharqiy Gruziya Rossiyaga qo‘shib olinganidan so‘ng, bu fikr tarafdorlari soni yanada ko‘paydi.


1807-yili Fransiya bilan Rossiya o‘rtasida **Tilzit sulhi** imzolangandan so‘ng Eron bilan Angliya yanada yaqinlashdi. 1809-yil fransuz vakolatxonasi Erondan chiqarib yuborildi. Shu yilning mart oyida Buyuk Britaniya vakili bilan shoh hukumati o‘rtasida **“Dastlabki kelishuv”** deb atalgan shartnoma imzolandi. Unga ko‘ra, Eron Angliyaga dushman bo‘lgan boshqa davlatlar, jumladan, Fransiya bilan munosabatni uzdi, mamlakatga ingliz harbiy instruktorlarini kiritdi va Fors qo‘ltig‘ida ingliz harbiy kemalarining turishiga ruxsat berdi. Britaniya tomoni har yili Eronga 160 ming tuman yordam puli berish majburiyatini oldi.

**Rus–eron urushlari.** Eron shohi **Fotih Ali** rus podshosi **Aleksandr I** dan o‘z qo‘shinlarini Gruziya va Kavkazortining boshqa hududlaridan olib chiqib ketish talabini qo‘yganda, **Birinchi rus–eron urushi** (1804–1813) boshlandi. Eron tomonining bir qator mag‘lubiyatlaridan keyin 1813-yil oktyabrda Guliston shartnomasi imzolanib, unga ko‘ra, Eron Gruziya, Dog‘iston va Ozarbayjonning katta qismiga bo‘lgan


*Rus–eron urushi*

da’vosidan voz kechdi. Kaspiy dengizida harbiy flotga ega bo‘lish faqat Rossiyaning huquqi qilib belgilandi, rus va eron savdogarlari bir-birlarining hududida erkin savdo qilish huquqini qo‘lga kiritdilar.

Guliston shartnomasi Angliyaning Kaspiy dengizining janubiy qismida o‘z nazoratini o‘rnatishga bo‘lgan intilishini yo‘qqa chiqardi. Biroq 1814-yili noyabrda yangi ingliz–eron shartnomasi imzolandi. Unga binoan, shoh Buyuk Britaniyaga dushman bo‘lgan barcha Yevropa davlatlari bilan imzolangan kelishuv va shartnomalarni bekor qilishni va yana bir qancha majburiyatlarni o‘z zimmasiga oldi. Bu shartnoma shohning tashqi siyosatini Angliyaga qaram qilib qo‘ydi va uni Rossiya bilan yangi urushga chorladi. Shoh saroyida o‘ch olish kayfiyati kuchaydi.



*Fotih Ali*

Shu tariqa 1826-yil iyulda ikkinchi rus–eron urushi boshlandi. Urushning dastlabki davrida bir qator hududlarni boy bergan ruslar, keyingi janglarda eronliklar armiyasini tor-mor qildi, Araks daryosidan o‘tib, Tabriz va boshqa bir qator Eron shaharlarini egalladi. 1828-yili Tabriz–Tehron yo‘lida joylashgan Turkmanchoy qishlog‘ida tinchlik shartnomasi imzolandi.



*Muhammad shoh*

Bu shartnomaga ko‘ra, ikki davlat o‘rtasidagi chegara, asosan, Araks daryosi bo‘ylab belgilandi. Faqat Gruziya va Shimoliy Ozarbayjon emas, Sharqiy Armaniston – Yerevan va Naxichevan xonliklari, Ordubad okrugi ham Rossiyaga o‘tib ketdi. Rossiya savdogarlari Eronda imtiyozlarga ega bo‘ldi.

Rus–eron urushlari, birinchi navbatda, chor hukumatining bosqinchilik maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan edi. Urush, shu bilan birga, Kavkaz xalqlari uchun ma’lum yengilliklar, birinchi navbatda, tinchlik ham olib keldi.

**Hirot muammosi va chet el kapitalining Eronga kirib kelishi.** Rus–eron urushlari davrida Xuroson hududida mahalliy xonlarning doimiy qo‘zg‘olonlari bo‘lib, Hirotdan yordam olib turadilar. Taxtga Muhammad shoh kelishi bilan Hirot masalasi yanada keskinlashdi.

1837-yili Muhammad shoh Hirotga yurish boshladi. Ammo bunga Angliya norozilik bildirib, Eron bilan diplomatik munosabatlarini to‘xtatdi. London tomonidan doimiy bosim va tahdid natijasida shoh Muhammad Afg‘onistondan qo‘shinlarini olib chiqib ketishga majbur bo‘ldi.

Shundan so‘ng 1841-yili Angliya va Eron o‘rtasida diplomatik munosabatlar tiklandi. Fransiya, Avstriya va boshqa bir qator Yevropa mamlakatlari ham savdo imtiyozlariga ega bo‘ldi. 1856-yili AQSH ham Eron bilan **“do‘stlik va savdo” to‘g‘risidagi shartnomani imzoladi.**

**XIX ASRDAGI RUS-ERON URUSHLARI**

| Sana | G‘olib davlat | Shartnoma | Natija |
|---|---|---|---|
| 1804–1813-yillar | Rossiya | Guliston | Rossiya o‘z qaramog‘iga Eronning shimolidagi bir qator xonliklarni qabul qiladi. |
| 1826–1828-yillar | Rossiya | Turkmanchay | Rossiyaga Erivan va Naxichevan xonliklari qo‘shib olindi, Guliston shartnomasiga binoan Rossiya tarkibiga o‘tgan hududlar tan olindi. |



*Amir Nizom*



*Said Ali Muhammad*

Shartnomalar imzolangandan keyin chet davlatlarning, birinchi navbatda, Angliya va Rossiyaning Erondagi pozitsiyalari yanada mustahkamlandi. Endi Eron chet el sanoat tovarlari uchun bozorga ham aylandi.

**Bobiylar qo‘zg‘oloni. Amir Nizom islohotlari.** 1840-yillarning oxirlarida Eronda hukumatga qarshi xalq isyoni boshlanib, uning boshida shia diniy mazhabining bobiy tariqati vakillari turardi. Qo‘zg‘olonga **Said Ali Muhammad** ismli shaxs rahbarlik qildi. Bobiylar rivoyatga ko‘ra 1000 yil avval yo‘qolgan 12-imom – Mahdiyning Yer yuzida adolat o‘rnatish uchun yaqinda tashrif buyurishi g‘oyasini targ‘ib qilar edilar.


Dastlab bobiylar keng xalq ommasini emas, shohni, saroy ahlini va viloyatlar imomlarini o‘z tomoniga og‘dirishga harakat qildilar. Ammo hukumat bobiylarning dasturini qabul qilmadi va ularni ta’qib qila boshladi. Shunda bobiylar mavjud tuzumdan norozi bo‘lgan keng xalq ommasi orasida tashviqotlarini faollashtirdilar.

1848-yil sentyabrda **Muhammadshoh** vafot etdi. Shu vaqt Mozandaron atrofidagi qishloqlardan dehqonlar va hunarmandlar ham kelib bobiylarga qo‘shildi. Qo‘zg‘olonchilar sakkiz oy shoh qo‘shinlariga qarshilik ko‘rsatdilar, faqat holdan toygandan so‘ng qarshilikni to‘xtatdilar.

Mozandarondagi qo‘zg‘olon bostirilgandan so‘ng bobiylar harakati susaymadi, aksincha, yanada kengroq yoyildi. 1850-yili mayda dehqonlar va hunarmandlar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan Zenjon bobiylari qo‘zg‘olon ko‘tardi. Ular shoh hokimiyatiga qarshi chiqib, yerga nisbatan bo‘lgan xususiy mulkchilikni yo‘q qilish, insonning shaxsiy erkinligini e’lon qilish talabini qo‘yishdi. Qo‘zg‘olonchilar shoh qo‘shinlari tomonidan shafqatsiz o‘qqa tutildi. Bobiylar harakatining keng yoyilishidan xavfsiragan shohning buyrug‘iga ko‘ra, bobiylar yetakchisi Ali Muhammad otib tashlandi.


Ayni paytda hukmron doiralarning bir qismi bobiylar qo‘zg‘oloniga mamlakatdagi ijtimoiy ziddiyatlar sabab bo‘layotganligini tushunib, ba’zi islohotlar o‘tkazishga jazm qildilar. Shohning birinchi vaziri **Amir Nizom** markaziy hokimiyatni mustahkamlashga va chet elliklar ta’sirini kamaytirishga harakat qildi. Ammo Amir Nizomning islohotchilik faoliyati o‘z imtiyozlaridan ajralishni istamagan feodallarning keskin qarshiligiga uchradi. Natijada Amir Nizom xonning g‘azabiga uchradi va Koshonga surgun qilinib, 1852-yili xonning buyrug‘i bilan o‘ldirildi.

Amiri Nizom islohotlarining muvaffaqiyatsizlikka uchrashi Eronda feodal tartiblarning saqlanib qolishiga olib keldi va mamlakatning chet elliklar tomonidan bo‘ysundirilish jarayonini yengillashtirdi.



*Tehrondagi bozor*

**Yodda tuting:**
Said Ali Muhammad 1844-yilda o‘zini Bob deb e’lon qildi. “Bob” so‘zi “darvoza” ma’nosini bildiradi va Bobning fikricha, Mahdiy shu darvozadan kirib, odamlarga o‘z inoyatini beradi. Bu ta’limotga ko‘ra, hamma odamlar qonun oldida teng bo‘lishi, xorijliklar Erondan quvib chiqarilishi, ularning mol-mulki bobiylarga taqsimlanishi kerak bo‘lgan.



*Afg‘onistondagi ingliz lageri*

**Xarita bilan ishlashga doir topshiriq:** Xaritadan Afg‘onistonning poytaxti – Kobul, shuningdek, Hirot, Qandahor shaharlarini va u bilan chegaradosh davlatlarni toping.

XIX asrning ikkinchi yarmi Yevropa davlatlarining, birinchi navbatda, Angliya va Rossiyaning Eronda faol mustamlakachilik ekspansiyasi davri bo‘ldi. Hokimiyatda turgan qojarlar sulolasi vakillari o‘z xalqining talabidan ko‘ra chet davlatlarning talabini bajarishni afzal ko‘rdi. Eronni qaram qilishning usullari sifatida chet el kapitali turli xil konsessiyalar (yer, kon va shu kabilardan foydalanish haqida davlat bilan ayrim kapitalist yoki firma o‘rtasida tuzilgan shartnoma) olish va Tehronga pul qarz berishdan keng foydalandi. Oqibatda Eron G‘arb mamlakatlari va Rossiyaning yarimmustamlakasiga aylantirildi.

**Afg‘onistonda Zamonshohning taxtdan ag‘darilishi va hokimiyat uchun kurashlarning boshlanishi.** XX asr 70-yillaridan hozirgi kungacha jahondagi kuchli davlatlar geosiyosiy manfaatlari va harbiy harakatlarining markazida bo‘lib kelayotgan Afg‘onistonda yuz berayotgan voqealar bu davlatning XIX asrdagi tarixi bilan chambarchas bog‘liq.

1801-yili Zamonshoh tomonidan qatl qilingan Payindi xonning o‘g‘li **Fathxon** Zamonshohning isyonchi ukalaridan biri Mahmud bilan birlashib, avval Qandahorni, keyin Kobulni egalladi. Zamonshoh taxtdan tushirildi, ko‘zlari ko‘r qilinib, zindonga tashlandi.

Zamonshoh davridagi nisbatan barqarorlik shoh hokimiyati uchun uzoq davom etgan o‘zaro urushlar davri bilan almashdi. Shu davrda inglizlar Afg‘onistonga kirish uchun dastlabki urinishni amalga oshirdilar. Bu urinishda hali faqat diplomatik vositalargina qo‘llanildi.

**Mahmudshoh** taxtni egallagandan so‘ng buyuk vazir lavozimini egallagan Fathxon afg‘on zodagonlarining o‘zboshimchaligiga chek qo‘yish, o‘zaro feodal urushlarni to‘xtatish, shoh xazinasiga undiriladigan soliq tushumlarini tartibga keltirish uchun kurashdi. Bu ishda unga yosh, harakatchan ukasi **Do‘st Muhammad** sardor katta yordam berdi. U isyonchi xonlar va dehqonlar qo‘zg‘olonlarini shafqatsizlik bilan bostirdi.

**O‘ylab ko‘ring:**
Birinchi ingliz–afg‘on urushida inglizlarning qo‘zg‘olonchilar safini pora berib bo‘lib tashlashga urinishlari amalga oshmadi. Ular Afg‘onistonni tark etishga majbur bo‘lishdi. 16 000 kishilik ingliz qo‘shinidan juda kam odam qochib qutuldi. Sizning fikrin-gizcha, buning sababi nimada?



*Do‘st Muhammad*



*Ingliz–afg‘on urushi*

**Birinchi ingliz–afg‘on urushi (1838–1842).** Inglizlar Afg‘onistonga bostirib kirish uchun **sadozoiylar sulolasidan** bo‘lgan, taxtdan ag‘darilib, inglizlar tomonga qochib ketgan **Shuja al-Mulkdan** foydalandilar. Hindistonda 6 ming kishilik sipohiylar qo‘shini yig‘ilib, ingliz zobitlari boshchiligida Afg‘onistonga yurish boshlandi. Inglizlar 1839-yili poytaxtga deyarli jangsiz kirib keldi. Do‘st Muhammad Hindikush tomonga chekinib, Qunduz xonligidagi o‘zbeklar yordamida inglizlarga qarshi urushni davom ettirdi. Do‘st Muhammad Kobulni qamal qiladi. Ammo shu payt Do‘st Muhammadning o‘zi inglizlarga asir tushadi va oilasi bilan Hindistonga jo‘natiladi. Ammo bu bilan urush tugamaydi. Bir nechta qo‘zg‘olonlardan so‘ng inglizlar Afg‘onistonni tark etadi va Do‘st Muhammad Kobulga qaytib keladi. 1838–1842-yillardagi urush shu tariqa yakun topdi.

Taxtni qayta egallagan Do‘st Muhammad mamlakatni mustahkamladi. U 1863-yili vafot etdi. Uning hokimiyatga kelgan o‘g‘li **Sherali xon** otasining siyosatini davom ettirdi.



*Ingliz armiyasining mag‘lub bo‘lgan so‘nggi askari*

**Madaniyat.** XIX asrda Erondagi iqtisodiy va siyosiy inqiroz bilan bir paytda kuchli madaniy almashinuv jarayoni yuz berdi, u Yevropa va Sharq san'ati va madaniyatining noodatiy aralashuviga olib keldi.

Eron tasviriy san'atida sal oldinroq boshlangan G'arb standartlari va modasiga taqlid qilish bu davrda yanada kuchaydi. Hukmdorlar san'atni davlat nazoratiga oldi, saroyning yangi san'at qoidalari shakllanib, u eski an'analarni takrorlash va G'arb tasviriy san'ati qoidalariga taqlid qilganligi bilan xarakterlanadi.

Eron she'riyati, asosan, so'z san'atining nazokati va go'zalligini saqlab qoldi, an'analarni davom ettirdi.

Arxitektura va naqqoshlik san'atida ham Yevropa san'atining ta'siri sezilib turadi. Yangi shakl va badiiy usullar Sharq va G'arb madaniyatlari asosida uyg'unlashdi.

***XIX asrda Eron kuchli milliy armiyaga, markaziy davlat apparatiga va ya-gona soliq tizimiga ega emasdi. Eron Rossiya va Angliyaning mintaqadagi bosqinchilik intilishlariga qarshilik qila olmadi. Mamlakat ichkarisidagi islohotlarga diniy mutaassiblik va unga asoslangan davlat tuzumi, ijtimoiy institutlarning kam taraqqiy etganligi xalaqit berayotgan edi. Natijada Eron kuchli davlatlarning yarimmustamlakasiga aylantirildi.***

***Afg'oniston esa Buyuk Britaniyaning bir necha bor urinishlariga qaramasdan, o'z mustaqilligini saqlab qoldi. Ammo ajablanarlisi shundaki, o'z mustaqilligini saqlab qolgan, kuchli davlatlarning ta'siri o'ta cheklangan Afg'oniston taraqqiyotda hammadan ortda qolib ketdi. U XIX asr oxirida ham qabila-urug'chilik munosabatlari va natural xo'jalik saqlanib qolgan kamdan kam mamlakatlardan biri edi.***



**Savol va topshiriqlar**

1. XX asr boshlaridagi Rossiya – Eron urushlarining sababi nimada?
2. Bobiylar kimlar? Ularning ta'limoti haqida so'zlab bering.
3. Eronning yarimmustamlaka davlatga aylanishiga misollar keltiring.
4. Qanday omillar Bobiylar qo'zg'olonini yuzaga keltirdi?
5. Afg'onistonning buyuk vaziri Fathxon qanday islohotlarni amalga oshirmoqchi bo'ldi?
6. O'ylab ko'ring, Angliyaning Afg'onistonga bo'lgan qiziqishi sabablari nimada bo'lishi mumkin?



**Internet bilan ishlashga doir topshiriq:**

Eron va Afg'oniston tarixidagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlang. Daftaringizda T-texnologiyasi asosida tahlil qiling.

# 31-MAVZU. AFRIKA: QUL SAVDOSI VA MUSTAMLAKACHILIKNING KUCHAYISHI

**Siz bilib olasiz:**

– Afrikadagi arab mamlakatlari: Misr, Sudan, Liviya, Jazoir, Tunis, Marokash haqida;

– Qul savdosi va uning oqibatlari haqida.


**Afrikadagi arab mamlakatlari. Misr.** Misr tarixidagi yangi davrning boshlanishi turk armiyasi tarkibiga kiruvchi alban korpusi boshlig‘i **Muhammad Ali** nomi bilan bog‘liq. 1805-yilgi qo‘zg‘olon natijasida Misr poshosi **Xurshid** hokimiyatdan ag‘darilgandan so‘ng Qohira shayxlari Muhammad Alini Misr poshosi etib sayladilar, Turkiya hukumati esa buni tasdiqladi. Muhammad Ali tez orada cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘ldi.

Usmoniylar imperiyasidan mustaqil bo‘lgan Misr Muhammad Ali tomonidan amalga oshirilgan islohotlar natijasida iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning yangi bosqichiga ko‘tarildi. Muhammad Alining islohotchilik faoliyati ijtimoiy munosabatlar, iqtisod, madaniyat va davlat boshqaruvining turli sohalarini qamrab oldi.

Muhammad Ali islohotlari kuchli va mustaqil Misr davlatini tuzishga qaratilganligi uchun muvaffaqiyat qozondi. Islohotlar Muhammad Ali hokimiyatini mustahkamlashga xizmat qildi, Misrni Sharqning rivojlangan va kuchli davlatlari qatoriga olib chiqdi.

XIX asrning 70-yillariga kelib, mamlakatning jahon kapitalistik xo‘jaligiga tortilishi oqibatlari aniq ko‘zga tashlanib qoldi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash sanoati rivojlandi. Bir necha qand zavodlari ishga tushirildi. 1860–1870-yillari temiryo‘llar qurilishi jadal olib borildi, sug‘orish kanallari qazildi, portlar qayta jihozlandi.

**Yodda tuting:**
**Muhammad Ali (1769–1849) islohotlari:** mamluklarning yerlarini musodara qildi, flot va armiyani Yevropa andozasida isloh etdi, misrliklardan ofitserlar korpusini tuzdi, harbiy o‘quv yurtlarini tashkil ettirdi, dehqonlarning farzandlari uchun majburiy ta’lim beradigan dunyoviy maktablarni ochdi, birinchi “Al-Vakayi al-Misr” (“Misr voqealari”) arab gazetasini nashr ettirdi, savdoda monopoliya joriy qildi, qurol-yarog‘, qand ishlab chiqaruvchi, temir quyish va boshqa zavodlarni qurdirdi.



*Muhammad Ali*

1859-yili O‘rtayer dengizi bilan Qizil dengizni bog‘lovchi Suvaysh kanalini qazish ishlari boshlanib, kanal o‘n yilda qazib bitkazildi. Kanal ochilgandan so‘ng Misrni o‘z nazoratiga olish uchun Angliya va Fransiya o‘rtasida qizg‘in kurash boshlanib ketdi. Kanal qurilishi uchun Yevropa davlatlaridan qarz olgan Misrning ularga qaramligi ham kuchayib bordi.

**Sudan.** 1820–1822-yillari Sudan Misr hukmdori Muhammad Ali qo‘shinlari tomonidan zabt etildi. Turk – Misr qo‘shinlarining mamlakatni zabt etishi bu yerda qul savdosini keskin rivojlantirdi. Sudanda eng “foydali” hunar qul savdosi bo‘lib qoldi. Ilgari karvonlar Misrga yiliga 9–10 ming qulni olib kelgan bo‘lsa, 1825-yili Muhammad Ali ixtiyoriga 40 ming, 1839-yili esa qariyb 200 ming qul jo‘natildi. Faqat XIX asrning 70-yillaridagina Qohira hukumati Yevropa davlatlarining bosimi ostida qul savdosini taqiqlashga majbur bo‘ldi.


**Liviya. Yusuf Qaramoniy** hukmronligi yillari (1795–1832) O‘rtayer dengizi havzasida Yevropa davlatlari bilan AQSH o‘rtasida harbiy-siyosiy raqobat ancha faollashdi. Bu murakkab holatda Karamanlining tashqi siyosati joriy holatdan kelib chiqqan bo‘lib, qandaydir tizimli mantiqqa ega emasdi.

1832-yili hokimiyatga kelgan **Ali Qaramoniy** mamlakatni birlashtira olmadi. Usmoniylar sultoni tomonidan jo‘natilgan **Mustafo Najib** posho Alini butun qarindoshlari bilan asir oldi. Shu tariqa qoramoniy sulolasi hokimiyatdan jangsiz ag‘darildi. Yangi tayinlangan vali yumshoq siyosat olib bordi va tinch yo‘l bilan mamlakatni ushlab turishga harakat qildi.

XIX asr 40–50-yillarida Liviyaning ijtimoiy hayotida Senusiyya musulmon birodarlari ta’sirli rol o‘ynay boshladi. Bu birodarlik jamiyatiga jazoirlik **Muhammad ben Ali as-Senusiy** asos soladi. Muhammad as-Senusiyning qarashlarida islom mistitsizmi (so‘fiylik) bilan vahhobiylik belgilari uyg‘unlashib ketgan edi.

Jazoir davlatining kuchsizligi va O‘rtayer dengizining qulay Markaziy qismida joylashganligi XIX asrning boshlarida Yevropa davlatlarining e’tiborini jalb qilayotgan edi. G‘arb davlatlarining Jazoirga nisbatan siyosatlari faollashganligiga qaramasdan, 1830-yillargacha bu siyosat jiddiy natija bermadi. 1830-yili yozida

***Suvaysh kanalining tantanali ochilishi***



**Xarita bilan ishlashga doir topshiriq:** Shimoliy Afrikadagi arab davlatlarini xaritadan toping, ularning poytaxtlari, bir-biriga va O‘rtayer dengiziga nisbatan joylashuvini eslab qoling.



*Afrikaliklarning qullikka olib ketilishi*

Fransiya hukumati Jazoir hududiga ochiq harbiy intervensiyani boshladi. 1832-yili chet elliklarga qarshi kurashga **Abdulqodir** boshchilik qildi. U 30-yillarda fransuzlarga katta talafotlar yetkazdi.

Mohir tashkilotchi ham bo‘lgan yosh amir qabilalar hududidan tashkil topgan davlat barpo qildi. Bu davlat tezda fransuz harbiylari tomonidan ham tan olindi. 1834-yili fransuzlar bilan yarashish va erkin savdo to‘g‘risida bitim imzolandi. Tinchlikdan foydalangan va Misrdagi Muhammad Ali islohotlarining muvaffaqiyatlaridan ilhomlangan Abdulqodir o‘z davlatida markaziy hokimiyatni mustahkamlash, savdo va ishlab chiqarishni rivojlantirish yo‘lida bir qator tadbirlarni amalga oshirdi. Abdulqodir ham tinchlikdan o‘z davlatini mustahkamlash, ma’muriy, sud va soliq tizimini isloh qilishda foydalandi. 1839-yili fransuzlar Jazoir poytaxti Konstantin shahrini zabt etganlaridan so‘ng Abdulqodirga qarshi janglarni boshlab yubordi. Jazoirliklarning mardonavor qarshiliklariga qaramasdan, yaxshi qurollangan va janglarda toblangan mustamlakachi qo‘shinlar 1844-yili Jazoir shahrini egalladilar.

Abdulqodirning mag‘lubiyati Jazoirni zabt etish jarayonidagi burilish nuqtasi bo‘ldi va Fransiyaga jazoirliklar jamiyatini modernizatsiya qilish, yevropalashtirish imkonini berdi. **Fransiya Ikkinchi respublikasi yillarida** (1848–1851) Jazoir Fransiya milliy hududining tarkibiy qismi deb rasman e’lon qilindi.

Tunis va Marokash kuchli qarshilik ko‘rsatishiga qaramasdan, XIX asrning 70-yillaridan keyin ular ham Yevropa davlatlarining mustamlakasiga aylantirildi.

Markaziy va Janubiy Afrikada yangi hududlarning ochilishi munosabati bilan XIX asrga kelib, Yevropa davlatlarining Afrika bilan munosabatlarida yangi tendensiyalar paydo bo‘ldi. Xomashyo manbalari borgan sari ko‘proq ahamiyat kasb eta boshladi. Kapitalistik tuzumning genezisida muhim rol o‘ynagan qul savdosi bekor qilingandan so‘ng Yevropa davlatlarining harakatlari Afrika qit’asini bosib olish va mustamlakaga aylantirishga qaratildi. Shu maqsadda Afrikani muntazam tadqiq qilish XVIII asrning oxirlarida boshlandi. 1795-yili G‘arbiy Afrikaning ichkarisiga birinchi sayohat uyushtirildi. XIX asrning birinchi yarmida Senegal, Gambiya va Rio Grande hududlari ochildi. Inglizlar ekspeditsiyasi Tripoli orqali Sahroyi Kabirga o‘tib, Bornni hamda Chad ko‘li atrofini o‘rganib chiqdi. Bir necha yildan keyin Chad ko‘lidan Nigerga boradigan yo‘l kashf qilindi va Kano, Sokoto vohalari tadqiq etildi.

Shu davrda inglizlar Sharqiy Afrikaning Tanganika ko‘li qirg‘oqlariga yetib bordilar va Viktoriya ko‘lini ham kashf qilishdi. Ular yevropaliklar ichida birinchi bo‘lib Buganda hududiga ham kirib bordilar.

**Atamalar mazmuni:**

***Intervensiya*** (*lot. interventio – aralashuv*) – bir yoki bir necha davlatning boshqa bir davlat ichki ishlariga zo‘rlik bilan aralashuvi, uning hududiy yaxlitligi yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi qaratilgan harakatlari.

***Rasizm*** (*irqchilik*) – bu odamlarning irqlarga bo‘linishini va bir irqning boshqasidan (qolganlaridan) ustunligini tasdiqlovchi mafkura yoki qarashlar tizimi.

**Qul savdosi.** Yangi davrning eng sharmandali hodisalaridan biri qulchilik va qul savdosi edi. XVIII asrning oxirlari, Yevropa Ma'rifatchiligi davrida qulchilik va qul savdosiga qarshi norozilik harakatlari paydo bo'la boshladi. **Abolitsionistlar** (qulchilikka qarshilar) harakati faqat irqchilikni emas, qulchilikni oqlayotgan cherkovning ikkiyuzlamachiligini ham tanqid qildilar. Abolitsionizm g'oyalari G'arb jamiyatining ilg'or kishilari tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Ularning sa'y-harakatlari bilan qulchilikning g'ayriinsoniy tomonlari fosh qilinib, Yevropa va Amerika jamiyatida unga qarshi ijtimoiy fikr shakllanib bordi.


Qul savdosi yuridik jihatdan Buyuk Britaniyada – 1807-yili, AQSHda – 1808-yili, Fransiyada – 1848-yili taqiqlangan edi. Amalda qulchilik AQSHda 1861–1865-yillardagi Fuqarolar urushigacha saqlanib qoldi.

Yevropaliklar qul savdosi bilan XV asrning o'rtalaridan XIX asr 70-yillarigacha shug'ullandilar. Qul savdosi u bilan shug'ullanuvchilarga va savdogarlarga juda katta foyda keltirdi. Yevropa va Amerikadagi shaharlar – Bristol, Liverpul, Manchester, London, Nant, Ruan, Amsterdam, Nyu York, Yangi Orlean, Rio de Janeyro va boshqalarning jadal rivojlanishi va gullab-yashnashi qul savdosi bilan bog'liq edi.

Qariyb to'rt asr ichida yevropalik qulfurushlar Amerikaga 15–16 million qul olib kelishdi. Arablar ham musulmon mamlakatlariga taxminan shuncha qul yetkazib berdi. Atlantika okeani orqali amalga oshirilgan qul savdosi jarayonida 60–70 million kishi halok bo'ldi.

**Qul savdosining oqibatlari.** Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotlariga qaraganda, 1650-yildan 1850-yilgacha Afrika aholisining soni o'zgarmasdan turgan va 100 mln kishini tashkil qilgan. Tug'ilishning an'anaviy yuqoriligiga qaramasdan, butun boshli qit'a aholisining 200 yil davomida o'smasdan bir me'yorda turishi tarixda boshqa uchramaydigan hol. Qul savdosi Afrika aholisining tabiiy rivojini to'xtatibgina qolmasdan, o'ziga xos ravishda rivojlanayotgan afrikaliklar jamiyatini g'ayriodatiy taraqqiyot yo'liga ham burib yubordi.

Bulardan tashqari, qul savdosining iqtisodiy va siyosiy oqibatlari ham mavjud edi. U Afrikaning an'anaviy hunarmandchilik sohalari – to'qimachilik, zargarlik




**Badiiy-tarixiy asar bilan ishlashga doir topshiriq:** *Piter Abrahamsning mavzuga oid "Qabrdagi gulchambar" romanini o'qing va taassurotlaringizni esse shaklida daftaringizga yozing.*

**Esga oling:** 1800-yildan 1870-yilgacha Afrikaga 70 dan ortiq yirik geografik ekspeditsiyalar yuborildi. Ushbu ekspeditsiyalarning natijalaridan kim va qanday foydalandi?

kabilarning rivojlanishiga to‘sqinlik qildi, Afrikada davlatchilik rivojining tabiiy oqimini buzib yubordi, Benin, Kongo singari davlatlarning tarqalib ketishiga olib keldi, Vida, Ardra singari yangi paydo bo‘lgan davlatlar qul savdosida vositachilik qilishdek axloqsiz yo‘l bilan boyib bordi. Qul savdosi Afrikaning sillasini quritish evaziga Yevropa va Amerika mamlakatlarining iqtisodiy gullab-yashnashiga xizmat qildi.

Qul savdosining Afrika uchun eng og‘ir oqibatlaridan biri psixologik holat bo‘ldi: inson hayoti qadrsizlandi, quldorlar va qullarning degradatsiyasi yuz berdi. Qulchilikning eng g‘ayriinsoniy ko‘rinishi – rasizm (irqchilik) mafkurasi shakllandi.

To‘rt asr ichida ko‘pchilikning, avvalo, yevropaliklarning tasavvurida qul deganda afrikalik, ya’ni qora tanli odam aks etadigan bo‘lib qoldi.

Asrlar davomida yashagan kelajak avlod Gana, Songay, Benin, Monomotapa kabi o‘ziga xos sivilizatsiyalar haqida biror ma’lumotga ega ham bo‘lmasdan, Afrikani faqat qul savdosi va qul tushunchalari orqaligina tasavvur qildi.

Qul savdosi Afrika xalqlarining tarixi yo‘qligi, yuqori aqliy qobiliyatga ega emasligi to‘g‘risidagi g‘ayriilmiy konsepsiyalarni keltirib chiqardi. Yevropaliklar Afrikani zabt etish va mustamlakalarga bo‘lib olishdagi o‘zlarining g‘ayriinsoniy va axloqsiz harakatlarini oqlash uchun bu konsepsiyalardan ustalik bilan foydalandilar.

***Usmoniylar imperiyasining inqirozi unga qarashli bo‘lgan juda katta hudud, jumladan, Afrikadagi arab mamlakatlari uchun imperialistik davlatlar o‘rtasida kurashni qizitib yubordi. Muhammad Ali, Abdulqodir singari mahalliy yo‘lboshchilar tomonidan olib borilgan islohotchilik va yevropacha qadriyatlarning kirib kelishi bu hududdagi xalqlarning milliy uyg‘onish jarayonini tezlashtirdi.***

***Bu davrda Yevropa davlatlari Markaziy va Janubiy Afrikani ochish va bo‘lib olish jarayonini davom ettirdilar. O‘z vatani va mustaqilligini himoya qilgan yuz minglab afrikaliklar mustamlakachilar bilan bo‘lgan tengsiz janglarda halok bo‘ldilar. Mustamlakachilar esa qit’aning tabiiy boyliklarini talash, aholisini shafqatsiz ekspluatatsiya qilish natijasida misli ko‘rilmagan boylik orttirib, Yevropani yuksaltirishga hissa qo‘shdilar.***

**Savol va topshiriqlar**

1. Afrika qit’asi xalqlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda boshqa qit’a xalqlaridan orqada qolib ketganligi sabablari haqidagi o‘z mulohazalaringizni daftaringizga qayd eting.

2. Afrika qay tariqa mustamlakaga aylantirildi?

3. Afrika xalqlarining milliy-ozodlik harakatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?

4. Qul savdosi bilan shug‘ullanish yevropalik savdogarlarga qanday foyda keltirar edi?

5. Qul savdosi qanday oqibatlarga olib keldi? Rasizm (irqchilik) deganda nimani tushunasiz?

**Yodda tuting:**
Efiopiya, Misr, Tunis, Marokash, Sudan va Madagaskar kabi davlatlarda feodal monarxiyalar qaror topgan.
Gana va Mali davlatlari G‘arbiy Afrikadagi eng qadimgi davlatlar hisoblanadi.
Afrikada ikki davlat – Liberiya va Efiopiyagina o‘z mustaqilligini saqlab qolgan.
1847-yili Liberiya ozod davlati tuzildi.

**Ijodiy ish topshirig‘i:**
Mustaqil tarzda, internet materiallaridan foydalanib:
a) Afrikaning janubidagi Kap mustamlakasi;
b) Monroviya (keyinchalik Liberiya) to‘g‘risida;
d) Efiopiyaning inglizlarga qarshi kurashi haqida qisqa ma’ruza tayyorlang.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

**Ergashev Shuhrat, Bobomatov To‘lqinjon**

# JAHON TARIXI

# 9-sinf

Birinchi nashr

Umumta’lim maktablarining 9-sinf o‘quvchilari uchun darslik

*O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan nashrga tavsiya etilgan*

| | |
|---|---|
| Muharrir | *D. Abduraimova* |
| Badiiy muharrir | *M. Ismoilova* |
| Texnik muharrir | *A. Boboqulov* |
| Musahhih | *M. Ismoilova* |
| Rassom | *U. Sulaymonov* |
| Dizayner | *D. Mulla-Axunov* |
| Kompyuterda sahifalovchi | *R. Xudayberganov* |

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

## Darslikdan foydalanish holatini ko‘rsatuvchi jadval

| № | O‘quvchining ismi va familiyasi | O‘quv yili | Darslikning olingandagi holati | Sinf rahbari-ning imzosi | Darslikning topshirilgan-dagi holati | Sinf rahbarining imzosi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | | | | | | |
| 2. | | | | | | |
| 3. | | | | | | |
| 4. | | | | | | |
| 5. | | | | | | |
| 6. | | | | | | |

## Darslik o‘quvchiga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

| | |
|---|---|
| Yangi | Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati. |
| Yaxshi | Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari bor, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q. |
| Qoniqarli | Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan. |
| Qoniqarsiz | Muqova yirtilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi. |